ISSN 2181-3035
30.03.2023. №7



ILM-FAN MUAMMOLARI YOSH TADQIQOTCHILAR TALQINIDA

RESPUBLIKA ILMIY KONFERENSIYASI

KITOB
ILM
TADQIQOT
TAHLIL
FAN
TA'LIM
YANGI O'ZBEKISTON
INNOVATSIYA
MAKTAB
BUYUK KELAJAK
UCHINCHI RENESSANS

doi
zenodo
CYBERLENINKA
OPEN ACCESS

@TALQINVATADQIQOTLAR

Google Scholar

KONFERENSIYA QATNASHCHILARI:

- TALABALAR
- MAGISTRANTLAR
- DOKTARANTLAR
- YOSH OLIMLAR
- YOSH O'QITUVCHILAR

Aniq fanlar
Tabiiy fanlar
Tibbiyot fanlari
Texnika fanlari
Ijtimoiy-gumanitar fanlar
San'at va madaniyat fanlari
Jismoniy tarbiya va sport
Iqtisod fanlari
Filologiya fanlari
Pedagogika fanlari
Psixologiya fanlari

WWW.TALQINVATADQIQOTLAR.UZ
+99891-152-93-14

Ushbu ilmiy-onlayn konferensiya “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to’g’risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ilm-fan va ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan tegishli qarorlarida ko‘zda tutilgan vazifalar ijrosini ta’minlash, talabalar, magistrantlar, doktarantlar va yosh olimlarning ilmiy tadqiqot natijalarini keng yoritish maqsadida “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali tahririyati (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiyalarni rivojlantirish agentligining 1540-sonli Guvohnoma, ISSN 2181-3035, talqinvatadqiqotlar.uz veb-sayti) tomonidan har oyda bir marota tashkil etib boriladi.

“Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida”

mavzusidagi 7-sonli respublika ilmiy konferensiyasi

MATERIALLARI TO‘PLAMI

30-mart, 2023-yil

1-QISM

“Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi respublika ilmiy konferensiyasi tahrir kengashi:

Abdukarimov Jamoliddin Ahmadaliyevich
Xo‘jand davlat universiteti dotsenti (Tojikiston)
Masharipova Gularam Kamilovna
Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich
Namangan davlat universiteti, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Zokirov Sanjar Ikromjon o’g’li
Farg’ona politexnika institutining “Intellektual muhandiislik tizimlari” kafedrasi katta o‘qituvchisi, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich
Farg‘ona davlat universiteti mevachilik va sabzavotchilik kafedrasi mudiri q.x.f.f.d (PhD)
Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li
O‘z FA Tarix instituti
Ubaydullayev Farxod Baxtiyarullayevich
Toshkent davlat agrar universiteti "O‘rmonchilik va landshaft dizayn” kafedrasi dotsenti
Umarova Maxliyo Yunusovna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti lingvistika va ingliz adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori
Raximova Zuxraxon Maxmudovna
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Baymenova Kamshat Saparbayevna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Bazarov Otabek Odilovich
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD
G‘ulomova Nargiza Sa’dullayevna
Navoiy VXTXQTMOHM Tillarni o‘qitish metodikasi katta o‘qituvchisi
Rahimova Maftuna Odilovna
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD
Mirzaahmedova Kamola Toxirovna
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti farmakologiya, fiziologiya kafedrasi dotsenti
Djumaniyozova Enajon Kutimovna
Toshkent arxitektura qurilish instituti xorijiy tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Urazmetova Shoira Azatbayevna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Urganch filiali o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Jo‘rayeva Dilnoza Shokirjonovna
Termiz davlat universiteti algebra va geometriya kafedrasi o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI AVTOTRANSPORT VOSITALARI EXPORT HAJMINI OSHIRISH

Ravshanbek Adhamov Ulug’bek o’g’li

Baxodir Komilovich Saliev

Toshkent Moliya Instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O’zbekiston Respublikasidagi avtotransport sohasidagi export hajimini oshirish muhokama qilinadi.Ushbu maqolada shuningdek avtotransport sohasidagi export hajimini oshirish bo’yicha qanday usullar qo’llanishi va reklamalarning ahamiyati haqida ham muhokama qilamiz.Avtotransport sohasidagi export miqdorini oshirish uchun turli xil ko’rinishdagi reklamalar foyda beradi.Ushbu tur xil usullardagi reklamalardan foydalanish export hajimini oshiradi va shuningdek avtotransportga oid turli xil usullardagi reklamalardan foydalanish keltirib o’tilgan.

Kalit so’zlar: Target, Reklama, Export, Youtube, Instagramm, Telegramm, Facebook, Avtotransport

Ma’lumki O’zbekiston Respublikasida Mashinalarni ishlab chiqarishni dastlabki bosqichi 1992-yilda Janubiy Koreaning DaewooMotors kompaniyasi bilan tuzilgan manfatli shartnomadan boshlangan, o'sha davrlarda O‘zbekistonning Avtoqishxo‘jamash va Daewoo kompaniyasi 50 % ga 50 % ulushli shartnoma imzolangan va manashu shartnoma Avtomobilsozlikda juda katta burilish yasadi. 1993-yilda UzDaewooAvto kompaniyasi davlat ro‘yhatiga olindi va Andijon viloyatining Asaka shahrida korxona qurish ishlari boshlandi va uning umumiy summasi 658 mln dollarni tashkil etgan edi[1]. Shu davrdan boshlab Respublikada Avtotranport sohasidagi savdo hajimi asta sekin yuqorilab bordi, hozirgi kunga kelib Mamalakatimizda keng qamrovli tadbirkorlik sohasiga oid islohotlar o’tkazilayotgan bir davrda O’zbekiston respublikasidagi avtotransport hajmini oshirish bo’yicha

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_avtomobilsozlik_sanoati ma’lumotlaridan olindi

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI PRIZIDENTINING 2022-yil 28-yanvar sanasidagi PF-60 sonli farmoninig “2022-2026-YILLARGA MO’JALLANGAN YANGI O’ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI” nomli 1-ilovasining 28-maqsadida keltirilganidek “Avtotransport vositalari exportini 3 barobarga oshirish va 1 milliard AQSH dollariga yetkazish” bo’yicha maqsad belgilangan. Shu munosabat bilan O’zbekiston respublikasidagi Avtotrasnport sohasida export hajimi oshirish O’zbekiston respublikasidagi Avtotransport sohasidagi savdoni rivojlantirishga hissa qo’shadi.

Uzavtojobs.uz saytidagi ma’lumotlarga qaraganda “ O’zbekiston Respublikasi Mustaqillik davrida O’zbekiston Respublikasi birinchi Prizidenti Islom Abdug’aniyevich Karimovning tashabbusi va boshchiligida tashkil etilgan “O’zavtosanoat” Aksiyadorlik Kompaniyasi O’zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining bunyodkorlik salohiyatining ramziga aylandi. Nufuzli kompaniyalar bilan teng va o’zaro manfaatli munosabatlarni o’rnatishga asoslangan ilgari odimlash strategiyasi raqobatdosh mahsulotlarni dunyo standartlari darajasida ishlab chiqarishga qaratilgan.

2004-yilda “O’zavtosanoat” Assosatsiyasi ishlab chiqarish boshqaruvi samaradorligini oshirish maqsadida aktsiyadorlik kompaniyaga aylantirildi.

Hozirgi kunda u o’nlab katta va o’rta korxonalar bilan bir qatorda Korea respublikasi, Italiya, Germaniya, AQSH kabi xorijiy mamlakatlar kapitali bilan birgalikda tashkil etilgan kompaniyalarni birlashtiradi”[2]

Shuni ta’kidlash joizki O’zbekiston republikasidagi Avtotransport exportining hajimini oshirish uchun Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan Avtotransportlarni ijtimoiy tarmoqlardagi reklamasini kuchaytirish hamda rivojlantirish juda muhum masala xisoblanadi, sababi O’zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan avtotransportlarini online ya’ni masofadan turib harid qilishlari uchun bu usul juda ham qulay ravishda mos keladi shu bilan birga boshqa mamlakatlardagi korxonalarning transport exportini oshirish uchun tashkil qilinayotgan reklamalar O’zbekiston Respublikasidagi transport sohasi reklamalari bilan raqobatdosh bo’lishi


[2] https://uzautojobs.uz/cms/about-us

kerak, sababi bunday ko’rinishdagi raqobatlar ham reklama qilish saviyasini oshiradi ham transport savdosini rivojlantiradi. Buning uchun avvalo to’gri strategiya talaba qilandi. Shu bilan birga reklama olamida hozirgi kunda matnli reklamalardan ko’ra ko’proq video reklamalar rivojlanib bormoqda.

Reelnreel.com saytining ma’lumotlariga qaraganda “Agarda bironbir shaxs transport xizmatlarini sotish yo'llarini izlayotgan bo'lsa, videodan foydalanish yaxshi tanlov bo'lishi mumkin. Biz ko'plab texnologik yutuqlarga ega onlayn dunyoda yashayotganimiz sababli, bugungi kunda videolar matndan ko'ra ko'proq va mashhur bo'lib qoldi.[3]


Shu bilan birga shuni ta’kidlash joizki avtomobillar reklamasini ijtimoiy tarmoqlarga joylash orqali ko’plab insonlar bu reklamalarni offline ko’rishgandan ko’ra ancha sezilarli darajada tomosha qilishadi va ularning sotib olish darajasi ham ko’payadi. Shu jumladan You tube ijtimoiy tarmog’ida reklama qilinayotgan avtomobillarning ko’rish darajasi ancha yuqori masalan:

DailyDrivenExotics (DDE) Youtube ijitmoiy tarmog’ida 909 714 989ta ko’rishlar soni mavjud



[4]

Engineering Explained Youtube ijtimoiy tarmog;ida 631 638 118 ta



[3] https://reelnreel.com/video-marketing-ideas-for-transportation/#:~:text=You%20can%20directly%20promote%20your,the%20best%20ways%20to%20advertise.
[4] https://www.youtube.com/@DailyDrivenExotics/about

Ko’rishlar berilgan[5]

O’zbekiston Respublikasida tayyorlanayotgan transport visitalarining ham chet el mamlakatlari ko’proq tomosha qilishlari lozim,shundagina transport sohasidagi exportning miqdori yuqori pog’onalarga ko’tarilishi mumkin.

Ho’sh buning uchun nima qilish kerak?

1.O’zbekiston Respublikasida tayyorlanayotgan avtotransport vositlarini ishlab chiqilayotgan jarayonlarini tasvirga, sur’atga olish.

2.Uzavtomotors kompaniyasidagi xodimlarni ishlash jarayonlarini hamda avtomobillarni tayyorlash jarayonlari bilan batafsil tanishtirib chiqishni yuqori sifat hamda a’lo darajada tasvirga olish.

3.Tayyorlangan avtomobilning funksiyalarini hamda vazifalarini alohida video shaklda tushuntirish (tezligi,ot kuchi va boshqalar).

4.Tayyorlangan reklamalarni ijtimoiy tarmoqlar orqali ya’ni Instagramm, Facebook, Google, Telegram ijtimoiy tarmoqlari orqali reklamalarni hamda e’lonlarni joylashtirish hamda sotish ko’zda tutilgan davlatlarga target (mo’ljal qilish) orqali yo’naltirish.

Xulosa:

Ushbu maqolada biz O’zbekiston respublikasi va yevropa mamlakatlaridagi avtotransport sohasidagi reklamalarni o’rganib chiqdik, shuningdek biz qanday qilib avtotransport sohasidagi reklamalalarni hamda tayyorlagan video shaklidagi reklamalarni qanday qilib ijtimoiy tarmoqlar orqali target qilishni o’rgandik. Avtotransport sohasidagi reklamalar orqali ushbu O’zbekiston Respublikasidagi avtotransport sohasidagi ko’plab savdolarni amalga oshirish mumkin. Bu maqola yordamida biz avtotransport sohasidagi export hajimini oshrishni o’rgandik.

Ushbu keltirib o’tilgan jarayonlarni amalga oshirishdan oldin albatta maxsus marketing jamoa tuzub olish zarur bo’ladi hamda jamoa tuzulganidan so’ng kunlik,haftalik,oylik hamda yillik rejalar hamda maqsadlar asosida ish olib borish maqsadga muvofiq bo’ladi.

[5] https://www.youtube.com/@EngineeringExplained/about

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_avtomobilsozlik_sanoati

2. https://uzautojobs.uz/cms/about-us

3.https://reelnreel.com/video-marketing-ideas-for-transportation/#:~:text=You%20can%20directly%20promote%20your,the%20best%20ways%20to%20advertise.

4.https://www.youtube.com/@DailyDrivenExotics/about

5.https://www.youtube.com/@EngineeringExplained/about

PROSPECT OF AUTUMN WHEAT WORKING WITH VARIETIES-PERIOD REQUIREMENT

Kodirov Rakhmatzhan Namanovich
Andijan Institute of Agriculture and agrotechnologies
Mukhammedov Kholiknazar Abdumutalipovich
Ergasheva Odinahan Shavkatjan's daughter
Student of the Institute of agricultural and agrotechnologies of andzhan

Increasing grain production in our country and increasing the yield of irrigated areas are directly related to the planting of wheat varieties suitable for certain soil and climatic conditions. In this respect, it is relevant to carry out research on improving modern scientifically based irrigation procedures for water and resources, the reclamation of khamda lands. In our republic, special attention is paid to obtaining a stable abundant crop with high profitability, ensuring food security, timely implementation of agrotechnical measures by developing the period of planting autumn wheat, the procedure for irrigation and the application and norms of ore fertilizers in the periods of its development, based on the climatic conditions of each soil in the following years. [1,2]

Research on the cultivation of environmentally friendly, abundant and high-quality products from agricultural crops, the cultivation of types of crops that preserve the soil fertility of recurrent crops in the fields vacated by autumn bushy grain crops, obtaining additional grain crops are relevant. The main way to increase the yield of autumn wheat is to selectively plant and develop the technology of their cultivation in accordance with the soil-climatic conditions of the region in which it is planted, resistant to unfavorable factors of the external environment, with good grain quality. While one variety exhibits characteristics of productivity in a given region, tolerance to factors of the external environment, in another region it may be the opposite or these characteristics may not come to a full surface. When evaluating wheat varieties, it is important to determine their productivity indicators. Productivity

indicators of wheat include such indicators as the level of productive accumulation, the height of the stem, the length of the spike, the number of grains in one spike and the weight of 1000 grains. In the experiment, the productivity indicators of wheat varieties were determined before harvesting [1,3].

Table 1.

Productivity indicators of wheat varieties

Varieties	1m2 field productive stems, pieces	Height of the stem, CM	the height of the stem,	CM the length of the spike	PCs 1000 grain weight, gr
“Durdona” (Masterpiece)	481	92,5	8,6	41,2	41,5
“Asr” (Century)	501	102,6	9,5	42,3	42,3

As can be seen from the data of the table above, 501 productive stems were formed on the 1m2 area of the "Masterpiece" and "asr" variety in terms of the number of productive stems formed on a square area of one meter before harvesting.

In terms of the height of the STEM, however, the "asr" variety became superior to other varieties being tested, that is, the height of the stem of the "asr" variety was 102.6 CM. The length of the spike turned out to be 8.6 cm in the "Masterpiece" variety 9.5 cm. The spike turned out to be high compared to other varieties. The amount of grains formed in one spike amounted to 41.5 pieces in the "Durdona" variety, and 42.3 pieces in the "asr" variety. The experiment also determined the weight of 1,000 grains by options. This figure was 41.8 gr in the" Chillaki "variety, 42.4 gr in the" ASR "variety and 43.2 GR in the" Babur " variety. In terms of productivity indicators of the varieties tested in the experiment, The "Beaver" variety showed its superiority over the "Chillaki" and "asr" varieties [3].

Table 2

Yield of wheat varieties (s/ga)

Varieties	Returns				Average
“Durdona” (Masterpiece)	67,9	68,3	66,4	65,7	67,1
“Asr” (Century)	73,8	74,9	71,2	70,4	72,6

In the experiment, a wheat yield of 63.9 s/Ha was obtained from the "Durdona" variety, and 72.6 s/Ha from the "asr" variety of the R variety, 67.1 s/Ha.

Based on the above, we recommend planting the autumn wheat variety "asr", but considering that it ripens 12-14 days earlier compared to the varieties "Durdona", it will be better to plant this variety as well. Because, when the crop of fields planted with the" asr " variety is harvested at an early date, and repeated crops are planted in its place, there is an opportunity to cook their crop freely as well [4].

Autumn wheat can be planted with corn, Moss, soybeans, beans or evening potatoes on the land vacated after the harvest of the" century " Variety has been harvested. In this case, the opportunity arises to get a harvest from one field twice a year.

Literature

1.Siddiqov R.,Raximov M. Fosforli o'g'itlarni qo'llash usullarining kuzgi bug'doy don xosiliga ta'siri //O'zbekiston qishloq xo'jaligi.-2018. №11-37 b..

2.Kadirov R.N. Takroriy soyadan keyin ekilgan istiqbolli Durdona, asr navlarining suv balansi //O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali.-2012. №12.-17 b.

3.Davletyarov M.A., Achilov U.A. Mineral o'g'itlarning kuzgi bug'doy hosiliga ta'siri / / Jurnal Vestnik selxoznauki-2002-P.50-51.

OMMAVIY TARTIBSIZLIKLARDA MILLIY GVARDIYA HARBIY XIZMATCHILARINING MUZOKARA OLIB BORISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH ASOSIY JIHATLARI

Aburahmonov Azizbek Baxtiyor o'g'li
Jamoat xavfsizligi universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqola milliy gvardiya harbiy xizmatchilarida ommaviy tartibsizlik holatlarida muzokara olib borish ko`nikmasini rivojlantirish asosiy jihatlari muhokama qilishga bag`ishlanadi. Bunda muzokaraning mohiyati, uning metodlari va o`ziga xosligiga urg`u beriladi.

Kalit so‘zlar: ommaviy tartibsizlik, muzokara,muloqot, Milliy gvardiya, metod.

KIRISH

Yuzaga kelgan yoki kelishi mumkin bo`lgan ommaviy tartibsizliklar o`ta jiddiy jarayon hisoblanib, Milliy hvardiya harbiy xizmatchilari bunday holatlarga doimiy tayyor bo`lishi talab etiladi. Bunda avvalo psixologik holat inobatga olinadi. Tartibsizlikni yuzaga keltirgan shaxslar bilan olib boriladigan muzokaralar yuqori darajali psixologik va emotsional tayyorgarlik talab etadi. Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi muloqotga, ya`ni kommunikatsiya jarayoniga kirishar ekan, bir qator omillarni inobatga olmog`i lozim. Tadqiqotchilar kommunikatsiya muammolariga katta ahamiyat berayotganliklariga qaramay, bo‘lg‘usi mutaxassislarning muloqot madaniyatini rivojlantirish muammolarining o‘ziga xosliklarini chuquro‘rganish, turli olimlarning bu yo‘nalishga bo‘lgan qarashlarini yanada batafasilroq o‘rganish talab etiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

L.A.Petrovskaya muloqot madaniyatini rivojlantirish muammosini bir butun yaxlit shaxsiy ta’limot sifatida ta’riflaydi va shaxsning rivojlanishi muloqot madaniyatining sub’ekti sifatida ta’minlangan bo‘lib, bunda ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy, kommunikativfunksiyalar integratsiyalashgan deb urg‘u beradi. Muallifning

fikricha, bundan tashqari, mazkur fenomen ma’naviy-axloqiy, estetik va birinchi navbatda, shaxsning ma’naviy madaniyati bilan chambarchas bog‘liqlikda shakllanadi. Bu integrativ shaxsiy ta’lim bo‘lib, o‘z ichiga muloqot me’yorlari etiketini, insonning kommunikativ xususiyatlari va ko‘nikmalarining axloqiy yo‘nalishga asoslangan tizimini o‘z ichiga oladi va u uchun shaxsiy mazmunga ega bo‘lib, shaxsning boshqa odamlar bilan kommunikatsiyasining muomala va yurish-turish sohasini tartibga solidi [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Yuqorida qayd etilgan pozitsiyani hisobga olgan holda ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak [3]:

- muloqotning mohiyati va o‘zaro hamkorlik, tushunish va o‘zaro bir-birini tushunish, jamoa shakllanishining qonunlari va undagi o‘zaro munosabatlar, hamkorlik faoliyati va uni tartibga solish mexanizmlari borasidagi zamonaviy psixologiyaning nazariy qoidalari va boshqalar haqidagi bilimlarga ega bo‘lish;
- real sodir bo‘layotgan ijtimoiy-psixologik jarayonlarni guruh a’zolari tomonidan anglanishi, hamda bu jarayonlarda o‘zining ishtirokini baholash;
- olingan bilimlar asosida bu jarayonlarni ongli ravishda tartibga solish, boshqarishda ishtirok etish;
- shakllangan bilim, malakalarni mukammallashtirish va olingan bilimlarni amalda sinab ko‘rish.

T.S.Batishevning fikriga ko‘ra, tartibsizliklar davrida muzokara va muloqot madaniyatini rivojlantirish, quyida ajratilgan zaruriy shart-sharoitlar majmuasining mavjudligiga bog‘liq: [4].

- ahamiyatli vaziyatlar sifatidagi tashqi psixologik sharoitlar, ya’ni muloqot madaniyatini yuqori darajaga yetkazish bilan bog‘liq va sub’ekt hamda uning faoliyatiga nisbatan ob’ektiv xususiyatga ega bo‘lgan psixologik sharoitlar;
- sub’ekt va uning faoliyatiga nisbatan sub’ektiv xususiyatga ega, rivojlanishni harakatga keltiruvchi sifatida ta’riflash mumkin bo‘lgan, ichki psixologik omillar va mexanizmlar.

XULOSA VA MUNOZARA

Demak, bo`lg`usi Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarning talablar tizimi doirasida, muzokara va muloqot madaniyatini samarali shakllanishini va rivojlanishini ta’minlovchi malaka, ko‘nikmalarni quyidagicha ajaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- bo‘lg‘usi mutaxassisning kasbiy muloqot amaliyotini egallash maqsadida kommunikativ ta’lim va tayyorgarlikni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan yuqori darajadagi psixologik tayyorgarligi;
- tayyorgarlik, agar ishtirokchilar o‘zlarining haqiqatda mavjud bo‘lgan muammolarini hal eta turib, muloqotning yangi metod va usullarini o‘zlashtirishsa, unda ijobiy natijaga ega bo‘lishadi. Ta’lim olish bilan tadqiqot ishini uyg‘unlashtirish yangi materiallarni o‘zlashtirish sifatini oshiradi va qo‘shimcha motivatsiyani yo‘lga qo‘yadi;
- tayyorgarlikni bosqichma-bosqich tadbiq etish texnologiyalarga mos ravishda ketma-ketlikda o‘zlashtirishni nazarda tutib, uning samaradorligiga xizmat qiladi;
- olingan kommunikativ bilimlarni faollashtirish, shaxs yoki guruh uchun professionallikka erishishning muhimligi, insonning kommunikativ faoliyatini optimallashtiradi (muvofiqlashtiradi), samarali tayyorgarlikka erishtiradi.

Adabiyotlar ro`yxati:

1.Jamoat xavfsizligini ta’minlash asoslari o‘quv qo‘llanma//Toshkent-2021.169-bet

2.Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. Toshkent, ToshDPU, 2012.

3.Nemov R. S. Psixologiya. Kn. 1. – M., 2013.

4.G‘oziev E. Muomala psixologiyasi. Toshkent, 2011.

5.G‘oziev E. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2012.

LOGISTIKA ORQALI MAHSULOTLARNI YETKAZIB BERISH TIZIMINI BOSHQARISH

Axunov Javlon Abdujalilovich

Tojiboyev Sherali Imomali o'g'li

Farg‘ona politexnika instituti assistentlari

Annotatsiya: Transport turini tanlash masalasi logistika zahiralarining qulay darajasini tashkil qilish va ushlab turish, qadoqlash va o‘rash turini tanlash va boshqa shu kabi masalalar bilan bog‘liq holda yechiladi.

Muayyan bir mahsulotni tashish uchun transport turini tanlashda har xil transport turlarining xarakterli xususiyati haqidagi axborot asos bo‘lib xizmat qiladi. Logistika nuqtai nazaridan avtomobil, temir yo‘l, suv, havo transportining kamchilik va afzalliklarini ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: logistika, logistika xomashyo, zahiralar, yuk oqimlarining harakati, ombor, materiallar, yuk oqim, mahsulot, marketing, iste’molchi.

Logistikaning rivojlanishi transport siyosatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Firmalar xo‘jalik faoliyatida ishlab chiqarish va transport ishlarining sinxronizasiyasini ta’minlash Konban (aniq muddatga) tizimlarida keng qo‘llaniladi. Uni transportda qo‘llashning mohiyati shundaki, agar asosiy ishlab chiqarishda qat’iy jadval bo‘yicha texnologiya, ya’ni mavjud materiallar, xomashyo, yarim fabrikat va komplektlash buyumlari zahiralari hajmi haqidagi axborotlar qo‘llansa, unda logistika tashkilotlari mos ravishda qisqa oraliqlarda (Konban tizimi) va qat’iy belgilangan vaqtda (aniq muddatda) amalga oshiriladi. Bu texnologiya bo‘yicha yuklarning hajmi va berilishi aniq vaqtda bo‘ladi. Masalan, avtomobil yig‘ish zavodining asosiy konveyeridan avtomobil omborga emas, balki vagonga tushadi va ayni vaqtda EHM tomonidan boshqariladigan yuklash qurilmasi, avtomashinalarning navbatdagi to‘dasini yuklash uchun keying vagonni qo‘yadi. Bu texnologiya qimmat turadigan ombor xo‘jaligisiz ishlashga imkon beradi va kapital aylanishini tezlashtiradi. Natijada materiallar

zahirasi normativi qisqaradi. Masalan, Yaponiyada ularga 2 va 5 sutkalik ehtiyoj bo‘lsa, (Nissan) avtomobil yig‘ish zavodida komplektlash buyumlari zahirasi faqat 2 soatga mo‘ljallangan (aniq muddatga) tizimida ishlashga o‘tishi tovarlar realizatsiyasiga ketadigan vaqtni 2 martaga qisqartiradi. 70-80 yillardan boshlab, transport va ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatish organik birikib, yagona ishlab chiqarish transport-taqsimot tizimiga aylandi. Transportga katta tizim, ya’ni logistik zanjirning tarkibiy qismi, deb yangicha yondashish, uni har xil sohalarga qo‘yib chiqish ehtiyojini keltirib chiqardi. Bunda transport material texnik ta’minot tizimida ishlab chiqaruvchidan tortib, so‘nggi iste’mol qiluvchigacha bo‘lgan oraliqda qaraladi. Avtomobil transportini erkinlashtirish va aniq muddat tizimi uning faoliyat doirasi kengayishiga olib keldi. Avtomobil transportida odatda qisqa va o‘rtacha uzoqlikda tashiladigan bo‘lsa, AQSH da 1600 km gacha bo‘lgan masofada komplektlash buyumlari va tayyor mahsulot tashishda undan foydalanilmoqda. G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida ham nafaqat ichki, balki xalqaro miqyosda avtomobil transporti salmog‘i ko‘tarildi. Aniq muddat tizimida temir yo‘l transporti avtomobil transportiga nisbatan unchalik qo‘l kelmaydi. 80-yillarning oxiriga kelib, AQSH da bu logistika tizimida ishlovchi ishlab chiqarish firmalarining 49 %, temir yo‘l xizmatidan foydalanish darajasini tushirdi. Bir qancha firmalar ular xizmati darajasini saqladi va faqat 2 % firmalar undan foydalanishni ko‘paytirdi. Lekin, bu yangi tizimda temir yo‘l transportidan foydalanish kamayishi kerak, degani emas. Temir yo‘l transportining konteyner va poyezdlarning harakati tezligi juda ham foydali. Temir yo‘l transportida yuk yetkazishni tezlashtirish maqsadida konteyner ta’minotini kengaytirish mumkin.

AQSH iqtisodiyotining turli tarmoqlarida faoliyat ko‘rsatadigan 350ta korxonani tadqiq qilishdan shu narsa aniqlandiki, ularning 70 %i yuklarni tashish bo‘yicha hisob-kitobni rasmiylashtirish va amalga oshirish vazifalarini transport firmalariga bergan. Taxminan 20-22 % korxonalar yuk tashish bo‘yicha bahoni belgilash, ombor operatsiyalari va tovar yetkazishning qulay marshrutini aniqlash kabilar bilan bog‘liq ishlardan transport korxonalari hisobiga o‘tkazgan.

Transport firmalari amaliyoti ko‘rsatmoqdaki, qo‘shimcha xizmat ko‘rsatish yaxshi natijalar bermoqda. O‘z vazifalarining ba’zilarini transport firmalariga bergan, ishlab chiqaruvchi firmalar ham endilikda asosiy faoliyati samaradorligini ta’minlashga e’tibor bermoqda.

Transport korxonasining kommunikatsiya doirasidagi siyosatiga taklif qilinayotgan xizmatlar haqidagi axborotni mijozlarga yetkazish va xaridorlarga imkon boricha katta hajmda xizmatlardan foydalanishda ta’sir o‘tkazish maqsadlari kiradi. Bu siyosatning ikkinchi maqsadi transport va yuk jo‘natuvchi firmalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqada hisoblash texnikasini qo‘llash va ma’lumotlarni elektron almashish asosida rivojlantirish va mukammallashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdukhalilovich, I. I., & Abdujalilovich, J. A. (2020). Description Of Vehicle Operating Conditions And Their Impact On The Technical Condition Of Vehicles. *The American Journal of Applied sciences*, *2*(10), 37-40.

2. Abdujalilovich, A. J. (2022). Analysis of road accidents involving children that occurred in fergana region. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, *3*(09), 57-62.

3. Axunov, J. A. (2022). Analysis of young pedestrian speed. *Academicia Globe: Inderscience Research*, *3*(4), 1-3.

4. Abdujalilovich, A. J. (2022). Analysis of the speed of children of the 46th kindergarten on margilanskaya street. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, *5*, 9-11.

5. Axunov, J. A. (2022). Ta’lim muassasalari joylashgan ko ‘chalarda bolalarning harakat miqdorini o ‘zgarishi. *Academic research in educational sciences*, *3*(4), 525-529.

6. Axunov, J. A. (2021). Piyodani urib yuborish bilan bog’liq ythlarni tadqiq qilishni takomillashtirish. *Academic research in educational sciences*, *2*(11), 1020-1026.

7. Choriyev, X., & Axunov, J. (2022). Шаҳар йўловчи автомобиль транспорти тизимининг хизмат кўрсатиш сифатини таъминлаш жараёнининг функционал моделини ишлаб чиқиш (тошшаҳартрансхизмат аж таркибидаги автобус йўналишлари мисолида). *Journal of Integrated Education and Research*, *1*(1), 440-453.

THE ROLE OF MARKETING ACTIVITIES IN INCREASING THE POTENTIAL OF TEXTILE ENTERPRISES

G’aybullayev Sarvar O’ktam o’g’li
Teacher of UzMUJF
www.gaybullayevsarvar674@gmail.com

Abstract: The role of marketing, current trends, problems in the network and their solutions are given in this article. The article also discusses the role of textile and knitting enterprises in our country, the creation of an investment environment, the modernization of production and the transformation of the textile and knitting industry into one of the leading sectors of the economy as a result of paying special attention to the production of finished products. will be discussed.

Key words: modernization, knitting, textile, kalava, sewing and knitting, "Luxury plus service", "GSP+", TPMA, "Uztoqimchiliksanoat", modernization and diversification.

In the Republic of Uzbekistan in January-October 2022, a total of 41,764,100 pieces of knitted or woven outerwear were produced by large enterprises, and the growth rate of this production compared to the corresponding period of 2021 was 195.4%. By September, a total of 36,500 tons of knitted or crocheted fabrics were produced by large enterprises, the growth rate of this production and correspondingly compared to the corresponding period of 2021 was 113.8%.

Also, in January-September 2022, the highest share (34.7%) in the production of knitted or crocheted fabrics by large enterprises in the Republic was contributed by the city of Tashkent, 12.7 thousand tons.

In the first two months of 2022, Uzbekistan exported nearly 8,000 tons of knitted goods worth 45.6 million US dollars to 15 foreign countries. Compared to the same period last year, the export volume of knitted goods increased by 8.4 million US dollars.

The countries to which Uzbekistan exported the most knitted products in January-February 2022:

Russia - 14.5 mln

Kyrgyz R. - 14.2 million

Italy - 8.6 million

Ukraine - 2.8 million US dollars

Regions that exported the most knitwear products in two months of 2022:

Tashkent city - 19.1 mln

Tashkent region - 9.1 mln

Andijan region - 6.4 million

Bukhara region - 3 million US dollars

Also, in January-September 2022, the highest share (34.7%) in the production of knitted or crocheted fabrics by large enterprises in the Republic was contributed by the city of Tashkent, 12.7 thousand tons.

At the moment, more than 2,500 enterprises are effectively operating in the network, and these enterprises are engaged in the production of yarn, ready-made gauze and fabrics, sewing-knitting and hosiery products, as well as ready-made products such as carpets.

The high rate of growth of the export volume in the network was ensured by the increase of the physical volume of export of products by 36% and their price by 7.8%. In particular, the increase in the physical volume of the export of ready-made sewing and knitting products was 70.5 percent, in yarn yarn 54 percent, and in hosiery products 53 percent.

Manufactured products were exported to more than 40 countries, such as Russia, China, Turkey, the Republic of Korea, and during the reporting period, the export of products to 2 new foreign markets was mastered.

In particular, yarn produced at the joint enterprise "Indorama Ko'qon textile" in the Fergana region, ready-made knitted products produced at the joint enterprise "Azalia Garment" in the Tashkent region, and men's products produced at the

enterprise "Lux plus service" in the Namangan region. Suits and shirts were exported to Kenya.

Sustainable development of the economy, further acceleration of scientific and technical progress, rational use of production potential, comprehensive saving of all types of resources and management of production in accordance with the laws of the market economy are the most important components of the economic strategy of our country. It is impossible to imagine creating a competitive product with high added value without introducing new, modern approaches in the economy. In this regard, we can give an example of the steps taken step by step by the initiatives of our honorable President, and the benefits given to producers and exporters. During the past period, the necessary legal framework and favorable conditions for the development of the textile industry have been formed. Modernization and diversification of the textile industry is the most important condition for increasing the volume and types of ready-made competitive products that are in high demand in foreign markets, increasing the efficiency and profitability of growing and processing raw cotton.

It was reported that Uzbekistan received the status of the beneficiary of the "GSP+" system of special preferences of the European Union. Lucien Devo said that receiving the status of "GSP+" beneficiary provides new opportunities for producers and exporters of textile products of Uzbekistan. This ensures sustainable growth and diversification of export products.

Along with effective management, attracting new investments, introducing modern techniques and technologies are the most important factors for the development of the textile and clothing industry in Uzbekistan and contribute to increasing its export potential.

As the honorary president of the French textile industry association, he is well acquainted with the activities of French textile companies at the international level, and in this sense, he is interested in developing cooperation with Uzbekistan. He expressed interest in establishing business relations with suppliers who work with

European buyers of our country and have the necessary certificates to enter the French market.

At the end of the meeting, an agreement was reached on deepening mutual relations and organizing a presentation of the potential of the textile industry of Uzbekistan for the members of the French Textile Industry Association.

The Agency for Marketing and Advertising of Textile Products (TPMA) has been operating in the market of trade and advertising services since 2007, at the same time it is a constituent unit of the "Uztoqimchiliksanoat" association and represents the interests of local textile enterprises abroad.

TPMA is a modern, fast-growing company specializing in organizing exhibitions and fairs, developing local enterprises in the international arena, developing trade and investment cooperation, developing and expanding cooperation in the field of production and investment, and developing the production and export potential of the domestic enterprise. conclusion of relevant agreements with potential foreign partners.

-TPMA provides businesses with:

- introducing a new enterprise on the market;

- introducing the assortment and types of services to the visitors of the exhibition;

- demonstration of new equipment and facilities;

- positive acceptance of the company's goods;

- increase sales volume;

- establishing new business relationships, finding partners, clients or sponsors;

- conclusion of public contracts;

- Promotion of brand and company image.

TPMA marketing agency is one of the largest and recognized specialists in organizing events not only in our country, but also in the world. Based on it, various international events of local and foreign organizers are regularly held. Its high-tech equipment and the level of professionalism of its staff distinguish the center from the background of many exhibition sites. For several years, the team has a lot of

successful experience in providing consulting services for business, as well as working together with leading experts in the economy and foreign organizations.

Over the years, local enterprises that are part of the "Uztoqimchiliksanoat" association have been participating in international exhibitions held abroad, including Istanbul Dew Bar Lart (Turkey) for light wholesale trade. are active participants. "Istanbul yarn" (Turkey), "Tex World USA" (USA), "quick fabric". The Advertising Agency and the Textile Marketing Agency ensure participation in the preferential fairs in the above events.

In addition, the agency annually organizes events in the Republic of Uzbekistan and abroad, including France, Germany, Greece, the Netherlands, South Korea, Turkey, They are getting tickets to international textile exhibitions and business forum exhibitions held in China, Japan, India, Italy, Vietnam, CIS countries and others.

To achieve the objectives of the textile industry, Export, Textile Sales and Textile Promotion and Promotion Agency is an unrivaled and unique expert in the field of local business promotion and promotion in global markets. .

TPMA agency is always ready to cooperate with all parties interested in the growth of the textile and light industry of the Republic of Uzbekistan.

List of used literature:

1. Sirojiddin S. et al. SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IS A PLACE TO PROVIDE EMPLOYMENT //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 115-119.

2. Akramovich N. A., Sarvar G., Yassim H. THE PLACE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 95-99.

3. G’aybullayev, S. (2022). O‘ZBEKISTONDA ISTE’MOL SAVATCHASI HOZIRGI HOLATINI VA UNI SHAKILLANTIRISH YO‘NALISHLARI

4. Bahrom X. et al. THE ROLE OF THE PRIVATE SECTOR IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 287-293.

5. G’aybullayev S. et al. RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – C. 86-89.

6. Sarvar G. et al. FACTORS AFFECTING LABOR RELATIONS AND ITS WAGE //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 125-129.

7. G'aybullayev S. The place of the digital economy today //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 116-126.

8. G’Aybullayev Sarvar O. et al. O ‘ZBEKISTONDA ISTE’MOL SAVATCHASI HOZIRGI HOLATINI VA UNI SHAKILLANTIRISH YO ‘NALISHLARI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 119-125.

9. Sarvar O'ktam o'g G. et al. SYSTEMATIC-SITUATION APPROACH IN MANAGEMENT //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 999-1008.

10. Bahrom X. et al. O’ZBEKISTON VA AQSHNING IQTISODIY MUNOSABATLARI //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – C. 63-69.

11. G’Aybullayev Sarvar O. et al. FRANCHAYZINGNING BUGUNGI IQTISODIY JARAYONLARDAGI AHAMIYATI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 16. – C. 116-120.

12. O‘G‘Li X. Y. K. et al. IQTISODIY JARAYONLARNI MODELLASHTIRISHNING BUGUNGI KUNDA MUHIM AHAMIYATI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 15. – C. 41-45.

13. Nodirbek X. et al. QO’SHILGAN QIYMAT SOLIG’INING AHOLI DAROMADLARIGA TA’SIRI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 16. – C. 121-126.

AHOLI O'RTASIDA ISTEMOLCHILIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA BARQAROR RIVOJLANISH

Abdukarimova Roxila Abdurayimovna
Farg’ona davlat universiteti talabasi
abdukarimovarohila3gmail.com

Annotatsiya: Barqaror rivojlanishning muhim omillaridan biri iste'molchining ahamiyati ("barqaror iste'mol qilish madaniyatini shakllantirish") muhim ahamiyat kasb etmoqda. Iste'molchilik madaniyati ob'ektiv iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni rivojlantirishga bog'liqligini va asosiy ilmiy tadqiqot usullari, umumiy ilmiy tadqiqot usullari, shakllanishga ta'sir ko'rsatadigan bir qator omillar, shakllanishiga bog'liqligini nazarda tutadi, iste'mol madaniyati tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: iste'mol madaniyati, barqaror iste'mol, ta'sir omillari, iste'molchilikning xulq-atvor, ekologik toza mahsulot, Iste’molchilarning huquqlari

Iste'mol madaniyati - bu iste'molchilikning xulq-atvor, ijtimoiy ahamiyatga ega va amaliy faoliyatda amalga oshirilayotgan iste'molchilik, ijtimoiy qadriyatlar, bilimlar, namunalar va normalarning to'plami. Iste'molchilar madaniyati individual madaniyat madaniyatida katta rol o'ynaydi va ularning barcha tarkibiy qismlarini (bilim, fazilatlar, qiymat yo'nalishlari va boshqalar) rivojlanishiga ta'sir qiladi.

Barqaror rivojlanish g'oyalari va tamoyillari amaliy jihatdan amaliy faoliyat bilan shug'ullanish, ushbu kontseptsiyani amalga oshirish muammolari tobora ko'proq ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ayni paytda, asosiy muammolardan biri bu barqaror rivojlanishning barqaror rivojlanish mexanizmlarining yo'q bo'lib, uning barcha tomonlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan transport mexanizmlarining etishmasligi hisoblanadi.

Barqaror rivojlanish kontseptsiyasi uchta nuqtai nazarni birlashtirish bilan bog'liq: iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik.

1.Xo'jalik tarkibiy qismida cheklangan resurslardan optimal foydalanish va ekologik toza texnologiyalar, shu jumladan xom ashyo ishlab chiqarish va qayta ishlash, chiqindilarni ishlab chiqarish, qayta ishlash va yo'q qilish .

2.Ijtimoiy komponent ijtimoiy va madaniy tizimlarning barqarorligini, shu jumladan odamlar o'rtasidagi buzuvchi ziddiyatlarning sonini kamaytirishga qaratilgan. Ushbu yondashuvning muhim jihati tovarlarning adolatli ajratishidir. Shuningdek, u global miqyosda madaniy poytaxt va xilma-xillikni saqlash tavsiya etiladi, shuningdek nodavlat bo'lmagan ekinlarda mavjud bo'lgan barqaror rivojlanish amaliyotidan yanada to'liq foydalanishni tavsiya etadi.

3.Atrof-muhit nuqtai nazaridan barqaror rivojlanish biologik va jismoniy tabiiy tizimlarning yaxlitligini ta'minlashi kerak. Barcha biosferaning global barqarorligi bog'liq ekotizimlarning hayotiyligi alohida ahamiyatga ega.

Barqaror rivojlanishga yordam beradigan majburiy omillar orasida eng muhimi, bu iste'mol madaniyati xisoblanadi. Iste'mol madaniyati madaniy jihatdan belgilangan darajadagi, bu ehtiyojlarni qondirish qobiliyati va imkoniyatlari, qonunchilik va maishiy himoya institutlari xisoblanadi. Iste'mol madaniyati va barqaror rivojlanishga harakat o'rtasidagi bog'liqlikning foydasi bilan quyidagi dalillar keltirilishi mumkin.

Birinchidan, yuqori sifatli va ekologik toza mahsulotlarni sotib olish mamlakatda hayot sifatini yaxshilashga imkon beradi va shu bilan barqaror rivojlanishning ijtimoiy jihatlarini bajarishga yordam beradi.

Ikkinchidan, agar ushbu mahsulotlar ekologik qadoqlangan bo'lsa, bu mamlakatdagi ekologik vaziyatni yaxshilaydi va ishlatilgan to'plamlarni qayta ishlash qo'shimcha resurslarga murojaat qilishni kamaytiradi, bu esa o'z navbatida amalga oshirishga yaqinlashishi mumkin.

Barqaror iste'mol, aholining turmush darajasi va atrof-muhitni ekologik oqilona "tovarlar va xizmatlarni iste'mol qilish bo'yicha atrof-muhitning sifatini yaxshilashga olib keladigan modelni anglatadi. Ushbu kontekstda "Ekologik oqilona" tovarlar va xizmatlar bunday tovarlar va xizmatlar, ishlab chiqarish va nizomlar, tabiiy resurslarning ifloslanishi yoki buzilishi yoki ishlov berish bilan bog'liq emas Inson huquqlari va o'zida iste'mol qilish hayot uchun xavf tug'dirmaydi va insoniy va

hayvonlarning salomatligiga zarar etkazmaydi va bunday tovarlar va xizmatlarni sarflash kommunal infratuzilma sharoitida 100% chiqindilarni olib tashlash uchun mos keladi.

Shunday qilib, barqaror rivojlanishga o'tishning istiqbolli usullaridan biri bu barqaror iste'mol madaniyatini shakllantirishdir. Shu bilan birga, iste'molchilar madaniyatini shakllantirish jarayoni juda murakkab va unga ta'sir qiladigan omillarni tushunishni talab qiladi. Belgilangan sabablarning kuchi iste'mol madaniyatini shakllantirish omilidir. Iste'molchi madaniyatini shakllantirishning muhim omillaridan biri bu bozorning to'yinganligi va rivojlanishi hisoblanadi. Shu munosabat bilan rus korxonalari barqaror iste'mol standartlariga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun etarli emas. Yuqorida ko'rsatilgan mamlakatlar bilan taqqoslaganda, Rossiya bozorda bunday kompaniyalarning nisbatan kichik ulushiga ega. Garchi ko'plab oziq-ovqat mahsulotlari "bio", "ECO" va boshqalar sifatida joylashtirilgan bo'lsa-da, bu mahsulotlar deyarli e'lon qilingan holatga mos kelmaydi. Shu bilan birga, bunday mahsulotlarning narxi tegishli belgilarsiz analoglarga qaraganda 20-200% qimmatroq bo'lishi mumkin.

Vaziyat, organik oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni qonuniy tartibga solishning yo'qligi, bu ekologik mahsulotning majburiy sertifikatining etishmasligi natijasidir.

Mustaqil hisob-kitoblarga ko'ra, faqat bir nechta kompaniyalar ekologik mahsulotlarning talab qilingan maqomiga javob beradi va shuningdek, ekologik mahsulotlarga ixtisoslashgan seminarga to'g'ri keladi.

Shunga o'xshash bozorda rivojlangan bozorlar bilan taqqoslanmaydi. Shunday qilib, 2011 yilda AQShda ekologik bozor hajmi 16 milliard dollarga etdi, bu mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlarining umumiy sotilishining 2 foizini tashkil etdi. Germaniya va Daniyada bunday mahsulotlarning ulushi 3% va Frantsiyada - 0,5%. Umuman olganda, 2011 yilda ekologik toza mahsulotlar bozori hajmi 68 milliard dollarni tashkil etdi.

Iste'mol madaniyatiga ta'sir ko'rsatadigan uchinchi omil: mentalitet va an'analar. Har bir kishi o'zi uchun alohida oziq-ovqat mahsulotlari, uy-ro'zg'or buyumlari,

kiyim-kechak va boshqalar, u atrofida ko'rishni xohlaydi. Aholini ekologik mahsulotlardan foydalanishga o’rgatish uchun , jamiyatning yangi mentaliteti (televideniе reklamalarida, shahar ko'chalarida bannerlar) asta-sekin hosil bo'lishi kerak. Bu har bir inson o'zini foydasiga ekologik mahsulotlarni tanlashga yordam beradi.

Iste'mol madaniyatiga ta'sir ko'rsatadigan omillardan yana biri bu istemolchilar xuquqlaridir. Iste’molchilar huquqlari inson huquqlarining ajralmas qismi ekani hech kimga sir emas. Davlatimizda ham mustaqillikning dastlabki yillaridan beri ushbu masalaga jiddiy e’tibor qaratilib kelinmoqda. Bunga 1996 yili qabul qilingan “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunni misol qilib keltirish mumkin. Ushbu qonunda iste’molchilar huquqlarini davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari bilan bir qatorda jamoat birlashmalari yoki nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) ham himoya qilishi belgilab qo‘yilgan.

O‘tgan davr mobaynida O‘zbekiston iste’molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasi nodavlat notijorat tashkiloti sifatida mamlakatimizda rivojlanib borayotgan bozor munosabatlari sharoitida iste’molchilar huquqlarini himoya qilishda tegishli davlat idoralariga yaqindan yordam bera oladigan, ishlab chiqarish va servis sohasida faoliyat yuritayotgan tashkilotlarning iste’molchilar oldidagi burchi va mas’uliyatini oshirishga ta’sir ko‘rsata oladigan yaxlit bir tizimga aylandi.

Barqaror iste'molga qaratilgan iste'mol madaniyatining shakllanishi Barqaror rivojlanishning samarali mexanizmlaridan biri sifatida ko'rib chiqilishi mumkin, chunki Barqaror rivojlanishning barcha uch jihatlari bir biri bilan bog’langan bo’lib, mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilish orqali amalga oshiriladi.

Iste'molchi madaniyatini shakllantirishning asosiy omillari orasida bozorda talab va taklifning nisbati bilan bog'liq omillar: (1) aholining turmush darajasi, uning mohiyati, aslida, ularning imkoniyatlari Barqaror iste'molni shakllantirish va (2) "barqarorlik" mezonlariga mos keladigan bozorni to'ldirish. Shuni yodda tutish kerakki, bozor omillari birlamchi, ammo to'liq emas. Iste'molning yangi kontseptsiyasiga o'tish, shuningdek, psevdo-Energyologik mahsulotlar bilan bozorni

to'ldirish uchun faqat yuqori darajadagi turmush darajasi etarli emas. Shu munosabat bilan ikki muhim omillar: aholining mentaliteti va atrof-muhit va "barqaror" mahsulotlar sohasida huquqiy tartibga solinganlik muhim xisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonuni.
2. Бобылев С.Н., Гирусов Э.В. Экономика устойчивого развития. – М.: Изд-во «Ступени», 2004.
3. Вершинина А.М. Экологические продукты – это наше будущее // Студенческая наука и XXI век. – 2009. – №6.
4. istemol.uz internet sayti

SÚWRETLEW ÓNERI SABAQLARÍNDA INTERAKTIV METODLARDAN PAYDALANÍW

Qallıqlıshov SH.
Ájiniyaz atındağı NMPI docenti
Paluanova Anargul
Ájiniyaz atındağı NMPI magistrantı

Annotaciya: Maqalada súwretlew óneri sabaqlarında interaktiv metodlardan paydalanıw, pán hám texnikanıń rawajlaniwı oqıtıwshınıń dóretiwshi bolıwın, pánniń eń zárúr mashqalaları haqqında sóz etilgen.

Tayanısh sózler*:* súwretlew óneri sabaqları interaktiv metodlar, oqıtıw, sabaq, oqıtıwshı, oqıwshı

Tálimdi shólkemlestiriw formalarınıń qáliplesiwi insaniyat jámiyetiniń rawajlanıwı menen birge júzege keldi. Bilimlendiriw procesin shólkemlestiriwdiń eń áyyemgi forması individual tálim edi. Keyingi basqısh individual -toparda úyreniw usılı edi. XVII ásir baslarına kelip bilimlendiriw procesin shólkemlestiriwdiń bul formaları jámiyet mútajliklerine juwap bermey qaldı. Toparda oqıtıwdıń dáslepki usılları payda bóla basladı.

Zamanagóy pedagogikalıq ámeliyatda interaktiv tálim dep atalatuǵın usıllar aktiv engizilip atır. Olar arasında – dógelek stol sáwbeti, aqlıy húјim usılı, biznes hám rolli oyınlar, klasster h.t.b. Interaktiv tálimdi ınteraktiv tálim dep ataw múmkin, sebebi ol tekǵana oqıwshı hám oqıtıwshı menen emes, bálki oqıwshılardıń ózleri ortasındağı óz-ara tásirdi de óz ishine aladı. Onıń maqseti - úyreniw ushın qolay jay-jaǵdaylardı jaratıw, bunda oqıwshı óziniń intellektuallıq turmıslıqlıǵın kórsetiwi múmkin, bul bolsa oqıw procesiniń nátiyjeli bolıwın táminleydi. Interaktiv tiykarda qurılǵan sabaqlar sizge bilim hám kónlikpeler beriw imkaniyatın beredi, sonıń menen birge, shınıǵıw aqırında mashqalalardı sheshiw ushın tiykar jaratadı. Interaktiv tálimniń mánisi sonnan ibarat, oqıw procesi sonday islengen, barlıq oqıwshılar oqıw

procesine tartıladı, olar ózleri bilgen hám oylaǵan zatlardı túsiniw hám oy-pikir júrgiziw múmkinshiligine iye boladı. Oqıw materialın úyreniw, ózlestiriw processinde oqıwshılardıń birgeliktegi iskerligi hár kimning ayrıqsha individual úlesin qosıwın, bilim, ideyalar, iskerlik usılları almasınıwın ańlatadı.

Oqıtıwshınıń baslı wazıypası oqıwshılar iskerligin pedagogikalıq maqsetke baǵdarlawdan ibarat.

Oqıtıwshı sabaq jobasın quramalı munásibetlerdi názerde tutqan halda islep shıǵadı.

Turli shınıǵıwlar, wazıypalar, oyınlar tiykarında sabaqtı shálkemlestiredi.

Bul shınıǵıulardıń orınlanıwı jańa materialdı ózlestiriwge qaratıladı.

Oqıtıwshı interaktiv texnologiyalarda bir neshe tiykarǵı roller orınlaydı. Olardıń hár birinde ol informaciya ortalıǵınıń málim bir tarawı menen qatnasıwshılardıń óz-ara tásirin shólkemlestiredi. Informator-ekspert rolinde oqıtıwshı tekstli materialdı usınıs etedi, video izbe-izlikti kórsetip beredi, qatnasıwshılardıń sorawlarına juwap beredi, process nátiyjelerin qadaǵalaydı hám taǵı basqa. Shólkemlestiriwshi-shınıǵıwdı orınlawshı rolinde ol oqıwshılardıń social hám fizikalıq ortalıq menen óz-ara munasábetin ornatadı (kishi toparlarǵa bólinedi, olardı óz betinshe maǵlıwmatlardı toplawǵa úndeydi, tapsırmalardı orınlawdı muwapıqlastıradı, mini-prezentatsiyalar tayarlaw hám basqalar). Máslahátshi rolinde oqıtıwshı qatnasıwshılardıń kásiplik tájiriybesine súyenedi, aldınnan qoyılǵan wazıypalardıń sheshimlerin izlewge járdem beredi, ózbetinshe túrde jańaların qóyadı hám taǵı basqa. Interaktiv tálimdi shólkemlestiriw turmıslıq jaǵdaylardı eliklewdi, rolli oyınlardan paydalanıwdı, wazıypa hám wazıypalardı analiz qılıw tiykarında máselelerdi sheshiwdi, oǵan maǵlıwmatlar aǵımınıń kirip barıwın, onıń aktivligin keltirip shıǵaradı. Interaktiv texnologiyalardı engiziw oqıw procesin aktivlestiriwshi faktorlardan biri bolıp tabıladı, sebebi ınteraktiv tálim oqıw hám kognitiv aktivlikti asırıw, oqıw materialın túsiniw hám tereń túsiniwdi támiyinlew, pedagogikalıq óz-ara tásirdi individuallastırıw hám turaqlı óz-ara tálimdi támiyinlew maqsetine tabıslı erisiwge múmkinshilik beredi bul tálim processinde baylanıs usılı [1.432].

Házirgi zamanda pán hám texnikanıń rawajlaniwı oqıtıwshınıń dóretiwshi bolıwın, pánniń eń zárúr mashqalaları boyınsha erkin pikir júrite alatuǵın, pánniń jetiskenliklerin oqıwshılarǵa jetkize alıw hám oqıwshılardı da dóretiwshilikke baǵdarlawdı, izertlew islerine úyrete alıwın talab etedi. Sonıń ushın oqıtıwshı eń dáslep izleniwshilik tájiriybelerin iyelewi kerek. Oqıtıwshı ilimiy-izertlew islerin alıp barıw dawamında bilimlerdi toplaydı, solar tiykarında juwmaq shıǵaradı. Ol pán juwmaqlarınan óziniń ámeliy iskerliginde paydalanıw barısında házirgi zaman oqıtıwshısı ushın zárúr bolǵan júdá kerekli páziletlerdi iyeleydi.

Paydalanılǵan adebiyatlar:

1.Вордовслая Н.В., Вровслая Н.В., Дандазова И.М. й др. Современныйе образовательные технологии: учеб. пособие /Под ред. Н. В. Вордовскоу. – 2-е изд., стез. – М.: КноРус, 2011. – 432 с.

2. Azizxo’jaeva N.N. «Zamonaviy pedagogik texnologiyasi». T.-2002.

ВЫДЕЛЕНИЕ ШТАММОВ РИЗОБАКТЕРИЙ

Паттаев Акмалжон Абдусатторович

Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологий

Ассистент кафедры «Защита растений»

Аннотация: В работе рассмотрены использование питательных сред для выделения диазотрофных бактерий рода Azotobacter, их первичная регистрация, ассоциативные связи с растениями, особенности развития корней растений в условиях засоления почвы, выделение колоний.

Ключевые слова: Azotobacter chroococcum, питательная среда, синергетик, симбиотик.

Выделены диазотрофные бактерии, относящиеся к роду Azotobacter, изучены морфологические показатели роста на питательных средах и видовые признаки.

Для выращивания штаммов, использованных в исследовании, использовали следующие среды.

Питательная среда Эшби для выращивания штаммов бактерий рода *Azotobacter* - (г/л): pH - 6,8-7,0; сахароза - 20; агар-агар - 15.$MgSO_4 \cdot 7H_2O$ – 0,2; $CaCO_3$ – 5; KH_2PO_4 – 0,2;

Для выращивания штаммов бактерий рода *Bacillus sp* (г/л): дрожжевой экстракт – 1; пептон – 10; $MgSO_4 \cdot 7H_2O$ – 0,2; NaCl - 0,2;

В настоящее время при возделывании сельскохозяйственных культур их урожайность и качественные показатели снижаются из-за действия патогенов и различных стрессов (засоление, засуха, тяжелые металлы) (1). Кроме того, одним из актуальных вопросов является улучшение механического и химического состава почв и обеспечение роста и развития сельскохозяйственных культур даже в неблагоприятных условиях. Для решения этой задачи важно повысить урожайность сельскохозяйственных культур,

выращивать натуральные продукты за счет использования свободноживущих и ассоциативных бактерий, синтезирующих азот и фитогормоны (2).

Azotobacter chroococcum был открыт и охарактеризован микробиологом и ботаником Martin Villem Beyerinkом в 1901 году (3,5,6). Бактерии рода Azotobacter связаны с растениями и движутся по направлению к экссудатам их корней. Такая симбиотическая связь способствует эктофагии растений биологическим азотом, фитогормонами, положительно влияет на их рост и развитие (4,7).

В ходе исследований ризобактерии были выделены из ризосферы озимой пшеницы и хлопчатника в почвах Наманганской и Андижанской областей. Для выделения и идентификации этих бактерий образцы ризосферы и корней массой 10 г смешивали с 90 мл жидкой питательной среды и получали масс-культуры. В этом случае твердые безазотные подкормки Эшби для штаммов бактерий семейства азотобактеров [сахароза - 20; $MgSO_4 \cdot 7H_2O$ – 0,2; KH_2PO_4 – 0,2; $CaCO_3$ – 5; pH - 6,8-7,0; агар - 15 об.], растут штаммы бактерий, принадлежащие к роду Bacillus [пептон - 10; дрожжевой экстракт - 1; NaCl - 0,2; $MgSO_4 \cdot 7H_2O$ – 0,2. (г/л)] и выделены два типа колоний, морфологически отличающихся друг от друга. Морфофизиологические, биохимические (форма клеток, окраска по реакции Грама) характеристики колоний показали их принадлежность к роду *Azotobacter*. Филогенетический анализ, основанный на последовательности гена 16 S рРНК штаммов *Bacillus sp,* показал, что он принадлежит к видам Bacillus subtilis.

В экспериментах были подобраны оптимальные питательные среды для роста и развития этих штаммов бактерий. Изучено синергетическое действие штаммов друг с другом в условиях ассоциации. Установлено, что штаммы не оказывают антагонистического действия друг на друга. Это показывает, что их можно использовать в качестве ассоциаций.

Из литературы известно, что ризобактерии, принадлежащие к роду Bacillus, являются сильными антагонистами. Штаммы *Bacillus subtilis* очень

активны в своих антагонистических свойствах по отношению к микроорганизмам.

Бактерии *Bacillus subtilis* характеризуются тем, что они антагонистичны практически ко всем фитопатогенным грибам, способны останавливать рост и развитие грибов не только на твердых, но и на жидких питательных средах.

В ходе исследований из ризосферы озимой пшеницы и хлопчатника выделено 12 штаммов бактерий, относящихся к роду *Azotobacter*. Этот штамм, а также штаммы *Azotobacter chroococcum* и *Bacillus subtilis* со свойствами антагониста были выбраны для дальнейших экспериментов.

В экспериментах также были подобраны оптимальные питательные среды для роста и развития этих штаммов. Изучено синергетическое действие штаммов со штаммами других видов бактерий (*Bacillus subtilis*) в ассоциированных условиях. Это показывает, что штаммы могут быть использованы в качестве ассоциаций.

Список литературы:

1. Абдуллаев А.К., Бактерии рода *Azospirillum* в засоленных почвах Узбекистана: Дис. канд. биол. наук. – Ташкент: Институт Микробиологии АН РУз, 2006. – 6 с.

2. Sahlan Ozturk and Belma Aslim (2010) Modification of exopolysaccharide composition and production by three cyanobacterial isolates under salt stress. Environ Sci Pollut Res 17:595-602.

3. *Young J. M., Park D.-C.* Probable synonymy of the nitrogen-fixing genus Azotobacter and the genus Pseudomonas // International Journal of Systematic and Evolutionary Microbiology. — 2007. — № 57. — С. 2894—2901.

4. Bakhtiyor A. Rasulov, Kahramon. D. Davranov, and Li Wen Jun, Formation of Ag/AgCl Nanoparticles in the Matrix of the Exopolysaccharide of a Diazotrophic Strain *Azotobacter chroococcum* XU1, *Microbiology*,2017,86(2),1-6.

5. Whipps J.M. Microbial interactions and biocontrol in the rhizosphere. J. Exp. Bot., 2001, 52: 487-511.

6. Кравченко Л.В., Макарова Н.М., Азарова Т.С. и др. Выделение и фенотипическая характеристика ростстимулирующих ризобактерий (PGPR), сочетающих высокую активность колонизации корней и ингибирования фитопатогенных грибов. Микробиология, 2002, 71(4): 521-525.

7. Thomashow L.S. Biological control of plant root pathogens. Curr. Opin. Biotechnol., 1996, 7: 343-347.

8. AGROINNOVA – Centre of Competence for the Innovation in the Agro-Environmental Sector, Turin University, Largo P. Braccini 2, 10095 Grugliasco, Turin, Italy.

АБУ ҲОМИД АЛ-ҒАЗЗОЛИЙ ИЛОҲИЙ-ДИНИЙ ҚАРАШЛАРИДА ТАСАВВУФ ФАЛСАФАСИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ

Пўлатов Сайёдбек Ҳасанович

Фарғона давлат университети мустақил тадқиқотчи

Annotatsiya: Мақолада Абу Ҳомид ал-Ғаззолий диний-фалсафий, тасаввуфий қарашлари ўз моҳияти билан диний ирфоний ва ахлоқий фалсафий таълимот эканлиги, Аллоҳ, Олам, Инсон тўғрисидаги онтологик масалалар Имом ал-Ғаззолий таълимотидаги бош муаммо, ғоя сифатида қабул қилингани, унинг тасаввуфий-фалсафий моҳияти, у Аллоҳни ва унинг яратиқларини англашда рационал тафаккур билан бир қаторда иррационалистик тамоилларни ишлаб чиққанлиги ёритилади.

Калит сўзлар: Сўфий, ғоя, тасаввуф, фалсафа, Аллоҳ, инсон, ислом, диний.

Юртимизда “хавфсизлик, миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенгликни таъминлаш ҳамда чуқур ўйланган ташқи сиёсат” стратегик вазифалардан бири сифатида белгилаб олинди[1,1-2]. Бу соҳада олиб борилаётган ислоҳотлар дунё миқёсида ҳам муносиб эътироф этилиб, диний бағрикенгликнинг намунали модели сифатида баҳоланмоқда.

Тасаввуф аҳлининг турмуш кечириш тарзига зоҳидлик (аскетизм) – таркидунёчилик, гўшанишинлик хос бўлган. Аммо сўфий аҳли бу дунёдан, борликдан бутунлай воз кечган эмаслар, балки Имом ал-Ғаззолий каби буюк мутасаввифлар одамларни Аллоҳни севишга, адолатли бўлишга, ҳаётда фаолликка, руҳан ҳалол-пок меҳнат қилишга, ҳурфикрликка, тенгликка, илм-фанни, ислом динининг моҳиятини тарғиб қилишга даъват этганлар.

Абу Ҳомид ал-Ғаззолий диний-фалсафий, тасаввуфий қарашлари ўз моҳияти билан диний ирфоний ва ахлоқий фалсафий таълимотдир. Аллоҳ,

олам, инсон тўғрисидаги онтологик масалалар таълимотидаги бош ғоя сифатида қабул қилингани унинг фалсафий моҳиятини белгилайди. У Аллоҳни ва унинг яратиқларини англашда рационал тафаккур билан бир қаторда иррационал тамоилларни ишлаб чиқди ва бу ижтимоий онгга сингиб борди.

Имом ал-Ғаззолийнинг тасаввуфни ўша вақтда ҳукмрон мавқеда бўлган ордоксал суннийлар билан ҳам назарий, ҳам назарий-ташкилий яраштиришга қаратилган ҳаракатлари сўфийликнинг янада кенгроқ ёйилишига ва ташкилий мустаҳкамланиб, шаръий муҳофазаланган тариқатларнинг вужудга келишига олиб келди.

Ал-Ашъарийнинг давомчиси, каломнинг энг йирик вакилларидан бирига айланган Имом ал-Ғаззолий тасаввуф таьлимоти тарихида бурилиш палласини бошлаб берди. Аз-Заҳобий, ас-Суютий, ан-Нававий, Ибн Асокир каби йирик ислом уламолари уни V аср (ҳижрий)да динни тикловчиси деб тан олишган. “Исломни том маънода сақлаб қолди”, деб ёзади Ғаззолий ҳақида Шайх Ҳамза Юсуф. Замонавий дунёда ҳам Имом ал-Ғаззолий ислом илоҳиётининг йирик вакилларидан бири деб тан олинади.

Айни пайтда, Ал-Ғаззолий ўз ижодий фаолиятининг сўнгги даврида тасаввуфга тўлиқ берилиб кетган бўлс-да, унинг яна бир белгиланган иши – ҳижрий V асрда исломни янгиловчи вазифаси эди. Бу ўша даврда мусулмон жамоасининг диний талаби бўлган. Ислом динининг ривожи энг аввало тасаввуф ва унинг қадриятларига қаратилган эди. Ал-Ғаззолий исломни янгиловчи сифатида шуни билдики, ислом мавҳумлаштирилган (догматик) динга эмас, тирилтирилган, ҳаётийликка муҳтож эди. Инқироздан чиқиш йўлини излаб, тасаввуфга қадимги тасаввуфий-идеалистик фалсафа, христиан теософияси, нуроний фалсафа, зардуштийлик ғояларини мослаштириб, уларни меъёрий илоҳиёт билан бирлаштириб, пировардида тасаввуфнинг аниқ шаклланган монотеистик тизимини яратди. Бу айнан монотеистик сўфийлик эди. Монотеистик сўфийлик – “ажралмаган бирлик” тажрибасидир.

“Шарқнинг буюк ақл соҳиби, зеҳни ўткир скептик”[2,B.105], мутасаввиф илоҳийшунос Имом ал-Ғаззолий Француз файласуфи Рене Декартдан 600 йил

илгариёқ, “Шубҳа (шак) ҳақиқат сари йўлдир, кимки шубҳаланмаса, у кўрмайди, кўрмаган тушунмайди, тушунмаган кўрлигича, адашганича қолаверади”, — деб таъкидлаган [3,B.189]. “Ҳақиқатни излаб” Низомия мадрасасидан кетишимнинг яна бир сабаби исломдаги асосий йўналишларнинг, яъни мутакаллимлар, файласуфлар, исмоилийлар (ботинийлар) ва сўфийларнинг қарашлари ва таълимотларининг тўғри эканлигига шубҳа қилганимда эди”, деб изоҳлайди имом Ғаззолий. [4, B.75]

Имом ал-Ғаззолий ислом тизимига тасаввуф ва фалсафани киритди, исломни мустаҳкамлашда восита сифатида, фалсафадан фойдаланди. Тасаввуфдан диний урф-одатларга бепарволик ғоясини олиб ташлади.

Сабабийлик фалсафий категорияси тўғрисида Имом ал-Ғаззолий доимо бир нуқтаи назарда бўлган: сабаб қонуниятдан, табиат тараққиётидан эмас Аллоҳнинг иродасидан келиб чиқсагина, ҳақиқий бўлади, деб таъкидлади.

Сўфийларнинг “хилват”га киришини тартибга солиб, агарда бундан, оиласига ва фарзандларига зиён етгудек бўлса, у киши ҳилватланмасин, деб белгилади. Сўфийнинг хилватланиши, тиламчилиги ва меҳнатдан юз ўгириши ножоиз усул бўлиб, бу ҳодисалар риёкорлик ва қаллоблик аломати ҳисобланади деб белгилади. Унинг сўфиёна ғоялари зоҳидона таълимотга асосланган эди. Яъни, у Аллоҳга интилиб аналҳақ бўлишни эмас, Уни ҳолиқ билиб Унга банда бўлишни хоҳларди. Ал-Ғаззолий Аллоҳ нурининг жилвасини инкор этиб, Аллоҳ билан тенг бўлишни истамасди, яъни у “ҳувалҳақ” талимотининг тарафдори ва сунний тасаввуф намояндаси эди.

Имом ал-Ғаззолий Ҳамодоний, Ғиждивоний ва кейинчалик Нақшбандия деб шуҳрат қозонган ва ҳозирги кунгача эъзозланиб, миллионлаб соликларига эга бўлган тариқатининг маънавий-ғоявий устози ҳамдир.

Ғаззолий “Диний илмларнинг тирилиши” асарида бир томондан мантиқ, амалиёт, шубҳа ва объективликни ўз ичига олган, билиш учун зарур бўлган ақлни юқори деб билса, иккинчи томондан Аллоҳга яқинлашиш йўлидаги сўфийларнинг биргаликда, коллектив ибодат қилиш масалаларини, “фано” ҳолатларини ва мукаммалликка эришишнинг даражаларини белгилайди.

Имом ал-Ғаззолий Қуръондаги “жиҳод” тушунчасини “Ал-Васит филь мазҳаб” (“Ислом фиқҳининг асослари”, 6-жилд) китобида “Ан-Нисо” (“Аёллар”) сурасининг 95-оятини жанг майдонидаги уруш ҳақида эмас, балки, ўз нафсингиз билан курашишда деб тафсир қилди. У ўша даврда ҳам кўп учрайдиган мутаасиб, диний ақидапарастларни “Диндан фойдаланган ҳолда кишиларга ҳужум қиладиган катта йўлдаги қароқчилар” деб атаган эди.

Шу билан бирга, Имом ал-Ғаззолий ислом илмининг энг маъқул шаклини тасаввуф деб билиб, унга ислом фалсафасининг негизи деб қарайди. Ишнинг хулосасида яна бир бор таъкидлаш лозимки, унинг бой мероси кўп сонли мухлисларига асрлар давомида фалсафий, фалсафий-диний, оккультизм билимларини олиши учун манбага айланди. Унинг тасаввуфий қарашлари ижтимоий, маънавий-мафкуравий хусусияти билан диний ва этник бағрикенгликни ифодалайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилои Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи // “Халқ йсўзи”, 2017 йил 20 сентябрь.

2. Гегель. Сочинения. Т. II. М.-Л., 1935.

3. Пўлатов Ҳ., Маматов М. Тасаввуф тарихидан лавҳалар. – Тошкент: А. Навоий номидаги Ўзбкистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2011.

4. Избранные произведение мыслителей стран Ближнего и Среднего Востока XI-XIV вв. (Газали-Автобиографический трактат). М., 1961.

КОМБИНАЦИЯЛАШГАН АРРА-ЧЎТКАЛИ ЦИЛИНДРНИ УЧДМ МАШИНАСИНИНГ ИШ УНУМДОРЛИГИГА ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ НАТИЖАЛАРИ

О.Ш.Абдураҳмонов

А.А.Акрамов

Термиз муҳандислик-технология институти

Пахтасаноат илмий маркази АЖ

Аннотация: Мақолада УЧДМ машинаси барабанларининг ишчи фаол юзасини ошириш учун юқори камерасида арра-чўткали барабанидан фойдаланиш технологик регламент талабларига жавоб берадиган қолдиқ тукдорликдаги чигитни тайёрлаш вақтида иш унумдорлигига таъсирини ўрганиш натижалари тўғрисида гапирилади.

Калит сўзлар: Арра-чўтка, чигит, цилиндр, тукдорлик, чигит, қолдиқ, чўтка, машина.

Аннотация: В тезисе рассказывается о результатах исследования влияния использования пилно-щеточного барабана в верхней камере машины УЧДМ на производительность труда при подготовке семян с остаточной опушенности, соответствующих требованиям технологического регламента.

Калит сўзлар: Пильная щетка, семена, цилиндр, щетина, семена, остатки, щетка, машина.

УЧДМ русумли чигит туксизлантириш машинасининг юқори камерасига комбинациялашган аррали-чўткали цилиндрларни ўрнатилиб, машинанинг иш унумдорлиги ва чигитни механик шикастланишига таъсирини тажрибалар ўтказиш йўли билан аниқланди [1, 2]. Тажрибаларни ўтказиш вақтида хамма вариантлар учун бир хил дастлабки сифат кўрсаткичларига эга бўлган тукли чигитлар ишлатилди. Туксизлантириш натижасида машинадан чиқаётган чигитнинг қолдиқ тукдорлиги хамма вариантлар учун тахминан бир хил

миқдорда, яъни 0,3-0,4 % атрофида бўлиши таъминланди. Бунинг учун УЧДМ машинасидан чиқаётган туксизлантирилган чигитларни қолдиқ тукдорлиги лаборатория шароитида аниқланиб, керакли миқдордаги қолдиқ тукдорликни таъминлаш учун машинанинг пастки камерасидан чигит тушиш қувурининг кесимини ўзгартирувчи шибер ёрдамида ўрнатилди.

Бир хил иш режими ўрнатилган машинада тажрибаларни давомийлиги 30 мин. ни ташкил этди. Тажрибалар натижасида туксизлантирилган чигитлар машинанинг таг қисмига тўпланиб, унинг миқдори электрон тарозида аниқланди.

Тажриба ишлари жараёнида хамма вариантлар учун бир сифат кўрсаткичларига эга бўлган тукли чигитлардан фойдаланилди. Тажрибаларда фақатгина юқори камерада жойлашган комбинациялашган цилиндрларни иш кўрсаткичлари хисобга олинди.

Дастлабки тукли чигитларни сифат кўрсаткичлари 1-жадвалда келтирилган.

1-жадвал

Дастлабки тукли чигитни сифат кўрсаткичлари

Селекцион нав	репродукция	Қолдиқ тукдорлиги, %	Механик шикастланган лиги, %	Намлиги, %
Наманган 34	R2	9,0	3,2	8,6

Ўтказилган тажрибаларни натижалари 2-жадвалда келтирилган.

2-жадвал

Комбинациялашган аррали-чўткали цилиндрни туксизлантириш машинаси УЧДМ нинг иш унумдорлигига таъсири

Комбинация-лашган цилиндрдаги чўткали дискларни	Тажрибалар тартиби	Чигитнинг дастлабки тукдорлиги, %	Туксизланти-рилган чигитни қолдиқ тукдорлиги, %	Машинани чигит бўйича иш унумдорлиги, кг/соат

диаметри, мм				
230	1	9,0	0,32	542
	2	9,0	0,4	558
	3	9,0	0,36	546
Ўртачаси		**9,0**	**0,36**	**548,6**
235	1	9,0	0,32	568
	2	9,0	0,38	573
	3	9,0	0,35	576
Ўртачаси		**9,0**	**0,35**	**572,3**
240	1	9,0	0,38	538
	2	9,0	0,3	542
	3	9,0	0,35	530
Ўртачаси		**9,0**	**0,34**	**536,6**

2-жадвалда келтирилган тажрибалар натижаларидан кўриниб турибдики, такомиллаштирилган УЧДМ машинасида комбинациялашган аррали-чўткали цилиндрлардан фойдаланиб қолдиқ тукдорлик бўйича O`zDSt 663-2017 [3] талабларига тўлиқ жавоб берадиган холатда ростланиб ишлатилганида комбинациялашган аррали-чўткали цилиндрлардаги чўткали дискларни диаметрига боғлиқ равишда машинанинг чигит бўйича иш унумдорликлари вариантлар бўйича фарқ қилмоқда. Комбинациялашган аррали-чўткали цилиндрлардаги чўткали дискларни диаметри 240 мм га тенг бўлганида машинанинг чигит бўйича иш унумдорлиги 536,6 кг/соатга тенг бўлган бўлса, диаметрни 235 мм гача камайишида машинанинг чигит бўйича иш унумдорлиги 572,3 кг/соатгача ошганини кўришимиз мумкин. Цилиндрдаги чўткали дискни диаметри янада камайганида, яъни 230 мм га тенг бўлганида машинанинг чигит бўйича иш унумдорлиги 235 мм га тенг бўлган вариантга нисбатан камайиши аниқланди. Демак комбинациялашган арра-металл чўткали барабанлардаги металл чўткаларни мақбул диаметрини 235 мм га тенг деб олишимиз мумкин экан.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Патент на полезную модель. Делинтер. №FAP 01690. Зарегистр. 18.08.2021.

2. О.Ш.Абдураҳмонов, А.А.Акрамов. “Соҳа корхоналари учун юқори малакали кадрлар тайёрлашда миллий ва хорижий тажрибалар” мавзусидаги анжуман тўплами. Тошкент-2022.

3. O`zDSt 663-2017 Семена хлопчатника посевные. Агенства “Узстандарт” 23.02.2017

СПЕЦИФИКА ПЕРЕВОДА ТУРИСТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ С АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА РУССКИЙ ЯЗЫК

Тошов З.Б.

Профессор Бухарского Государственного Университета

Хакимова Диана Маратовна

Магистрант 1 курса Бухарского Государственного Университета

Аннотация: В данной работе рассматриваются способы перевода терминов в русском языке из английского языка. В связи с растущим влиянием глобализации на туристическую терминологию русского языка.

Ключевые слова: специфика, заимствования, методы, эквивалентность, способы, термин, эквивалент, калькирование.

Туризм - это развивающаяся отрасль человеческой деятельности, которая неумолимо движется в стороны постоянного развития, что в свою очередь, ведёт к кардинальным изменениям в всех аспектах развития цивилизации. Следовательно, применительно к терминам возникает вопрос о достижении эквивалентности, осуществляя различия кодовых единиц, представляющие, по мнению Романа Якобсона, «кардинальную проблему языка и центральную проблему лингвистики» [3, 16-17].

Проблема специфики терминов, а также способов их перевода всегда существовала в языкознании. Это можно проследить в работах по теории перевода В. Н. Комиссарова, И. В. Арнольд. Л. Л. Нелюбин в «Толковом переводческом словаре» также затрагивает проблему перевода терминов, подчеркивая сложность её решения [2].

Если задача перевода – обеспечение эквивалентности как «общности содержания текстов оригинала и перевода», то при переводе специальных текстов терминам следует уделять особое внимание: ведь именно они определяют информационное содержание специального текста, являясь

своеобразными ключами, организующими, структурирующими и кодирующими специальную информацию [1, 47].

При переводе англоязычных терминов важно уделить особое внимание способам их перевода. В связи с тем, что это напрямую влияет на адекватность переведённой терминологической единицы. В настоящее время проблема изучения способов перевода терминов туризма обусловлена развитием коммуникации в данной профессиональной сфере и не только. Наиболее важно выбрать правильный способ перевода, чтобы осуществить корректный перевод термина.

Существуют следующие способы перевода терминов: эквивалентный перевод термина, заимствования, калькирование, дословный перевод, либо описательная конструкция.

К эквивалентному переводу, как наиболее оптимальному способу обращаются в том случае если уровень общественного развития стран языка оригинала и языка перевода совпадает. Например, английский туристский термин «heritage» переводится русским термином «наследие».

Появление заимствований из английского языка в русском языке напрямую связано с подсознательным стремлением к чему-то недостижимому, роскоши. В связи с этим, несмотря на то что присутствие эквивалента, потребителям симпатизирует иностранный термины при выборе туроператора к примеру. Это можно проследить на примере употребления английского термина «шопинг-тур», который употребляется вместо русского словосочетания «поездка за покупками».

Калькирование - это заимствование из иностранного языка определённой синтагмы и производится её буквальный перевод. Существует два вида калькирования: семантическая и структурная калька. Семантическая калька возможна при совпадении структуры переводимой лексической единицы в обоих языках. Структурная калька используется, когда структура лексической единицы заимствуется при переводе вместе с этой единицей. Например, термин эконом-класс – economy class.

При дословном переводе сохраняется структура и порядок слов, но далеко не всегда такой перевод считается адекватным.

При использовании описательного метода перевод зачастую оказывается объемным, но полностью раскрывающим значение термина.

При выборе способа перевода терминов переводчику необходимо уделить особое внимание на терминологические системы двух языков. Так как неверно выбранный способ перевода приводит к искажению семантики термина, что отрицательно влияет на эффективность перевода в целом.

Таким образом влияние глобального характера туризма способствует зарождению весомого количества заимствований в русском языке в туристической терминологии. Существует несколько причин появления этого явления. Среди них наиболее весомыми считаются: потребность в наименовании новых технологических продвижений, предметов, явлений в данной сфере.

Список использованной литературы:

1. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты): учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. / В.Н. Комиссаров – М.: Высш. шк., 1990.–253 с.

2. Нелюбин Л.Л. Толковый переводоведческий словарь / Л.Л.Нелюбин. – 3-е издание, переработанное. — М.: Флинта: Наука, 2003. – 162с.

3. Хакимова Д.М. (2023). ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА СОВРЕМЕННОЙ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ С АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА РУССКИЙ ЯЗЫК. Тадқиқот ва инновациялар, 1(1), 21–25. https://doi.org/10.5281/zenodo.7551491

4. Zokirova N.S (2020) TRANSLATOLOGY AND THE ANALYSIS OF ITS LINGUISTIC MECHANISM. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 1(4), 8-10.

5. Nafisa K. Cognition and Communication in the Light of the New Paradigm //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2021. – Т. 1. – №. 2. – С. 214-217.

6. Ruziyeva Nilufar Xafizovna, & Xolova Madina Boboqulovna. (2022). Politeness In Literary Works: An Overview. Eurasian Research Bulletin, 7, 200–206.

O’ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDA TO’SIQSIZLIKNI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK ASPEKTI

M.A.Abduvaliev
ADChTI professori

O’zbeklar milliy muloqot madaniyatida to’siqsizlikni implitsit ifodasi uchun xoslangan FB *to’rt taraf(i) qibla (*variant to’rt tomon(i) qibla) bo’lib, u qayoqqa xohlasa, ketaveradigan ma’noni anglatadi: Ikkisidan birini tanlang,-dedi Oyqiz qat’iyat bilan, -yo ketmon, yo to’rt tomoningiz qibla, boshingiz qayoqqa og’sa, o’sha tomonga jo’nang [Sh. Rashidov, Bo’rondan kuchli].

Ingliz var us lisoniy manzarasida ushbu FBning to’la muvofig’i mavjud emasligi kuzatildi. U ingliz tilida to turn loose, rus tilida пустить на все четыре стороны orqali obyektivlashgan. Ushbu ma’no ifodasida qibla madaniy lakunasi mavjud bo’lib, u musulmon dunyosida muslimlar yuzlanib ibodat va nomoz o’qiydigan tomonni anglatadi. Bu tomon Allohning uyi bo’lmish Kabatulloh ekanligi ma’lum. Hayotda shunday ziddiyatli vaziyatlar bo’lib qoladiki, bunda suhbatdoshlardan biri boshqasining qaroridan noroziligi tufayli, ko’pincha asabiylashgan holatda, “to’rt tomoning qibla” deb yuboradi. Shu bois mazkur lakuna maqomidagi FB salbiy konnatatsiyaga ega, chunki musulmonlar uchun qibla, kabatulloh yagonadir. Qibla madaniy lakunasini metaforik tarzda dunyoning to’rtta tomonianglatish barobarida nutq ta’sirchanligi va ifodaliligini ta’minlash uchun qo’llangandeb o’ylaymiz.

Ushbu FBning yana bir qiziq jihati shundaki, u er tomonidan nikohni buzish, “taloq” qilish o’rnida “to’rt tomoning qibla” FBsi qo’llanadi. Bunday hollarda ushbu FB evfemik birlik maqomiga ega bo’ladi.

Yulduzni benarvon uradigan FB salbiy konnatatsiyaga ega b’lib, u o’ta ketgan olg’ir, mug’ombir, har qanday ishni bajarish qo’lidan keladigan kishilarga nisbatan ishlatiladi. Masalan, U yulduzni benarvon urib, xatto oyga chovut soladigan ustasi faranglardan “ Mushtum [O’TIL. 1 jild 2020: 228]; To’qaboy deganimiz qayishday

mahkam, tulkidek ayyor, bo’ridek olg’ir, yulduzni benarvon uradigan shayton edi [S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi [Sh. Rahmatullayev. 1978: 267]].

Bu toifa kishilar shunday odamlarki, ular qilayotgan ishlarga hech kim va hech narsa to’siq bo’la olmaydi, ular uchun ilojisi yoq degan narsani o’zi bo’lmaydi. So’zlashuv va badiiy asarlar uslubida nutqiy ta’sir va ifodalilik vositasi sifatida keng qo’llaniladi.

Tegirmonga tushsa (…), butun chiqmoq va tegirmondan butun chiqmoq FBmasi uddaburon, shuni ko’zini biladigan, har qanday muammoli vaziyatdan chiqib keta oladigan insonlar toifasiga nisbatan ishlatiladi. Yuqoridagi FBdan farqli o’laroq ushbu FB ijobiy baholi insonlar haqida gap ketganda qo’llanadi va kuchli ekspressivlikkka ega: *Karimjon tegirmonga tushsa, butun chiqadigan yigit edi* [Said Ahmad Kutish taraddudi] [Sh. Rahmatullayev. 1978: 224-225]; *Tinchlan, qizim… u keladi. Keladigan vaqt bo’pqoldi. Otamurod – tegirmonga tushsa, butun chiqadigan yigit* [O”TIL. 4-jild 2020: 47]

O’zbek tilida to’siqsizlikning implitsit verbalizatori bo’lgan yo’qni yo’ndirmoq iborasi “har qancha mashaqqat bilan bo’lsa ham, bunyod qilmoq” ma’nosiga ega bo’lib, uning yo’qni yo’ndir(ay)mi?!; yo’q…ni yo’na(miz):mi ; variantlari mavjud: Xudoga shukur, korpa yostigim ham yetadi dam iliq, dam sovuq tancham bor .yoqni yondiramiz ,bu ayni maslahat… (Oybek. Qutlug’qon)

Ushbu ibora ham qo’lidan ish keladigan, epli, har ishning yo’l-amalini qilib, ijobiy hal qiladigan insonlar toifasiga nisbatan ijobiy baho sifatida ishlatiladi.

Polilemant FB yo’l bermoq, o’tib ketish uchun y’olni bo’shatmoq va to’siq bo’lmaslik, qarshilik qilmaslik; imkon bermoq, yo’l qo’ymoq ma’nolarini anglatib keladi. Ushbu ibora metaforik hususiyatga ega: Boshliq qo’lostidagilar dam olishlari uchun yo’l berdi; Hiylaga ba’zan shariat ham yo’l qo’yadi (K. Yashin. Hamza) Uning ruscha ekvivalenti ham to’g’ri va ko’chma ma’noda bir xil ma’noni anglatadi, ya’ni дать дорогу кому-нибудь=дать пройти, проехать; ko’chma ma’noda дать возможность расти, развываться кому-ни будь.

Shuningdek, yo’li ochilmoq iborasi rus va ingliz tilidagi открыт дорогу кому ни будь куда ни будь ko’chma ma’noda qaysidir bir sohada kimgadir faoliyat

yuritishga imkoniyat bermoq ma’nosida kelsa, yo’li ochilmoq, baxtli bo’lib, ishi yurishib ketmoq, omadi chopmoq madaniy semasiga ega: Yo’li ochilgan yigitning yangasi oldidan chiqar (Maqol)

Oq yo’l! iborasi rus tilida **Счастливого пути!, Счастливый путь! Добрый путь, Путь добрый!**, ingliz tilida **Happy journey!, Bon voyage!, Have a safe journey!, Have a good (safe, nice trip!, God speed (good speed)(to you); I wish you a pleasant journey** ekvivalentlariga ega. Ular uchun umumiy o’xshash jihat safarga otlanayotgan kishi(lar)ga bildiriladigan tilak hamda safarga otlanayotgan(lar) uchun hech qanday to’siq, g’ov mavjud emasligidan dalolat beradi. Ibora tarkibidan leksemalar metaforik tarzda qo’llangan va ular yashirin to’siqsizlik semasi mavjud. **Bon voyage**! Fransuz tilidan o’zlashib inglizlar muloqot diskurslariga singib ketganligini ham ta’kidlash lozim. Shuningdek, har uchala tilda tahlillar o’zbek xalq maqollari (65 mavzuda maqollar guldastasi) to’plamiga jami xalq maqollari kirgan bo’lib, ulardan 14 tasi to’siqsizlikni implitsit, 48tasi eksplitsit ravishda ifodalashini ko’rsatdi. To’siqsizlikni eksplitsit ravishda obyektivlashtiruvchi Bo’rining og’zi yesa ham qon, yemasa ham qon maqoli “Yomonligi bilan tanilgan, yomonligini ham qo’ysa ham, qo’ymasa ham – yomon” degan ma’noda ishlatiladigan ibora [O’TIL. 1-jild 2020: 416]. Bundan shunday tarbiyaviy xulosa chiqadi-ki, el orasida obro’-e’tibor qozonish, yaxshi nom olish oson emas, lekin uni bir lahzada yoqotish yomon otliqqa chiqish hech gap emas. Ushbu maqolda bo’ri leksemasi ko’chma “*yovuz qonxo’r shafqatsiz odam*” ma’nosida qo’llangan va kuchli tas’sir va ekspresivlik kasb etgan. Ushbu maqol so’zlashuv va badiiy uslublarda ko’p uchraydi. Uning inglizcha va o’zbekcha muqobillari quyidagilar bo’lishi mumkin: *A bad man remains a bad man even when he becomes a good man; Плохой человек остаётся плохим, даже если превратится в хороший человек*.

Dushman o'lar- do'st qolar, o'sma qolar, qosh qolar maqomida to'siqsizlik implitsit ravishda o'z aksini topgan bo'lib, u dushman, do'st, o'lar, qolar, o'sma, qosh, ketar, qolar leksemalarining semantik zidlashuvi asosida yuzaga kelmoqda. Eng e'tiborlisi, madaniy konnotatsiyaga ega o'sma va qosh o'rtasidagi munosabat ifodalilikni ta'minlamoqda. O'zbeklarda ayollar va qizlar qoshga o'sma qo'ydilar, bir

oz fursatdan so'ng uni yuvib tashlaydilar, o'sma "o'chib" qosh rangini to'qlashtiradi. Bunday holat dushman va do'st o'rtasidagi munosabatlarga qiyoslanmoqda. Bu orqali shuni tushunish mumkinki, og'ir va sinovli damlarda inson haqiqiy do'stlar qurshovida bo'ladi, dushmanlar esa kerak paytida tashlab ketadilar. Shu nuqtai nazardan o'sma dushmanga, qosh esa do'stga qiyos qilinmoqda. Inglizlarda o'sma o'simligi *mascara and eyebrow-liner* deb atalsada, bunday qiyos o'zbeklargagina xos ekanligini tahlillar dalilladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 5 жилдли А.Мамадалиев таҳрири остида 5 – жилд Т.: “O’zbekiston nashriyoti” 2020, 591 b.

2. Пименева М.В. Предисловие / / Введение в когнитивную лингвистику. – Кемерево: Изд – во Кем ГУ, 2004. – Вып. 4. – 208 с.

3. Стернин И.А. К разработке психолингвистического толкового словаря // Вопросы психолингвистики . – 2010, - №2 (12). – с. 57 – 63

4. Леонтьев А.А. Психолингвистический аспект языкового значения // Принципы и методы семантических иследованиий. – М.: Наука, 1976. – с 156 – 169.

FIZIK MASALALAR TURLARI, ULARNI YECHISH METODLARI

Ibodullayeva Barno Xayitovna
Xorazm viloyati Urganch shahar 2-son UrDU akademik litseyning
fizika fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola umumiy o’rta ta’lim maktabi va akademik litsey o’qituvchilari va o‘quvchilariga mo‘ljallangan bo‘lib,unda fizika fanidan masala yechish turlari va metodlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: metod, sonli masala, grafik masala, eksperimental masala.

Maktabning o’quv mashg’ulotidafizikadagi qonunlar matematik amallar va mantiqiy xulosalarhamda uslubiyotga asoslangan holda yechiladigan kichik muammo, odatda, fizik masala deb yuritiladi. O’quv materialini o’rganish bilan bog’liq holda kelib chiqadigan har bir jumboq o’quvchilar uchun masala bo’ladi.

Darslarda masalalar yechish quyidagi tartibda boradi:

a) Yangi darsni tushuntirgandan so’ng masala yechish.

b) Tematik reja asosida masala yechish.

v) Takrorlash darsida masala yechish.

g) Sinfdan tashqari mashg’ulotlarda (to’garak, repititorlik) masala yechish.

Masala yechish uslubiyoti ko’p sharoitlarga: uning mazmuniga, o’quvchilarning tayyorgariigiga, o’qituvchining qo’ygan maqsadiga bog’liq.

Masala yechishdagi umumiy qoidalar:

- masala matnini to’liq o’qish;

- masalaning fizik ma’nosini tushunish;

- masala shartida qaysi kattaliklar berilgan va qaysilarini topishkerakiigini aniqlash;

- ustunchalarga qisqa qilib masala shartini va jadvaldan olingankattaliklarni yozish;

- hamma fizik kattaliklarning son qiymatlarini Si sistemada ifodalash;

- agar masala shartiga ko’ra kerak bo’lsa, sxematik chizmani berish;

- masalani yechishda kerak bo’lgan qonunlar formulasini ko’chiribyozish;

- masalalarni umumiy ko’rinishda tushunarli yechish tavsiya qilinadi;

- masalada berilgan kattaliklarning son qiymatlarini formulaga ularningnomlari bilan, ya'ni ularning o’lchov birliklari bilan qo’yish kerak.Hisoblashda fizik kattaliklar ustida qanday amal bajarilsa, o’lchovbirliklari ustida ham shunday amal bajariladi;

- hisoblashda taqribiy hisoblash qoidasiga rioya qilish, matematik vakoʾpaytirish jadvalidan foydalanish kerak;

- yechib topilgan kattalik Si sistemasida ifodalanishi kerak.

Masalalar turlari

1. Sifatga oid masalalar (sifatli masalalar)

2. Hisoblashga oid masalalar (Sonli masalalar)

3. Grafikka oid masalalar (Grafik masalalar)

4. Eksperimentga oid masaialar (Eksperimental masalalar).

Sifatga oid masalalar yechish uslubiyoti

Sifatga oid masalalar ilgari va yangi o’rganilgan materialni mustahkamlash maqsadida beriladi. Sifatga oid masala fizikaning ba'zi bo’limlaridaasosiy bo’lib xizmat qiladi. Berilgan masalani qisqa vaqt ichida fizik mohiyati ochib tashlanadi.

Sifatga oid masalani yechish uslubiyoti ikki asosiy guruhga boʾlinadi.

a) Sifatga oid sodda masalalar yoki ularni ba'zida masala - savollar deb ham ataladi. Ular odatda bitta fizikaviy qonunga asosan yechiladi va bunda bir qator mantiqiy xulosalar chiqarish ancha oson boʾladi.

b) o’zida bir necha sodda masalani mujassamlashtirgan sifatga oid murakkab masalalar. Ularni yechishda bir qator ancha uzoq mantiqiy xulosalar chiqarish, bir necha fizikaviy qonunlarni analiz qilishgatoʾgʾrikeladi.

*Hisoblashga oid masalalar yechish uslubiyoti (Sonli masalalar yechish metodlari)*Sonlimasalalarni yechish uslubi masalaning murakkabligiga, o’quvchilarningtayyorgarligiga, o’qituvchiningqo’ygan maqsadiga bog’liq.

Sonli masalalarni yechish uslubiyotlari ko’proq matematik jarayonda olib boriladi. Masaian; arifmetik, algebrik, geometrik va grafik usullarga bo’linadi.

Arifmetik uslub. Bu uslubdan foydalanishda fizik masalalarni xuddi arifmetika darslaridagi singari yechiladi. Bunda tenglama tuzilmaydi va yechiladi.

Alqebrik uslub. Bu uslubiyotda o’quvchilarning algebradan olgan bilimlaridan foydalaniladi, formulalar ishlatiladi, tenglamalar tuziladi va yechiladi. Algebrik uslub qo’llaniladigan eng sodda hol masalani yechishda tayyor formulalardan foydalanishdir. Murakkab masalalar ustida ish bajarayotganda bir necha formulalar yoki tengsizliklarsistemasidan foydalanib topiladi.

Geometrik uslub. Masalalarni geometrik uslub bilan yechishda izlanayotgan kattalikni o’quvchilarga malum bo’lgan geometrik munosabatlardan topiladi. Geometrik uslub statikada, geometrik optikada, elektrostatikada va fizikaning boshqa bo’limlaridafoydalaniladi. Bu uslubiyotda geometrik munosabatdan tashqari trigonometrik formulalardan ham foydalaniladi.

Grafik uslub. Geometrik uslub bilan masalalarni grafik yechish uslubi chambarchas bog’langan.

Grafik uslubiyotda izlanayotgan kattalik grafikdan foydalanib topiladi. Bu xil masalalar o’zigaxosligi tufayli ularni alohida qarab chiqamiz.

Yechiladigan masalalarning fizik kattaliklari grafikdan iborat bo’lsa, bunday masalalar grafik masalalar deyiladi.

Grafik masalalarning ba'zilarida shartlari berilgan bo’ladi, ba'zilarida esa ularni yasash kerak bo’ladi.O’quvchilarga grafik masalalarniishlatishda grafiklarni «o’qish»danva sodda grafik yasashdan o’rgatishimiz kerak. So’ngra grafiklar bilan ishlashni tobora murakkablashtirib, o’quvchilargakattaliklar orasidagi miqdoriybog’lanishlarnitopishni tavsiya qilib, to formulani tuzishguncha murakkablashtirib borish kerak.

Grafik masalada bog’lanish grafigi berilmagan bo’lsa, u holda maxsus jadvallardan yoki masalani shartidan olingan qiymatlarga ko’ra grafik yasaladi. Buning uchun koordinatalar o’qi chiziladi, ularda malum masshtab tanlanadi, jadvallar tuziladi, shundan keyin koordinata o’qlari bo’lgan tekislikka tegishli

ordinata va abuissalarga mos nuqtaiar qo’yiladi. Bularni birlashtirib fizik kattaliklar orasidagi bog’lanish grafigi yasaladi.

Amaliy mashg’ulot, laboratoriya ishlari va fizik praktikum vaqtida fizik asboblarning ko’rsatishigaasoslanib tuziladigan masalalar eksperimental masalalar deyiladi.

Tajriba (eksperiment) asboblarning ko’rsatishigaasoslanib tuziladigan masalalar eksperimental masalalar deyiladi.

Eksperimental masalalarni yechishda o’quvchilardan sezgirlik talab qilinadi. Sababi, tajriba vaqtida asboblarni ko’rsatish raqamlarini to’g’ri va aniq belgilab olishni taqozo qiiadi.

Bu masalada o’quvchilar formula asosida hisob va kerak bo’lsa,grafiklarini ham chizib masalani ishlashaveradilar.

Eksperimental masala fizika kursining hamma bo’limida mavjuddir. Shuningdek, o’quvchilaruncha murakkab bo’lmaganeksperimental masalalarni uy sharoitida ham yechishlari mumkin.

Umuman o’rta maktab fizika kursida masalalar yechish uslubiyotining biz yuqorida ko’rib o’tgan umumiy masalalari o’quvchilarning yoshi, ularning tayyorgarligi va o’rganilayotgan materialning mazmuniga qarab o’zining xususiyatlariga ega bo’ladi.

Xulosa qilib aytganda fizikadan masalalar yechish jarayonida o’quvchilarning mantiqiy fikrlashlari kengayadi, ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi. Fizik hodisalar-ning tub mohiyatini kengroq tushunadilar,fizikadagi qonunlarning amalda qo’llanilishini chuqurroq anglaydilar.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar‖yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari.-T.Nizomiy nomidagi TDPU 2008

2. Fizika fanini o'qirtish metodikasi moduli boyicha o'quv uslubiy -majmua Toshkent – 2018 B.N.Nurillaev K.T.Suyarov

SHUM BOLA - O’ZBEK ADABIYOTI DURDONASI

Sulhiddinova Dilorom Husenovna
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi
e-mail: Sulhiddinovadilorom@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada G’afur G’ulomning “Shum bola” asari yozilish tarixi, uning mazmuni, ijtimoiy ahamiyati, milliyligimiz hamda tariximizda tutgan o’rni va roli haqida batafsil to’xtalib o’tilgan.

Kalit so’zlar: Shum bola, mazmun, ijtimoiy ahamiyat, milliylik.

Аннотация. В данной статье подробно рассмотрена история написания произведения Гафура Гулама «Шум Бола», его содержание, общественное значение, наша национальность, а также его место и роль в нашей истории.

Ключевые слова: Произведение «Шум бола», содержание, социальная значимость, национальность.

Abstract. In this article, the history of the writing of Ghafur Ghulam's work "Shum Bola", its content, social significance, our nationality, and its place and role in our history are discussed in detail.

Keywords: The work "Shum bola", content, social significance, nationality.

G’afur G’ulomning “Shum bola” asari 1936- yilda yozilgan hamda dunyo bo’yicha bir nechta tillarga tarjima qilingan, jumladan, F. Shayhuddinova hamda A. Naumov tomonidan 1970- yilda rus tiliga, V. Grimich tomonidan 1991- yilda ukrain tiliga tarjima qilingan. Qissa 1977-yilda rejissor Damir Salimov tomonidan suratga olingan hamda shum bola rolini Abduraim Abduvahobov tomonidan o’ynalgan. Endi esa ushbu asar mohiyatiga to’xtaladigan bo’lsak, qissa o’tkir hajviy asar bo’lib, eski Toshkent qiyofasi to’laqonli bayon etilgan. Asarda haqiqiy tarixiy faktlarga qaraganda, to’qima fantaziya kuchliroq hamda asar markazida yozuvchi hayotidan faktlar ko’p keltirilgan bo’lsada, u avtobiografik asar hisoblanmaydi. Asar bosh qahramoni 13 yoshli bola hisoblanib, o’ziga yarasha sho’x, sarguzashtparast bolaning

ko’rgan kechirganlari haqida hikoya qilinadi. Jumladan, axloqiy hamda diniy mazmundagi sahnalar ham ko’p uchrab turadi. Masalan, quyidagi dialog aynan yuqoridagi mazmunda hisoblanadi:

- Haqqim-chi, haqqim nima bo’ladi?

- Haq, qanaqa haq? Sen zumrasha hali haqqingni ham talab qilasanmi?

Xizmatkorlardan biri: boy ota, lekin yetimning haqqini yeyish yaxshi emas, bu gunohi azim, uni haqqini bering.

- Yaxshi, unga bir qop chirigan olma bervorlaring.

Yuqoridagi dialog orqali ham bilib olishimiz mumkinki, asarning diniy jihatdan ham ahamiyatli ekanligini. Yetimning haqqini yemaslik, uning haqqini yeyishning og’ir gunohlardan biri ekanligi batafsil to’xtalib o’tilganligining guvohi bo’lishimiz mumkin. Shuningdek, asarda nafaqat diniy balki sarguzashtli sahnalar, ibratli voqealarning ham guvohi bo’lishimiz mumkin. Jumladan, o’lik yuvish sahnasini tahlil qiladigan bo’lsak, unda yolg’on gapirishning salbiy oqibatlari keltirilgan sahnalarning ya’ni ular o’lik yuvayotganida aslida bu sohani umuman tushunmasliklari, shuningdek, pul ilinjida o’zlarini o’lik yuvuvchi domla sifatida ko’rsatib, o’lik yuvishni eplolmay o’likning boshini uzib yuborishi hamda uni teskari qilib qayta tikib qo’yishlari hamda oxir-oqibatda odamlar ularning firibgar ekanligini bilib qolib, el-u xalqning qahriga duchor bo’lib, kaltak ostida qolib ketishlari guvohi bo’lishimiz mumkin:

O’likni xovuzning u boshidan bu boshiga qarata sudrab chayqata boshladik. Uchovimiz ham yangi havaskor g’assol bo’lganligimiz uchunmi, qiziqib ketib, o’likni uch marta emas, 15 marta chayqadik. Keyin sekin-sekin hovuz qirg’og’iga torta boshladik. O’lik xuddi hovuzning tagiga jipslashib qolgandek edi. Barchamizning rangimiz quv o’chib ketdi. Ancha urindik. O’lik bechoraning bellari qirsillab, tahminan, yarim gazcha cho’zilib ketdi. Nihoyat, zo’r berib o’likni hovuzning chetiga chiqardik. Biroq burunsiz, bosh yo’q edi.

Yuqoridagi jumlalardan yana bir xulosaga kelish mumkin: har bir ishni o’z ustasi qilgani ma’qul. Agarda u ish o’z ustasi tomonidan qilinmas ekan, aslo yaxshilik olib kelmaydi. Shuningdek, asar davomida ko’plab kulguli, sarguzashtga

boy hamda milliyligimizni eslatib o’tuvchi ko’plab sahnalarga guvoh bo’lishimiz mumkin. Jumladan, bolalar o’ynaydigan o’yinlar: “Qushimboshi”, “Yalong’och poyga”, “Mindi-mindi”, “oq terakmi-ko’k terak”, “Botmon-botmon”, “Kurash” kabi o’yinlar azaldan mamlakatimizning ilk rivojlanish davridan shakllanib kelgan hamda asrlar osha davom etib kelayotgan o’yinlar qatoridandir. Bu o’yinlarga asar davomida alohida to’xtalib o’tilishi milliy qadriyatlarimiz, o’yinlarimiz davom etajakligiga bir isbotdir. Shuningdek, asar ko’proq bolalar uchun xoslangan, sarguzasht janrida bo’lganligi bois ham qissa davomida ko’plab qiziqarli hamda kulguli voqealarning guvohi bo’lishimiz mumkin. Masalan, shum bolaga tog’asi tomonidan u sevib parvarish qiladigan qushlarning topshirilish sahnasi. Tog’asi unga bir necha kunga qushlariga qarab, ularni parvarishlashi lozimligi va evaziga uchta buxor tanga berishini aytadi. Shum bola qushxonaga kirib, ov qushlarini zimdan kuzatadi hamda ular tezagining oq bo’lishiga sabab ular qatiq ichadi deb o’ylaydi. U ammasidan yashirib, bozorga tushadi hamda 3 kun davomida qushlarga qatiq ichirtiradi. Ayniqsa, qushlarning ichida shum bola yoqtirgan bittasiga boshqalardan yashirib qatiqning yuzini berish sahnasi. Uch kundan so’ng u qushxonaga kirib qaragnida qushlarning barchasi o’lib yotganining guvohi bo’ladi. Yuqorida aytib o’tilganidek, asar davomida bitilgan har bir sahna o’ziga yarasha ibratlidir. Yuqoridagi sahna orqali yozuvchi kitobxonga mas’uliyatli bo’lish kerakliligini uqtirmoqda. Ya’ni insonga ishonib topshirilgan har qanday vazifani bajarishdan oldin u vazifa yaxshilab o’rganishni talab etadi va albatta shundan so’ng esa topshiriq ado etilganida, u muvaffaqiyatli yakun topadi. Asar davomida yosh, sarguzashtga o’ch bolaning turli-tuman voqealarga guvoh bo’lganligi yoxud bevosita ishtirok etganligini ko’rishimiz mumkin. Masalan, ho’kizni so’yish sahnasiga e’tibor qaratadigan bo’lsak. Qissa davomida shum bola qorong’uda yanglishib kulga ag’anab yotgan eshakni novqas ho’kiz deb gumon qilib, bo’g’ziga pichoq tortib yuboradi. Aslida ho’kiz allaqachon yomonlab o’lib bo’lgan bo’ladi. Bu sahnada ham birgina yanglishish domlaning Buxoroyi sharifdan uch tilloga olgan eshagining o’limiga sabab bo’ladi. Bu sahna orqali yozuvchi kitobxonga shum bola timsoli orqali har qanday berilgan vazifani bajarishda e’tiborli bo’lish, mas’uliyatli bo’lish lozimligini uqtirishga harakat qiladi.

Umuman olganda, “Shum bola” asarida keltirib o’tilgan har bir sahna o’zgacha ahamiyatli hamda ibratlidir. Asarni yoxud asar asosida ishlangan kinoni ko’rgan har qanday odamning ko’z oldida eski Toshkent, uning ko’chalari bevosita gavdalanadi. Asarni o’qiyotgan har qanday kitobxon hamda uning kayfiyatiga, fikrlashiga undagi qahramonlarning chekkan dardi, ko’rgan-kechirgan sarguzashtlari bevosita ta’sir etadi.

ТАРИХ ДАРСЛАРИДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ МЕТОДИКАСИ

Агзамова Нилуфар Файзуллаевна
300-ИДУ мактаби, тарих фани ўқитувчиси

Аннотация: ушбу мақолада тарих дарсларида инновацион технологиялардан фойдаланишнинг услублари ҳақида фикр мулоҳазалар келтирилган. Бундан ташқари замонавий ўқитувчининг инновацион технологиялардан фойдаланиши зарурлиги ҳақида ҳам келтириб ўтилган. Инновацион технологияларнинг сифати ва самарадорлиги ёритилган**.**

Калит сўзлар: Педагогик технология, умумпедагогик, умумдидактик, локал технология.

Ҳаммамизга маълумки, сўнгги йилларда барча соҳаларда бўлгани каби таълим соҳасига ҳам тубдан ўзгаришлар, янгиликлар шиддат билан кириб келди. Ўзбекистонда таълим тизимини янада такомиллаштириш ва олиб борилаётган ислоҳотлар замирида ватанпарвар, виждонли, фидоий, инсонийликни ўзида акс эттира оладиган юксак маънавиятли кадрларни етиштириш ётади. Таълим тизимидаги энг асосий долзарб масала, ўқувчиларда мустақил фикрларини шакллантириш ва ривожлантириш, уларни мустақил ҳаётга тайёрлаш ва уларни буюк инсон қилиб етиштиришдир. Педагогнинг бош вазифаси ўқувчиларда мустақил фикр юритиш кўникмаларини ҳосил қилишни шакллантиришдир. Янги таълим тизимида ўқувчи ёшларни шахс сифатида камол топтириш, малака ва кўникмаларини шакллантириш ва ривожлантириш масалалари зарурлиги уқтирилган.

Педагогик технологияда педагог ўқувчининг ўқув материалини тўлиқ ўзлаштириши ва иқтидорини ривожлантириши учун имконият яратиши лозим. Ўқувчининг ҳар бир фикрини инобатга олиши, фикр-мулоҳазаларини диққат билан тинглаши, ғоялари, фаразларига эътибор қаратиши лозим.

Педагог педагогик жараённи ташкил этишда ҳар бир ўқувчининг шахсий хусусиятларини инобатга олиши зарур. Педагог ўқувчилар билан педагогик мулоқот ўрнатиш учун нновацион технологиялардан фойдаланиши мақсадга мувофиқдир. Бу интерактив дарс усуллари ҳисобланади. Таълим жараёнида интерактив методлардан фойдаланиш, таълим самарадорлигини оширишга хизмат қилади. Бунинг самарадорлиги шундаки, ўқувчилар бир-бирини эшитиши, ҳурмат қилиши, гуруҳ билан ишлашни, мулоқотни, мустақил фикрлашни, инсонпарварликни ўрганади.

Педагогик технология тушунчаси кейинги пайтларда янада кенгроқ тарқалди. Ўқув жараёнига техник воситаларни тадбиқ этиш бошланди. Педагогик технология бу ўқув жараёнини амалга ошириш мазмунли техникасидир. Педагогик технология бу – ўқитишда режалаштирилган натижаларга эришиш жараёнини тасвирлаш, педагогик жараённинг ташкилий методик қуроли демакдир.

Педагогик технология тушунчаси таълим амалиётида 3 та тартиб билан бир-бирига боғлиқ даражаларда ишлатилади. Булар:

-умумпедагогик (умумдидактик);

-хусусий методик;

-локал (модулли) даражаларидир.

Умумпедагогик (умумдидактик) даража: умумпедагогик технология таълимнинг маълум босқичида, ўқув юртида яхлит таълим жараёнини ифода этади. Бу ерда педагогик технология педагогик тизимга ўхшашдир: унга ўқитишнинг максадлари, мазмуни, восита ва методлари тўплами, фаолият объекти ва субъекти алгоритми киради.

Хусусий методик даражаси: хусусий методик педагогик технология «хусусий методик» кўринишида қўлланилади, яъни бир фан, синф ўқитувчи доирасида ўқитиш ва тарбиялаш, маълум мазмунини амалга ошириш учун методлар ва воситалар тўплами сифатида ишлатилади.

Локал (модулли) даражаси: локал технология ўқув-тарбиявий жараённинг алоҳида қисмлари, хусусий дидактик ва тарбиявий масалаларни

ҳал этиш технологиясидан (алоҳида турдаги фаолият, тушунчалар шакллантириш, алоҳида шахсий сифатларни тарбиялаш, дарс технологияси, материалларни такрорлаш ва текшириш технолгияси, мустақил ишлар технологияси ва бошқалар) иборат.

Педагогикада инновация, инновацион фаолият, инновацион педагогика, таълимда инновацион жараёнларни бошқариш каби тушунчалар XX асрнинг 60 – йилларида дастлаб АҚШ ва Ғарбий Европа мамлакатларида “таълим технологияси” тушунчаси эътироф этилган вақтда пайдо бўлди. Ўша вақтдаёқ Европада педагогик инновациялар маркази ва институти ташкил этилди. Бу тушунчаларнинг пайдо бўлиши ва инновацион таълим назариясининг яратилиши тўғрисида маълумот берувчи манбалар таҳлили шуни кўрсатдики, бу тушунчалар таълим тизимини технологиялаштириш, педагогик технологияларни таълим тизимига киритиш орқали таълим тизимини ислоҳ қилиш, тизим самарадорлигини ошириш, шахс ижтимоийлашувини таъминлаш зарурияти туғилди.

Бу борада муайян муваффақиятларга эришиш учун таълим жараёнида болага дўстона муносабатни шакллантириш ва уриниш натижасида вужудга келади. Олиб борилган илмий изланишлар натижасида ўтган асрнинг 80 – йиллари иккинчи ярмида педагогик фаолият бу ижодий жараён ва педагогик инновациялар мажмуи деган янги илмий йўналиш таркиб топди. Бу эса ўқитувчининг инновацион фаолиятини шаклланиш жараёнини таҳлил қилиб бориш имконини берди.

“Инновация” атамаси тушунчаси аниқ, равшан тушунча бўлсада, унинг таркибида янгиликни яратиш ва уни татбиқ этиш тушунчалари мавжуд. Бизнинг мамлакатимизда педагогик инновацияни яратилиши ва ривожланиши кенг жамоатчи педагоглар ҳаракати билан мактабларнинг тез ривожланиши, модернизация қилиниши, стандартларни такомиллаштирилиши ва дастурларни янгиланишига бўлган катта эхтиёж туғилди. Янгиликларни излаш, яратиш, қўллаш ишлари жадаллашиб борди. Шу сабабли янги билимларга бўлган талаб, “янгилик”, “инновация” ва “инновацион жараёнлар” пайдо бўлди ва у

тушунчаларни янада чуқурроқ ўрганиш, англаш заруриятини келтириб чиқарди.

Шундай килиб, педагогик инновациялар деганда биз фақатгина восита, метод, усул, технология ва хоказо эмас, балки уларни яратиш, ўзлаштириш ва амалда қўллаш, баҳолашни ҳамда бошқаришни тушунамиз. Таълим-тарбия жараёнида инновацияларнинг қўлланилиши бир жиҳатдан таълим жараёнини доимий такомиллаштириш зарурлигидан иборат булган педагогик амалиётнинг объектив эҳтиёжларига боғлиқ бўлган, иккинчи жиҳатдан эса уларни қўлланиш самарадорлиги педагогларнинг субъектив сифатларига, уларнинг педагогик инновацияларнинг объектив зарурлигини англаганлик даражасига боғлик.

Демак, педагогик инновацияларни жорий қилиш – бу педагогик янгиликларни яратиш уларни педагогик ҳамжамият томонидан ўзлаштирилиши, амалда қўлланилиши, бахоланиши ҳамда бошқариш жараёни ва натижасидир.

Замонавий ўқитувчи инновацион технологияларни яратиш ва уларни амалиётга тадбиқ қилиш жараёнини бевосита ижрочисидир.

Адабиётлар рўйҳати:

1. Н.Н.Азизходжаева. Педагогик технология ва педагогик маҳорат.-Т.: ТДПУ. 2003.

2. А.Асқаров. Ўзбекистон мустақиллиги шароитида тарих фанининг вазифалари.- “Ўзбекистонда ижтимоий фанлар” 1992. № 7-8.

3. Gaffarov.Y.A, Gafforova M. O‘zbekiston xalqlari tarixini o‘qitish usullari.T., 1996.

4. Ishmuhamedov.R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.

5. J.G’.Yo’ldoshev. Ta’lim yangilanish yo’lida.-T.: O’qituvchi. 2000.

6. Lerner.I.Y. O‘qitish metodlarining didaktik asoslari.M.,1991

7. Maxmutov.M. Maktabda muammoli ta’limni tashkil qilish.T.,1991

SONLAR NAZARIYASINING BA’ZI ADDITIV MASALALARI TARIXI HAQIDA

Boysoatova Yulduz Ismoil qizi

Termiz davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda sonlar nazariyasining additiv masalalari aslida qanday masalalar, shu kungacha qanday additiv masalalar mavjud va yechimini topgan, yechimini topishda qanday metodlardan foydalanilgan va hozirgacha yechimini topmagan masalalar tarixiga qisqacha to'xtalib o'tildi.

Kalit so'zlar: Additiv masalalar, Varing muammosi, Goldbax muammosi, binar muammo, ternar muammo, Algebraik fikrlar, Xardi-Littlvud muammosi, Xua-Lo-Ken muammosi.

Hozirgi vaqtda juda ko’plab to’la hal etilmagan sonlar nazariyasining additiv masalalari mavjud. Ularni shartli ravishda ikki guruhga natural sonlar qatnashgan va tub sonlar qatnashgan additiv masalalarga bo’lish mumkin. Natural sonlar qatnashgan additiv masalalar markazida Varing muammosi, tub sonlar qatnashgan additiv masalalar markazida Goldbax muammosi yotadi. Quyida biz avvalo bu ikki masalaning tarixiga qisqacha to’xtalib o’tamiz.

Sonlar nazariyasining additiv masalalariga Varing muammosi, Eyler-Goldbax muammosi, Xardi-Littlvud muammosi, Xua-Lo-Ken muammosi va boshqa ko’plab sonlar nazariyasining additiv muammosini o’z ichiga oladi. Qo’yilgan masalalarni yechish uchun turli xil metodlar: Xardi-Litlvud-Ramanudjanning doiraviy metodi, V.Brun, A.Selberg, Yu.Linniklarning g’alvirlash metodi, G.Beyl va I.M.Vinogradovlarning trigonometrik yig’indilar metodi, G.Devenport va R.Vonlarning iteratsiya metodi va boshqa bir qancha metodlar yaratildi.[3, 11-27]

Fransuz matematigi J.L.Lagranch (Giuseppe Lodovico Lagrangia (1736-1813)) 1770-yilda quyidagi teoremasini isbotlaydi. “Har qanday natural sonni to’rtta butun son kvadratlari yig’indisi ko’rinishida ifodalash mumkin.” Bu teoremadagi tasdiq

birinchi bo’lib Diofantning “Arifmetika” sida keltirilgan. Uning isbotini Lagranch qilgan. 1770- yilda ingliz matematigi Varing (Edward Waring(1734-1798)) to’rt kvadratlar yig’indisi haqidagi J.L.Lagranch teoremasini umumlashtirishni taklif qildi va bu keyinchalik Varing muammosi deb ataldi.[1, 5-15] Zamonaviy terminalogiyada, buni quyidagicha ifodalash mumkin: $k \geq 2$ soni uchun shunday natural son $s = s(k)$ mavjudki, har bir natural son $n, s(k)$ ta manfiy bo’lmagan butun sonlarning yig’indisidan iborat bo’ladi, ya’ni n ni

$n = n_1^k + n_2^k + \cdots n_s^k$ (3.1.3)

ko’rinishida ifodalash mumkin. Berilgan k uchun (3.1.3) tenglikni qanoatlantiruvchi chekli s ning mavjudligi 1909-yilda nemis matematigi Gilbert (Davit Hilbert (1862-1943)) tomonidan isbotlangan. Aynan shu masalalarda keyingi paytlarda diqqatga sazovor natijalarga erishildi. Xususan I.M.Vinogradov, A.A.Karatsuba, L.G.Shnirelman, Yu.V.Linnik, S.X.Sirajiddinov, N.P.Romanov, A.F.Lavrik, Xuo-Lo-Ken, V.I.Bernik, N.V.Kuznetsov, T.A.Azlarov, T.Zuparov, M.I.Israilov, S.T.To’laganov, X.N.Narzullayev, S.Sh.Shushbayev va boshqalar tomonidan olingan natijalarni shular sirasiga kiritishimiz mumkin. Varing muammosi va shu bilan bog’liq masalalarda keyingi yillarda juda katta natijalarga erishilgan bo’lishiga qaramasdan, u bilan bog’liq barcha masalalar hozirgacha to’la hal etilmagan.

Nemis matematigi Xristian Goldbax (Christian Goldbach(1690-1764)) nomi bilan yuritiladigan Goldbax muammosi birinchi marta 1742-yilda Goldbax va Shvetsariyalik nemis matematigi Eyler (Leonhard Euler 1707-1783) o’rtasida yozishmalarda paydo bo’lgan. 1742-yilda Xristian Goldbax Leonard Eylerga yozgan xatida quyidagi taxminni aytadi:

Har qanday 6 dan kichik bo’lmagan juft natural sonni ikkita toq tub son yig’indisi ko’rinishida ifodalash mumkin. (Goldbaxning binar muammosi);

Har qanday 9 dan kichik bo’lmagan toq natural sonni uchta toq tub son yig’indisi ko’rinishida ifodalash mumkin. (Goldbaxning ternar muammosi).

Bu muammolar birgalikda Eyler- Goldbax muammosi deb ham yuritiladi.

1930 yilda L.Shnirelman har bir 1dan katta butun sonning $s \leq 8 \cdot 10^5$ ta tub sonning yig’indisi ko’rinishida ifodalashini isbotladi. Bu natija keyinchalik bir necha marta yaxshilandi. Har qanday natural sonni to’rttadan ortiq bo’lmagan natural sonlarning kvadratlari yig’indisi ko’rinishida ifodalash mumkinligi to’g’risidagi J.L.Lagranchning o’sha davrdagi mashxur ishlaridan keyin E.Varing o’zining “Algebraik fikrlar” asarida har qanday juft natural sonni manfiy bo’lmagan butun sonlarning 9 tadan ortiq bo’lmagan kublari, 19 tadan ortiq bo’lmagan bikvadratlari va hokozo ko’rinishida ifodalash mumkin,- degan gipotezani ilgari surgan. Hozirgi vaqtda bu bilan Varing “Ixtiyoriy $k \geq 2$ butun soni uchun shunday s natural soni mavjudki, har bir n natural sonini s tadan ortiq bo’lmagan natural sonlarning k-darajalari yig’indisi ko’rinishida ifodalash mumkin va agar shu shartni qanoatlantiruvchi eng kichik s ni $g(k)$ desak, $g(3)= 9$, $g(4)= 19$ ekanligini nazarda tutgan deb hisoblashadi.

Keyinchalik, V.Brunning bu natijasi bir necha bor yaxshilandi, ammo Goldbax muammosi o’z yechimini topmadi. Shunga qaramasdan V.Brun usuli tub sonlar taqsimoti nazariyasida o’zining keng tadbiqini topdi va bu sohada qator muhim natijalarni olish imkonini berdi.

Ko’plab olimlar izlanishlari va ilmiy tadqiqot ishlari natijasida hozirgi kunga qadar sonlar nazariyasining additiv muammolarini hal etish ustida ko’p natijalarga erishib kelinmoqda va ko’plab metodlardan foydalanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. Аллаков И., Оценка тригометрических сумм и их приложения к решению некоторы аддитивных задач теории чисел.Термиз, Сурхан нашр.2021, 160 с.И.М.Виноградов. “Сонлар назарияси асослари” “Укитувчи”; Т. 1965 й. 80-90-б.

2. Шнирельман Л.Г. Об аддитивных свойствах чисел // Изв. Донецкого политехинс-та. –Ростов-Дон, 1930, т. 14, №2-3,с.328Ю.В.Нестеренко. “Теория чисел”. Москва. Издательский центр – “Академия” 2008-й. 152-170-б.

3. Лаврик А.Ф. К. бинарным проблемам аддитивной теории простых чисел в связис методом тригонометрических сумм И.М.Виноградова // Вестник ЛГУ.-Ленинград,1961. -№13.-С. 11-27.

4. Ш.Х. Михелевич. “Теория чисел”. 2-нашри; “Висшая школа” М. 1967 г.

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ МАҲСУЛОТЛАРИНИ ЕТИШТИРИШДА ФЕРМЕР ХЎЖАЛИКЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ

Д.Б.Яхъяева

ТТЕСИ “Корпоратив бошқарув” кафедраси катта ўқитувчиси

Аннотация: Мақола мамлакатимизда бозор иқтисодиётига босқичма-босқич ўтиш ва бозор муносабатларини янада ривожлантириш фермер ва деҳқон хўжаликлари фаолиятини ташкил этишни тизимли тарзда ўрганиш ва таҳлил қилиш орқали унинг жозибадорлигини таъминлаш ҳамда фермерликни ривожлантириш ҳамда уларнинг мулкий муносабатлари ишончли ҳимоя қилинишини таъминлашга бағишланган.

Калитли сўзлар: модернизациялаш, деҳқон, фермер хўжалиги, деҳқон бозорлари, кодекис, рақобатбардошлик, интенсив, хомашё, экспорт, саралаш, қадоқлаш.

Ўзбекистонда амалга оширилаётган ислоҳатлар иқтисодиётнинг барча тармоқлари каби қишлоқ хўжалигида ҳам ўзининг ижобий самарасини бермоқда. Сўнги йилларда аграр сохасида амалга оширилган изчил ислоҳатлар иқтисодий ўсиш кузатилиб, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш кўрсаткичлари йилдан йилга ошиб бормоқда.

Ислоҳотларнинг дастлабки босқичида фермер ва деҳқон хўжаликлари фаолиятини ташкил этиш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштиришда уларни етакчи кучга айлантириш бўйича мустаҳкам ҳуқуқий асос хамда зарур шарт-шароитлар яратилди [1].

Хусусан, фермерликни ривожлантириш, фермер хўжаликларининг иқтисодий ва молиявий мустақиллиги учун мустаҳкам ҳуқуқий асослар ва кафолатларни яратиб берувчи Солиқ кодекси, “Фермер хўжалиги тўғрисида”ги Қонун ҳамда бошқа норматив-ҳуқуқий хужжатлар қабул қилинди.

Ўтган 27 йил давомида фермерликни ривожлантириш ҳамда уларнинг мулкий муносабатлари ишончли ҳимоя қилинишини таъминлаш соҳасидаги қонун хужжатларини янада такомиллаштириш натижасида фермер хўжаликлари ҳақли равишда қишлоқда етакчи бўғинга, қишлоқ ҳўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқарувчи асосий кучга айланди.

Шу ўринда, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантиришда фермерлик ҳаракатининг ўрни ва ҳиссасини ҳамда аҳоли фаровонлигини, унинг реал даромадларини янада ошириш учун кўп тармоқли фермер хўжаликларини ташкил этишни даврнинг ўзи талаб этмоқда. Бугунги кунда мамлакатимиз иқтисодиётига ҳисса қўшаётган 525 мингдан ортиқ кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари ташкил этади.

Шу билан бир қаторда, қишлоқ ҳўжалиги маҳсулотларини етиштириш, уларни қайта ишлаш, реализация қилиш бўйича кўп тармоқли фермер хўжаликларини ташкил этилган қатлам ҳам фаол тадбиркорлардир.

Кўп тармоқли ишлаб чиқаришни ташкил қилишдаги муҳим шартлардан бири бу- ҳар қандай фермер хўжалиги ўз даромадини ошириш мақадида ўз хоҳишига кўра ихтиёрий равишда қўшимча тармоқларни ташкил этган ҳолда кўп тармоқлиҳолда кўп тармоқли фермер ҳўжалигига айланиши мумкинлигидир [2].

Ҳозирги кунда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари экспортини кенгайтиришга қаратилган президент қарори қабул қилинди

Президентимизнинг «Маҳаллий экспорт қилувчи ташкилотларни янада қўллаб-қувватлаш ва ташқи иқтисодий фаолиятни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори эълон қилинди.

Ушбу ҳужжат ташқи иқтисодий фаолиятни янада либераллаштириш, экспортга маҳсулот етказиб беришни кўпайтиришни рағбатлантириш, маҳаллий экспорт қилувчи ташкилотларнинг рақобатдошлигини ва молиявий барқарорлигини ошириш, ортиқча ва эскирган рухсат бериш тартиботларини бекор қилиш орқали ишбилармонлик муҳитини такомиллаштириш мақсадида қабул қилинган.

Унга кўра, шу йилнинг 1 июлидан бошлаб барча тадбиркорлик субъектларига янги мева-сабзавот маҳсулотлари, узум ва полиз маҳсулотларини тўловни олдиндан 100 фоиз амалга ошириш шарти билан тўғридан-тўғри шартномалар асосида экспорт қилиш ҳуқуқи берилди.

«Таъкидлаш жоизки, ушбу чоралар мева-сабзавот маҳсулотларининг экспортини кенгайтириш билан биргаликда деҳқон ва фермер хўжаликларини ташқи бозорларда талаб юқори бўлган маҳсулотлар ишлаб чиқариш ҳажмини кўпайтириш, ер ресурсларидан самарали фойдаланиш, шу жумладан, такрорий экинлар экиш ҳисобига қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ҳосилдорлигини оширишга рағбатлантиради. Бу эса ўз навбатида, ишлаб чиқарилаётган мева-сабзавот маҳсулотларининг нархи ва сифати бўйича ташқи бозорларда рақобатдошлигини ошириш имконини беради. Энг муҳими, деҳқон ва фермер хўжаликлари етиштирган маҳсулотларининг ҳақиқий эгаси сифатида улардан ўз ихтиёрига кўра фойдаланиш, мустақил экспорт қилиш, даромадларини ошириш, оиласининг моддий фаровонлигини кўтаришлари мумкин бўлади, қўшимча валюта тушумлари эса қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришни кенгайтириш ва уларни чуқур қайта ишлаш бўйича янги лойиҳаларни инвестициялаш учун имконият яратади», дейилади

Шу билан бирга, маҳаллий мева-сабзавот маҳсулотларини ташқи бозорларга чиқариш учун чет элда қабул қилинган меъёр ва стандартларга маҳсулотларнинг мувофиқлигини таъминлаш бўйича тизимли ишларни амалга ошириш талаб этилади. Ўйлаймизки, мазкур қарорларнинг қабул қилиниши ҳам келгусида мамлакатимиз қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштиришда, маҳсулотлар сифати ҳамда рақобатбардошлигини оширишда муҳим манба бўлиб ҳизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 2022йил. 21 декабрь.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси» ПФ-60-сонли Фармони. // www.lex.uz.

ИҚТИСОДИЁТНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ШАРОИТИДА ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШНИНГ САМАРАЛИ УСУЛЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Йўлдошева Мафтуна Бахтиёр қизи

Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти докторанти

Аннотация: Ушбу мақолада тўқимачилик саноатини янада ривожлантиришга жиддий эътибор қаратилганлиги, тармоқга хорижий инвестицияларни жалб этиш, сифат менежменти тизимини жорий этиш, бошқаришда инновацион усулларни қўллаш, соҳа корхоналарининг инвестиция ва экспорт фаолиятини самарали усулларини такомиллаштириш тўғрисида баён этилган.

Калит сўзлар: иқтисодиёт, инвестиция, тўқимачилик, маҳсулот, хорижий инвестициялар, самарадорлик, пахта толаси, калава ип, тармоқ.

Жаҳонда аҳоли сонининг доимий ошиб бориш тенденцияси кийим-кечак маҳсулотларига бўлган эҳтиёжнинг мунтазам юқори бўлишини келтириб чиқармоқда. Шу боисдан тўқимачилик тармоғининг саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш умумий ҳажмидаги улуши ривожланган мамлакатларда, хусусан Германия, Франция, АҚШда 6-9 % ни, Италияда 12 %ни ташкил этган. Жаҳонда охирги 10 йилда иқтисодиётнинг глобаллашуви натижасида тўқимачилик маҳсулотлари ишлаб чиқариш марказлари Европа ва АҚШдан Жанубий-Шарқий, Марказий Осиё, Жанубий Америка мамлакатларига кўчди[3]. Шу боисдан тўқимачилик саноати ишлаб чиқаришни замонавий бошқарув усулларини қўллаган ҳолда янада ривожлантириш муҳим вазифа ҳисобланади.

Республикамизда мустақиллик йилларида тўқимачилик саноатини янада ривожлантиришга жиддий эътибор қаратилиб, тармоқга хорижий инвестицияларни жалб этиш, сифат менежменти тизимини жорий этиш,

бошқаришда инновацион усулларни қўллаш борасида кенг кўламдаги амалий ишлар қилинмоқда. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида “...иқтисодиёт тармоқларини трансформация қилиш ва тадбиркорликни жадал ривожлантириш, инсон ҳуқуқлари ва манфаатларини сўзсиз таъминлаш ҳамда фаол фуқаролик жамиятини шакллантиришга қаратилган ислоҳотлар”[4] устувор йўналиш сифатида белгиланди. *Мазкур вазифаларнинг муваффақиятли бажарилиши республикамиз* тўқимачилик санаоти корхоналарининг фаолияти самарадорлигини бошқариш механизмларини такомиллаштиришни тақозо этади.

Ўзбекистон миллий ривожланишнинг янги даврига дадил қадам қўймоқда. Ҳаётимизнинг барча жабҳаларида улкан ўзгаришлар юз бермоқда, ҳамда аҳолимиз 36 миллиондан ошди, ҳар йили сафимизга 900 минг янги авлод қўшилмоқда.

Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида мамлакатимизда тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини ривожлантириш, соҳа корхоналарининг инвестиция ва экспорт фаолиятини қўллаб-қувватлаш бўйича комплекс чора-тадбирлар амалга оширилиши натижасида республикада ишлаб чиқарилаётган пахта толаси тўлиқ ва ип калаванинг 45 фоизи қайта ишланмоқда. Шунингдек соҳанинг экспорт салоҳияти 3,2 миллиард доллардан ошди[1].

2022 йилда ғоят мураккаб ва синовли йилни босиб ўтдик дейилади мурожаатномада **“...тараққиётга — фақат машаққатли ва жасоратли меҳнат орқали эришилади”.** Шу боис, пандемия, дунёдаги чуқур иқтисодий ва сиёсий инқирозлар, зиддиятларга қарамасдан, халқимизнинг қаҳрамонларча меҳнати билан эришган айрим ютуқларини айтиш жоиздир[2].

Сўнгги олти йилда инвестициялар ҳажмини ялпи ички маҳсулотнинг 30 фоизидан оширишга эришилди. Кенг кўламли ва самарали ислоҳотларимиз натижасида ялпи ички маҳсулот ҳажми илк бор 80 миллиард доллардан ошди. Иқтисодиётимизга шу йилнинг ўзида 8 миллиард доллар тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар кириб келди, экспортимиз эса, 19 миллиард долларга етди.

Иқтисодиётга маҳаллий ва хорижий хусусий инвестицияларни кўпайтириш учун шароитларни янада яхшилаш мақсадида келгуси йили қарийб 30 миллиард доллар сармоя жалб қилиниши кўзда тутилмоқда, шундан 25 миллиард доллари хусусий инвестициялардир. Жумладан, умумий қиймати 8 миллиард долларлик 300 дан зиёд лойиҳани ишга тушириш ва яна 40 та янги йирик лойиҳа режаси ишлаб чиқилади. Шу билан бирга, фаол инвестицияларни жалб қилишда хусусийлаштириш ва давлат-хусусий шериклик имкониятларидан тўлиқ ва самарали фойдаланиш зарур бўлади.

Келгуси йили мингга яқин корхоналар хусусийлаштириш орқали савдога чиқарилади. Юртдошларимиз орасида юз минглаб мулкдорлар, акциядорлар пайдо бўлади. Одамлар ўз омонатларини инвестиция қилиб юқори даромадларга эга бўлишлиги тўғрисида мурожаатномада ўз аксини топган.

Мамлакатда инвестиция муҳитини янада яхшилаш ва унинг жозибадорлигини ошириш, келгуси беш йилда 120 млрд долл., жумладан 70 млрд долл. хорижий инвестицияларни жалб этиш чораларини кўриш мақсад қилиб олинган. Шундан:

1. Инвестициялар ва ташқи савдо вазирлиги Ҳудудлар иқтисодий салоҳиятини чуқур таҳлил қилган ҳолда инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш ва мониторинг қилиш ҳамда экспортни рағбатлантириш бўйича «туман (шаҳар)-вилоят-республика» тизимида ишловчи Лойиҳа гуруҳлари фаолиятини ташкил этиш бўйича Ҳукумат комиссияси баёни лойиҳасини ишлаб чиқиш назарда тутилган.

Баён лойиҳасида республиканинг туман ва вилоятларида ҳудуднинг иқтисодий салоҳиятини чуқур таҳлил қилиб, истиқболли лойиҳаларни ишлаб чиқувчи «Лойиҳа гуруҳи» ташкил этилишини кўзда тутилган.

2. Ҳар бир вилоятда лойиҳаларни молиялаштириш учун тўғридан-тўғри инвестициялар жамғармаси иштирокидаги «Холдинг компания» ташкил этиш ва унинг фаолияти бўйича аниқ тартиб ишлаб чиқиш кераклига кўрсатиб ўтилган.

2026 йилгача хорижий ва маҳаллий инвестицияларни жалб этиш стратегиясини ишлаб чиқиб, амалга ошириш мақсад қилинган. Бунда:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2026 йилгача мўлжалланган хорижий ва маҳаллий инвестицияларни жалб қилиш стратегиясини ишлаб чиқиш мақсадида, вазирлик ва идоралар, ҳамда хорижий консултантлардан ташкил топган ишчи гуруҳни шакллантириш лозим.

2.Стратегия лойиҳасини ишлаб чиқишда асосий устуворликларни қуйидагиларга қаратиш зарур:

* пандемия сабабли дунёда инвестиция бозорида вужудга келаётган ўзгаришлар таҳлили;

* эҳтимоли тенденцияларни таҳлил қилиш;

* инвестициялар учун вужудга келадиган кескин рақобатга қарши чоралар.

Хорижий инвестицияларни жалб қилишнинг янги самарали механизмларини ишлаб чиқишда ички инвестиция ресурсларини рағбатлантириш механизмларини ва мамлакатда реинвестиция даражасини ошириш чора тадбирларини ҳамда ҳудудлардаги инвестиция кўрсаткичларидаги диспропорцияларни қисқартириш, устувор ривожлантириш механизмларини ишлаб чиқиш зарур.

Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони 2023 йил. 10 январь № ПФ-2

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 2022йил. 21 декабрь.

3.Азимова.Ф.П. Тўқимачилик саноати корхоналари фаолияти самарадорлигини бошқаришни такомиллаштириш. Монография.2022й. 28 июнь.”Factor book” нашриёти.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси» ПФ-60-сонли Фармони. // www.lex.uz.

QUALITIES OF PROFESSIONAL SKILL AND CREATIVITY IN THE ACTIVITIES OF THE EDUCATOR

Yushova Feruza O’ljayevna
Doctor of philosophy in pedogogy
Nazirova Gulasal Tokhirjan qizi
Master of FarDU

Annotation: This article shows the creative activity of Educators of preschool educational organizations and the mechanisms of its structure, the basics of which are related to the importance of creativity in the activities of the educator,the professional skills of the educator and his creative activity.

Keywords: creativity, ability, preschool organizations, creative, activity.

Today, preschool organizations are considered an important link in the education of mature individuals and the cultivation of a harmonious generation. Preschool educational organizations are a sphere of spiritual production, the product of which is not only to acquire new knowledge, new goals, new values and personal meanings, but also to reveal and develop the important forces of the educator, to show his intellectual, moral and creative potential.

Our first president, mukhtaram I. A. In his treatise "The legal guarantee of our great future", Karimov writes: "in order to be an educator — teacher, to cultivate the intelligence of others, enjoy the Enlightenment, to grow a true patriot, a true citizen, first of all, it is necessary to have such great qualities that the educator himself meets such high requirements." So, in the formation of the personality of the child, the educator is of particular importance. Especially every child assumes that he is responsible for his formation as a person. Accordingly, the educator should teach children in everyday life, games, educational activities, joint labor activities, the attitude to them, the lesson in communication, the role model of which will be able to study the child carefully in every possible way, know his personal characteristics,

abilities, show his pedogogical femininity it is necessary to make a truthful assessment of the results of the work of children's behavior and to be able to provide timely assistance to them, as well as to be interested in their marital status.

Creative potential is a dynamic, integrated feature of the individual, which is a necessary condition and result of creative activity, which determines the direction, readiness and ability of the individual to self-realization.

On the basis of modern science lies the concept of man as a being. The essence of a person as a transformer of the world, the creator of new relationships and himself is manifested precisely in creative activity. Since elements of creativity are present in any activity of a person, people's creativity is manifested in different activities of a scientist or teacher-no matter why, where the creative problem arises and by whom it is solved. Opinions about the universal manifestation of creative activity are contained in the works of many researchers. But this is wrong. This common mistake is based on a misunderstanding of the result. In fact, there are very few educators who create objectively new technologies of teaching or training. But any lesson that combines already created well-known methods and techniques, practical training is to some extent the result of creativity. This is evidenced by the fact that the creation of a new system from certain elements is already a manifestation of creativity. Building and conducting each activity requires creativity. Any lesson includes not only certain schemes for its implementation, but always the different socio-psychological state of the group and individual children, as well as the peculiarities of each person. In conclusion, we provide another proof that not only those who create new styles and approaches meet the objective criterion of pedagogical creativity. There are two types of educational outcomes. One of them belongs to the functional products of activity (training, method, technique). Another (and the main one) refers to the psychological products of activity (psychic neoplasms in the person of children). In other words, the main and final result of pedagogical activity is the development of the child himself, his personality, abilities and qualifications. Since each student is objectively unique as a person, effective pedagogical activity is creativity according to the strictest

criterion. The issue of the development of creative potential is considered a process closely related to human psychology.

In preschool educational organizations, the professional activities of their educators and its creativity are important. Each educator's creative thinking and activity contributes to a certain extent to the development of Oracle children. Creativity is thus one of the important qualities of a Educator. The fact that the educator conducts creative research to a certain extent before entering each lesson ensures the success of his professional career.

Bibliography:

1.Muslimov N. A. Osmanbayev M. H., Saifurov D. M., Torayev A. B., Fundamentals of pedagogy and creativity T:.2015 2.Stateshen M. G. General psychology T-200

2. Ishmuhamedov R. J., M. Mirsolieva. Innovation in the process of studying educational technologies. - T.: "Science and technology", 2014, 60 PP.

3. Uljayevna, U. F., Shavkatovna, S. R. (2021). Development and education of preschool children. ACADEMIA: INTERNATIONAL JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY RESEARCH, 11(2), 326-329.

4. 10.5958 / 2249-7137. 2021. 00358. X "development and education of preschool children" academia. International Multidisciplinary Research Journal.(Two Blind Judges & Peer Review Magazine). ISSN, 2249-7137.

5. Aljayevna, A. Shavkatovna, S. (2020). Development of logical thinking of elementary school students in mathematics. European Journal of research and reflection in Educational Sciences, 8 (2), 235-239.

FARG’ONA VODIYSINING SHIMOLIY OCH TUSLI BO’Z TUPROQLARINING SHAKLLANISHI

Mahramxo’jayev Sultonxo’ja Akramxo’ja o’g’li
FarDU-tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farg’ona vodiysining shimoliy qilsmida tarqalgan och tusli bo’z tuproqlar va ularning tarqalish qonuniyatlari, geografiyasi to’g’risida dunyo va o’zbek olimlarining bildirib o’tgan fikrlari va natijalari to’g’risida bir qator ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan Namangan viloyatining Pop tumanida shakllangan yangi o’zlashtirilgan och tusli bo’z tuproqlar tarqalgan maydonlarning iqlimi, morfologik tuzulishi, reliefi bo’yicha qatlam qalinligi va boshqalarga tavsif, tog’ jinslari va ularning iqlim va antrapogen omillar ta’sirida o’zgarib borish qonuniyatlari to’g’risida bir qator ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: Konglomerat, bo’z tuproq, Kopetdog, mexanik tarkib, gips, karbonatlar, efemer, mezofil, po’panaklar, konkretsiyalar.

Bo’z tuproqlar poyasining tuproqlari dastlab F.Middendorf (1887) o’rgangan bo’lib, bu tuproqlarni N.A.Dimo “och tuproq” S.S.Neustruyev “bo’z tuproqlar” deb atashni tavfsiya qilingan.

Keyinchalik A.N.Ro’zanov ko’p yillik izlanishlar samarasi o’laroq “O’rta Osiyo bo’z tuproqlari” kitobi nashr ettirdi va unga och tusli bo’z tuproqlarni o’rnini topib qo’ydi.

Bo’z tuproqlar poyasining asosiy tuproq tiplari va tipchalari tog’larning yuksakligi 250-400 metrdan, 1400 metrgacha janubda esa 1500-1600 metr absalyut yuksakliklarida shakillangan. [1, 153-158]

Bo’z tuproqlar orasida nisbatan yaxshi o’rganilgani va yaxshi tarqalgani sug’oriladigan och tusli bo’z tuproqlar hisoblanadi. Bular sug’oriladigan avtomorf tuproqlar hisoblanib, cho’l mintaqasi bilan vertikal poyasning kontakt hududida absalyut yuksakligi 300 metrdan 600 metrgacha bo’lgan yuksakliklarda ya’ni

Koratov eteklari, Mirzacho’l adirlarida va ayrim konus yoyilmalarida, Zarafshon, Surxondaryo, Vaxsh vodiylarining yuqori terrasalarida, Kopetdog etaklarida va Badxiz yuksakliklarida va shu bilan bir qatorda Farg’ona vodiysini o’rab turgan tog’larning adirlar mintaqachasida shakllangan holda vodiyning shimoliy adirlarida va konus yoyilmalarida tarqalgan bo’lib katta-katta maydonlarni egallaydi.

Bu tuproqlarda sug’orish jarayonida yuza qatlamning iqlimi o’zgaradi, shu bilan bir qatorda tuproqning suv va biologik rejimlari ham o’zgaradi, agrosug’orish qatlami hosil bo’ladi.

Och tusli bo’z tuproqlarning tarqalish hududida relyef qiyaliklarni kattaroq ko’rinishda. Tog’ etaklari yaqinida relyef yanada to’lqinli bo’lib, quruq soy va jarliklarni kesib o’tadi. Yon bag’irlari qo’shni konglomerat tog’ etaklari va adirlarning tosh-shag’alli va mayin jinslar aralashmasidan hamda prolyuvial cho’kmalardan tashkil topgan bo’lib, jinslarning tarkibi quyiga tomon og’irlashib ya’ni maydalanib, mayinlashib boradi.

Tog’ cho’kindilarining qalinligi katta va tarkibi qatlamli, qatlamlar bazan diagonal, ko’pincha xanjarsimon tuzilgan. Ular har-xil kattalikdagi va petrografik tarkibdagi shag’allardan, jinslardan tashkil topgan. Toshlar qum va shag’allar bilan sepilgan ya’ni to’yingan. Adirlarda esa to’rtlamchi davrning Mirzacho’l va Toshkent yaruslariga mansub bo’lgan lyosslar va lyossimon jinslar ustida ham hosil bo’lgan.

Tuproq yuzasi turli kattalikdagi (2-3 sm dan 15-20 sm gacha) toshchalar va shag’allar bilan qoplangan. Cho’qqilar bo’ylab o’rta va mayda toshlar, vaqtincha oqar suvlari, kanallari bo’ylab katta toshlar, pasttekisliklarda tuproq yuzasi mayin (20-30 sm) tuproq qatlami bilan qoplangan. Yuqoridagi toshlar 10 sm dan 40 sm gacha bo’lgan qatlamda jigarrang qumloq bilan aralashgan, ayrim hollarda to’yingan.

Och tusli bo’z tuproqlar tarqalgan hududlarning iqlimi quruq va issiq, yog’ingarchilik yiliga 200-300 mm dan oshmaydi. Yog’inlarning ko’p qismi qish va bahor oylariga to’g’ri keladi. Tuproqning ustki qismi ya’ni 10-15 sm qismigina qish sovuq kelgan yillari muzlaydi, yozda 10 sm chuqurlik qismi ochiq holatda qariyb 65°C gacha, 100 sm chuqurlik qismi esa 25°C gacha issiq holatlari kuzatiladi. [2, 3-40 b]

Qish va bahordagi seryog’in paytda tuproq ayrim yillarda 1 metr chuqurlikgacha namlanadi.

Tuproqning namligi qish va bahor oylari yuqoridagi 1 metr qatlam dala nam sig’imi darajasida (20-21 %), bahor oxirida esa (14-15 %), maksimal gigroskopoklik darajasigacha (4-6%), yuqori gorizontallarda esa so’lish kayfitsentidan ham past darajasigacha (1-2%) o’zgaradi. [1, 153-158 b]

Namlashning kontrastligi bahorda efemerli mezofil o’simliklarning yaxshi rivojlanishiga va mikroorganizmlarning bahorda keng rivojlanishiga olib keladi, ya’ni 1g tuproqda 1.5 mlrd mikroorganizmlar mavjud. Shuning uchun och tusli bo’z tuproqlar tarqalgan tog’oldi qiya tekisliklarida efemeroidlar, ulardan keng tarqalgani Calex-pachystylis va qo’ng’irbosh, ya’ni Poabulbosa iliq va nam bahor oylarida zich yashab chim hosil qiladi. Yozda esa nam yetishmasligi hisobiga qovjirab qoladi.

Efemeroidlar orasida efemerlar keng tarqalgan (Papaver pavonium, Delphinium perscmn, Alyssum desertorumi, Malsomliaturcestanica va boshqalar). Gipslashgan skletli melkozem ustida esa asosan shuvoq siyrak, qo’ng’irbosh o’simliklar assotsiatsiyasi birgalikda o’sadi.

Och tusli bo’z tuproqlarda bir metrli qatlamdagi jami biomassa gektariga 8-10 tonnagachani tashkil qiladi. Shunday qilib och tusli bo’z tuproqlar poyasida efemerli mezofil o’simliklarning hosil bo’lishi, mezotermik fazada qalin o’sib yuqori 10 sm li qatlamda chim hosil qilishi bilan cho’l mintaqasining siyrak o’simliklaridan farq qiladi. Qisqa muddatli bahorgi seryog’in paytda tuproqning yaxshi yuvilmasligi va pastga harakatlanayotgan suvning yuqoriga qarab qayta ko’tarilishi tuproq yaratilish jarayonida ishtirok etuvchi moddalarning tuproq kesmasi bo’ylab yaxshi yuvilmasligiga, aniqrog’i migratsiyasiga olib keladi. Ushbu tuproqlarning morfologik belgilari ham o’ziga xos bo’ladi. Misol uchun Namangan viloyatining Pop tumanida shakllangan yangi o’zlashtirilgan, Lavanda ekilgan maydon tuproqlarning morfologik tuzilishi quyidagi ko’rinishga ega.

0-5 sm. Och bo’z rangli, quruq, yengil mexanik tarkibli, tangachasimon-kesaksimon strukturali, yengil soz jinslardan iborat, tosh-shag’allar aralashmasi mavjud, ildizlar yo’q, yangi yaralmalar ko’rinmsydi.

5-16 sm. Och bo’z rangli, quruq, yengil mexanik tarkibli, ammo yuqoridagi gorizontdan ochroq, ildizlarga nisbatan boy, suvga chidamsiz, kesaksimon strukturali, mayda tosh-shag’allar uchraydi.

16-55 sm. Och qo’ng’ir rangli, uvoq strukturali, o’rta soz jinslardan iborat, mayda dog’-dog’ shaklida karbonatlar, pillalar ko’rinadi, ildizlar uchraydi, yangi yaralmalar mavjud.

55-87 sm. Yuqoridagi gorizontga nisbatan och qo’ng’ir rangli, karbonat dog’lari bor, uvoqli strukturaga ega, tosh-shag’allar ko’p, qo’shilmasi bor.

87 sm dan quyida. Yuqori qismida karbonatlar sarg’ich, yumshoq, g’ovak changsimon, yengil soz, quyida esa gips oq dog’lari uchraydi, po’panaklar, konkretsiyalar dog’ shaklida ko’rinadi. Keying qatlam tosh-shag’alli qattiq jinslardan, ya’ni ellyuviy va prolyuviylardan iborat onalik jins.

Och tusli bo’z tuproqlarning granulometrik tarkibi o’zgaruvchan bo’lib, og’ir sozdan qumoqqacha o’zgaradi. Bu holat Pop tumanidagi tuproqlarda ham ko’rinadi. Bu tuproqning 30-60 sm chuqurligida qirdotermik sharoit tufayli birlamchi minerrallarning yemirilishidan sozga aylanish jarayonida sodir bo’ladi va uni analiz qilish yo’li bilangina aniqlash mimkin. Shuning uchun bu jarayonni A.H.Rozanov “yashirin sozga aylanish” deb nomlagan. [3, 720 b]

Och tusli bo’z tuproqlar kolloid zarrachalari ichida eng keng tarqalgani bu Fe va Al li oksidlaridir. Kolloidlarning 30-80 % montmorillonit va nontronit, 10 % gidroslyuda gruppasidagi minerallar, 1-7 % esa kremnezyomlardan iborat. [3, 720 b]

Och tusli bo’z tuproqlarda chimli qatlamda chirindi miqdori oz bo’lib, u asosan tuproqning granulometrik tarkibiga bog’liq holda 2 % gacha atrofida bo’ladi, yuqoridan pastga tomon esa keskin ozayib boradi, tuproq qatlami chuqurligi esa 70-80 sm ga boradi. Chirindining umumiy zahirasi gektariga 50-60 tonna, yalpi N chimli qatlamda 0.14-0.16 %, quyida 0.1-0.08 %, P-0.24-0.1 %, K ning umumiy zahirasi 1-1.72 % ga teng. Harakatchan P-10 mg\kg dan 40-60 mg/kg gacha, umumiy fosfor 0.1-0.2 % ga teng. [3, 720 b]

Karbonatlar miqdori esa yuqori gorizontdan pastga tomon 15-25 % gacha ortib boradi va ular tuproq yuzasidan toshlarning pastki qismida po’stloq, mog’or shaklida

to’planadi, so’ngra soqol ko’rinishida to’lanadi. Toshlar ostida esa sementlanadi. Bu holat yuqorida morfologik belgilari keltirilgan tuproqlarda ham namoyon bo’ladi.

Karbonatlarning miqdori asosan onalik jinsiga bog’liq bo’lib, karbonatsiz jinslar ustida yaratilgan och tusli bo’z tuproqlarda bu miqdor 0.5 % ni tashkil etadi. Chuqurlik bo’ylab bazi joylarda gips sezilarli chuqurliklargacha yuvilgan. Bahorda sel oqimlari sodir bo’ladigan qiyaliklarni zich kesib o’tadigan kichik tekisliklarda, vohalarda tosh va shag’allarni ko’rishimiz mumkin.

Dastlabki xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki yuqorida morfologik belgilarini o’rtacha holati keltirilgan tuproqlari bo’z qo’ng’ir tuproqlardan och tusli bo’z tuproqlarga tomon evolyutsiyalanmoqda desak bo’ladi.

Adabiyotlar:

1. Kuziyev R.K., Yuldashev G’. O’zbekiston tuproqlari va ulardan samarali foydalanish. Toshkent “Zilol biloq” nashriyoti 2019 153-158 b.

2. Панков М.А. Почвы Узбекской ССР: Издательство Академии наук Узбекской ССР Ташкент-1957 г 3-40 с.

3. Розанов А.Н. Сероземы Средней Азии М. 1951 г 720 с.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA SAVODGA O’RGATISHNING METODIK USULLARI

Tilovova Zuxra

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti

Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim fakulteti 302- guruh talabasi

Annotatsiya: Tarbiyalanuvchilar uchun tovushlarni ajtata olish muhimligi, shu qatorda tarbiyachilarning mashg’ulot davomida bolalarning savodxonligini oshirish muhimligi haqida so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: Tarbiya, ta’lim , nutq, bo’g’in, tovush , harf,tarbiyalanuvchi , savod ,maktabgacha ta’lim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni, 2016-yil 29-dekabrdagi “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli, 2017-yil 9-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 19 iyuldagi “Maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 528-son, 2019 yil 13- maydagi “Maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 391-sonli qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur o‘quv qo‘llanmadan foydalanish mumkin.

Ma’lumki, bolalarga savod o’rgatish maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tayyorlov guruhlarida amalga oshirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Bolalar nutqidagi so’zlardan tovushlarni ajratib olib tahlil qilish, ular haqida nazariy, amaliy tushunchaga ega bo’lish, ya’ni so’zlarga, so’zni bo’g’inlarga,

bo’g’inni tovushlarga bo’lib tahlil qilish bolalarga savod o’rgatishning asosi hisoblanadi.

Tabiiyki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalar, tovush eshitish, talaffuz qoidalariga amal qilmaydigan turli toifadagi xususiyatlarga ega bo’lgan kichkintoylardan iboratdir. Shu bois, har guruhda faoliyat olib boradigan tarbiyachilarning savod o’rgatishdagi dastlabki vazifasi bolalarning tovush eshitish qobiliyatlarini taraqqiy ettirishdan ibrat bo’lmog’i lozim. Bu o’rinda, so’zni bo’g’inga, bo’g’inni esa tovushga bo’lishni o’rgatishdan boshlamog’i maqsadga muvofiqdir.

Tajribali, savod o’rgatish amaliyotidan yaxshi xabardor tarbiyachi ishni avvalo, kesma harflardan foydalanib so’z tuzish va so’zni o’qish usulidan foydalanishga harakat qiladilar. Chunki, kesma harflar bolalarga savod o’rgatishga samarali natijalar beradi.

Bolalar dastlab kesma harflardan so’z tuzishga va yozishga qiynalishlari tabiiy bir holdir. Keyinchalik, ular har tovushni yaxshi tanib, bilib olganlaridan so’ng kesma harflar bilan ishlash ko’nikmasi hosil bo’la boshlaydi va o’yin singari qiziqarli mashg’ulotga aylana boradi.

Bolalarga savod o’rgatishning eng muqobil usullaridan biri bu so’zlarni bo’g’inga bo’lib o’qishga o’rgatishdan iboratdir. Sirtdan qaraganda bu usul oddiy, oson yo’ldek ko’rinsada, kichik bolalarni bu usulga moslashtirish anchayin qiyin mashg’ulot hisoblanadi. Bolalar so’zlarni bo’g’inga bo’lib o’qishdan ko’ra harflab o’qishga moyilroq bo’lib, e’tibor berishmasa harflab o’qish ko’nikmasiga odatlanib qoladilar. Shuning uchun tarbiyachi bolalarga savod o’rgatish jarayonida bolalar bilan yakkama-yakka ish olib borishi, ulardan tovushlarni birikma hamda to’g’ri talaffus etishlarini talab qilish lozim. Har bir tovush va harfni to’g’ri talaffuz qilishi bo’yicha olib borishgan mashg’ulotda tahlil va talqin qilishi usulidan foydalanishga to’g’ri keladi. Bu usullar bolalarning o’qish va yozish malakalarini ongli ravishda o’zlashtirishlariga imkon beradi,.

Bolalarda o’qish malakasini hosil qilish avvalo mashg’ulotni to’g’ri tashkil qilish o’rgatiladigan tovush-harfga mos ko’rgazmali qurollarning dastlab, sodda

keyinchalik bir oz murakkabga qarab yo’nalishi bo’g’in, so’z va jadvallardan o’rinli foydalanish, mashg’ulotda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida keng qo’llaniladigan o’yin mashg’ulotlaridan foydalanish bolalarning diqqat – e’tiborini tortish barobarida qiziqarli, zavqli holatni vujudga keltiradi.

Aytaylik, bolalarga savod o’rgatishga tayyorgarlik davrida, oddiy suhbatni tashkil etishga, rangli, chiroyli tabiatni aks ettirgan suratlardan, oila a’zolari va ularning bolalar bilan bo’lgan munosabatlari xususida bo’lishi mumkin. Shuningdek, boshlang’ich sinflarning birinchi sinflari uchun tuzilgan “Alifbe”dagi har bir sahifasida turli rasmlar o’tiladigan mavzuga mos tarzda ishlangan rasmlardan ham foydalanish mumkin. Bu turli mavzularga doir bo’lgan rasmlar bolalarning diqqatini tortish barobarida ularning so’z boyligini oshirishga, tasavvurlarini kengaytirishga, fikrlashlarini o’stirishga imkon beradi.

Masalan, “Alifbe” darsligida yoz, kuz, qish, bahor fasllari aks etgan rasmlar, tabiat manzalarining bolalarning e’tiborini tortadigan lavhalaridan rasmlar beilgan. Tarbiyachi mazkur rasmlar asosida suhbat o’tkazishi tabiatning tilsimli, sirli qirralarini anglab olishlariga katta yordam beradi. Ayni paytda, o’zlari tushunmagan, anglamagan o’rinlariga doir, kutilmagan savllar berishlari mumkin. Tarbiyachi imkoni boricha bolalarning savolariga soda, oddiy nutq bilan javob berishi, savoldagi maqsadni yanada oydinlashtirishi, qo’shimchalar kiritishi lozim.

Bolalar tabiat hodisalariga doir savollar berarkan, shu bilan bir qatorda, o’z shaxsiy fikrlarini hali bayon qilishni xush ko’radilar. Ayrim holatlarda, oila a’zolari bilan tabiatga qilingan sayohat ta’surotlarini o’rtoqlashishni, hikoya qilib berishni hoxlaydilar. Tarbiyachi bunday hollarda bolalarga imkon berishi va boshqa bolalarni ham suhbatga jalb etishi lozim.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida keng qo’llanadigan usullardan biri bolalarning diqqatini tortadigan, ular ko’rib, ushlab ko’radigan ashyolardir. Bolalar bu ashyolarning bajaradigan vazifasini bilishga juda qiziqadilar va tarbiyachiga qator savollar bilan murojaat qiladilar.

Masalan, bolalar iste’mol qiladigan sabzavotlar, mevalarni olib ko’raylik: tarbiyachi aynan shu mavzuga doir suhbatni tashkil etishi uchun guruhga turli

sabzavot va mevalarni olib kelib bolalarga namoyish qilsa suhbat qiziqarli va mazmunli bo’lib o’tadi. Suhbat asnosida bolalar sabzavot va ularning turlari, shakllari, rangi, ta’mi, mazasi bir-biridan farqini yaxshi bilib oladilar. Ularning nomlari bilan bog’liq qisqa gaplar tuzib, o’zlarining og’zaki nutqlarini namoyish qiladilar.

Tayyorlov guruhlarida so’zni bo’g’inga bolishning harakatlar vositasida ham amalga oshirish mumkin. Buning tarbiyachi bolalarni davra qilib o’tqazishi va ularning qo’l harakatlarini diqqat bilan kuzatishi lozim.

1. Bolalarga ikki bo’g’inga bo’linadigan so’zlardan tanlab olib dastlab tarbiyachining o’zi harakat bilan namoyish qilishi lozim. Masalan: 0-na, bo-la, lo-la. Bunda so’zlar bo’g’inlarga bo’linayotganda qo’llar tirsakdan yuqoriga qaratilgan holda pastga qo’yiladi.

2. So’zning bir bo’g’ini aytilganda o’ng qo’l yonlamasiga pastga tushadi. Ikkinchi bo’g’in aytilganda chap qo’l o’ng qo’l ustiga tushadi. O’n va o’ndan ortiq tar-bi-ya-chi qo’-g’ir-choq, o’-yin-choq kabi so’zlarni bo’g’inga bo’lishda bolalar chapak chalishib barmoqlarini bukib sanashlari hm mumkin.

3. Bir necha bo’g’inli so’zlarni talaffuz qilganlarida jajji kaftlarini iyaklariga tirab turib so’zning necha bo’g’indan iborat ekanligini bilishlari bolalar uchun soda va oson harakat turidir.

4. Yana bir usul, bunda birinchi bo’g’inni tarbiyachi aytib, ikkinchi bo’g’inni bolalarga ayttirishi mumkin. Masalan, O tovushidan boshlanadigan so’zlarni olib ko’raylik. O-na, o-ta, o-lim kabi so’zlarni birinchi bo’g’ini bir tovushdan iborat. Uni tarbiyachi boshlab talaffuz qilishi lozim. Qolgan bo’g’inlarni bolalar davom ettirib aytadilar. Natijada, bo’g’inlar qo’shib aytilganda ona, ota, olim so’zlari tuziladi.

Yoki ,o’yin usuli bilan so’zlarni bo’g’inlarga ajratishda bolalarni doira shaklida qator turishiga va to’p yordamida so’zlarni bo’g’inga ajratishga bolalarni o’rgatishi mumkin. Bunda bolalar to’pni bir-biriga otadilar. Otayotgan bola so’zning bo’g’inini aytsa, to’pni ilib olayotgan bola ikkinchi bo’g’inini aytishi, uchinchi bola shu so’zni to’liq talaffuz etishi kerak.

Bu o’yin usuli bilan sizlarni bo’g’inlarga bo’lish,so’zlarni to’g’ri talaffuz qilishlari bolalarga zavq-shavq bag’ishlaydi. Shuningdek, ular hordiq ham chiqaradilar, ham so’zlarni to’g’ri bo’g’inga bo’lishni o’rganadilar. Eng muhimi, bu o’yinlar vositasida, ularga berilayotgan vazifani hech qiyinchiliksiz o’zlashtirib olganlarini sezmay ham qoladilar.

Yuqorida tilga olingan usullarni amalda qo’llashdan kutiladigan asosiy maqsad, bolalarga so’z (bo’g’in)dan, tovush (harf)ni ajratib olishga tayyorlashdan iboratdir.Bolalarga buni o’rgatishdan maqsad bolalarni maktabga tayyorgarligini ta’minlash va savodxonligini o’stirish zarur hisoblanadi. Bolalar tovushlarni, harflarni ,bo’g’inlarni o’rnanishi maqsad qilib olinadi,

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D. R. Babayeva . “Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasi” Toshkent .”Barkamol fayz media” 2018.
2. N.Bekmirzayev. “ Nutq madaniyati va notiqlik asoslari”. Toshkent .”Fan “nashriyoti.2007
3. A. J .Omontodiyeva . Sh .I. Abdurahimova . “ Nutq madaniyati va uslubiyati”. Toshkent. 2016
4. Azizxo’jayeva N. “ Pedagogik texnalogiya va pegagogik mahorat”.T.D. P. U. 2003.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARIGA FASLLAR ALMASHINUVI HAQIDA MA’LUMOT BERISHDA OTA-ONALARNING ROLI

Aliqulova Zarina Ulug‘bekovna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat unverseteti
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3-bosich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Maktabgacha ta’lim tashkilotining tayyorlov guruhlarida fasllar almashinuvini o‘rgatishning usullari, tarbiyalanuvchilarga borliq va unga tutash hodisalar va ularni tabiatni sevishga o‘rgatishda ota-onalar va tarbiyachining hamkorligi yoritib berilgan;

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim tashkiloti, ota-ona, tabiat , fasllar, hamkorlik;

Insonning tabiat hodisalarining bitmas – tuganmas sirlarini o‘rganishga qiziqishi barcha yoshda ham to‘xtamaydi. Inson tabiatning mahsulidir. Bizni o‘rab turgan borliq hodsalarini o‘rganish insoning aqlini tanishi bilanoq boshlanadi. Bola hamma narsaning nomini bilishni istar ekan, u albatta tabiat hodisalarini ham o‘z tilida nomlay boshlaydi. Tabiat bilan tanishish insonni ma’naviy kamolotga yetkazuvchi jarayon bo‘lib, uni barcha salbiy xatolardan saqlaydi. Natijada uning xulqiy go‘zalligi oratadi. T.K.Venogradovaning so‘zlariga ko‘ra, tabiat bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishning samarali vositasidir. Bola tabiat bilan tanishish orqali ko‘plab kashfiyotlar qiladi.

Tabiatga muhabbat – juda keng qamrovli va murakkab his-tuyg‘udir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhitga mas’uliyat munosabatlarini shakllantirishga doir tadqiqot ishlarini olib borgan M.Umarovaning fikricha, bu hissiyotni tarbiyalash bolalaikning erta yoshidan boshlash muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tabiat bialan tanishtirish– bu ularda tabiatga to‘g‘ri munosabatni tarbiyalash va hissiy tajribaga asoslangan, atrof-muhit haqidagi real bilimlarni anglashning asosiy vazifasidir.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi tarbiyalanuvchilariga tabiat hodisalari, fasllar almashinuvi haqida ma’lumot berish tarbiyachidan bir qancha sohalarda mukammal bilimga ega bo‘lishni talab qiladi. Tarbiyachi fasllar almashinuvini tushuntirishda, bolalarga har bir faslning o‘ziga xos xususiyatini, ushbu faslda amalga oshadigan ishlarni yoki ularga yanada tushunarli bo‘lishi uchun mevalarning qaysi faslda yetilishini, tabiat hodisalarini ekskursiyalar va tabiat burchaklari yordamida tushuntirishi lozim . Fasllar almashinuvini bolalarga o‘rgatishda tarbiyachi va ota-onalarning hamkorlikda ish olib borishi yaxshi samara beradi. Bola tarbiyachidan eshitgan fasllar almashinuvini oilasi davrasida ko‘proq ko‘radi. Bolani bog‘chaga olib kelish jarayonida ham ota-ona fasllar almashinuvini tushuntirishi mumkin . Masalan, daraxtlarning gullashi, o‘t- o‘lanlarning yashil tusga kirishi, varraklarning uchirilishi bahor faslida yuz beruvchi hodisa ekanligini, yoki havoning issiqligi, mevalarning g‘arq pishishi yoz faslidan darak ekanligini, va yana boshqa misollar yordamida tushintirishi ayni muddao bo‘ladi. Bolaga oilaviy muhitda tabiatga muhabbat hissi shakllantirilsa tarbiyachi bir qator qiyinchiliklarga uchramaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar yilning turli vaqtlarida tabiat bilan muloqot qilishadi. Tabiat bilan tanishishda bola uchun kattalarning yordami beqiyos ahamiyatga ega, bu bilan bola atrofdagi olamni bilib boradi. Hech qaysi didaktik materialga bolaning rivojlanishida tabiat kabi xilma-xil va kuchli ta’sir qilishini taqqoslab bo‘lmaydi. Tabiatning obektlari va hodisalari bolalar oldida vizual tarzda namayon bo‘ladi. Bolalar erta yosh davridan boshlab tog‘ridan to‘g‘ri sezgilar yordamida tabiiy obektlarning turli xil xususiyatlarini idrok etadi, u tabiat haqida dastlabki aniq va jonli fikrlarni shakllantiradi. Keyinchalik bunday aloqador munosabatlar natijasida yangi tabiat hodisalari anglanadi. Bolalar kuzatish jarayonida tabiat hodisalari o‘rtasidagi ko‘plab aloqalar va munosabatlani o‘rganadilar. Bu esa tarbiyalanuvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Bolalarni tabiat bilan muntazam tanishtirish birinchi va ikkinchi kichik guruhlardan boshlanadi. Bu yoshda bolalarning tabiatning alohida obektlari: qum, suv qor, muz va ularning xususiyatlari, o‘simliklarning tuzilishi, hayvonlarning tashqi ko‘rinishini o‘rganishi va eslab qolishi faol bo‘ladi. Fasllar almashinuvi haqida

bolalarga tushuncha berishda ota-onalarning tabiat qo‘yniga sayohati ham bolalarda fasllar almashinuvini farqlashga yordam beradi. Ota-onalar har bir tabiat hodisasining qaysi faslda ro‘y berishini tushuntirishi, har bir faslga mos ravishda kiyinishga o‘rgatish ham fasllar almashinuvini farqlashda samara beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, tabiat bilan tanishtirishda oila bilan hamkorlik samarali vositalardan biridir. Bolalar tabiat hodisalarini to‘g‘ri idrok etishlari uchun ularning tabiatni idrok etish jarayoniga yo‘naltirish zarur. Bolalarni tabiatga oshno etmasdan va maktabgacha ta’lim muassasasidagi ta’lim - tarbiya ishlarida undan keng foydalanmasdan, maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarni har tomonlama – aqli, estetik, axloqiy, jismoniy jihatdan tarbiyalash vazifasini muvofaqqiyatli hal etib bo‘lmaydi. Fasllar bilan tanishishda kattalarning shaxsiyati alohida ahamyatga ega. Bolalarga tabiat haqida tushuncha berish aqliy va axloqiy tarbiyaning ajralmas bir bo‘lagidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi . Toshkent-2022;
2. F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova , M.A’zamova “Maktabgacha pedagogika”.

Toshkent-2013

3. M.Umarova “Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni shakllantirish”. Toshkent-2008;
4. Sh.Sodiqova, M.A.Rasulxo‘jayeva “ Tabiat bilan tanishtirish metodikasi ” Toshkent- 2013

ЁШЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ЎЗИГА ХОС ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Г. Эшназарова

СамДУ ўқитувчиси

В данной статье рассматриваются психологические особенности подготовки молодежи к смейной жизни: подробно объясняются предбрачныI факторыI создания семьи, мотивыI, критерии подготовленности к семье, возраст вступления в брак, сроки и условия знокомства молодыIх.

КлючевыIе слова и понятих: семье, подготовка к смейной жизни, предбрачныIй факторыI, возраст создания семьи, мотивыI, любовь, условия знокомства, семья по стереотипу, семья по расчету.

This article discusses the psychological characteristics of preparing youth for family life; in detail explained the premarital factors of starting a family, motivation, criteria of readiness to family, marriage age, the terms and conditions dating young.

Keywords and concepts: family, readiness to family, preamarital factors,the age of starting a family,motivation, love, dating terms, the family of the stereotype, the family convenience.

Инсон оилада дунёга келади. Мурғак фарзанд ота-онадан нафақат ирсий хусусиятларни қабул қилиб олади, балки у хаётда одамзотга хос бўлган барча хатти-харакат, кўникма, малака ҳамда одоб-аҳлоқ қоидаларини ҳам ўз оиласида эгаллайди, камол топтиради. Инсоннинг ҳам жисмоний, ҳам маънавий-руҳий камолоти албатта оиладан бошланади.

Оила жамиятнинг бир бўлаги, у бутун инсоният ва ҳар бир халқ тараққиётининг бешигидир

Оила –арабча “Оил” сўзидан олинган бўлиб, у “аёлманд”, “ниёзманд” деган маъноларни билдиради. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”нинг учинчи

китобида бу сўзнинг бош маъноси, яъни “эр-хотун, уларнинг бола-чақалари ва энг яқин туғишганлари яшовчи хонадон”, “Бир мақсад билан бирлашган кишилар” маъносини англатади.

Ватан меҳри ва гўзаллигини англаш ҳам оиладан бошланади. Инсон борки, туғилган кунидан бошлаб, ўзининг маънавий ва моддий эҳтиёжларини оилада қондиради. Шундай экан, оиладаги муҳитнинг қай тарзда бўлиши боланинг тарбиясига таъсир этувчи муҳим омил ҳисобланади. Миллий мафкурамизга мос бўлган илк тушунчалар, аввало оила муҳитида шаклланади. Бу жараён боболар ўгити, ота ибрати ва она меҳри орқали амалга оширилади. Демак, оиладаги соғлом муҳит соғлом авлод тарбиясининг муҳим манбаи саналади.

Оилада боланинг шахс сифатида шаклланиши унинг гўдаклик давридан бошланади. Болалар тарбиясига биринчи навбатда ота ва онанинг ўзаро муносабатлари катта таъсир кўрсатади. Оиладаги соғлом муҳит, оила аъзоларининг ўзаро самимий муносабатлари, меҳрибончиликлари, бир-бирига бўлган ғамхўрлик, ўзаро ҳурмат боланинг руҳиятига ижобий таъсир кўрсатади. Ота-она фарзанди олдида ўз ақл-заковати, муомаласи, ширинсўзлиги, ростгўйлиги, билимдонлиги, меҳнатсеварлиги билан намуна бўлиши зарур. Оиладаги носоғлом муҳит, яъни отаси ичувчи ва онасини ҳақоратловчи, ота-онанинг ўзаро жанжаллари, меҳрсизлик, бепарволик, оиладаги пала-партишлик болага салбий таъсир кўрсатади.

Ота-она фарзандларнинг биринчи тарбиячиси. Чунки бола илк тарбияни оиладан олади. Фарзанд оиладан, ота-онанинг оғушидан, қалб ҳароратидан, илиқ нафасидан баҳра олиб улғаяди. Оиладаги тотувлик, ўзаро ҳурмат, меҳр-муҳаббат ота-оналар билан болалар ўртасида ижобий муҳитни қарор топтиради, уларнинг камолотига ижобий таъсир кўрсатади.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, ёшларни оила ва оила муносабатларига тайёрлаб бориш ота-онанинг асосий вазифаларидан биридир. Хўш, оилавий ҳаётга тайёргарликнинг психологик жиҳатлари нималарни ўз ичига олади. Шу фикрга кенгроқ тўхталсак

Инсон ўзини оила қуришга тайёрман, дейиши учун унда қуйидаги сифатлар мажмуи бўлиши лозим.

Ахлоқий фазилатлар-яъни оила қураман, турмушга чиқаман, дейиш, шахснинг бўлғуси турмуш ўртоғи, бўлажак фарзандлари, янги қариндошлари олдида илгари тажрибасида бўлмаган масъулиятни бўйнига олишни тақозо этади.

Шахслараро муносабатларга, ҳамкорлик қилишга руҳан тайёргарлик-муомала қилиш одобининг бўлиши, янги қариндошлар билан ҳамкорлик қилишга руҳан тайёр бўлиши.

Альтруизм-турмуш ўртоғи ва оила аъзоларига биринчи навбатда фарзандларига нисбатан фидоийлик, севган инсонининг кўнглини билиш ва шунга қараб иш тутиш.

Эмпатия ҳисси-турмуш ўртоғини ҳис-кечинмаларига ўртоқ бўлиш, унинг ўрнига ўзини қшя билиш, кўнглига йўл топиш.

Юксак маданиятга эга бўлиш-никоҳга кириш учун инсон эстетик жиҳатдан ўзини юксак маданият соҳиби сифатида тасаввур эта олиши зарур.

Бундан ташқари оилада бўладиган низоли вазиятларда зиддиятли ҳолатлардан конструктив тарзда чиқиб кета олишга ҳам ёшлар тайёр бўлиши лозим.

Кўпчилик ёшларимиз, айниқса муваффақиятли оилаларда тарбия топган ёшлар, оила қуриш арафасида бўлар эканлар аксарият ҳолларда ўзларининг бўлажак оилавий ҳаётлари учун ўз ота-онаси оиласини идеал қилиб оладилар. Чунки улар оилада тарбияланар экан ота – онасини низолашиб тортишганини, бир – бирларини ҳурматсизлик қилганларини эслай олмайдилар.

Оила тарбияси масаласи буюк аллома Абу Али ибн Синони ҳам бефарқ қолдирмаган. У ўзининг кўплаб асарларида оилада бола тарбияси, уларнинг саломатлиги, энг муҳими мутафаккирлар ичида биринчи бўлиб бола руҳиятини ўрганиш асосида тарбиявий муносабатда бўлиш ҳақидаги фикрни кўтариб чиқди. Унинг “Ишороат”, “Донишнома”, “Тиб қонунлари”, “Тадбири манзил” ва бошқа асарларида оила ва оилавий тарбия масаласида қимматли фикрлар

билдирилган. Унинг таъкидлашича: “Агар оилада, оила бошлиғи тажрибасизлик, нўноқлик қилса, у оила аъзоларини яхши тарбиялай олмайди ва оқибатда ёмон натижалар келиб чиқади”. Ибн Сино оила ва бола тарбиясида шундай дейди: “Ота-онанинг ким бўлишидан қатъий назар уларнинг биринчи ва энг муҳим вазифаси бола тарбиясидир”. Ибн Сино оилада болаларни тарбиялашда унинг ёшлигидан бошлаб фақат яхши қилиқларга ўргатишни, бу қилиқ эса келажакда унинг характерига айланиб мустаҳкам иродали бўлиб етишишини таъминлайди. Шунингдек, Абу Али ибн Сино бола ахлоқининг шаклланишида эр-хотиннинг бир-бирига бўлган муносабати, бир-бирини ҳурмат қилишлари ижобий таъсир кўрсатиши ҳақида таъкидлайди. Унинг фикрича, оилада болаларни соғлом, ақлли, ахлоқан пок, меҳнатсевар қилиб тарбиялаш ота-оналарнинг муқаддас бурчи саналади.

Фикримизни якунлар эканмиз, юртимизда ўсиб, улғайиб келаётган ёшларни мустақил ҳаётга қадам қўйишлари, етук шахс сифатида шаклланишлари, жамиятда ўз ўрнини топишлари учун, аввало оилада осойишталик, иноқлик, тоза психологик муҳитни барқарорлаштирайлик. Зеро бу фарзандларимизнинг ўзига, келажакка бўлган ишонч ҳиссини уйғотишга асосий омил бўлиб хизмат қилсин.

Адабиётлар:

1. Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т.: “Маънавият”, 2018 йил.
2. Каримова В.Мю Оилавий ҳаёт психологияси. Т.:2006 йил.
3. Оила психологияси. Шоумаров Ғ.Б таҳрири остида. Т.,2000 йил.

AYOLLAR MURAKKAB BICHIMLI KIYIMLARIDA YENGLAR TAXLILI

Tursunova Xilola Shuxratjon qizi
Farg‘ona politexnika instituti
YST kafedrasi assistenti
Ruzimatova Odinabonu Abdurasul qizi
Farg‘ona politexnika instituti
M21-21 TBKIT guruh magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada murakkab bichimli ayollar kiyimida yenglarni konstruksiyalash usullarini bazaviy konstruksiyani o‘zgartirish darajasiga qarab modellash usullari haqida taxlil natijalari yoritib berilgan..

Kalit so‘zlar: yangi model, etalon namunalar, loyiha konstruktorlik, siluet, shakl, vitachka, yaxlit bichilgan yenglar, kombinatsiyalashtirilgan yenglar.

Badiiy konstruksiyalash — bu yangi ijodiy loyihalash usulidir. Uning yordamida mahsulotning sifatini yuqori darajaga ko‘tarish mumkin. Bu usul utilitar va estetik prinsiplar birligida asoslangan. Utilitar ma’nosida foydalilik, funksionallik, foydalanishda qulaylik, mustahkamlik, texnologiya jihatdan qulaylik va tejamlilik tushuniladi, estetik ma’nosi-go‘zallik, nafislik, ifodalilik va ta’sirlilikdadir. Muhandislik konstruksiyalash buyumning texnik tuzilishini bildiradi. Uning natijasida yangi modelning etalon namunasi va loyiha konstruktorlik hujjatlarining to‘liq to‘plami tayyorlanadi. Zamonaviy loyihalashda barcha talablar majmui hisobga olingan holda tuzilgan hilma-xil yechimlardan ustunrog‘i tanlanadi.


Bazaviy konstruksiyani o‘zgartirish darajasiga qarab to‘rt xil texnik modellash yo‘llari farqlanadi. Yangi kiyim modelashtirilganda dastlabki konstruktiv asosning silueti o‘zgarishsiz qoladi, yoki siluet shakli faqat kiritilgan, taxlama, burma va joyidan ko‘chirilgan vitachka hisobiga o‘zgaradi. Ayni holda bort qaytarmasining shakli, yoqalari, tugma va izmalarining joylanishi hamda soni, cho‘ntaklar va boshqa mayda detallarning shakli hamda joylanishi o‘zgartiriladi.

1. Ayollar kiyimida esa ko‘krak vitachka belgilangan yo‘nalishda ko‘chiriladi. Bu variant ko‘proq amaliy ishlarda qo‘llanadi.

2. Konstruktiv asosning silueti yangi model bo‘yicha proporsiyalari va ko‘krak, bel hamda bo‘ksa chiziqlarida to‘kislik darajasi o‘zgartiriladi, etak tomonga kengayib yoki torayib boradi. O‘zgartirish miqdori taxminiy aniqlanadi. Bu usul o‘xshash modellar konstruksiyasi yo‘qligi paytida, yangi moda yo‘nalishiga mos bo‘lgan kiyim namunasini ishlashda qo‘llanadi.

3. O‘tkazma yengli bazaviy konstruksiyadan maxsus murakkab o‘zgartirishlar orqali reglan, yaxlit bichilgan yoki kombinatsiyalashtirilgan boshqa bichimli konstruksiyalar olinadi.

4. Kiyimning boshqa xildagi yangi modeli ishlanadi. Bu usul kamdan-kam qo‘llaniladi. Yangi model konstruksiyasi namuna tayyorlash orqali aniqlanadi [9].



1-rasm.Yaxlit bichilgan yengli va qirqma yon bo‘lakli konstruksiyani qurish

Konstruktiv asosning siluetini o‘zgartirib modellashtirish usullariga parallel va konussimon kengaytirish yoki toraytirish, detallarni toraytirish yoki burmalar hosil qilish kiradi. Parallel kengaytirish detallarda asosan burmalar va yumshoq taxlamalar loyihalash uchun qo‘llaniladi. Konstruktiv gorizontal chiziqlar belgilangan detal qator vertikal chiziqlar orqali bo‘linadi va har bir bo‘lak konstruktiv chiziqlar bo‘yicha suriladi. Surilishlar bir xil maromda yoki notekis ravishda bajarilishi mumkin. Ketma-ket surilgan detallar konturi belgilanib turiladi. Oxirgi detal surilgan zahoti butun yangi kontur ravon chiziladi.



2-rasm. Yengi yaxlit bichimli ayollar paltolari model namunalari.

Xulosa. Vitachkali detallar kengaytirilganda qirqiladigan chiziqlar vitachkalar uchidan o‘tadi. Bo‘laklar surilgandan so‘ng vitachk alar qisman yoki to‘liq yopiladi. O‘tkazma yengli bazaviy asosni o‘zgartirishlar orqali butunlay yengi boshqacha bichimli (reglan, yaxlit bichilgan, chuqurlashtirilgan o‘mizli, tirqishsimon o‘mizli va h.k.) yangi model konstruksiyasiga aylantirish mumkin (2-rasm). Bazaviy asosga kiritilgan o‘zgartirishlar tayanch yuzalarida joylashgani uchun buyumning qomatda o‘rnashuvi va muvozanati buzilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. S.Sh. Tashpulatov, M.K. Ramazanova, G.G‘.Alimova, Sh.G. Jo‘raeva “Keng assortimentdagi kiyimlarni loyihalash, modellashtirish va badiiy bezash” Toshkent -2013

2. X.X.Komilova “ Tikuv buyumlarini konstruksiyalash” Toshkent Cho‘lpon-2011

3. X.X.Komilova, J.S.Ergashev “Materiallarni konfeksiyalash” fanidano`QUV-USLUBIY MAJMUA Namangan-2019

4. Tursunova X Sh, BB Nizamova, SR Mamatqulova “Analysis Of The Range Of Modern Women's Coats” The American Journal of Engineering and Technology

PALTO MODELLARI SHAKLLARIGA GAZLAMA XUSUSIYATINING AHAMIYATI VA QOMATGA JOYLASHUVINING TAXLILIY YECHIMLARI

Tursunova Xilola Shuxratjon qizi
Farg‘ona politexnika institute “Yengil sanoat texnologiyalari va to‘qimachilik” fakulteti “Yengil sanoat texnologiyalari” kafedrasi
Ruzimatova Odinabonu Abdurasul qizi
Farg‘ona politexnika instituti
M21-21 TBKIT guruh magistranti

Annottatsiya: Ushbu maqolada ayollar ust kiyimlari assortimentlari marketing tahlillari asosida, ularda qo‘llanilayotgan gazlamalar turlari, hom-ashyosi tarkibi, liboslarda qo‘llaniluvchi bezaklar o‘rganilib, yangi model uchun dastlabki loyihalash ishlari bajarilgan.

Kalit so‘zlar: glad, jinsi, ,flanel, model, analiz, trikotaj, kombinatsiya, hom-ashyo, model, mustahkamlik, marketing, brend, furnitura .

Konstruktiv chiziqlar gorizontal va vertikal holatda bajariladi. Eng ko‘p tarqalgan yeng bichimi turi - bu o‘tkazma yeng bo‘lib, u 70-80 foiz kiyimlarda uchraydi va barcha siluetlar uchun universal holda qo‘llaniladi. Reglan bichimidagi kiyimlarning silueti ko‘pincha to‘g‘ri bo‘lib, asosiy e’tibor yelka kamarini shakllantirilishiga qaratiladi. Yaxlit bichimli kiyimlar yumshoq shakllarni hosil qilishda qo‘llaniladi [1,b,88].

Konstruktiv chiziqlarni kiyim detallari bo‘ylab va ko‘ndalangiga o‘tkazilishi, undan muayyan hajmdor shaklni hosil qilinishiga erishiladi. Konstruktiv chiziqlar ko‘pincha tayyor kiyimda unchalik ko‘zga tashlanmaydi. Kiyim detallari gorizontal, vertikal, kombinasiyalashgan va fantaziya usulida bo‘linishi ham mumkin. Kiyim yuzasini vertikal bo‘laklarga bo‘lish old va ort bo‘laklardagi yelka choki yoki o‘mizdan boshlanib, etak, bo‘ksa yoki bel chiziqlarigacha bo‘lgan relyef chiziqlari

hamda yon va ort o‘rta choklari hisobiga amalga oshiriladi. Vertikal bo‘linish chiziqlari shakl hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridandir.

Dekorativ chiziqlarga turli xil bezaklar (bezak qaviq, bezak chok, kashta, to‘r, to‘qima, applikasiya va boshqalar), detallarning chekka kontur chiziqlar (yoqa, laskan, bort va boshqalar) kiradi[2,b,88].

Konstruktiv-dekorativ chiziqlarga barcha ko‘rinadigan ham konstruktiv, ham dekorativ chiziqlar kiradi. Bu chiziqlar bir tomondan shaklni konstruktiv jihatdan to‘ldirsa, ikkinchidan ushbu shaklni to‘ldiradi ham [3].

Shaklni hosil qilishda texnologik usullarga quyidagilar kiradi: namlab-isitib ishlov berish (kirishtirib va cho‘zib dazmollash), trikotaj matoda asos va arqoq halqalarining yo‘nalishini o‘zgartirish hisobiga va ularni kombinasiyalash orqali shaklni o‘zgartirish.

Paltoning hajmdorligi uning uslubini belgilaydigan xususiyatlarini ham aks ettiradi. Zamonaviy modada qator uslublar mavjud bo‘lib, ularga klassik, sport va fantaziya kabilar kiradi (1- rasm). Ommaviy ishlab chiqarishda ayollar paltosi uchun jun, kimyoviy tolalar qo‘shilgan yarim jun, poliefir-viskoza tolalaridan, lake bezakli poliefir teksturlangan iplardan to‘qilgan gazlama, plenka qoplangan poliamid va kapron ipli gazlamalar, tabiiy va sintetik charm va zamshadan foydalaniladi. Paltobop gazlamalar ko‘pincha suv shimmaydigan va antistatik korishmalar bilan ishlov beriladi [2,b,109].



1-rasm. Zamonaviy palto shakllari namunalari

Palto uchun materiallarning rasional paketini konfeksiyalash masalasi nisbatan issiqsaqlovchan, yengil, havo o‘tkazuvchanlikni ta’minlaydigan materiallardan paket tayyorlashga borib taqaladi. Paketga kiruvchi barcha matolar ma’lum fizik-mexanik xossa ko‘rsatkichlariga ega bo‘lishi kerak [5].

Mavsumiy (demisezon) paltoda ustki gazlama issiqsaqlovchanlik funksiyasini bajaradi. Qishki paltoda issiq saqlovchanlik esa shamoldan va sovuqdan ximoyalovchi oraliq matolar xisobiga ta’minlanadi.

Paltolik gazlamalarda shu bilan birga nam o‘tkazuvchanlik ham katta axamiyatga. Chunki namlikning kiyimda to‘planib qolishi uning issiqo‘tkazuvchanligining ortishiga va insonning ko‘p energiya yo‘qotishiga olib keladi. Lekin paltolik gazlamalar haddan ziyod nam va suv o‘tkazuvchan bo‘lsa, atmosferadagi namlikni o‘ziga tortishi natijasida kiyimning issiqsaqlovchanlik xossasi pasayadi [1,b.57]. Prof. V.P.Sklyannikovning ko‘rsatmalarida [4] drap gazlamaning umumiy nam o‘tkazuvchanligi 95-100 g/(m^2.ch), par o‘tkazuvchanligi - 40-45g/(m^2.ch)dan kam bo‘lmasligi isbotlangan. Yarimjun draplarning nam o‘tkazuvchanligi past bo‘lib, 80-90g/(m^2.ch)ni tashkil etadi. Paltolik sun’iy matolarda esa nam o‘tkazuvchanlik 60g/(m^2.ch)dan oshmaydi. Bundan kelib chiqadiki, kiyim materiallari paketida atmosfera namligini kamaytirish uchun ustki materiallar gidrofob (suv shimmaydigan) xususiyatga ega bo‘lishi yoki ularga suvni yuqtirmaydigan eritma bilan ishlov berilishi kerak [3].

Palto materiallari paketi ustki gazlama- avradan, astarlik, shaklsaqlovchanlikni ta’minlaydigan qotirma va oraliq materialdan, issiq qatlamdan iborat bo‘ladi. Bunday paket issiqsaqlochanligi bo‘yicha mo‘ynali kiyimlardan qolishmaydigan qishki palto yaratish imkonini beradi. Zamonaviy paltolarda issiq qatlam paltolik gazlama bilan birga yoki alohida (vatin, sintepon) tikilishi mumkin.

Paltolik gazlamalar hamisha qalin bo‘lishi shart emas. Ularning asosiy ko‘rsatkichi – chiroyli tashqi ko‘rinishidir. Mato chiroyli, yumshoq, nisbatan yengil, kam g‘ijimlanuvchan, pishiq, suvni kam shimadigan, tashqi havo ta’siriga chidamli, kirchimol va tez tozalanadigan bo‘lishi kerak.

XULOSALAR. Adabiyotlarning analitik taxlili natijasida ayollar paltosi uchun zamonaviy matolar assortimenti shakllantirildi. Bu matolar avvalo zamonaviy moda yo‘nalishi tendensiyalariga mos bo‘lib, tikuv korxonasi sharoitlarini, texnologik uskuna va jixozlar xususiyatini, materiallar xossalarini inobatga olishi kerak. Palto gazlamalari xilma xil va ularga issiq saqlovchi klassik tipdagi qalin toza jun matolar, hamda aralash va sun’iy tolali matolar ham kiradi Palto vazifasi uning materiali xususiyatini belgilaydi. Paltoga bir tomondan issiq saqlovchi, shamol o‘tkazmaslik talablari qo‘yilsa, ikkinchi tomondan estetik talablar qo‘yiladi.

Ayollar paltosi assortimenti xarakteristikasi o‘rganildi, uning xillari juda keng bo‘lib, kalta paltodan uzun shinelgacha turlarni o‘z ichiga oladi. Zamonaviy palto assortimentida klassik tipdagi paltolar bir qatorda parkasimon sintepon qavatli paltolar ham keng o‘rin olgan.

Turli shakldagi palto modellarining retrospektiv tadqiqoti o‘tkazildi. Retrospektiv tadqiqotlar 2011-2017 yillarni o‘z ichiga oldi. Hammasi bo‘lib 200dan ortiq modellar o‘rganildi. Palto shaklini yaratishda ***konstruktiv chiziqlar,*** dekorativ chiziqlar, konstruktiv-dekorativ chiziqlar katta rol o‘ynaydi. Bukle gazlamadan palto modellari kolleksiyasi yaratildi. Kolleksiya modellari uchun konfeksion karta va model konstruksiyalar ishlab chiqildi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. X.X.Komilova “ Tikuv buyumlarini konstruksiyalash” Toshkent 2011

[2]. X.X.Komilova, J.S.Ergashev **“**Materiallarni konfeksiyalash” fanidan O‘QUV-USLUBIY MAJMUA Namangan-2019

[3]. Tursunova, X.Sh., Mamatqulova Saida Rahmatovna. (2020). Ayollar paltosi uchun gazlamalar taxlili. 3 rd international congress of the human and social science researches (itobiad).

[4]. Analysis of the development of older women's clothing of different subcultures (On the example of muslim women's clothing) SM Husanqizi, YD Ubaydulloyevna, HJ Valiyevich - Asian Journal of Multidimensional Research, 2021

[5].Asian Journal of Multi dimensional Research (ADouble Blind Refereed& Peer Reviewed International Journal)DOI: WAYS TO SOLVE PROBLEMS IN THE PRODUCTION OF KNIT WEAR M. M. Ulugboboyeva*; X.Sh.Tursunova** http://tarj.in/images/download/ajmr/AJMR-SEPTEMBER-2021-FULL-JOURNAL.pdf

TUPROQSHUNOSLIK YO‘NALISHINING I VA II KURS TALABALARI UCHUN FAN BO‘YICHA IZOHLI LUG‘ATI

Yuldasheva Feruzabonu Yuldashevna
FarDU xorijiy tillar kafedrasi talabasi
Mahramxo’jayev Sultonxo’ja Akramxo’ja o’g’li
FarDU o’qituvchisi
Mamadaliyev Alijon Axmadjon o’g’li
FarDU Tuproqshunoslik kafedrasi laboratoriya mudiri

Annotatsiya: Tuproqlarni nomlanishi, klassifikatsiyasi, tuproqda kechadigan jarayonlarni, organik va mineral o‘g‘itlar nomalarini bilish, tuproq fazalarini tushunish, tuproq xossalarini bilish uchun aniq bir doiradagi zaruriy atamalarni bilishga to‘g‘ri keladi. Bu ishni birdaniga amalga oshirib bo‘lmaydi. Lekin asta-sekinlik bilan lug‘atlar orqali o‘rganish mumkin.

Kalit so‘zlar: fundamental tuproqshunoslik, kadrlar tayyorlash, qo‘llanma, lug‘at, xarita

Ushbu ishda keltirilgan tayanch so‘zlar, atamalar ko‘p ishlatiladi, lekin so‘zlashgichlarda har xil sifat va miqdorda, har xil tartibda berilgan. Xususan tuproqshunoslik yo‘nalishining talabalari, ayniqsa birinchi va ikkinchi bosqich talabalari bu tayanch iboralarni bilishlari kerak bo‘ladi, chunki birinchi va ikkinchi bosqich talabalari fundamental tuproqshunoslik, ya’ni universitetlar uchun yozilgan va nashr etilgan V.A.Kovda, B.G.Rozanov tahrirlari ostida yozilgan va nashr etilgan I va II tom shug‘ullanadilar. Buni o‘zlashtirish uchun esa maxsus tayanch iboralar, atamalarni bilishga to‘g‘ri keladi. Birinchi va ikkinchi bosqich talabalari uchun tuproqshunoslikda qo‘llaniladigan atamalar, tayanch iboralar mazmun va mohiyati jihatidan ular uchun yangi, yoki butunlay yangi bo‘ladi.

Tuproqshunoslikka doir lug‘atlar, so‘zlashgichlar ko‘p emas, mavjudlari esa nisbatan eski, ya’ni birinchilar qatori yozilgan so‘zlashgichlar bo‘lib, A.A.Rade

tomonidan, keyinchalik Loze Matye tomonidan yozilgan so‘zlashgichlar mavjud. Ular yaxshi yozilgan, lekin sug‘oriladigan tuproqlar qamrab olinmagan. O‘zbekistonda akademik J.S.Sattorov hamkorlikda asarlari ya’ni lug‘ati mavjud. Uni ham to‘liq va takomillashgan deb bo‘lmaydi. Dunyo tuproq xaritalari legendasida FAO (Food Agriculture Organization) va Yevropa mamlakatlari va UNESCO (United Nations Education and Culture Organization) tuproq xaritalarida bir qator nomlar yetarli darajada tushunarli tilda, ya’ni o‘zbek tiliga tarjima qilganda tushunarli bo‘lavermaydi, shu bois ularni alternativ so‘zlar bilan almashtirishga to‘g‘ri keladi, bu zamon talabi bo‘lib, dolzarb muammo hisoblanadi. Ularning eng zarurlarini quyidagi jadval tariqasida keltirish mumkin.

№	Rus tilida	Ingliz tilida	O‘zbek tilida izohli ko‘rinishi
1	Агрегат	Aggregate	Agregat, ya’ni uch o‘lchamli tabiiy elementlar, tuproq bo‘lakchalari
2	Азональная почва	Azonal soil	Azonal tuproqlar-ushbu zonaga xos bo‘lmagan tuproq yoki ushbu zonaga xos bo ‘lmagan pedogenetik qatlamli tuproq
3	Азота цикл	Nitrogen cycle	Azot sikli-ya’ni azotni aylanma harakat doirasi
4	Аллювиальная почва	Alluvial soil	Allyuviylar ustida shakllangan tuproqlar
5	Американская классификация почв	USDA soil classification	AQSh tuproq tasnifi
6	Атмосфера почвы	Soil atmosphere	Tuproq havosi (atmosferasi)
7	Бесструктурный	Apedal	Strukturasiz tuproq
8	Болота	Peat land, Swamp	Botqoq
9	Бурая почва	Brown soil	Qo‘ng‘ir rangli tuproq
10	Вещество	Organic metter	Organik modda

	органическая		
11	Влага доступная	Available water	Tuproqdagi harakatchan suv
12	Витрисоль	Vitrisol	Kuchsiz rivojlangan vulkanik tuproq
13	Влажность почвы	Soil moisture	Tuproq namligi
14	Водонепроницаемый	Impermeable	Suv o‘tkazmas
15	Вулканическая почва	Volcanic soil	Vulkanik tuproq
16	Выветривание	Alteration	Nurash, yemirilish
17	Выщелачивания	Lixiviation	Erigan komponentlarni olib chiqib ketilishi
18	Галоморфная почва	Holomorphic soil	Introzonal tuproq bo‘lib, Ca, Mg, Na li tuzlar bilan sho‘rlangan
19	Генезис почв	Soil genesis	Tuproqlarni kelib chiqishi
20	Генетическая классификация	Genetic classification	Genetik tasnif
21	Гидроморфная почва	Hydromorphic soil	Gidromorf tuproqlar
22	Горизонт	Horizon	Tuproq qatlami
23	Горизонт почвенный	Pedological soil	Tuproq ustiga paralel joylashgan qatlam
24	Гравийный горизонт	Gravelly horizon	Shag‘alli qatlam
25	Грунтовые воды, выходы	Phratic water Over-flowing	Sizot suvlarining chiqishi, debiti
26	Гуано	Guano	Ispancha so‘z bo‘lib, dengiz qushlarini qoldirgi (axlati)
27	Гуминовые кислоты	Humic acids	Gumin kislotalari
28	Гумус	Humus	O’zini to’qima holatini

			yo‘qotgan organik modda
29	Декарбонатизация	Decarbinatation	Karbonatizlanish
30	Дерново-подзолистая почва	Dernovo-podzolic soil	Chimli-podzol tuproqlar
31	Дефляция	Deflation	Deflyatsiya, ya’ni shamol eroziyasi
32	Диагенез	Diagenesis	Cho’kindi jinslardagi cho’kib qolgandan keyingi o’zgarishlar
33	Дренаж	Drainage	Zovur. (zakbur)
34	Емкость катионного обмена	Cation exchange capacity	Kation almashinish sig’imi
35	Емкость обменная	Exchange capacity	Almashinuvchi sig’im
36	Журавчик	Lime nodule	Karbonatli konkretsiya bo’lib uzunligi 2-6 sm bo’ladi
37	Засоленная почва	Saline soil	Sho’rlangan tuproqlar
38	Зональная классификация	Zonal classification	Zonal tasnif
39	Зональная почва	Zonal soil	Zonal tuproq
40	Изверженная порода	Igneous rock	Otqindi
41	Известняк	Limestone, Calcaire	Oxaktosh
42	Иллювиальный горизонт	Illuvial horizon	Nurash mahsulotlari bilan to’yingan qatlam
43	Ископаемая почва	Fossil soil	Ko’milgan tuproqlar
44	Каменистость	Stoniness	Toshlilik
45	Катена	Catena	Tuproq zanjiri
46	Каштановая почва	Chestnut soil	Kashtan tuproq
47	Кислотность почвы	Soil acidity	Tuproq nordonligi

48	Кольматаж	Kolmatage	Suv qalqindilarini tuproq ustida to’planishi
49	Коричневая почва	Brown soil	Jigarrang tuproq
50	Окислительско-восстановительный потенциал	Redox potential	Oksidlanish-qaytarilish potensiali
51	Оподзоленная почва	Podzolized soil	Podzollashgan tuproq
52	Опустынивания	Desertification	Cho’llanish
53	Педогенез	Pedogenesis	Tuproqni shakllantiruvchi jarayonlar
54	Поглощение	Absorption	Singdirish
55	Равнина	Planus, Plain	Tekis, tekislik
56	Рассоление	Desalination, resettlement	Suvda eruvchi tuzlarni yuvilishi
57	Серозем	Serozem	Bo’z tuproq

[1, 1-50 b; 2, 400 b; 3, 370 b]

Keltirilgan qisqacha lug‘atlar qatorlaridan ko‘rinib turibdiki, bu hali juda kam miqdorni tashkil qiladi. Lekin I va II bosqich talabalari uchun juda zarur. Ular bu lug‘atdagi atamalar, tayanch so‘zlarni bilmasalar kelgusida, ya’ni navbatdagi bosqichlarda, ayniqsa magistratura bosqichlarida, dunyoviy adabiyotlardan, internet ma’lumotlaridan foydalanishda katta qiyinchiliklarga duchor bo‘ladilar.

Adabiyotlar:

1. Толковый словарь по почвоведению. Перевод с Французского. Москва «Мир» 1998 г.

2. Ковда В.А., Розонов Б.Г. (ред.) Почвоведение. Почва и почвообразование. Часть I Москва «Вышая школа» 1988 г. 400 с.

3. Ковда В.А., Розанов Б.Г. (ред.) Почвоведение. Типы почв, их география и использование. Часть II. Москва «Вышая школа» 1988 г. 370 с.

DAVLAT BYUDJETI G‘AZNA IJROSINI TASHKIL ETISHDA G‘AZNACHILIKNING MAVQEI VA AHAMIYATLI JIHATLARI

Shahlo Shodmonkulova Olimjon qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti «Moliya, pul muomalasi va kredit» ixtisosligi
I bosqich tayanch doktaranti

Annotatsiya: Usbu maqolada davlat byudjeti ijrosini tashkil etishda g‘aznachilikning mavqei va ahamiyatli jihatlariga e’tibor qaratiladi. Bu borada tarixiy taraqqiyotga ham nazar solinadi. Shuningdek, davlat byudjeti ijrosini tashkil etishda g‘aznachilik sohasining o‘rni xususida fikr-mulohazalar bildiriladi.

Kalit so‘z va iboralar: Davlat byudjeti, davlat moliyasini boshqarish, g‘aznachilik va uning roli, davlat byudjeti g‘azna ijrosi, moliya tizimining barqarorligi.

Iqtisodiyot va moliya nazariyasida davlat moliyasini boshqarish masalalari doimo asosiy o‘rinda turib kelgan. Davlat moliyasini boshqarishdagi va iqtisodiyotdagi ayrim muammolar shundan iboratki, bozor xo‘jaligi o‘z-o‘zini tartiblovchi va rivojlantiruvchi tizim (bozorning «ko‘rinmas qo‘li») bo‘lishiga qaramasdan, hech qachon davlat aralashuvisiz samarali ishlanmagandir. Hattoki, tarixiy taraqqiyotdan ham ma’lumki, kapitalistik bozor xo‘jaligining yuzaga kelishi faol davlat aralashuvi bilan sodir bo‘lgan. Bunga misol tariqasida 1563-yilda ingliz qirolichasi Elizaveta I milliy baliqchilikni qo‘llab-quvvatlash hamda baliqchilikka nisbatan talab doirasini oshirish maqsadida o‘zining qo‘l ostidagi xizmatkorlariga haftasiga 2 marta go‘sht mahsulotlari iste’mol qilishni ta’qiqlab qo‘yadi. Bundan tashqari, Angliyada 1666-yilga kelib jun mahsulotlarini sotish bilan bog‘liq muammoli jarayonlarga barham berish uchun yana bir qator tadbirlarning amalga oshirilganligiga, xususan, olamdan o‘tgan fuqarolarni jun matosidan tayyorlangan kiyimlarda dafn qilish majburiy etib belgilanadi. Hamda ushbu qonunga qarshi

chiqib, uni buzganlarga nisbatan 5 funt-sterling miqdorida jarima solinishi belgilab qo‘yilgan. Bularning barchasida davlatning aralashuviga guvoh bo‘lish mumkin.

Iqtisodiy-moliyaviy kategoriya sifatida «Davlat byudjeti g‘azna ijrosi» tushunchasining mohiyati, ahamiyati quyidagi xususiyatlar bilan ochib beriladi: g‘azna barcha boshqaruvchilar va byudjet mablag‘larini oluvchilarning kassiri hisoblanadi; g‘aznachilik byudjet muassasalarining shaxsiy hisobvaraqlari tizimidan foydalanadi; byudjet mablag‘larini yagona byudjet hisobidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yakuniy byudjet oluvchilarga o‘tkazish amalga oshiriladi; byudjet mablag‘larining sarflanishi ustidan nazoratning samaradorligi va sifatini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun tegishli shart-sharoitlarni shakllantirish amalga oshirilishini talab ham etadi.

Shunday qilib, g‘aznachilik tizimi byudjetning samarali kassa ijrosi orqali davlat byudjeti tizimining faoliyatini ta’minlovchi samarali vositadir. Shunga va yuqorida aytilganlarga tayanib, bugungi kunda davlat byudjeti ijrosini ta’minlashda g‘aznachilikning mavqei va ahamiyati yuqori darajada o‘syapti deyish mumkin. Shu boisdan ham hozirda davlat moliyasini isloh qilish, davlat byudjetining g‘azna ijrosini joriy etish, byudjet mablag‘larini boshqarish va ularning shakllanishi to‘g‘risida va ishlatilishini nazoratda ushlab turish jarayonlari yanada mukammallikka qarab intilmoqda, takomillashib bormoqda. Ushbu takomillashuv ishlaridan kozlangan maqsad albatta, davlatning moliyaviy tomonlama yuksalishini nazarda tutadi. Shu jumladan, jahon iqtisodiy maydonida g‘aznachilik tizimi borasida yutuqlarga erishish ham bundan mustasno emas.

Byudjet ijrosining g‘aznachilik tizimini, uning funksional va boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish orqali butun davlat moliyasini boshqarish tizimini optimallashtirish va samaradorligini oshirish mumkin. Davlat g‘aznachiligining vakolatlarini optimallashtirish bo‘yicha hozirgi vaqtda soha mutaxassislari tomonidan taklif etilayotgan va ko‘rib chiqilayotgan yo‘nalishlar nafaqat byudjetni yaxshiroq bajarishga, balki uni shakllantirishni to‘g‘ri rejalashtirishga ham imkon beradi. Byudjet ijrosining faol tizimi modeliga o‘tish va undagi g‘aznachilik organlarini kengaytirilgan vositalar (byudjet limitlaridan tashqari), shu jumladan, keng

funksional kompleksga ega bo‘lgan byudjet mablag‘lari bilan faollashtirish, bizningcha, byudjetni shakllantirish jarayonini aks ettiradi.

Byudjetning funksiyalarini ko‘rib chiqish va ularning byudjet jarayonida g‘aznachilikning roli bilan bog‘liqligini aniqlashda shuni ta’kidlash kerakki, byudjetning asosiy vazifasi davlatning moddiy asosini mablag‘larni jamg‘arish orqali ta’minlashdan va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun turli vazifalarni moliyalashtirishni samarali taqsimlashdan iborat. Shunday qilib, davlat g‘aznachilikning byudjet ijrosi sohasidagi rolini belgilab, biz O‘zbekiston Respublikasi moliya tizimining barqarorligi, ishonchliligi va shaffofligini mustahkamlash choralarini ko‘radigan va eng muhim vazifalarni hal qiladigan organ degan xulosani berish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shahlo Shodmonkulova Olimjon qizi. G‘aznachilikda pul oqimlari ustidan kompleks monitoring qilish./SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 5. 458-460B. (https://doi.org/10.5281/zenodo.7070762)

2. Shahlo Shodmonkulova Olimjon qizi. FINANCIAL RESOURCES OF THE TREASURY SYSTEM AND ISSUES OF THEIR MANAGEMENT./ Web of Scientist: International Scientific Research journal. ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 3, Mar., 2023. 493-495p.

QUR’ON VA HADIS-MUSULMON MUOMALA MADANIYATINING DINIY AXLOQIY ASOSI SIFATIDA

Ermatova Munojat Mahammadjonovna

Namangan viloyati To’raqo’rg’on tumani 18-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada muomala madaniyatining diniy asoslari, islom dinining muomala madaniyati to’g’risidagi eslatmalari, Qur’on va hadislardagi axloqiy me’yorlar keltirib o’tilgan.

Kalit so’zlar: Muomala, islom dini, qur’on, hadis, odob, shirinso’zlik, axloq, munosabat, olloh, payg’ambar, musulmon, o’rnak.

Mustaqillik sharofati bilan qadriyatlarimizni tiklashga, tariximizni o‘rganishga, o‘zligimizni anglab yetishga imkoniyat yaratildi. Ayniqsa, muqaddas dinimiz - lslom dinining qayta tirilishi, uning insoniyat uchun ma’rifat keltiradigan din ekanligini anglab yetayotganligimiz xalqimiz madaniy-ma’naviy hayotida tub burilish hisoblanadi.

Ma’1umki, inson barcha yaratilganlar orasida ajib va latif bir tabiat bilan ajratib turadi. Bu tabiatda insonning turli-tuman mayllari, orzulari maydonga kelgan. Masalan, inson eng yaxshi narsalarni istaydi, eng go‘za1 narsalarga moyillik bildiradi, ziynatli narsalarni orzu etadi, insoniyatga xos sharaf bilan yashamoqqa intiladi. Ana shunday sharaf lslom dinida - xushmuomalalik, shirinso‘zlik, ochiq chehralik, to‘g‘riso‘zlik, muloyimlik, xushzabonlik, shirinsuxanlik kabi qator axloqiy tushunchalar bilan belgilanadi.

Shuni alohida ta’kid1ash lozimki, Qur’oni Karim oyatlarida, Hadisi Sharifda bayon etilgan g‘oyalar insoniyat tafakkuri va faoliyatidan ayri holda emas. Ayıiiqsa, lslom ınanbalarida insonlardagi muomala madaniyati yaxshilik, burch, adolat, iymon singari odob va axloq tushunchalari bilan uyg’un holda olib qaratadi. Shuningdek, ota-ona bilan farzand o‘rtasidagi munosabat, ularning o‘zaro muomalada go‘za1likka intilish masalalariga lslom dini juda katta e’tibor qaratadi. Bu borada Abu Hurayra (r.a)dan rivoyat qilingan maria bu hadis tarbiyaviy jihatdan ahamiyatga molik: “Bir odam Rasululloh salollohu

alayhi vassallamning huzurlariga kelib: “Yo Rasulullоh, mening yaxshi muomala qi1mog‘imga kim haqliroqdir?”-deb so‘raganida Payg‘ambarimiz (s.a.v.) uch martasida ham «Onang!», so‘ngra esa «Otang!»-deb javob beradilar. Ota-onani haqorat qilish, ularga yomon muomalada bo‘lishni «odam qiladirgan gunohi azimlardan biri» deb aytadilar. Ko‘rinib turibdiki, lslomda chiroyli muomalaga, eng avvalo, ota-onalar haqlidir. Shuni ta’kidlash lozimki, lslomda tarbiya masalasiga e’tibor ta’lim masalalariga nisbatan keng qamrovliroq va ustuvorroqdir. Chunki tarbiya bolani uyda, ko‘chada, maktabda o‘zini tuta bilish odoblarini, aql bilan ish yuritib, jismini, nafsini o‘ziga bo‘ysindirishdek og‘ir ishni yo‘lga qo‘yadi. Zero, inson ko‘rib, eshitib, bilib, o‘rganib tarbiyalanadi. Shu bilan birga, Ollohning haqqi - namoz, ro‘za, zakot, haj kabi ibodatlarni ado etishi barobarida atrofdagilarni shirinso‘zlikka, xushmuomalaga chaqirib boshqalarga ibrat bo’lishi nıo‘min1ikning muhim xususiyatlaridan sanaladi. Ana shunday muomalalardan biri - shirinso‘zlikdir. «Farzand ne’matining shukri uning go‘zal tarbiyasidir» degan tamoyilga asoslangan Islom nazariyasi har bir tug‘ilgan chaqaloq to tili chiqib, dilidagini gapira olguncha lslom tabiati bilan tug‘i1ishini, biroq ota-onalar farzandini g‘ayridin yoki iymonsiz qilib qo‘yishini uqtiradi. Bundan anglanadiki, bolalar ota-onalar tomonidan qanday yo‘lga solinsa shu yo‘lga qarab ketishligi ma’lum bo‘ladi. Demak, ota-ona farzandni tarbiya qilar ekan, uning muomalasini to’g’ri yo‘1ga solishi ham ularning yuksak burchlaridan hisoblanadi. Bu borada Qur’onda ba’zi toifa odamlar boshqalarga nisbatan ezgulik qilinishiga haqli ekanligi uqtiriladi. Bu toifalaming avvalida esa ota-ona qo‘yi1adi. lslom dinida shirinso‘z1ik u1ug‘1anadi, yolg‘onchilik esa unga to‘siq bo‘1adigan illat hisoblanadi, yo1g‘on so‘z1ovchilar munofıq deb ataladi. Yo1g‘on so‘z1ash lslom dinida muomala madaniyatiga zid holat sanaladi. Chunki odamlar har doim ham aldanavermaydilar, bir-ikki marta muomala-muloqotdan so‘ng sezgir odam birodarining yolg‘on yoki rost so’zlayotganligini bilib oladi.

Shar’iy hukmlarda, Qur’oni karim va hadislarda o‘rtaga qo‘yilgan ko‘p1ab axloqiy fazilatlar tizimlari har bir musulmon rioya qilishi shart bo‘1gan burch sifatida ko‘rsatilgan - deb ta’kidlaydi faylasuf E.Yusupov, - Shariat qoidalariga iymon va e’tiqod bilan rioya qilish asrlar davomida jamiyatda adolat, halollik, insonparvarlik g‘oyalari barqaror turishiga olib kelgan». Shu bois lslomda axloqiy taraqqiyot va

muomala madaniyatining muhim omillaridan biri bekorchi so‘zlar, g‘iybat gaplar. yomon qiliqlardan uzoq bo’lishdir. Bu borada lslom dini yaxshi muomalasi ro‘yobga chiqarish uchun yaxshi hamsuhbat topish va uning vositasida muomalani mustahkamlashni taklif etadi.

Aytish mumkinki, lslom dinida ibodatning mohiyati ham yaxshiso‘zlik va yaxshilik e’tiqodlariga qaratilgan. Til yaxshi-yomon gaplarni so‘zlaydi, agar qalb shahvat va g‘aflat bilan to‘lgan bo‘1sa, buni baxtsizlik alomati, deb bilish lozim. Chun ki ibodatdan ko‘zlangan maqsad- yomonlikdan xoli bo‘lish. Bu esa o‘zini til va so‘z orqali namoyon etadi. lslom manbalarida ushbu masalaga tegishli bir rivoyat keltiriladi. Ya’ni, bir kuni bir yaxshi kishi ko‘chadan o‘tib borayotganida bir necha hayosiz kishilar orqasidan yomon so‘zlar ila so‘kib qoldilar. Bu kishi ularning so‘zini eshitadi va qo’lini ko‘tarib: «Yo Rab, bu nodon1arg‘a o‘zing aql bergil va to‘g‘ri yo‘1g‘asolg‘i1!»-deb duo qiladi. Bu holdan xabardor bir kishi so‘raydiki,

«Nima uchun siz ul kishilarning haqqig‘a yaxshi duo qildingiz?»- deb. U kishi: esa ‹Ey birodar, har kim o‘zida borini berur. Menda yaxshilik bor edi, shuni berdim, onlarda yamonlig‘ bor ekan, oni berishdi. deb aytadi.

Yuqoridagilardan xulosa chiqaradigan bo‘lsak. lslom dini insonlarni shirinso‘z bo‘1ishga chaqirishi bejiz emas. Zero, Qur’onda «Bandalarimga aytgin, ular eng go‘za1 bo‘lgan narsani aytsinlar. Albatta, shayton oralarini buzib turadi» (Al Isro surasi, 53 oyat). Olloh mana shu oyatda musulmonlarni o‘zaro suhbatlarida, gap-so‘zlarida shirinso‘z bo‘1ishga buyuradi. Agar ular buyruqqa itoat etmay, yomon so‘z1arni ixtiyor qilsalar, albatta, shayton oralarini buzadi va natijada yomonlik va dushmanlik sodir bo‘1adi. Qur’onning Baqara surasi, 83-oyatida esa Olloh aytadiki, “Va odamlarga yaxshi gaplar ayting” deydi. Bundan tashqari, Olloh taolo kishilarni huda-behuda baqiraverishlarini inkor etadi, aksincha, ularni past ovoz bilan so‘zlashga undaydi. Shirinso‘zlikning asosiy sharti ham shuni taqazo qiladi. Zero, garchi chiroyli maqtov bo‘1sin, u baqirib aytilsa, xunuk so‘zga aylanadi. lslom ovozini baralla qo‘yib baqirib-chaqirib so‘z1ashni esa, eshakning hangrashiga o‘hshatadi. Olloh kishilar bilan so‘z1ashayotganda, muomala qilayotganda ochiq yuzli bo‘lishni buyuradi va qo’pollikdan qaytaradi. Olloh payg‘ambarimiz Muhammad salollohu alayhi

vasallamga qarata shunday deydi: «Ollohning rahmati ila ularga muloyim bo‘ling. Agar qo‘po1, qalbi qattiq bo‘1ganingizda. atrofingizdan tarqab ketar edilar». (Oli imron surasi, 159-oyat). Islom dini musulmonlarga har doimo hushmuomala, shirinso‘z bo‘1ishlarini eslatar, qo‘pol va yomon so‘zdan tiyi1ishni buyurar ekan biz musulmonlar har doim uyda ko’cha ko’yda ish joyimizda doimo boshqalarga o’rnak bo’lishimiz lozim. Bu esa o’qituvchilik kasbida o’quvchilar uchun na’muna bo’lishimzda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qur’oni Karim. T.:Cho’lpon nashriyoti 1992.
2. Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil Al-Buhoriy. Hadis. 4-kitob. Qomuslar bosh tahririyati
3. Ma’naviy kamolot omillari T.: Universitet nashriyoti

GRAFOLOGIYA TA’LIMOTINING VUJUDGA KELISH TARIXI

Xolqo’ziyeva Mohira Abdurasulovna
Namangan viloyati To’raqo’rg’on tumani 14-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali grafologiya haqidagi boshlang’ich tushunchalar va ta’limotning vujudga kelish tarixini bilib olish mumkin.

Kalit so’zlar: Grafalogiya, ta’limot, imzo, ekspert, diagnostika, sobit belgilar, yagonalik, takrorlanmas,

Grafologiya – shaxs va yozuv o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan hisoblanadi. Grafologiya tarixi 3000 yilga borib taqaladi. Qadimgi xujjatlarga asoslangan holda shuni aytish zarurki, bu fan bilan Neron va Konfutsiy ham shug‘ullangan.

Grafologiya bo‘yicha birinchi kitob 1630 yilda italyan professori Kamillo Baldo tomonidan nashr qilingan. Uning izdoshi olim va rohib Flandren yangi fanni ajralib turishi uchun ikkita yunon so‘zidan foydalangan, ya’ni «grafo» yozmoq va «logos» (mahno, fan), so‘zlarini qo‘llagan. Biroq bu so‘zni birinchi bor abbat Mishon «Grafologiya tizimi» kitobida qo‘llagan, u 1872 yilda chop etilgan. Shuning uchun ham Mishon grafologiyaning otasi deb qabul qilingan. U tufayli o‘tgan asrning oxirlarida, yahni XIX asrda grafologiya jamiyatlari, grafologiya bo‘yicha maxsus jurnallar tashkil etilgan. U bir necha kitoblar muallifi hamda grafologiya maktabi tashkilotchisi hisoblanadi. Keyinchalik grafologiya Germaniya va Angliyada tarqala boshladi. XX asrning 20-yillarida Rossiyada D.M.Zuev - Insaev grafolog-ekspert bo‘lib ish olib borgan. U «Yozuv va shaxs» monografiyasining avtori hisoblanadi. Grafalogiyani o’rganish natijasida kelib chiqishi va tuzilishi jihatidan murakkab bo'lgan shaxsiyat xususiyatlarini qo'l yozuvi bilan tashxislash imkoniyati haqidagi taxmin ishonchli ilmiy tasdiqni olmagan; yozuvning grafik xususiyatlari va go'yo mos keladigan xarakter xususiyatlari, biografiya xususiyatlari o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri aniq bog'lanishlarni topishga urinishlar olib kelmadi. muvaffaqiyatga. Qo'l

yozuvining hissiy holatga va matn ijrochisining yuqori asabiy faoliyatining ba'zi tipologik xususiyatlariga bog'liqligi eng ishonchli tarzda aniqlangan. Differensial psixologiya va psixofiziologiya bo'yicha tadqiqotlarda ba'zan boshqa usullar bilan birgalikda grafologik tahlilning alohida usullari qo'llaniladi. Ba'zi ruhiy kasalliklarda bemorlarning qo'l yozuvi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi haqida dalillar mavjud. Masalan, shizofreniya bilan og'rigan bemorlarning qo'l yozuvi ko'pincha da'vogarlik, qasddan stilizatsiya bilan ajralib turadi, buning natijasida qo'l yozuvini o'rganish klinikada diagnostik ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Sud-tibbiyotda qo‘l yozuvi identifikatsiyalash muammolarini hal qilishga imkon beruvchi xususiyatlarni aniqlash, ya’ni qo‘l yozuvi namunalari bilan solishtirish, matnning ma’lum bir ijrochiga (sud-tibbiy qo‘l yozuvi) tegishli ekanligini aniqlash uchun o‘rganiladi. Sehrgarlarning g'oyalariga ko'ra, mikroolam va makrokosmos o'rtasidagi bog'liqlik ayniqsa qo'lda (yozuv organi sifatida) aniq namoyon bo'ladi, chunki inson qo'li boshida joylashgan ruhiy mikrokosmos va... Psixologik entsiklopediya (yunoncha grapho – yozish, tasvirlash, chizish, logos – o‘qitish, fan). Sog'lom va kasal odamlarning qo'l yozuvini o'rganadigan fan. Psixiatriyada qo'l yozuvi o'zgarishlarining xususiyatlari differentsial diagnostika, sud-tibbiy (yozuvchining shaxsini aniqlash uchun) va sud-tibbiyotga ega bo'lishi mumkin ... Psixologik entsiklopediya (grafologiya) - insonning psixologik holati va sog'lig'i haqida ma'lumot olish uchun qo'l yozuvi namunalarini o'rganadigan fan. Qo'l yozuvi bilan siz odamda ma'lum kasalliklarning belgilari bor yoki yo'qligini aniqlashingiz mumkin, masalan, yengil asabiy titroq yoki pulsning buzilishi. Sud-tibbiyot grafologiyasi qandaydir ilmiy va huquqiy asosga ega: mutaxassis hujjatlarning qalbakiligini aniqlashi yoki odamning qo'l yozuvidagi o'zgarishlarni tahlil qilish orqali psixologik holatdagi ba'zi o'zgarishlarni aniqlashi mumkin.

Grafologlarning fikriga ko'ra, ikkita bir xil qo'l yozuvi mavjud emasligi sababli, qo'l yozuvi shaxsning namoyon bo'lishining bir xil shakli, ovoz yoki yuz ifodasi kabi "imzosi" bo'lishi kerak. Qo'l yozuvining ruhiy hayotning individual xususiyatlari bilan aloqasi haqidagi taxminlar antik davrda ifodalangan bo'lsa-da, qo'l yozuvi va shaxs o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi birinchi batafsil asar italyan shifokori

Kamillo Baldi (1622) tomonidan yozilgan. Abbe Jan Hippolyte Michon (1807-1881) zamonaviy grafologiyaning otasi hisoblanadi. Michon qo'l yozuvining o'ziga xos xususiyatlarini to'pladi va katalogladi ular shaxsiy fazilatlar o'rtasida qat'iy yozishmalar o'rnatishga harakat qildi. Mishon Krepier-Jaminning mashhur shogirdi bir ma'noli o'zgarmas korrelyatsiyaga ega "sobit belgilar" ta'limotidan voz kechib, "ustun bo'lgan yagonalik" ning yanada moslashuvchan tizimi foydasiga chiqdi. 20-asr boshlarida grafologik tadqiqotlar markazi Fransiyadan Germaniyaga ko'chirildi. Jenaning fiziologiya professori Vilgelm Preuer, jarohati tufayli qo'llarini yo'qotgan bemorlar og'iz yoki oyoq barmoqlari bilan yozganda, xuddi qo'llari bilan yozgan xatlarni xuddi shunday yozishlarini aniqladi; shunday qilib, "qo'l yozuvi" aslida "miyaning qo'lyozmasi" bo'lib chiqdi. Xuddi shunday xulosaga psixiatr Georg Meyer ham erishdi, u qo'l yozuvining "kuchliligi" psixomotor energiya bilan belgilanadi. Bu davrning boshqa grafologlari shveytsariyalik shifokor va yozuvchi Maks Pulver bo'lib, u qo'l yozuvi tahlilini ongsizlikning ramziyligi bilan bog'lagan va bu sohada etakchi obro'ga aylangan psixolog va faylasuf Lyudvig Klagesdir. 20-asr davomida grafologiya Evropa fanida psixologik test vositasi sifatida tobora muhim o'rin egallaydi. U Germaniyada eng kuchli lavozimlarga ega, u erda bir qator universitetlarda dars beradi. Qo'shma Shtatlarda 1939 yilda Garvard Psixologik Klinikasida Gordon Allport va Filipp Vernon tomonidan qo'l yozuvi va yozish paytida ifodali qo'l harakati intensiv o'rganildi. Ular shaxsning harakatlari ichki doimiylik bilan ajralib turishini aniqladilar. Agar biror kishi qandaydir xatti-harakatlarga moyil bo'lsa, bu uning qo'l yozuvida, shuningdek, yurishi, yuz ifodalari va imo-ishoralarida namoyon bo'ladi. 1942 yilda Thea Levinson va Jozef Zubin grafik xususiyatlarni aniqlash uchun batafsil jadvallardan foydalangan holda grafologiyaga ob'ektiv xarakter berishga harakat qilishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. Boymurodov “Amaliy psixologiya” Toshkent “Yangi asr avlodi” 2008

2. Z. Nishonova, Z. Qurbonova “Psixodiagnostika va eksperemental psixologiya” “Tafakkur bo’stoni’ Toshkent-2011

CHET TILINI MADANIYATIGA BOG'LANGAN HOLDA MUSTAQIL O'RGANISHNING AYRIM SAMARALI USULLARI VA AFZALLIKLARI

Bozorboyeva Ominaxon Alijon qizi
Farg’ona Davlat universiteti 2- kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tilini o’rganishda va muloqotda tili o’rganilayotgan xalq madaniyatidan va madaniy normalaridan xabardor bo’lishning afzalliklari haqida so’z yuritilib, chet tilini madaniyat bilan bog'lagan holda mustaqil o‘rganishning ba’zi samarali usullari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: madaniyat, o'rganilayotgan til, mustaqil o'rganish, tilni o'zlashtirish, til ko’nikmalari, nutq.

Chet tillarini o'rganish o’quvchilardan ko'proq mustaqil ravishda o’z ustida ishlashni va tili o’rganilayotgan xalq madaniyatidan xabardor bo'lishni talab qiladi. Til o‘rganayotgan o‘quvchilar sinfda ham, darsdan tashqarida ham bilim olishlari, ko‘proq mashq qilishlari, bilim va til ko‘nikmalarini mustaqil ravishda mustahkamlashlari kerak [M. Umaraliyeva, 2021]. Chet tilini o'rganish nafaqat grammatikani yoki to'rtta asosiy til ko'nikmalari (o'qish, yozish, tinglash va gapirish)ni o'rganish, balki yangi madaniyat va yangi millatni o'rganishdir. Chet tilini o'zlashtirish o'rganilayotgan tilning madaniy muhitini ham o'z ichiga oladi, chet tili madaniyatini tushunish o'quvchilarga madaniy kontekstda so'z va iboralarning mos ma'nosini tanlash imkonini beradi. “Til va madaniyat o‘rtasidagi munosabat ramziy xususiyatga ega bo’lib, til madaniyatni aks ettiradi, madaniyat esa tilni shakllantiradi. Til xalqning kelib chiqishi va boshidan kechirgan tarixi bilan bog'liq va bu kelib chiqish, o'z navbatida, xalq madaniyatiga oid o'ziga xos so'zlarni yaratadi" [M. Umaraliyeva, O.Bozorboyeva, 2021].

Barri Tomalin aytganidek, madaniyat beshinchi til ko'nikmasi bo'lib, o'quvchilarga tili o’rganilayotgan xalq qadriyatlari, an’analari, muloqot madaniyati, turli xil vaziyatlarga ushbu xalq madaniyatidan kelib chiqgan holda yondashish,

shuningdek, ushbu xalqni boshqa xalqlardan ajratib turuvchi madaniyat normalari va xususiyatlarini o’rganish imkonini beradi. Chet tilini madaniyati bilan bog’liq holda o’rganish o'quvchilarga madaniyatlar o'rtasidagi xilma-xillikni qabul qilish, tushunish va bunga moslashishni o’rgatadi. [Barri Tomalin] va bu masalada til o’rganuvchilarga quyidagi metodlardan foydalanish qo’l keladi:

Qo’shiqlarni matnlari bilan tinglash va aytish

Musiqa madaniyatning bir qismi hisoblanadi, shuningdek, talabalarga chet tili va madaniyatini o'rganishga yordam berish uchun ta'lim vositasi sifatida foydalaniladi. Mustaqil til o’rganuvchi o'quvchilar qo'shiq matnlaridan til ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida samarali vosita sifatida foydalanishlari, ya’ni qo’shiqlarni birgalikda aytish orqali mashq qilishlari mumkin. Bu tinglab tushunish va nutq qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi, qo'shiqni tinglash va kuylashda nutqdagi so'zlarni qanday talaffuz qilish, ularni bir biriga qanday bog'lashni, ba'zi yangi so'z va iboralarni qo'llashni o'rganish mumkin.

Subtitrli filmlar tomosha qilish

Ispaniyada bir guruh talabalar subtitrli filmlarni tomosha qilishning til ko‘nikmalarini rivojlantirishga ta’sirini tajriba orqali o’rganishdi. Buning uchun o'rta maktab o'quvchilari ingliz tilida subtitrlar va subtitrlarsiz teledasturning epizodini tomosha qilishdi. Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning tinglab tushunishi, syujetni va so’zlarni tushunishi subtitrsiz emas, balki subtitrli variantlarni tomosha qilgandan keyin rivojlangan. [J. Birules-Muntane va S. Soto-Farako]. Sinovdan ko'rinib turibdiki, subtitrli filmlarni tomosha qilish o'quvchilarga o’rganilayotgan tilda tinglab tushunish, so'z boyligi oshirish va mazmunni tushunishni yaxshilashga yordam beradi. Bundan tashqari, tili o’rganilayotgan xalq mahalliy aholisining qanday muloqot qilishlari haqida aniq tasavvurga ega bo'lish imkonini ham beradi, qolaversa, o'quvchilar organayotgan chet tilining madaniy muhiti haqida ko'proq ma'lumot berishga yordam beradigan muayyan iboralar, maqollar va birikmalarni o’rganadilar.

Badiiy asarlar o’qish

Har bir mamlakat yoki xalqning madaniyati adabiyotida aks etganligi sababli, tili o’rganilayotgan xalq badiiy asarlar va romanlarni o'qish madaniyat ta'sirida yaratilgan so'z va iboralarni majoziy ma'nolarini haqiqiy madaniy kontekstda ko’rish va o’rganishni ta'minlaydi hamda to'rt asosiy til ko'nikmalari (tinglab tushunish, o’qib tushunish, yozish va nutq)ni va syujetni tushunishni rivojlantirishda samarali usul hisoblanadi.

Podkastlar tinglash

Podkastlar tinglash tinglab tushunish va nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Chet tilini organuvchilar podkastlar tinglash orqali quyidagi natijalarga erishishlari yoki til ko’nikmalarini rivojlantirishda foydalanishlari mumkin:

Talaffuzni rivojlantirish – o’rganilayotgan tilda so'zlashuvchilarning nutqini tinglash so'zlarni to’g’ri talaffuz qilishni va tovushlarni bir biridan ajrata olishni rivojlantiradi. Masalan, ingliz tilidagi "ship" va "sheep" so’zlari o'rtasidagi xilma-xillik olaylik. Bundan tashqari, podkastlarni tinglash va qaytarib aytish orqali o’rganuvchilar intonatsiyani ham o'rganadi. (Intonatsiya – bu so’zlashuvda ovoz tonini pasayishi va ko’tarilishi, bu ayniqsa ingliz tilida muhim ahamiyatga ega, ammo ko'pchilik o'quvchilar va o'qituvchilar intonatsiyaga e'tibor bermaydilar)

Tinglab tushunish- odam qancha ko'p o’rganayotgan tilini tinglasa, shu tilda tinglab tushunish qobiliyati ham shuncha yaxshilanadi. O'z ona tilida so'zlashuvchilarni tinglash orqali til o’rganuvchilar o’rganayotgan tillaridan sof shu tilda so’zlashuvchi aholi qanday foydalanishi, nutqda jumlalar qanday bog'langanligi yoki tuzilganligi va ona tilida so'zlashuvchilar nutqni qanday bog'lashi va so'zlarning turli ma'nolarini ifodalash uchun turli ohanglardan foydalanishi bilan tanishadi.

Yozish ko'nikmalarini oshirish - Podkastni tinglagandan so'ng, u haqida xulosa yoki fikr yozish borish yozish qobiliyatini yaxshilaydi va ma'lum bir mavzu bo'yicha yangi g'oyalarni beradi, tinglash paytida podkastlarning skriptlarini yozish esa tinglash qobiliyatini yaxshilaydi.

Yuqorida keltirib o’tilganidek, o’rganilayotgan til madaniyatidan xabardorlik til o'rganuvchilarga ushbu xalq bilan tushunmovchiliklarsiz muloqot qilish va suhbat

davomida ravon bo'lish imkonini beradi. Qolaversa tildagi madaniyatni aks ettiruvchi birliklar, iboralar va maqollarni kontekstda ma’nolarini to’g’ri ishlatish va tushunishga ham yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Birulés-Muntané, J., & Soto-Faraco, S. (2016). Watching Subtitled Films Can Help Learning Foreign Languages. PloS one, 11(6), e0158409. https://doi.org/10.1371/journal.pone.0158409

2. Carr, M. (1996). Teaching children to self-regulate: a resource for teachers. Athens: National Reading Research Centre

3. Malone, G. and Smith, D. (1996). Learning to learn: developing study skills with pupils who have special educational needs. London: National Association of Special Education Needs.

4. Umaralieva, M. (2021). Some challenges in encouraging independent learning. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(4), 1878-1882.

5. Umaraliyeva M. & Bozorboyeva O. (2022) Ingliz xalqiga xos lingvokulturologik xodisalarning tilda aks etishi, O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 13-SON. 552-555

6. Umaraliyeva M. & Bozorboyeva O. (2023) THE MANIFESTATION OF LINGUISTIC CULTURAL PHENOMENA OF THE ENGLISH PEOPLE IN THE LANGUAGE. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SOCIAL SCIENCES. Volume: 03 Issue: 03 | March – 2023, 112-114

TA’LIM JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O’RNI

Fayziyeva Sayyora Otamurodovna
Qarshi ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning o’rni haqida ayrim ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: Ta’lim, tarbiya, bilim, ko’nikma, malaka, ta’limni texnologiyalashtirish, ta’lim texnologiyasi, zamonaviy ta’lim, didaktik vositalar.

XX asrning 80 yillariga kelib deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarni qamrab olgan va YUNESKO tomonidan tasdiqlangan texnologiyalashtirish bosqichi faollik bilan amalga oshirilmoqda. Ta’limni texnologiyalashtirish – bu keng ko‘lamdagi mutaxassislarning nazariy va amaliy to‘plamlarini tadqiqot qiluvchi va ta’minlovchi pedagogika fanining yangi yo‘nalishi xisoblanadi. Uning ilmiy imkoniyatlari mamlakatimiz olimlarining ilmiy ishlarida kundan-kunga ortib bormoqda.

Pedagogik amaliyotda ta’limning yangi yo‘llari va vositalarini tez suratlarda yo‘lga qo‘yish kuzatilmoqda. Shubxasiz bunda faol ta’limning ayrim shakl va usullari o‘rniga bir butun o‘qitish texnologiyalari kelishi lozim. Ta’lim jarayonini texnologik loyixalashtirish va rejalashtirishni faqatgina texnologik bilim, malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lgan pedagoggina qilishi mumkin. [1:16]

Ta’limni texnologiyalashtirish – bu pedagogika fanining yo‘nalishi xisoblanib, tadqiqot qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi, ta’lim jarayoniga texnologik yondoshuv asosida ta’lim maqsadlariga samarali erishishning optimal yo‘llari va vositalaridir.

Ta’lim texnologiyasi - pedagogik texnologiyaning ilmiy aspektini belgilash uchun ishlatiladi. Bu (fan predmeti), «texnik va inson resurslarini hamda ularning o‘z oldiga ta’lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo‘yuvchi hamkorligini xisobga

olgan xolda dars berish va bilimlarni o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini yaratish, qo‘llash va belgilashning tizimli usuli » xisoblanadi.

Texnologik bilimlarning asosi bu qonun-qoidalarni bilish xisoblanadi: texnologiyalashtirish qonuniyatlari va yo‘l-yo‘riqlari, qo‘yilgan ta’lim maqsadini amalga oshirish uchun va rejalashtirilgan samarali natijani olish uchun optimal yo‘l va vositalarni tanlash muxim. . [1:49]

Texnologik bilim tizimi quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

- Tushunchalar apparati - texnologiyalashtirishning qiyin turkumlari va qoidalarini o‘rganish kaliti.

- Ta’lim texnologiyasining elementli va funksional tuzilishi tushunchalari xaqida – ta’lim jarayonini tashxislash va loyixalashtirish asoslari.

- O‘qitish texnologiyasining konseptual asoslari – xohlagan ta’lim texnologiyasi asosiga pedagogik va psixologik fan yutuqlarida shakllangan pedagogik fikrlar kiritiladi.

- Maqsadlashtirish – ta’lim jarayonini loyixalashtirish uchun avvalambor aniq pedagogik vazifalarning belgilanganligi, o‘quv faoliyatning yakuniy natijalari shakllanganligi va talablari ma’lum bo‘lishi lozim.

- Ta’lim modeli – umumlashtirilgan optimal yo‘llari (usul va shakli) va ta’lim berish vositalari - quyidagi vaziyatda va ko‘rsatilgan vaqt davomida ob’ektning dastlabki vaziyatini o‘zgartirish uchun rejalashtirilgan natijalarga erishish kafolati.

- Axborot aloqalari tizimi – tashxislashni, nazorat qilishni va baholashni bir-biriga boglash asosida qayta aloqani ta’minlaydi.

- Boshqaruv yo‘llari va vositalarini umumlashtirish: tashxislash, rejalashtirish, nazorat va baholash, shu bilan birga monitoring ham – tezkorlik bilan tuzatish kiritish xaqida boshqaruv xulosasini qabul qilish maqsadida ta’lim jarayonini uzluksiz va reja asosida nazorat qilish.

Pedagogik va o‘quv faoliyati kabi ta’lim texnologiyasida ham baxolash ko‘rsatkichlari va me’zonlarining samaraliligi va optimalliligi. . [2:26]

Ta’limni texnologiyalashtirishimiz orqali biz quyidagicha natijalarga erishamiz

- Pedagogika fanida tushunchalar apparatining yangi yo‘nalishi bilan tanishamiz, ya’ni ta’limni texnologiyalashtirish, ta’lim texnologiyasi tizimi va uni loyixalashtirish algoritmi.

- Zamonaviy ta’lim texnologiyasining konseptual asoslari haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.

- Bir necha fan ta’lim usullarini va grafik organayzerlarni ishlab chiqish texnikasini o‘rganib olamiz.

- Xamkorlikdagi ta’limni tashkillashtirishning birlamchi ko‘nikmalarini o‘rganib olamiz.

- Ma’ruza va seminar mashgulotlari texnologiyasini loyixalashtirishni va rejalashtirishni o‘rganamiz.

Ammo siz ularni o‘rganishdan oldin quyidagi maslaxat va tavsiyalarga diqqat qiling. Texnologiyalashtirish asoslari bayon etilgan qonun-qoidalarda va ular bilan tanishish jarayonida faqatgina tushuncha berilmaydi, balki ko‘zlangan optimal va samarali natijaga erishish uchun nima qilish kerakligi ko‘rsatiladi. . [3:11] Har qanday yo‘l va vositalar yakuniy natija yutuqlariga intilayotan pedagog - texnologlarning qo‘shgan xissasiga qarab, ular tomonidan baholanishi lozim. Qanday qoidalar qanday sharoitga mos kelishini va shu sharoitga to‘gri keladigan yo‘llarni shakllantirishni aniqlash zarurdir.

Ya’ni qoidani maqbulligini sharxlash asosida uni qo‘llash lozim bo‘lgan vaziyatga yoki sharoitga diqqatni jamlash zarur. Asosan qoidalar boshqaruv xususiyatini olib boradi. . [4:16]

Modomiki, ularda qo‘llash mumkin bo‘lgan mavjud o‘quv jarayoni sharoitida ko‘pincha noaniqlik uchrab turadi. Bundan tashqari noqonuniy umumlashtirish xatolari juda keng tarqalgan va bu avval ma’lum texnologik ta’lim va uni mavjud o‘quv vaziyatlarda qo‘llovchi muallif yoki pedagog – amaliyotchiga omad keltirgan. Xulosa qilib aytadigan bo’lsak asosiy mohiyat shundaki, belgilangan o‘quv reja soatida va berilgan shart-sharoitlarda rejalashtirilgan natijalarga erishishni kafolatlaydigan usullar, ta’lim vositalari, ma’lumotlar, kommunikatsiya va boshqaruvni xilma-xillikdan ajratish, tanish, tanlash va baholay olish, keyin esa

ularorasidan shu sharoitga to‘gri keladigan optimal yo‘nalish – ta’lim texnologiyasini loyixalashtirishning muhimligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Саврасова, А.И. Оценка образовательных результатов в условиях модернизации образования. : учеб.-метод. пособие / Федер. агентство по образованию, Мурм. гос. пед. ун-т ; А. И. Саврасова. - Мурманск: МГПУ, 2008. - 168 с.

2. Зачесова, Е. В. Традиционные и инновационные принципы оценивания достижений учащихся. / Е.В. Зачесова, // Школьные технологии. - 2007. - №

3. Азизхўжаева Н.Н. Педагогеческий техналогии и педагогический мастерство Т.: ТДПУ им. Низами, 2003.

4. . Голиш Л.В. Техналогии обучения на лексия и семинара /Учебное пособие// Под обшей редакция академика С.С.Гулямова. - Т.:ТГЭУ, 2005

TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA O’QUVCHILARINING KASBGA MOSLASHISH KO’NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Usmanova Shoira Baxriyevna

Qarshi ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim-tarbiya jarayonida o’quvchilarining kasbga moslashish ko’nikmalarini shakllantirish haqida ayrim ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: ta’lim, tarbiya, ko’nikma, axborotlarni tahlil qilish ko’nikmasi, gnostik ko’nikmalar, konstruktiv ko’nikmalar, tashkiliy ko’nikmalar, zamonaviy ta’lim, shaxslararo munosabatlar.

Yangi O’zbekistonni barpo etish – bu shunchaki hohish-istak, subektiv xodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo’lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy,ma’naviy-ma’rifiy vaziyatning o’zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaat-lariga to’la javob beradigan o’bektiv zaruratdir [1,5].

Bunday zaruriyatni chuqur anglagan har-bir ustoz-pedagog o’zi ta’lim berayotgan o’quvchidagi bor bilim salohiyatni yuzaga chiqarish uchun harakat qilishi, o’quvchilarning kasbga moslashtirish bo’yicha egallashlari lozim bo’lgan eng ahamiyatli ko’nikmalarni aniqlamog’i va shakllantirmog’i lozim. O’quvchilarda shakllantirish va rivojlantirish muhim bo’lgan ko’nikmalar quyidagilar bo’lib, ularni o’quvchilar ongu tafakkurida singdirish muhim vazifalardandir.

Axborotlarni tahlil qilish ko’nikmasi - Ushbu ko’nikma o’quvchilarning kasb tasnifi, uning asosiy turkumlariga xos umumiy xususiyatlarni bilishi, kasblarning murakkablik omillarini tahlil qila olishi bilan baholanadi;

Gnostik ko’nikmalar - U kasbi bo’yicha talab qilinadigan shart-sharoitlar bilan o’quvchining qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari, salomatligi va boshqa sifatlarining o’zaro muvofiqligini aniqlash asosida baholanadi;

Konstruktiv ko’nikmalar - O’quvchi tomonidan kasbga doir shaxsiy rejaning mazmuni, bo’limlari va vazifasining asoslanishi, kasbga tayyorgarlik va kasb mahoratini oshirish usullarini egallaganligi [6,97].

Tashkiliy ko’nikmalar - Kasbga moslashtirish va kasbga xos bilimlarni, malakalarni egallash hamda diagnostik kasb maslahatidan foydalanishni, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining o’quvchilariga bo’lgan talablarni, ularning bir-biridan farqini bilishi. Biz o’quvchilar tomonidan bilim va ko’nikmalarni o’zlashtirish sifatini tekshirish uchun hamda kasb tanlashda adashmaslik uchun o’quvchilar quyidagilarni bilishi va uddalashi kerakligini izlab topdik va quyida ularni taqdim qilamiz.

a) Mehnat va kasb turlariga bo’lgan o’z moyilligi, qiziqish va layoqatini oshirish;

b) Kasb-hunar bo’yicha mehnat sharoiti va mazmuni (predmeti, maqsadi, mehnat quroli, ishchining asosiy vazifalarini, bilimi, ko’nikmalari, mehnatni tashkillashtirishni;

v) Insonning shaxsiy xislatlari va sog`ligiga kasb tomonidan qo’yiladigan talablarni;

g) Kasb-hunar egallash va malaka oshirish yo’llarini (ishlab chiqarish jarayoni, kasb-hunar maktabida, maxsus kurslarda o’qish h.k.)

d) Tanlagan kasb-hunar bo’yicha ishlash mumkin bo’lgan eng yaqin korxonalar to’g`risidagi ma`lumotlarni, to’garaklarda ishtirok etish jarayonida o’z qiziqish va mo yillarni amaliyotda sinash;

e) Ma`lumotlar va maxsus adabiyotlar orqali kasblar bilan tanishish, mutaxassis bilan maslahatlashish, ishchi o’rni bilan tanishish;

j) Kasb-hunarga yo’naltirish Markazidan maslahatlar olish, amaliyotdan o’tish, shifokor maslahatini olish;

z) Kasb-hunar to’g`risidagi ma`lumotnomalarni va adabiyotlarni o’rganish;

Kim bo’lsam ekan? Mavzusidagi insholar yozish va o’qib tahlil qilish, bo’sh ishchi o’rinlari to’g’risida ish bilan bandlik tashkilotlari materiallari bilan tanishish va maslahatlashishni yo’lga qo’yish [6,108] .

Talim muassasalaridagi barkamol o’quvchi shaxsini tarbiyalashda kasbga moslashtirish ishlarining mazmunini belgilashdagi quyidagi fikrlarga amal qilish maqsadga muvofiq bo’ladi:

-darsdan tashqari mashg`ulotlar jarayonida o’quvchilarning umumta`lim, umummehnat bilim va ko’nikmalari darajasini oshirishning ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyasini ta`lim tizimi amaliyotiga tadbiq qilish mumkin, deb hisoblaymiz. Talim muassasalaridagi o’quvchilarni kasbga moslashtirishda mehnat ta`limi bo’yicha darsdan tashqari mashg`ulotlarning muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlagan holda o’quvchilarning kasb tanlashga oid bilim va ko’nikmalari turli mashg’ulotlar, mehnat ta’lim, darsdan tashqari mashg`ulotlarda o’quvchilarni kasbga moslashtirish ishlarining maqsadga muvofiq tashkil etilish bu mashg`ulotlarga muntazam ishtirok etuvchi o’quvchilarning umummehnat bilim va ko’nikmalari, umum ta`lim fanlaridan o’zlashtirish darajasi ko’pgina o’quvchilarda birmuncha past ekanligini kasbiy tarbiya tizimida quyidagilarga amal qilinishi lozim deb hisoblaymiz: -kasbiy tarbiya - tarbiyalanuvchi shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o’smir va yosh yigit-qizning betakror hamda o’ziga xosligani hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini e`tiborga olish; -yoshlarda istak va imkoniyat muvofiqdigi tuyg`usini qaror toptirish; -milliylikning o’ziga xos an`analari va vositalariga tayanish;

-shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, o’qituvchilar va o’quvchilar o’rtasidagi bir-biriga hurmat munosabatlari, bolalar fikriga e`tibor qilish, ularga mehribonlarcha munosabatda bo’lish; -kasbiy tarbiya jarayonida uzluksizlikka va turli yoshdagi bolalarni qamrab olishga alohida ahamiyat berish.

Mazkur ishlarning bajarilishida ilg`or tajriba va olimlarning fikrlari, g`oyalari bilan to’ldirilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev.Sh.M “Yangi O’zbekiston strategiyasi”.Toshkent. “O’zbekiston” nashriyoti. 2021.464 b

2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 29 b.

3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 485 b.

4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida” gi PF-4947-sonli Farmoni. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017 y., 6-son, 70-modda

5. A.SHamshetova, R.N.Melibaeva, X.Usmanova, I.Haydarov. Umumiy psixologiya. T. 2018 6. SH.S.SHaripov, K.Davlatov, G.S.Nasriddinova.Kasbga yo’naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. O’quv qo’llanma. –Toshkent. 2007. 146 b.

TARBIYALANUVCHI HAYOTIDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI HAMDA OILA HAMKORLIGINING AHAMIYATI

Ergasheva Fazilat Xonim qizi

Qashqadaryo viloyati G’uzor tumani 12-DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim muassasasi hamda oila hamkorligining bola tarbiyasidagi o’rni va roli haqida fikr bildirilgan. Shuningdek, mazkur hamkorlikning jajji farzandlarimiz kelajagiga ta’siri xususida so’z boradi.


Kalit so’zlar: Maktabgacha ta’lim muassasasi, oila, hamkorlik, ta’lim, tarbiya, yosh davri, barkamol avlod, ijtimoiy muhit.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni sifatli maktab ta’limiga tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Zamonaviy maktabgacha ta’lim sog’lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim o’rin tutadi”, - deya ta’kidlagani bejiz emas, albatta.

Bugungi kunda barchamizning asosiy vazifamiz barkamol avlodni tarbiyalashdir. Chunki O’zbekistonning ertangi kuni biz tarbiyalab kelayotgan yosh avlod qo’lida ekanligi barchamizga ayon. Bolalar tarbiyasiga nafaqat oila, ta’lim-tarbiya muassasalari, balki mahalla ham ma’suldir. Chunki, farzand tarbiyasi ko‘p omillarga, avvalo, axloqiy-ma’naviy muhitga ham bog‘liq. Ta’lim-tarbiya muassasalari bilan oila hamkorligi bunda muhim ahamiyatga ega. Bola tarbiyasida oilaning o‘rni beqiyos. Oila bolaga katta ta’sir ko‘rsatadi, uni atrofdagi hayotga moslaydi. Jamiyatda esa tarbiya faqat ota-onaning shaxsiy ishigina bo‘lib qolmasdan, balki ularning ijtimoiy burchi hamdir. Bugungi kunda barkamol inson tarbiyasi, bola tarbiyasida ota-ona mas’uliyatini oshirish, ularni pedagogik-psixologik bilimlar bilan qurollantirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Milliy madaniyat, bola tarbiyasi va rivojlanishi haqidagi pedagogik bilimlarni takomillashtirish bo’yicha yaxlit tarbiya tizimi ham oila, ham maktabgacha ta’lim tashkilotlari tomonidan

amalga oshiriladi. Bola tarbiyasida bu ikki yo’nalish biri ikkinchisining o’rnini bosa olmaydi, balki biri ikkinchisini to’ldiradi. Sog’lom muhitda sog’lom bola o’sib ulg’ayadi. Sog’lom muhitni yaratish oilada oila a’zolarining maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik xodimlarning nechog’lik bilimdonligiga, zukkoligiga bog’liqdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining oila bilan ishlash tizimida aniq yo’l xaritasi bo‘lishi kerak. Ota-onalar bilan hamkorlik borasida, avvalo, erishilgan yutuq va tajribalarning natijalarini tahlil qilib, bolaning ijobiy tomonlarini ko‘rsatib, keyin asta-sekinlik bilan ularning xulq-atvoridagi salbiy holatlarni bartaraf etishga, atrof-muhitga qiziqishlarini oshirib borishga astoydil harakat qilish lozimligini uqtirish kerak. Ota-onalarni maktabgacha ta’limga jalb etish maqsadida turli xil to‘garaklar, tadbirlar, davra suhbatlari, savol-javob kechalari, guruhiy va umumiy ota-onalar yig‘ilishlari, ochiq eshiklar kunini tashkil etish diqqatga sazovordir. Ayrim bolalarning ota-onalari bilan alohida suhbatlar o’tkazib, tegishli yo’l-yo’riqlar beriladi. Jumladan, nutqida, jismoniy o’sishida, xulqida kamchiligi bo’lgan bolalarni faqat tarbiyachining harakati bilan bartaraf qilish qiyin. Bolaning oiladagi faoliyati ham, maktabgacha ta’lim tashkilotidagi faoliyati ham yagona maqsadga bo’ysundirilgan bo’lishi kerak. Bularni quyidagi jadvalda shunday aks ettirish mumkin:



Maktabgacha ta’lim muassasasi uslubchilari va pedagoglarning hamda ota-onaning hamkorligi har bir bolani turli faoliyatga yo‘naltira olishga, predmet va hodisalarning xususiyatlarini tahlil qila olishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Maktabga tayyorgarlikning besh asosiy komponenti:

1. Motivatsion tayyorgarlik.
2. Irodaviy tayyorgarlik.
3. Maktabga ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorgarlik.
4. Aqliy tayyorgarlik.
5. O‘qishga layoqat

Yuqoridagi komponentlarning ijobiy samarasi qachonki, maktabgacha ta’lim muassasasi hamda oilaviy hamkorlik yo’lga qo’yilgandagina o’z ta’sirini ko’rsatadi. Shuningdek, bizning eng katta maqsadimiz bo’lgan – bolalarni komil inson sifatida tarbiyalashdek muhim vazifani bajargan bo’lamiz. Zero, komil inson butun bashariyat idealidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Sharq, 1997.
2. “Bolangiz maktabga tayyormi?” O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Respublika ta’lim markazi, Ma’rifat-madadkor nashriyoti.
3. Otavaliyeva O’. Bola tarbiyasida bog‘cha va oila hamkorligi. - T.1994.
4. Yusupova P. Maktabgacha pedagogika. -T.: O’qituvchi, 1993.

MAXMUR VA QO‘QON ADABIY MUHITI

Jamoliddin Temirov Elmirza o‘g‘li
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maxmur va Qo‘qon adabiy muhitining ijodkor she’riyatiga ko‘rsatgan ta’siri, shoirning adabiy jarayondagi holatlarga bildirgan “reaksiyalari” shakllanishiga sabab bo‘lgan omillar mustaqil yondashuv asosida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Amir Umarxon, adabiy muhit, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, Fazliy Namangoniy, tazkira, fosh qilish.

Maxmur yashagan davr va ijod qilgan adabiy hayotga to‘xtalar ekanmiz, XVII-XIX asrlar birinchi yarmidagi Qo‘qon xonligidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga e’tiborimizni qaratishimiz kerak bo‘ladi. Buxoro xonligida XVII asrning birinchi yarmida kuchaygan parokandalik natijasida ming urug‘i qabilasi yetakchilari Qo’qon xonligining asos solinishida muhim o‘rin tutganlar. 1709-yilda Shohruhbiy boshchiligida Qo‘qon xonligi vujudga keldi. Bu xonlik o‘z tarkibiga hozirgi Farg‘ona, Namangan, Andijon, Toshkent, Xo‘jand, Qirg‘iziston va Janubiy Qozog‘istonlarni olgan. Xonlikda Shohruhbiy va uning avlodlari birin-ketin hukmronlikka kelib, davlatning siyosiy, iqtisodiy hayotini oshirish bilan bir qatorda, madaniy hayotda ham xonlik nufuzini oshirish yo‘lida ijodkorlarga, shu jumladan, adabiyot va san’at vakillariga keng imkoniyat yaratishga intildilar.

XVIII asr I yarmida Qo‘qonda adabiy muhit uchun yetarlicha harakatlar boshlangan. Jumladan, bu borada Mirzo Olim “Ansob us-salotin” asarida 1732-1733-yillarda Abdulkarimxon davri haqida shunday yozgan: “Abdulkarimxon... xizmatiga eshon, domullo, Olim Konibodomiy va domullo Vali Xojandiy va Mashrabi devonayi Namangoniy kelib suhbat tutar erdilar. Alarning suhbatidin ifoda va istifoda topib, necha umumiy diniy va kashf yaqinig‘a olim va koshif bo‘lib kamolot hosil qildi.”[6]

[6] A.Qayumov. Qo‘qon adabiy muhiti. Toshkent-1961, 41-bet. Ansob us-salotin, 18-bet.

Qo‘qonda adabiy muhitning eng gullagan davri Amiriy taxallusi bilan she’rlar bitgan shoh va shoir Amir Umarxon (1787-1822) nomi bilan bevosita bog‘liq. Amir Umarxon siyosiy hayot bilan bir qatorda ilm-fan rivoji, adabiyot va san’atga ham katta e’tibor bergan. Xonlik hududidagi barcha iqtidorli ijodkorlarni saroyga jamlab, faol ijodiy jarayonni tashkil etgan. Ushbu adabiy jamoadagi ijodkorlar o‘zlarini turli yo‘nalishlarda namoyon eta olgan.

Amir Umarxon boshchiligida adabiy muhitda nafaqat Qo‘qon, balki boshqa viloyatlardan kelgan ijodkorlar ham jamlangan edi. Bu shoirlar qatorida Ado, Ziynat, Manzur, Xijlat, Xotif kabilarni qayd etishimiz mumkin. Shu muhitda ijod qilgan shoir, ijodkorlarning asarlarini “Majmuat ush-shuaro” tazkirasiga jamlagan Fazliy so‘zboshisida saroyda to‘plangan shoirlar kecha-kunduz uning buyrug‘ini kutuvchi, unga maqtovlar aytuvchi shoirlar ekanligini qayd etgan. Tazkirada dastlab Amiriyning she’ri berilib, ketidan unga nazira bog‘langan she’rlar keltirilgan. Nazira bog‘lagan shoirlar ma’no va mazmun jihatdan Amiriy she’riga mos bo‘lgan she’rlar yozishi kerak bo‘lgan. Bu esa ularning tor doirada ijod qilishlariga olib kelgan. Ulardan farq qiluvchi ijodkorlar sifatida Fitrat tomonidan alohida e’tibor berilgan Gulxaniy, Maxmur kabilarni qayd etishimiz mumkin. Fazliy ham tazkirasida uni kamsitishiga qaramay, uning tojik va o‘zbek tillarida “latif she’rlar” bitganini e’tirof etadi.[7]

Bu davrda Ma’dan, Mujrim Obid, Junaydullo Hoziq kabi shoirlar ham saroy adabiyotidan farq qiluvchi, xalq dardini kuylaganlar safida bo‘lishgan. Albatta, buning evaziga ular quvg‘in va qatllarga uchrashgan.

Amir Umarxon boshchiligidagi Qo‘qon adabiy muhitida Maxmurning ham tutgan o‘rni ham aslo kam emas. XX asrning I yarmigacha Maxmurning ijodi namunalari bir qancha ijodkorlarning yuqorida ta’kidab o‘tganimiz Maxmurning «Majmuat ush-shuaro» tazkirasida keltirilgan beshtagina g'azali («Hapalak», «Tarog'» radifli va boshqalar) hamda Qori Qunduziyning «Tavorixi manzuma» asarlaridagi ba’zi ta’rix she’rlarigina ma’lum edi, xolos. Shu jihatdan, adabiyotshunoslar Maxmur ijodi, hayoti haqida fikr yuritishar ekan, uning ana shu

[7] Majmuat ush-shuaro, Toshkent.

sanoqli asarlariga murojaat qilib kelishgan. O‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab, tazkirachi olim Po‘latjon Qayumov va shoir Charxiylarning tashabbuslari bilan Maxmurning qo‘lyozmasi topilgan. Uning tarkibida masnaviy, g‘azal, muxammas shakllarida yozilgan hajviy asarlardan iborat oltmishdan ziyod she’rlar borligi adabiyot ahli uchun ma’lum qilingan. Undan keyin Maxmur ijodini o‘rganishda Po‘latjon Qayumovning o‘g‘li Aziz Qayumov olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlari e’tiborga molikdir.

1956-yili uning tadqiqot va matnlardan iborat «Maxmur» nomli kitobi nashr etildi. Bu kitob ikki qismdan iborat bo‘lib, I qismi Maxmur hayoti va ijodiga oid ma’lumot hamda Maxmurning she’rlariga Aziz Qayumov fikrlaridan tashkil topgan bo‘lsa, ikkinchi qismi esa, Maxmur she'rlaridan namunalar keltirilgan. “Maxmur otasi Akmal kabi zullisonayn shoir bo'lgan. Uning hajviy asarlari ichida fors-tojik tilida yozilgan, ba’zan o'zbek va tojik tillarida shiru-shakar, mulamma’ usullarida bitilgan she’rlari bor.”[8]

Maxmur o‘zidan oldin o‘tgan ijodkorlarning izidan borib, deyarli barcha she’rlariga forscha-tojikcha sarlavha qo‘ygan. Tadqiqot qamrovi keng bo‘lgan Aziz Qayumov Maxmur ijodiga bag‘ishlangan “Maxmur” kitobida dastlab forscha-tojikcha she’rlarning asl holini berib, keyinidan esa o‘zbek tilidagi ma’nolarini berib ketgani natijasida o‘quvchi inson Maxmur she’riyatining tub mohiyatini, nozikliklarini, badiiyatini ilg‘ashda qiyinchilik ko‘rmaydi. Maxmur hayoti va ijodiga bag‘ishlangan ushbu kitob “Majmuat ut-shuaro”da Fazliy Namangoniy tomonidan Maxmur nomiga aytilgan xolisona tarzda berilmagan fikrlar asossiz ekanligini ta’kidlaydi: “Shoir Fazliyning Maxmurga nisbatan g‘arazli munosabati hukmron feodal guruhlarning Maxmurga bo‘lgan munosabatini bildiradi. Fazliy Maxmurni «yaxshilardan» past turuchi (Fazliyning tushunishidagi yaxshilar saroy shoirlari — A. Q.) shoir deb xarakterlaydi. Maxmurga nisbatan bo‘lgan bu haqoratli munosabat Fazliyning boshqa izohlarida ham aniq sezilib turadi.[9]

[8] R.Orzibekov. 0’zbek adabiyoti tarixi. 0‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. Toshkent-2006. 185-bet.

[9] Aziz Qayumov. “Maxmur.”O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti. Toshkent-1958. 10-bet.

“Majmuat-ush-shuaro”da Fazliy Maxmurning “Tarog‘” radifli she’rini keltirar ekan, bunday deb izoh beradi:

Xayoloti Maxmur be marhabost
Qijogo‘y g‘aybat qalb oshnosot.
Nayoyad zi af’oli o‘ g‘ayri bad,
Buvad harchi qavli nomo‘ tamad.
Shikoyag kunad az hamin bis’yor
Zi Maxmuriy nash’ai ko‘knor.
Buvad she’ri on ko‘sa az log‘ari
Zi oroyishi reshi sablat bari.
Ba zulfi suxan shona zad onchunin
Buvad she’ri xo‘bi malihash hamin.[10]

Tarjimasi:

Maxmurning xayoloti marhamatli emas,
Uning hajvgo‘ligi g‘iybat va qalloblikka yaqin,
Harakatida yomonlikdan boshqa narsa kelmaydi.
Barcha so‘ziga ishonish mumkin emas.
Ko‘knor nash’asiga humor bo‘lgani uchun,
Bu mo‘lchilikdan shikoyat qiladi.
Bu ko‘saning she’ri oriqliq,
Hamisha soqol-mo‘ydozga oro berish to‘g‘risida bo‘ladi.
So‘z zulfiga shu ravishda tarog‘ chekdi
Uning chiroyli yaxshi she’ri bundaydir.

Ko‘rinib turibdiki, Fazliy nazdida Maxmur hayoloti, o‘ylari to‘g‘ri emasligi, uning hajv qobiliyati aslida qalloblik va g‘iybatdan iboratligi, “ko‘knor nash’a”siga humorligidan qilgan amallari ortida faqat yomonlik yotishini, she’rlari mazmunsiz bo‘lib, mo‘lchilikdan-to‘qchilikdan (Fazliy Namangoniy Amir Umarxonga yaqin ijodkorlardan biri bo‘lganligi sababidan “mo‘lchilik”da yashagani, tabiiy) shikoyat qiluvchi bir kimsa ekanligini ta’kidlaydi. Fazliy o‘z tazkirasida mana shunday

[10] Fazliy. Majmuat ush-shauro. O’zSSR FA qo’lyozmasi.

haqoratga to‘la satrlaridan keyin Maxmurning “Tarog‘” radifli she’rini keltirib o‘tadi. Aziz Qayumovga ko‘ra, bu hol ikki sinf vakili “Feodal klassikal adabiyotning vakillari bilan progressiv yo‘nalishdagi adabiyot vakillari o‘rtasidagi qarama-qarshilik va kurash…”[11] bo‘lganligi sababidan, hali unchalik ham badiiy tomonlama pishib yetilmagan va Maxmurning she’riyatining ijodiy ko‘lamini yuzaga chiqarib berolmaydigan ushbu she’rni misol berishdan yaqona maqsad – Maxmur ijodini kamsitish bo‘lgan bo‘lishi ehtimoli yo‘q emas.

Tabitan botirso‘z bo‘lgan Maxmur bunday haqoratlarga jim qarab turmagan. Shu maqsadda Fazliyning asl qiyofasini ochib beruvchi bir qator she’rlar yozgan. U bir she’rida Fazliyni “isqotiy” deb ataydi.

Shoir va davr adabiy muhiti masalasiga yakun yasar ekanmiz, shoir va adabiy jarayondagi ba’zi shoirlar orasida o‘zaro ziddiyat yaxshigina bo‘lganligiga qaramay, Maxmur bu jarayonda ko‘z o‘ngimizda “yuqori tabaqa vakillari”ning keskin fosh qiluvchisi o’laroq, ijtimoiy hayotdagi nuqsonlarni yuzaga chiqargan ijodkor sifatida gavdalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Qayumov. Qo‘qon adabiy muhiti. Toshkent-1961, 41-bet. Ansob us-salotin.
2. Majmuat ush-shuaro, Toshkent.
3. R.Orzibekov. 0’zbek adabiyoti tarixi. 0‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. Toshkent-2006.
4. Aziz Qayumov. “Maxmur.”O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti. Toshkent-1958.

[11] Aziz Qayumov. “Maxmur.”O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti. Toshkent-1958. 9-bet.

MUSTAQIL O`RGANUVCHI O`QUVCHILARNING TILNI O`ZLASHTIRISHINI YANADA YAXSHILASH UCHUN TURLI XIL O`QITISH USULLARINI QO`LLASH

Yahyoyeva Sarvinoz Xayotjon qizi

Farg`ona davlat universiteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya : Ushbu maqola uchta turli xil ijodiy ta'lim va o'qitish usullarining mustaqil o'quvchilarga erishish mumkin bo'lgan ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Maqolada mustaqil o`rganuvchi o'quvchilarda o'z bilimlariga nisbatan mas'uliyat hissi muhimliligi va mustaqil ta'lim jarayonida metodlarning ustunlik darajasi aniq bo'ladi.

Kalit so'zlar: o'quvchining avtonomiyasi, strategiyaga asoslangan ta'lim, ta'lim yutuqlari

Mustaqil ta'lim jarayonida ma'lumotlarni turli usullar bilan o`rganish intellektual jarayon bo'lib, u boshqa ko'nikmalarni egallashning ajralmas qismi hisoblanib, ta'limning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Turli usullar yordamida mustaqil o'quvchilar o'rganish va ijodkorlik jarayonlarida qulayliklarga duch kelishadi. Foydali o'qitish usullari va tizimli o'rganish strategiyalari mustaqil o`rganuvchi o'quvchilarni faol til o'zlashtirish bilan ta`minlaydi.

**Mustaqil ta'limda metodlarning o`rni:** Ta'lim sharoitida an'anaviy deduktiv usul, ya'ni grammatik qoidalar va vazifalarga e'tibor qaratuvchi o'qituvchiga yo'naltirilgan usul hali ham amalda qo`llanib kelinmoqda, ammo mustaqil ta'lim ham mashhur va foydali yondashuv sifatida o`qituvchilar tomonidan darslarda keng foydalanilmoqda. Ammo bu mustaqil ravishda o'rganishda o'qituvchilarga ehtiyoj yo'q degani emas, aksincha, ta'lim yutuqlari o'qituvchi va talaba munosabatlarining integratsiyasi orqali amalga oshirilishi kerak. Shunday ekan, o‘quvchilarning ta’lim-tarbiyaviy rivojlanishini oshirishda o‘qitishning ijodiy usullaridan amaliy foydalanish samarasini tushuntirish o‘qituvchilar tomonidan qo‘yilayotgan muhim talabdir.

Aqliy hujum metodi

Ta'lim sohasida ko'plab o'rganish usullari mavjud, ammo eng mashhur ta'lim metodi bu aqliy hujumdir. Sternberg va Uilyam (1996) ta'kidlashicha, mustaqil ta'lim jarayonida tasavvur qilish va ixtiro qilishga o`zimizni undash orqali biz yanada ijodiy fikrlay boshlaymiz. Aqliy hujum jarayonida o‘quvchilar o‘z fikrlarini mustaqil ravishda ifoda etishlari mumkin. Aqliy hujumda qatnashish, muayyan muammo haqida fikr yuritish va o‘z mulohazalarimizni boshqa birovga yetkazish bizni mustaqil fikrlashga va o‘z ustimizda ishlashga yo‘naltirishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, o'quvchilarning birgalikdagi o'quv jarayonini o'rnatishi va bir-biridan o'rganish asosiga qurilgan guruh vazifalarini tashkillash , ayniqsa sinfda mustaqil o'quvchilar uchun dunyoqarash doirasini kengaytirishi mumkin.

Ochiq savollardan foydalanish metodi

Ikkinchi ijodiy o'qitish metodi ochiq savollardan foydalanishdir. Ochiq savollar o'quvchilarni mustaqil bo'lishga undaydi. Qanday? Chunki ular bitta, aniq javobni talab etmaydi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, ochiq savollar o'quvchilardan qoidalariga e'tibor bermasdan, g'oyalarni erkin ifoda etishlarini talab qiladi. Bir vaqtning o'zida yopiq savollar o'quvchilarga aniq, to'g'ri javob berishi mumkin bo`lsa, ochiq savollar mustaqil ta'lim g'oyasini targ'ib qilishi mumkin. T a'lim sharoitida ochiq savollardan foydalanish talabalarga yo`naltirilgan metoddir va u mustaqil fikrlash vositasidir. C hunki ko'p xilma-xil g'oyalar bizning oldingi bilimlarimiz va idroklarimizdan ,g'oyalarimizdan paydo bo`ladi.

Sinfda mustaqil o`rganuvchi o'quvchilar bilan mustahkam aloqalarni o'rnatish uchun o'qituvchilar bir vaqtning o'zida ushbu texnikadan foydalanishlari mumkin. Yopiq savollarni ham, ochiq savollarni bir-biri bilan qiyoslaydigan bo`lsak ,yopiq savol ko'pincha o'quvchilardan faqat "ha" yoki "yo'q" javoblarni talab etadi, ammo ochiq savollar har doim o'quvchilarni mustaqil fikrlash orqali yangi g`oyalar bilan javob berishga majbur qiladi.

Xulosa

Ushbu tadqiqotda talabalarga cheksiz g`oyalar yaratish imkoniyatini beradigan ta`lim metodlari muhokama qilindi. Yuqorida muhokama qilingan o'qitish metodlari shuni ko'rsatadiki, o'ziga xos metodlar mustaqil o`rganish jarayonida til o'rganish

qobiliyatlari va strategiyalardan foydalanishni rivojlantirish va o'quvchilarda mustaqillik tuyg'usini yaratish va ularni o'rganishga qiziqtirishning foydali usuli hisoblanadi. Bundan tashqari, ushbu o'qitish usullari, qolaversa boshqa qo'llaniladigan usullar va strategiyalar ta'lim yutuqlarini oshirishning tizimli usuli sifatida qo'llaniladi.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. Leyla Seydinejod va Zohreh Nafissi, (2018). "Mustaqil o'quvchilarning sintaktik murakkabligini oshirish, ijodiy fikrlash qobiliyatlari orqali insholar" Ingliz tilini o'rgatish, jild. 12, No 2, 145-167.

2. Laylo Aryanjam va Mojgan Rashtchi (2023). "Strategiyaning hissasi -O'qish yutuqlari bo'yicha ko'rsatmalar: avtonomiya istiqboli" TEL, jild. 17 No 1, 171-1999

3. Mashrabovna, U. M & kizi, Y. S. K. (2022) “Avtonom o‘quvchi bo‘lish uchun muhim xususiyatlar”, Orange texnologiyasi bo‘yicha xalqaro jurnal, jild: 4-son:12, 23-26.

4. W.R.Meyer (2022) Mustaqil ta'lim: adabiyotlarni o'rganish va yangi loyiha "Baholash va tadqiqot bo'limi, LSN.

5. Albanese, M.A. va Mitchell, S. "Muammoga asoslangan ta'lim: uning natijalari va amalga oshirish masalalari bo'yicha adabiyotlarni ko'rib chiqish", (1993), Akademik tibbiyot, jild. 68,, 52-81.

KORREKSION (MAXSUS) PEDAGOGIKANING ASOSIY VAZIFALARI, TAMOYILLARI VA METODLARI

Nomozova Muborak To‘lqin qizi

Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti Pedagogika fakulteti pedagogika yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda Korreksion (maxsus) pedagogikaning asosiy vazifalari, tamoyillari va metodlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Korreksion pedagogika, Defektologiya, anomal bolalar, surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika, logopediya

XIX asrning 20 yillaridan beri Defektologiya fani – jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar talim tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan fan sifatida o‘rganilib kelmoqda. Xozirgi kunda bu fan «korreksion pedagogika» deb ham yuritilmoqda.

O‘zbekistonda Korreksion pedagogika —aloxida yordamga muxtoj jismoniy yoki ruhiy kamchiliklari bor bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o‘rganadigan, ularning ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan fandir. Korreksion pedagogika so‘zi lotincha tuzatish— bartaraf etish, pedagogika— ta’lim-tarbiya, urganish degan suzlardan olingan. Ruhiy va jismoniy kamchiliklari bor bolalar anomal bolalar deyiladi.

O‘zbekistonda korreksion pedagogika fanining rivojlanishi 1967 yildan boshlab tezlashdi, chunki shu yili Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutining Pedagogika va psixologiya fakulteti qoshida oligofrenopedagogika bo‘limi tashkil etildi. Bu bo‘limga 1976 yili surdopedagogika bo‘limi qo‘shildi. 1984 yili esa mustaqil defektologiya fakultetining bir necha bo‘limida ta’lim berila boshlandi. Hozirgi kunda TDPU BTU va defektologiya fakultetida Defektologiya kafedrasi faoliyat ko‘rsatmoqda, defektolog bakalavr va magistrlar taxsil olmoqdalar.Tallim kunduzgi va sirtqi bo‘limda uzbek va rus tilida tashkil etilgan.

Defektologiya fanining rivojlanishi natijasida undan quyidagi tarmoqlar mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi: surdopedagogika (lotincha surdus — kar, gung so‘zidan olingan) — eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ta’lim tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan fan; tiflopedagogika (yunoncha tiflos — ko‘r, so‘qir so‘zidan olingan) —ko‘zi ojiz bolalarning ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan fan; oligofrenopedagogika (yunoncha oligos — kam, fren — aql), so‘zlaridan olingan, — aqliy tomondan zaif bolalarning ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan fan; logopediya (yunoncha logos — so‘z, padeo — tarbiya so‘zlaridan olingan) — og‘ir nutq nuqsonlarini o‘rganish, oldini olish, bartaraf etish yo‘llari, usullarini urganadigan fan.

Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari. Turli kategoriyali anomal bolalarni rivojlantirish, o’qitish va tarbiyalashning umumiy qonuniyatlari mavjud. Korrektsion pedagogikaning asosini anomal bolalarni har tomonlama, fiziologik va psixologik o’rganish tashkil etib, uning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- rivojlanishida turli kamchiliklar bo’lgan bolaning nuqsonlarini tuzatish va korrektsion-kompensatorli imkoniyatlarini aniqlash;

- differensatsiyali o’qitish va tarbiyalashni amalga oshirish maqsadida anomal bolalarning muammolarini hal etish;

- anomal bolalarni aniqlash va hisobga olish;

- rivojlanish anomaliyasini erta diagnostika qilish metodlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish;

- bolalarda rivojlanish nuqsonlarini tuzatish, yo’qotish yoki kamaytirish bo’yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

- anomal bolalikning oldini olish bo’yicha profilaktik chora- tadbirlar tizimini ishlab chiqish;

- anomal bolani rivojlantirish va uni ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini oshirish.

Anomal bolalarda nutqiy qobiliyatning buzilishi umumiy qonuniyat hisoblanadi.

Bolaga korrektsion ta’sir ko’rsatishning samaradorligi mavjud nuqson xususiyati, ayrim psixik jarayon yoki funktsiyalarining buzilganlik darajasi, bolaning

yoshi, nuqsonlar o’mini to’ldirishga imkon bemvchi qobiliyati, tibbiy-pedagogik ta’sir ko’rsatish, bola yashayotgan muhit hamda uni tarbiya sharoitlarining mavjud ahvoli va boshqa omillarga bog’liq. Anomal bolalarning ma’lum guruhi faqat psixologik-pedagogik ta’sirga muhtoj bo’lsalar, boshqa guruhlari ularga esa davolash- sog’lomlashtirish tadbirlarining amalga oshirilishini talab etadi. Rivojlanishdagi nuqsonlarning barvaqt diagnostika qilinishi ma’lum muvaffaqiyatlarga erishishning garovidir

Foydalanilgan adabiyotlar:

1."Logopediya" M.Y.Ayupova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim a o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.
2. V.S.Raxmonova. Defektologiya va logopediya asoslari. T.
3. Raxmonova V.S. Korreksion pedagogika va logopediya. Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma / O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. - T: " IQTISOD MOLIYA"
4. P.M.Po‘latova "Maxsus pedagogika" (oligofrenopedagogika)

TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA BOSHLANG’ICH SINF O’QUCHILARNI TANQIDIY FIKRLASHGA O’RGATISH

Imomova Nasiba Xurramovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim-tarbiya jarayonida boshlang’ich sinf o’quchilarni tanqidiy fikrlashga o’rgatish ko’nikmalarini shakllantirish haqida ayrim ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: Ta’lim, tarbiya, ko’nikma, kichik maktab davri, tanqidiy fikrlash, zamonaviy ta’lim, individual-psixologik xususiyat.

Hozirgi kundagi ta’lim tizimini asosiy maqsadlaridan biri kelajakda yosh avlodni yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy faollik, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil qatnasha olish, erkin fikr bildirish qobiliyatlarini shakllantirishdan iborat. Bu esa o’z navbatida o’quvchilarning ilmiy bilim darajasini va faolligini kengaytirishni, ularda tanqidiy fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishni talab qiladi.

Kichik maktab davri 6-7 yoshdan 9-10 yoshgacha davom etadi. Uning psixikasi bilim olishga yetadigan darajada rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolaning muhim xususiyatlaridan biri, unda o’ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o’z mohiyatiga ko’ra faqat muayyan bilim, ko’nikma va malakalarni egallashga qaratilmay, balki o’quvchilik istagini aks ettirishdan ham iboratdir. SHu ehtiyojlar asosida bolaning o’z portfeliga, shaxsiy o’quv qurollariga, dars tayyorlash stoliga, kitob qo’yish javoniga ega bo’lish, kattalardek har kuni maktabga borish istagi yotadi. Ana shu ehtiyoj bola shaxsining shakllanishida, shuningdek uning ijtimoiylashuvida katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ta’lim muassasalaridagi kichik maktab yoshidagi o’quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish «O’qish», «Matematika». «Ona tili», «Tevarakdagi olam», «Odobnoma», «Tabiatshunoslik», «Konstitutsiya saboqlari» va boshka darslarda amalga oshiriladi. Kichik maktab yoshidagi o’quvchilarda ta’limning ilk boskichidan

boshlab, tarbiyaning yangi omili - o’zo’zini tarbiyalash vujudga keladi. Bolalar o’zlarida ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan shaxs xislatlarini tarkib toptirish, xulq-atvoridagi kamchiliklarga, salbiy illat va sifatlarga barham berish sohasida ongli ravishda yondashish xislatlarini tarkib toptirishlari lozim. Bunda o’z ustida muntazam ravishda ishlash «... odamning yuksak darajada o’z-o’zini idora qiluvchi, o’z-o’zini kamol toptiruvchi birdan-bir tizimdir», - degan edi L.I.Bojovich.

Ta’lim-tarbiya jarayonida kichik maktab yoshidagi o’quvchilarning tanqidiy fikrlashni shakllantirishda quyidagi pedagogik-psixologik omillarni inobatga olish zarur:

- individual-psixologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish va shu asosda didaktik topshiriklardan optimal ravishda foydalanish;

- tanqidiy fikrlashni shakllantirishga yo’naltirilgan didaktik ta’minotlarni tuzish va amalga tatbiq qilish;

- o’quvchilarda o’qish ko’nikmasini, ruhiy operatsiyalar: analiz, sintez kabilarni tarkib toptirish;

- tanqidiy fikrlashni shakllantirish orqali ijtimoiy hayot sohalarida faol ishtirokchi sifatida kobiliyatini namoyon qilishga zamin yaratish lozim;

- zamonaviy ta’lim berishda asosiy urg’u o’quvchilarning tanqidiy fikrlashlarini shakllantiradigan o’quv materiallarni tanlashga ham qaratilishi lozim bo’lsa, o’qitish jarayonida innovatsion metodlarni to’g’ri tanlay olishni talab qiladi. Amaldagi dasturlar bo’yicha tuzilgan darsliklar va o’quv qo’llanmalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga qaratilgan topshiriklar keltirilgan, ammo ularning barchasi ham ularning mohiyatini aniq aks ettirmaydi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida o’quvchilarning eng muhim psixologik xislatlarining alohida ahamiyatga ega ekanligini inobatga olish, chunki tanqidiy fikrlash akliy faoliyatda, qiziqishda, munosabatda, xulq-atvorning tashqi shakllarida ijtimoiy-axloqiy sohada o’z ifodasini topishi muqarrardir. O’quvchilar orasida qulay tashkil kilingan faoliyatgina ularning sinf, maktab jamoasi va oila a’zolari o’rtasidagi ijtimoiy munosabatlarini barqarorlashtiradi. O’quvchilarda tanqidiy fikrlashni

shakllantirish jarayonida ularda o’z shaxsiy hayotiga maqsadli yondashuv hissini uyg’otish zarur.

O’quvchilarda mustaqil qaror chiqara olish, shaxsiy pozitsiya va bunyodkor g’oyaga ega bo’lishlik kabi xislatlarni o’stirishda tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayonining pedagogik-psixologik uzviyligini inobatga olish lozim.

Ta’lim-tarbiya jarayonidak kichik maktab yoshidagi bolalarga beriladigan bilim bolalar tafakkurining o’sishi uchun g’oyat katta ahamiyatga egadir. Boshlang’ich ta’limda beriladigan bilimlarni o’zlashtirish jarayonida, kuzatuvchanlik, xotira va hayol o’sib borishi bilan kichik maktab yoshidagi bolalar tafakkuriga material bo’ladigan narsalar doirasi kengaya boradi, bolalarda mantiqiy tafakkur va tanqidiy fikrlash o’sib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. “Pedagogika”-o’quv qo’llanma. Mualliflar: Shodmonova.Sh, Ahmedova.M Hamzayeva.H Farmonova O’, Axmedov J.

2. “Pedagogika nazariyasi va tarixi”. Mualliflari: Abdullayeva.B, Umarova.A Saidova B.

3. “Pedagogika” Ziyomuhammadov B.

TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING ASOSIY PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI

Niyozova Dilrabo O’tkurovna

Qarshi ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning asosiy pedagogik-psixologik shart-sharoitlari haqida ayrim ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: Ta’lim, tarbiya, bilim, ko’nikma, malaka, tanqidiy fikrlash, zamonaviy ta’lim, didaktik vositalar.

Ta’lim jarayonining mohiyati shundan iboratki, bilish jarayonining umumiy qonuniyatlariga asoslanadi. Ta’lim jarayoni quyidagi bilishlar o’rtasida rivojlanadi: individual va iltimoiy-tarixiy bilishlar. Ta’lim jarayoni individual rivojlantirish ishi oldiga yoshlarni davr taraqqiyoti darajasidagi bilimlar bilan qurollantirish vazifasini qo’yadi. Chunki individual rivojlanish ijtimoiy tarixiy rivojlanishdan ortda ikki rivojlanish ta’limni o’zaro bog’lab turadi.

Ta’lim jarayonini ichki bir qancha qarama-qarshiligi bor (bular ta’lim nazariyasiga muhim ta’sir ko’rsatadi):

- Bolani maktabgacha bo’lgan shaxsiy tajribalariga maktabga chiqqandan so’ng qaytadan beriladigan shaxsiy baholari qarama-qarshiligi;

- O’qituvchi tomonidan talab qilinadigan fikrlash sistemasi qarama-qarshiligi;

- O’quvchilar aniq fikrlashdan abstrakt fikrlashga o’tish bosqichida bo’lganliklari sababli,u hissiy va ratsional,aniq va mavhum holda bilishlari o’rtasida qarama-qarshilik vujudga keladi.

Ta’lim jarayonining muhim qarama-qarshiliklaridan birini M.A.Danilov ko’rsatib berdi”. Ta’lim jarayonining borishida paydo bo’ladigan bilish va amaliy vazifalar bilan o’quvchining mavjud bilim, malaka va ko’nikmalari darajasi

o’rtasidagi qarama-qarshilik o’quv jarayonining harakatlantiruvchi kuchidir”, deydi M.A.Danilov. O’quvchilar tomonidan bilimlarni egallash bosqichlari haqida so’z yuritadigan bo’lsak, ular quyidagi bosqichlarga bo’linadi: idrok etish, o’quv materialini anglab yetish, mustahkamlash, amaliy faoliyatida bilimlarni qo’llash.

- Idrok etish psixologiyada ma’lumki, idrok etish aniq maqsadga yo’naltirikgan anglash jarayoni bo’lib, u tanlash xususiyatiga ega. Shuning uchun birinchi navbatda o’quvchilarga mavzu orqali ularni nimalarni o’rganishlari haqida tushuntirib berish kerak. Shu asosda u o’quv materiali bilan dastlabki tanishish amalga oshiriladi.

- O’quv materialini anglab yetishda u ma’lumotlarning nazariy jihatlarini ajratib olish va analiz qilishdan iborat. Bunda asosiy mazmunni topish, tushunchani ajratib olish, ularning belgilarini asoslab berish, misollar va tushuntiruvchi dalillar to’plamini o’rganib chiqish lozim.

- Eslab qolish va mustahkamlash- bu bosqich o’zlashtirilgan bilimlarini uzoq vaqt xotirada saqlab qolishdan iborat. Nazariy material, tushuncha, qoida, isbotlar turli xil mashqlar bilan takrorlanadi.

- Bilim, ko’nikma va malakalarni amaliy faoliyatda qo’llashdan iborat bo’ladi. O’quv mashqlari, laboratoriya ishlari, tadqiqot topshiriqlari, maktab yer maydonidagi ishlar.

Ta’lim-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etishda ta’lim metodlari va ta’lim vositalaridan to’g’ri foydalanish lozim. Ta’lim metodlari ta’lim vositalari bilan birga qo’llaniladi. Didaktik vositalar deganda, o’quv va ko’rgazmali qo’llanma, namoyishli qurilmalar, texnik vositalar tushuniladi. Ta’lim vositalari-bu yangi bilimlarni o’zlashtirish uchun o’qituvchi va o’quvchilar tomonidan foydalanilgan obyekt. Odatda moddiy va ma’naviy qadriyatlar ta’lim metodlariga mos ravishda . Biroq agar metodlar “qanday o’qitish?” savoliga javob bersa,vositalar esa “uning yordamida nimani o’qitish?” savoliga javob beradi. Nemis olimlari R.Fush va K.Krollar didaktik vositalar audivizuallik tafsilotida motivatsion, axborot, ta’lim jarayonini boshqarish, optimallashtirish funksiyalarini bajaradi, deb hisoblashadi. O’qituvchi o’zining ixtiyoriy bo’yicha ko’rgazmali material, o’quv qo’llanmadan foydalanishi mumkin. Ta’lim vositasini tanlab olish ta’lim metodini tanlab olish bilan bog’liq. Agar

ta’limning faol metodi (kitob bilan ishlash, mashqlar) foydalanilsa, u holda o’quv qo’llanmalari, darsliklar va ta’limning texnik vositalaridan foydalaniladi. Ta’limning passiv (sust) metodlari (o’quvchilar eshitadi, ya’ni hikoya, ma’ruza, tushuntirish, ekskursiya) ta’limning ko’rgazmali vositalaridan foydalanadi. Ta’limning ko’rgazmali vositalari pedagogning o’zi tomonidan tuzilgan bo’lishi mumkin. Vositalarning istalgan turidan foydalanishda o’lchov va mutanosiblikka e’tibor berish kerak. Masalan, ko’rgazmali vositalarning soni yetarli bo’lmasligi bilimlarning sifatiga ta’sir ko’rsatadi. Bilishga qiziqishni pasaytiradi, obrazli idrok etishni rivojlantirmaydi. Ulardan ko’p foydalanish o’quvchilarning o’rganilayotgan fanga yengil-yelpi qarashiga olib keladi.

Pedagogik texnologiya asosida dars loyihasini tuzishda besh tamoyilga rioya qilinadi. Pedagogik texnologiyani tamoyilining asosiy yo’nalishlari: Birinchi tamoyil-muayyan o’quv predmeti, katta modul yoki dars mavzusida kutilgan asosiy maqsadni shakllantirib olish. Ikkinchi tamoyil-darsning umumiy maqsadidan va mavzuning ichki mazmunidan kelib chiqib, darsni kichik “modullarga” ajratib, har bir modulning maqsadini hamda modullar ichida hal qilinadigan asosiy masalalar tizimini aniqlab olishdir. Uchinchi tamoyil-modullar ichida ko’riladigan masalalarning ichida asosiylarini tanlab olib, ulardan test savollari va ular asosida so’rov varaqasini tuzib chiqish. To’rtinchi tamoyil-maqsadga yetish uslub va usullarini tanlab, joyini belgilab olish. Pedagogika fani misolidagi mavzular o’zining umumiyligi bilan ajralib turganligi sababli, unda asosan so’z bilan tushuntirish va qisman illyustrativ uslublardan, shuningdek, kezi kelganda muammoli izlanish usulidan ham foydalaniladi. Beshinchi tamoyil-dars ichida modullar orasidagi uzviy bog’liqliklarga hamda dars mazmunining fanlararo aloqalar asosida tuzilishiga e’tibor qaratilishi shart. Farobiyning “Fan va san’atining afzalligi” haqidagi risolasida o’quv jarayonini o’qitish usullari haqidagi tushuntirishlarida o’quvchilarga turli bilimlar berish bilan birga, mustaqil holda bilim olish yo’llarini ham ko’rsatish, ularning bilimlarining zarurligiga shak-shubhasiz ishontirish kerakligini ta’kidlab o’tadi. Garchi har bir pedagogning ishida anchagini usul va uslublar mavjud bo’lasa-da, ularni qo’llashdan

ko’zlanadigan maqsad tarbiyalanuvchining ta’limiy ishlarini faollashtirish bo’lmog’i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. “Pedagogika”-o’quv qo’llanma. Mualliflar: Shodmonova.Sh, Ahmedova.M Hamzayeva.H Farmonova O’, Axmedov J. Toshkent: 2014

2. “Pedagogika nazariyasi va tarixi”. Mualliflari: Abdullayeva.B, Umarova.A Saidova B. Toshkent: 2016

3. “Pedagogika” Ziyomuhammadov B. Toshkent: 2014

FERROTSEN ASOSIDA SINTEZ QILINGAN BIOSTIMULYATORLAR VA ULARNING AHAMIYATI

Otaxonov Qobiljon Qahramonovich
ADU Kimyo kafedrasi mudiri, dotsent
Azimova Muslimaxon Ulug'bekqizi
Andijon Davlat Universitet kimyo ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda ferrotsen va uning xosilalari haqida ma'lumot berilgan. Bundan tashqari ularning inson va o'simliklarga ta'siri ham ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ferrotsen, ferrotsenning suvda eruvchan xosilalari, MAKSIT, ADUMAX, Ferrotsenkarbon kislota.

Ferrotsen va uning xosilalari metallorganik birikmalar ichida eng ahamiyatli birikmalar hisoblanadi. Shuning uchun hozirgi kunda ferrotsen xosilalari meditsinada kamqonlik, shamollash kasalliklarini davolashda, jarrohlikda keng ishlatiladi. Qishloq xo'jaligida esa biologik faol birikmalar sifatida o'simliklarning unib chiqishi, o'sishi va rivojlanishi, kasalliklarni oldini oluvchi hamda hosildorligini oshirishda qo'llanilib kelinmoqda.

Ferrotsen va uning xosilalari ustida Rossiya, AQSH, Gruziya, Germaniya kabi bir qator rivojlangan mamlakatlarda ham ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ular ferrotsenning alifatik, aromatik birikmalarini sintez qilib, ularning fizikaviy, kimyoviy, fizik-kimyoviy xossalarini o'rganmoqdalar.

Molekulasida ferrotsen saqlovchi birikmalar ferrotsenil yadrosini o'ziga xos molekulyar tuzilishi tufayli kuchli biologik faollikni namoyon qila olishligi adabiyotlarda keltirilgan **[1].**

Andijon Davlat Universitetining Kimyo kafedrasi professori kimyo fanlari doktori I.R. Asqarov boshchiligidagi bir qator olimlar guruhi ferrotsen va uning

birikmalari ustida uzoq yillardan beri ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Izlanishlar natijasida ko'plab biologik faol birikmalari sintez qilindi.

K.f.f.d.(PhD)., dotsent N.Q. To'lakov tomonidan " Ferrotsenkarbon kislotaning ayrim xossalari sintezi va ularni sinflash" mavzusidagi kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun bajargan ilmiy tadqiqot ishlari natijasida MAKSIT preparati sintez amalga oshirilgan va davlat standarti bo'yicha sinovlardan o'tkazilgan. Olingan natijalar asosida O'zbekiston Respublikasi intelektual mulk agentligi № IAP 05099 "G'o'zani o'stiruvchi stimulyator" nomli patent olingan**[2].**

K.f.d.(DsC)., dotsent M.M. Xojimatov tomonidan "Ferrotsen va metilolmochevina xosilalari sintezi hamda ularni sinflash" mavzusidagi kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun bajargan ilmiy tadqiqot ishlari natijasida ekinlarni hosildorligini oshiruvchi "ADUMAX" biostimulyatori yaratildi va amaliyotga jory etildi[**3**].

Ferrotsen hosilalari va boshqa organik birikmalar asosida olish imkoni bo‘lmagan, o‘ziga xos molekulyar va kristall strukturaga ega bo‘lgan yangi moddalar sintez qilinmoqda. O-karboksibenzoilferrotsenning natriyli tuzi tetragidrat shaklida ma’lum bo‘lib, ushbu birikma porfirinatopoez jarayonlarini tezlashtiradi va tibbiyotda temir yetishmasligi anemiyasini davolashda dori sifatida ishlatiladi. Kimyoviy tuzilishi o‘xshash bo‘lgan okarboksibenzoilferrotsenning **oltin tutgan tuzi** yallig‘lanishga qarshi ta’sirga ega bo‘lib, tibbiyotda qo‘llanilishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Ma’lumki**, Li, Na, K** kabi metallar organizm uchun zarur elementlardan hisoblanadi. Ularning ishtirokida organizmda ko‘plab biokimyoviy jarayonlar amalga oshadi. **Metallar ionlarining biologik faol birikmalarda asosan ikki xil usulda o‘z faoliyatini namoyon qilishi aniqlangan. Birinchi usulda** metall ioni biologik faol birikma va substrat orasida o‘ziga hos ko‘prik vazifasini bajaradi. **Ikkinchisida esa,** metall ioni biologik faol birikmada elektronlar taqsimlanishiga ta’sir ko‘rsatadi va birikmani substrat bilan ta’sirlashish qobiliyatini kuchaytiradi. Shuning uchun ko‘pchilik biologik faol moddalar metall ionlarisiz deyarli faolikka ega bo‘lmaydi.**Temir ioni** xlorofil molekulasini hosil bo‘lishida katalizatorlik vazifasini bajaradi. Bu element oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida ishtirok etadigan katalaza,

peroksidaza, sitoxromoksidaza fermentlari tarkibiga kiradi. Agar temir yetishmasa o‘simliklarni bargi sarg‘ayib, xloroz kasalligiga uchraydi.

Kaliy yetishmasa, barglar oqaradi, fotosintez jarayoni susayadi, o‘simliklarning urug‘i nimjon bo‘lib unuvchanlik hususiyati yo‘qoladi, ko‘saklar o‘lchami, tola sifati va chigit unuvchanligi pasayadi. O‘simliklarning fuzarioz va vertisillyoz so‘lishiga moyilligi ortadi.Go‘za sho‘rlikka va **natriyga** eng chidamli ekinlar qatoriga kiradi, ammo tuproqda natriy va kalsiy elementlarining nisbatining natriy hisobiga buzilishi nihollar unishiga to‘sqinlik qiladi, ildizlarning uchu qo‘ng‘ir tus oladi, os‘ishdan to‘xtaydi, ildiz yaxshi rivojlanmaydi.Qishloq xo‘jaligi o‘simliklari hosildorligini oshirishda eng yaxshi vositalardan yana biri azotli biostimulyatorlar hisoblanadi[4].

Xulosa: Biz hozirgi kunda ferrotsenkarbon kislotaning xosilalari asosida ekologik toza, iqtisodiy jihatdan tejamkor va qishloq xo'jaligida keng qo'llash imkonini beruvchi moddalar sintez qilib, amaliyotga joriy etish ishlarini amalga oshirish bo`yicha ilmiy ishlar olib bormoqdamiz.

Adabiyotlar:

1.Аскаров И.Р. Производные ферроцена. – Фергана: ФарГУ, 1999. – 206 с..

2. N.Q. To‘lakov Ferrotsenkarbon kislotaning ayrim hosilalari sintezi va ularni sinflash: kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi-Farg‘ona 2018.

3. M.M.Xojimatov Ferrosen va metilolmochevina hosilalari sintezi hamda ularni sinflash: kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi-Farg‘ona 2018.

4. Ферроцен — свойства, получение и применение | Chemical Portal

XORIJIY TILLARNI O’QITISHDA YANGICHA YONDASHUVLAR

Muzrapova Dilafruz Sunatovna

Qarshi ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy tillarni o’qitishda yangicha yondashuvlar haqida ayrim ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: Xorijiy til, ta’lim, tarbiya, ko’nikma, kreativ yondashuv, mnemonika, loki metodikasi, “Pomidor” usuli, G-garmonizatsiya, zamonaviy ta’lim.

Hozirgi jadallik bilan rivojlanib borayotgan zamonda xorijiy tillarni bilish, ko’nikmalarga ega bo’lish, soha hodimlarni bilimlarni yana kengaytirishga bo’lgan talab tillarni o’rganishga bo’lgan ehtiyojni nihoyatda oshirib yubormoqda. Axborot texnologiyalari va o’qitishda zamonaviy usullar va turli xil metodlarni qo’llash, ta’lim sohasidagi pedagoglarning kreativ yondashuvlar tilning tez va oson o’rganishda samarali yoram beradi. Turlli usullar orasidan o’quvchi o’ziga mos bo’lgan usulni tanlab muayyan ta’lim dasturini o’zlashtirishi osonlashadi. Shuning uchun pedagog va o’quvchi xorijiy tillarni o’rgatishning zamonaviy usullari bilan tanishishlari kerak. Buning natijasida o’rganishning eng samarali yo’llarni tanlash ko’nikmalari shakillanib boradi. O’qitish shu tildagi ma’lumotlarni yig’ish ular bilan tashishish va o’quvchining mavjud bilimlarini tekshirishga asoslanadi. Zamon kun sayin rivojlanib borgan sari sohada yangiliklar ko’payib bormoqda.

Hozirgi kunda ta’limning sifat va samaradorligini oshirish sohalar rivoji va taraqqiyotimiz, rivojlanishimiz uchun muhim bir bosqichdir. Hozirgi ilg’or yoshlarga zerikarli auditoryalarda o’tirib, tillarni o’rganishdagi uzundan uzun qoidalarni tinglash, misollarni rasmlarda ko’rish qiziq emas. Negaki, chalg’ituvchi dunyoda o’quvchini o’ziga jalb qiluvchi omillar yetarli darajada bularga misol qilib har xil ijtimoy tarmoqlardagi vaqtni behudaga sarflovchi saviyasiz videolarni misol qilishimiz mumkin.

Hozir zamonaviy va kreativ jihozlangan (lingafon, video roliklar uchun maxus monitor va ovoz kuchaytirgich bilan ta’minlangan) auditoriyalarda tillarni o’rganish yoshlar uchun avvalgiga qaraganda qiziqroq. O’quvchining talabidan kelib chiqib pedagog til o’rganishda ijtimoiy tarmoqlardan oqilona va tog’ri foydalanishga undashi, o’quvchiga darsdan tashqari til o’rganish motivatsiyalar berishi lozim. Hozirda pedagoglarning ta’limda mnemonika usullaridan keng qo’llayotgani eng samarali yechim bo’lmoqda.

Ta’limda mnemonikadan foydalanish yurtimizga endigina kirib kelgan bo’lsada, Yevropa mamlakatlarida anchadan beri qo’llanilib kelayotgan soha hisoblanadi va uning samarali ekan o’z tasdig`ini topgan. Mnemonika (yunoncha mnemonika-eslab qolish san’ati) sun’iy assotsatsiyalar hosil qilish yo’li bilan eslab qolishni osonlashtiruvchi va xotira hajmini kengaytiruvchi usullar tizimi. Tilni o’zlashtirishda o’quvchilar har xil sun’iy usullarni qo’llashga o’rganganligi sababli samarasiz materiallardan foydalanishadi.

Lekin xotira, samaradorligini tub ma’noda oshiruvchi usul bu so’zlarni tasavvur bilan bog’lagan holda yodlashdir. Mnemonikda eng kerakli narsa bu tasavvur va uni eslab qolmoqchi bo’lgan so’zlarimizga bog’lay olish qobiliyati hisoblanadi. Eng samarali va mashhur usul-metodlardan misollar tariqasida ko`rsak. “Loki” va “Tog” usullari mohiyatida aynan tasavvurga bog`lab eslab qolishga katta ahamiyat berilgan.

Loki metodikasi: Loki - lokatsiyalar orqali eslab qolish. Ya’ni bu usulda so’zlar yoki matnlarni eslab qolishda biz o’zimizga yaxshi ma’lum biror joydagi (uyimiz, auditoriya, ish joyimiz) buyumlardan foydalanamiz. Misol uchun yodlamoqchi bo’lgan so’zlar: Magic (sehr) , hero (qahramon), castle (qal’a) so’zlarini “Loki” metodi orqali eslab qolmoqchimiz. Buning uchun bizga ma’lum bo’lgan bir joyni lokatsiyasini eslab olamiz misol uchun auditoriyani. Kirish eshigidan boshlab 3 ta predmetni lokatsiya sifatida tanlab olamiz misol uchun eshik, monitor, deraza . Endi bu so’zlarni uchta lokatsiyamizga joylab olamiz va obraz hosil qilamiz. Eshigimizga magic ozini qo’yamiz va bir biriga bog`laymiz eshik sehrli tasavvur qiling ranglari ajoyib atroflarida tutunlar chiqib turadi shakllar har xil bo’lib ozgaradi. Takrorlab ovoz chiqarib talaffuz qilamiz magic-sehir. Endi keyingi so`z va predmetni ko’ramiz

monitor va hero (qahramon) so’zi tasavvur qiling monitorda qahramon Hulk dars tushuntirib beryapti. Talaffuz qilib gapiring heroqahramon. Oxirgi so`z va predmet castle (qal’a) va deraza. Ko`z oldimizga derazadan ko`rinib turgan qal’a uni minorasini uchlari kesib tashlangan. Talaffuz qiling castle-qal’a. Endi har bir lokatsiyamiz bo’ylab so`zlarni talaffuz qilamiz. Tasavvur orqali so`zlar xotirada uzoq saqlanib qoladi. “Tog” usuli: Tog - bu ham mnemosportda xorijiy so`zlarni yodlashda keng qo’llaniladigan metod.

G-garmonizatsiya Bu usul 3ta asosiy elementlar: tarjima ,obraz, garmonizatsiyadan iborat so`zni tarjima qilamiz va shu so’z bilan bog’lab obraz topamiz har ikkalasini garmonizatsiya qilamiz bu usul ham qiyin bo’lmagan tasavvur orqali so’zlarni oson eslab qolish mumkin.

“Pomidor” usuli: Ushbu usul orqali o’quvchi time menejmentga amal qilgan holda til o’rganadi. Ushbu usul darngasalikdan qutulishdan ham yordam beradi. Negaki inson biror bir og’irroq aqliy mehnat qilarkan, chalg’ib ketishi oson. Huddi shu muammoni yechish maqsadida bu usuldan keng foydalaniladi. Pomidor usuli timerni 25 daiqa vaqtni belgilab shug’ullanish 5 daqiqa dam olish , yana 25 daqiqa shugullanish 5 daqiqa dam olish huddi shu ishni 5-6 marta takrorlanadi undan keyin 1-2 soat dam olinadi. Masalan biz 3 soatda 120 ta so’z yodlashimiz kerak. Uni vaqtga bo’lib chiqsak soatiga 40 tadan so’z yodlashimiz kerak bo’ladi. Bu degani 6 ta Pomidor qo’llashimiz kerak. 1-soat: 25 minut 20 ta so’z – 5 daqiqa dam olish , 25 minut 20 ta so’z- 5 daqiqa dam olish, 2-soat: 25 minut 20 ta so’z – 5 daqiqa dam olish , 25 minut 20 ta so’z- 5 daqiqa dam olish, 3-soat: 25 minut 20 ta so’z – 5 daqiqa dam olish , 25 minut 20 ta so’z- 5 daqiqa dam olish, Tugatgan dam olamiz va yana 2 tadan pomidor qilib 60 ta 60 tadan takroralab barcha yodlangan so’zlar 120 ta so’zni takrorlab chiqamiz. Aynan shu metod orqali o’quvchilar time menejmentga amal qilgan holda samari so’z yodlab xorijiy tillarni tez o’rganib olishmoqda. Maqolamiz nafaqat til o`rganuvchilar balki o`rgatuvchilar uchun ham yozildi. Rivojlanayotgan asrda biror bir ilm o`rganishda shu jumladan xorijiy tillarni o`rganishda ham eng avvalo o`qituvchi-pedogog zamon bilan hamnafas tarzda faoliyat olib borishi kerak.

Aynan yangi yondashuvlarni biz malakali va o`z ustida ishlaydigan ustozlardan o`rganamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.“Chet tili o‘qitish metodikasi”Jalolov.J

2. Mutalipova M., Imomov M. “Ta`limda ilg’or xorijiy tajribalar” moduli buyicha o’quv-uslubiy majmua. T.: Nizomiy nomli TDPU, 2017

3. Hamda internet manba’lar jumladan: www.gov.uz, www.edu.uz.

OROL BO‘YI REGIONIDA TUPROQNING BIOLOGIK UNUMDORLIGINI OSHIRISH VA CHORVA MOLLARIGA OZUQABOP O‘SIMLIKLAR ETISHTIRISH

Allanazarov Babaxan

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali dotsentti

Xojamuratova Gúlmira

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali 1-kurs magistranti

Elubaeva Raya

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali 2-kurs talabasi

Aytimbetov Asamatdiyn

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Orol bo‘yi regionida tuproqning biologik unumdorligini oshirish va chorva mollariga ozuqabop o‘simliklar etishtirish haqida, shuningdek tuproqning turli darajada sho‘rlanishi to‘g’risida yozilgan.

Kalit so‘zlari: Qoraqalpog‘iston, sho‘rlanish, tuproq, ozuqa, mahsulot, maydon, suv.

KIRISH: Respublikamizning shimoliy zonalari bo‘lgan Qoraqalpog‘iston va Xorazm viloyatlariga tuproq sho‘rlanishi eng dolzarb muammolardan sanalib chunki sho‘rlanish barcha qishloq xo‘jalik ekinlarining unib chiqishidan o‘sish va rivojlanishlariga tasirini ko‘rsatib xosildorligini pasaytiruvchi omillardan biri bolib hisoblanadi.

MAVZUNING DOLZARIBLIGI Bizning Qoraqalpog‘iston sharoitidagi tuproq eritmasidagi tuzlar miqdori 5-6 g/l bolganda optimal miqdor hisoblanadi, agar

bu miqdor 10-12 g/l bolganda o‘simliklar guli zarar ko‘radi. 20-25 g/l bo‘lganda ko‘pchilik ekinlar nobut bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasida 4 mln ga yaqin maydon sug’oriladigan bolsa, shuning 60% ga yaqini maydondagi tuproqlar turli darajada sho‘rlanadi.

Sho‘rlanish Qoraqalpog‘iston Respublikasining qishloq xo‘jaligiga katta zarar ko‘rsatmoqda

Hozirgi kungacha sho‘rlanishga qarshi kurashning eng ommaviy usuli qishda yoki erta bahorda “sho‘rlanish” agromexanik tadbir hisoblandi.

Ammo bu usul muammoni uzil kesil hal qilmaydi. Chunki suvda eruvchi muzlar “sho‘rlanish” natijasida chuqurroq qatlamga cho‘kadi va vegetatsiya davrida yoki yer-osti suvining ko‘tarilishi natijasida yana tuproq yuzasiga ko‘tariladi, natijasida 2 lamchi sho‘rlanishlar sodir bo‘lishiga olib keladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik Muhitni buzilayotganligi atmosferadagi chang to‘zonlarining paydo bo‘lishi iqlimning keskin o‘zgarish sabablari orol dengizining qurishi oqibatida yuzaga kelmoqda. Bu esa o‘z navbatida o‘simlik va hayvonot dunyosiga tasirini ko‘rsatmoqda.

Chorva mollari uchun zarur bo‘lgan ozuqabop o‘simliklarning himoyaviy tarkibi va hosildorligi ob-havo sharoitllari (harorat, yorug’lik, suv bilan ta’minlanishi, tuproq tarkibi) tasir ko‘rsatadi. Yoz davomida Respublikamizda harorat yuqori bo‘lishi faqat o‘tlar hosilini kamaytiribgina qolmay, ularning ozuqalik qiymatini ham pasaytirmoqda.

Bunday sharoitda o‘simliklarda poya ulishi ortib, barg ulishi kamayib yani kletchatka ko‘payib, to‘yimli moddalar miqdori ma’lum miqdorda kamayib ketmoqda.

Tuproq sharoitlari ham o‘simlik kimyoviy tarkibi va to‘yimliligiga ta’sir etadi. Unumdor, o‘g‘itlangan tuproqlarda o‘sgan o‘simlik yuqori hosil berish bilan birga unga to‘yimli moddalar miqdori ancha ko‘p boladi.

O‘simlikning barglari va poyasi to‘yimlilik jihatidan farq qiladi. Barglarda poyaga nisbatan protein 2-3 barobar ko‘p boladi. Barglar o‘simlikning eng to‘yimli qismi hisoblanadi.

Xo‘jaliklarda ozuqalar umumiy to‘yimliligining o‘lchov birligi shartli ozuqa birligi hisoblanadi. Ozuqa birligining standarti sifatida 1 kg suli va 0,6 kg kraxmalning toyimliligi qabul qilingan. Bundan tashqari, ozuqaning yuqori to‘yimli ekanligi undagi oqsil yoki hazm bo‘luvchi protein miqdori ham ko‘rsatiladi. Oqsillar odam va hayvonlar ovqatining muhim tarkibiy qismi hisoblanib sutning quruq moddasiga 40%, go‘shtga 60% va tuximda bundan ko‘pdir.

Hayvon ozuqasida oqsil qancha ko‘p bo‘lsa, uning mahsuldorligi shuncha yuqori bo‘ladi. Ozuqalardagi oqsilni o‘rnini uglevodlar, yog’lar yoki klechatka bosa olmaydi. Qoraqalpog‘istonda chorvachilikni rivojlantirishda va tuproq ekalogiyasini yaxshilashda dukkakli ekinlar ekish maqsadga muvofiqdir.

Sababi uning donida 20-30% oqsillar bo‘lishi, uning tarkibida qimmatbaho almashilmaydigan aminokislotalar hayvonlar organizmida yetarli miqdorda hosil bo‘maydi bularga: lizin, triptofan, gistidin, fenolalamin, leysin, izoleysin, treonin, meteonin, valin, sistin, arginim va boshqa bu ekin turida mavjudir. Yuqoridagi aminokislotalar miqdori Qoraqalpog‘istonda dukkakli ekinlarda janubiy zonalarga solishtirganda quriq modda miqdori kamayib boradi. Bu esa bir qancha ekalogik faktorlar ta’sirida vujudga kelmoqda. Don- dukkakli ekinlardagi oqsil miqdori uning naviga, tuproq iqlimi sharoitiga va yetishtirilish texnalogiyasiga bog’liq. Hozirgi vaqtda mamlakatlarda oqsil miqdori juda muhim bo‘lib qoldi. Chunki mollarning 1-oziq birligidagi hazm bo‘ladigan oqsil 105-110 gr o‘rniga 80-85 gr tashkil qilmoqda xolos.

Oqsillarning yetishmovchiligi oqsil ko‘p sarflanishiga olib kelmoqda va chorva mahsuldorligining ko‘payishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Oqsil yetishmovchiligining don-dukkakli ekinlar maydonini kengaytirish hosilni oshirish bilan hal qilish mumkin.

Qoraqalpog‘istonda dukkali ekinlarni ko‘paytirish sanoatni rivojlantirishga urug’idan fermerlar, dorivorlar, kazein, kley plastmassalar olinishini va hashoratlarga qarshi qo‘llashda ishlatiladigan moddalar tayyorlashda, don- dukkakli ekinlar tuproqni organik moddalar va biologik azot bilan boyitadi, ayrimlari (lyupin, no‘xat, xashaki dukkaklar) qiyin eriydigan fosfatlarni oson eriydigan holatga aylantiradi.

Ularning bu xususiyatlari Orol bo‘yi regionida yerning biologik unumdorligini oshiradi. Ularning ildizlaridagi tugunaklarda yashaydigan tugunak bakteriyalar yordamida atmosferadagi azotni o‘zlashtirib olib yerni boyitadi. Bundan tashqari, ayrim don-dukkakli ekinlar(soya, xashaki dukkadoshlar, mahalliy no‘xat) qator oralig’i ishlatiladigan ekinlar qatoriga kiradi. Shuning uchun ham ekinlar g‘alla, texnik, moyli va boshqa ekinlar uri g‘i yaxshi o‘tmishdosh hisoblanadi.

XULOSA

1.Yoz davomida Respublikamizda harorat yuqori bo‘lishi faqat o‘tlar hosilini kamaytiribgina qolmay, ularning ozuqalik qiymatini ham pasaytirmoqda.

2.Chunki mollarning bir-oziq birligidagi hazm bo‘ladigan oqsil 105-110 gr o‘rniga 75-80 gr tashkil qilmoqda bu esa mahsulot kamayishiga sabab bolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Dala tajribalarini utkazish uslublari” – Toshkent 2007.

2. P.V.Protasov, F.K.Kodirxojaev – “Paxtachilikda ug‘itlardan foydalanish” – Toshkent 1981.

3. E.I.CHembarisov, B.A.Baxriddinov – “Osobennosti vliyaniya orosheniya na mineralizatsiya rechnых vod basseyna Amudari” – Nukus 1998.

4. R.Steynier, E.Edelberg, Dj.Ingrem – “Mir Mikrobov” – Moskva 1979.

THE ROLE OF MOTIVATION IN THE PROCESS OF TEACHING AND LEARNING FOREIGN LANGUAGE

Yo‘ldosheva Shoira

3rd year student of Jizzakh State Pedagogical University

Annotation: Due to the learner's logical and psychological separation from the target culture, which is one of the most significant drivers of second/foreign language learning, motivation is crucial while learning a foreign language. One of them is the inner need that propels someone to take action in order to accomplish a goal and succeed is referred to as motivation. Motivation can be categorized into different types: integrative and instrumental, internal and external, global, situational and task-related.This article especially pays attention to the most important role of motivation in the process of teaching and learning foreign language.

Keywords: motivation,language teaching, language learning ,language teaching

There is no question that motivation is crucial for success in the majority of learning areas since achievement requires a desire to do something. It doesn't always take part in any activities or exert the effort required to finish tasks or reach specific objectives. Success or failure when learning foreign languageis determined by it frequently has motivational connotations. Foreign Language (FL) students need to be motivated to learn, and FL teachers need to pique their students' interest in learning and keep it there**.** This paper aims to analyze theoretical perspectives on motivation, including its definition, types, and factors that influence language learners' incentive to learn. To have a better understanding of English language learning within the framework of Indonesian educational programs, it is also crucial to understand the distinctions between language learning and language acquisition, as well as between foreign and second languages. Motivation is believed to play an important role in the success of any activity. It is important to achieve the intended result. Correlation analysis results showed that students who were motivated to learn languages and had

good attitudes toward language learning performed better on module tests and were more actively involved in learning English as a second language. Teachers and language assistants subjectively rated students' learning habits, and the ratings were always inconsistent. However, since the teacher's assessment was not typically used for grading purposes, it would be interesting and helpful to hear how she assessed the student's engagement in her English classes and in her one-on-one interviews. No statistically significant associations were found between student motivation and attitudes and other performance measures such as final grades and final grades. The lack of relevance may be due to students having acquired "exam skills" by the time they complete the exam. As predicted by Gardner , other external factors may have played a role in determining students' ultimate learning outcomes. Students, teachers, material developers, and researchers all agree that motivation is essential to learning a second or foreign language. The concept of motivation seems complicated because it requires quite a few disciplines to rationally understand its aspects. Dornyei believes that the complexity of the concept of motivation lies in the effort to explain individual behavioral behaviors that cannot be explained by a one-size-fits-all approach. According to Dornyie , the problem is not the lack of theory to explain motivation, but the abundance of theories and models. Fortunately, a great deal of research is currently being conducted on the role of motivation in language learning. This article provides the broadest possible overview of this research, focusing on the most recent research and highlighting different aspects of motivation. Motivation is seen as a factor that influences the success of any activity. It plays an important role in achieving desired goals. Correlation analysis showed that students with positive motivations and attitudes towards language learning performed better on module tests and were more actively involved in learning English as a second language. . Student learning behavior was subjectively assessed by teachers and language assistants, so the ratings were not always the same. However, it was interesting and informative to hear how teachers rated students' participation in English classes and one-on-one interviews, as student assessments are not normally used for scoring. No statistically significant associations were found between student motivation and attitudes and

other performance measures such as final grades and final grades. The lack of relevance may be due to students having acquired "exam skills" by the time they complete the exam. As predicted by Gardner , other external factors may have played a role in determining students' ultimate learning outcomes. Students, teachers, material developers, and researchers all agree that motivation is essential to learning a second or foreign language. The concept of motivation seems complicated because it requires quite a few disciplines to rationally understand its aspects. Dornyei believes that the complexity of the concept of motivation lies in the effort to explain individual behavioral behaviors that cannot be explained by a one-size-fits-all approach. According to Dornyie, the problem is not the lack of theory to explain motivation, but the abundance of theories and models. Fortunately, there is currently a great deal of research on the role of motivation in language learning. provides the widest possible overview of Gardner defines motivation as "the combination of effort and desire to achieve language learning goals and a positive attitude towards language learning". Motivation, he believes, lies in the question, "Why do living things behave the way they do?" According to Yeok-Hwa , motivation determines the degree of learner's active participation and attitude towards learning. According to Dornyie , motivation consists of her three levels:There is a pre-behavioral phase in which motivation needs to be generated, a behavioral phase in which motivation needs to be maintained and protected, and a post-behavioral phase in which students assess the activities they are motivated to do. Williams and Burden also argue that motivation arises from a combination of various internal and external influences. Motivation doesn't seem to have a specific definition. Different people define motivation from different perspectives, and this may be because there are different language learning environments, but most importantly, motivation is the key to language learning. There are two types of motivations to consider when talking about learning a second or foreign language. They are the motivation for language learning and the motivation for learning in the classroom. Language learning motivation refers to the motivation to learn or acquire a second language. According to Gardner , it is considered in the social education model of second language acquisition. Based on

Clement , it is considered in the social context model. Based on Clement and Noels, it is explained by the self-determination model. This is a common form of motivation relevant in the context of second language learning. This is a common characteristic of individuals that applies to any learning opportunity.Relatively stable, but can change under certain conditions. Motivation for classroom learning, which Gardner describes in his social education model of second language learning, is also considered an integral part of general motivation. Refers to motivation in classroom situations or specific situations. It is influenced by various factors related to language teaching. Thus, teachers, course content, materials, and facilities influence an individual's motivation to learn. Gardner believes that both educational and cultural backgrounds play important roles in shaping motivation. The use of these methods and techniques can be effective when a student's interest in learning a foreign language is waning, stimulating their cognitive interest and awakening them spiritually. Close to the spirit of knowledge, the spirit of communication and teamwork, all children need to express themselves through creativity, imagination, play and competition.

References:

1.Brewer, E. W., & Burgess, D. N. (2005). “Professor’s role in motivating students to attend class”. Journal of Industrial Teacher Education, 42(3), 24.

2.Crump, C. A. (1995). “Motivating students: A teacher’s challenge”. Sooner Communication Conference, Norman, Oklahoma.

3.Clement R. 1980. Ethnicity, contact, and communicative competence in second languages. Giles, H.; Robinson, W. P. and Smith, P.M. (eds.), language: A socio-psychological perspective. Oxford: Pergamon Press,

4. Dornyei Z. 2001. Teaching and researching motivation. Harlow. England: long man.

5. Gardner RC. 1985. Social Psychology and Second Language Learning: The role of attitude and motivation. London: Edward Arnold.

6. Noels KA, Clement R. 1996. Communication across cultures: Social determinants and cultural consequences. Canadian Journal of Behavioral Sciences, 28,

YOSHLAR AXLOQIY-ESTETIK MADANIYAT KAMOLOTI

Sadikova Roza Ismailovna

Toshkent to`qimachilik va yengil sanoat instituti katta o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiyaviylik-axloqiy va estetik madaniyatning ustuvor vazifalaridan biri - Inson hissiyotlariga ta’sir qilish, estetik kechinmalar uyg‘otish va shu orqali ezgulikdan yovuzlikni farqlay bilish ko‘nikmasini shakllantirsh omillari tadqiq etiladi.

Kalit so`zlar: Madaniyat, tarbiya, axloq, estetik madaniyat, kommunikativ, aloqachilik, mahalla, inson hissiyoti.

Madaniyatning funksiyalari haqida turli tuman yondashuvlar, klassifikatsiyalar mavjud bo‘lib bu fikrlar axloqiy va estetik madaniyatga ham bevosita daxldordir. Ayniqsa globallashuv jarayoni axloqiy-estetik madaniyatning kommunikativ (aloqa almashuv), me’yoriylik, tarbiyaviylik funksiyalariga e’tiborni oshirishni taqozo etmoqda.

Kommunikativlik funksiyasi-mohiyatni aniqlash uchun bilimlar, fikrlar, ma’naviy omillarni o‘zaro almashuvdir. Ijtimoiy hayot doimiy ravishda axborot, o‘zaro amaliy hamkorlikni taqozo qiladi. Zotan, faqat turli tiplarning (an’anaviy, funksional, shaxslararo, ishlab chiqaruvchi, madaniy-ma’rifiy) munosabati jamiyatning mavjudligini va uning keyingi taraqqiyotini ta’minlashga qodir. Bu funksiya yoshlarni boshqa mintaletet va millat madaniyati bilan tanishtiradi. Bu muomala jarayonida namoyon bo‘ladi.

Kommunikativ aloqachilik funksiyasi kishilararo va xalqlararo (integrativ) aloqalarni, muloqotlarni o‘z ichiga oladi. Til madaniyatning asosiy vositalaridan biri ekan, u o‘zini muloqot orqali ifoda etadi. Muloqot etnomadaniyatning shakllanish va rivojlanish sharti bo‘lib kelgan.

Bugun kommunikativ funksiyasi keskin kengaygan, unda global o‘zgarishlarga muvofiq transformatsiya jarayonlari kechmoqda. Ayniqsa, bilvosita muloqot shakllari

(mobil telefon, internet) mazkur funksiyada tub o‘zgarishlar yasamoqda. Endi madaniyatlarning bir-biriga tez yaqinlashuvi, tajriba almashuvi va bir-birini boyitishi sodir bo‘lmoqda, mutaxassislar fikriga ko‘ra “madaniyatning globallashuvi muqarrar voqelikka aylanmoqda, unga qarshi turish yoki uni rad etadiganlar aqldan ozgan telbalardir.”[1]

Shu bilan birga kommunikativ funksiya etnomadaniyatlarning rang-barangligiga ziyon etkazmasligi, madaniyatlararo muloqotlarni milliy manfaatlarga muvofiq kechishiga xalaqit bermasligi, ayniqsa AQSH madaniyati yoki g‘arb ommaviy madaniyatini qaror toptirishga qaratilmasligi darkor. Xalqaro muloqot, integratsiya umuminsoniy qadriyatlarni, normalarni qaror toptirishga qancha yordam bermasin, ular ekspansiya kayfiyatidagi madaniyatning hukmron kuchga aylanishiga xizmat qilmasligi kerak.

Kommunikativ funksiya bevosita yoki bilvosita, majburiy yoki ixtiyoriy, yakka tartibda yoki guruhiy, ommaviy, belgilar yoki imo-ishoralar orqali amalga oshiriladi. Axloqiy madaniyatning muhim unsuri bo‘lgan muomala odobini axloqiy va estetik madaniyatning kesishgan nuqtasi deyish mumkin. Inson ma’naviy madaniyatining asosiy mezoni–axloqiy etuklik hisoblanib o‘zida–halollik, insoflilik, vijdoniylik, shafqatlilik, mehribonlik singari axloqiy fazilatlarni mujassam etadi. Muomala madaniyatining asosiy mezonini yaxshi xulq va go‘zal fazilat uyg‘unligi tashkil etadi. Bu xususda tadqiqotchi olimlar ta’kidlashganidek “Xulqiy go‘zallikning estetik-axloqiy mohiyatiga ikki xil nuqtai nazardan yondashish mumkin.

1. Mavjudligimuayyan ichki va tashqi ta’sirlarga, vositalarga bog‘liq bo‘lmagan go‘zallik. Bu ko‘proq insonning tashqi qiyofasiga daxldor xususiyat; insonning chinakam go‘zal chehrasi har qanday soxta bejamalikdan, «yasama go‘zallikdan» ustun turadi.

2. Muayyan ijobiy faoliyatlar, xatti-harakatlar, amallar, botiniy tuyg‘ular orqali paydo bo‘ladigan go‘zallik. U ezgulik vositasida xulqiy go‘zallikni takomillashtiradi”.[2]

Mahallaning estetik kamolotni ta’minlashdagi vazifalari jamoa orasida madaniy marosimlarni tashkil qilish, yoshlarni ijtimoiy ruhda tarbiyalash, tarixiy va

zamonaviy madaniy an’analarni rivojlantirish, halol mehnatdan bo‘yin tovlaganlarni nazorat ostiga olish, eng muhimi, aholi orasida ma’naviyatni targ‘ib qilish, shaxslarda jamoaviylik hissini tarbiyalashdan iboratdir. Mahalla hayotida faol ishtiroki bilan shaxs jamoaviylik mas’uliyatini chuqur his etadi va mahallaning ijtimoiy-siyosiy hamda ma’naviy muhitiga mos faoliyat ko‘rsatishga harakat qiladi.

Me’yoriy vazifa insonlar o‘rtasida axloq mezonlarini yo‘lga qo‘yish, jamiyatda sog‘lom muhit yaratish maqsadida axloqning mohiyatini muvofiqlashtirishdan iboratdir. Me’yor qandaydir xatti–harakatni yoki qandaydir predmetlar, narsalarni yaratish sohasida ishlab chiqilgan va jamiyat tomonidan ma’qullangan aniq qoidadir. Bu estetik madaniyatgham bevosita taalluqlidir. Me’yor ma’lum maqsadda joriy qilingan ko‘p asrlik an’analarga tayanadi va an’analarni ma’qullab, jamiyatga olib kirishga yo‘l beradi yoki majburiy ravishda ko‘p asrlik an’analarni taqiqlaydi. Me’yorning mazmuni jamiyatda nosog‘lom muhit paydo bo‘lmasligi uchun odamlar faoliyatini, xulq–atvorini tartibga solish, aniq chegaralar orqali belgilashdan iborat.

Bugun taraqqiy etgan mamlakatlarning globallashuvga bo‘lgan ta’sir doirasidan, ularning shaxs ongi va ruhiyatiga asta-sekinlik bilan salbiy ta’sir etuvchi, «ommaviy madaniyat» negizida kirib kelayotgan salbiy hodisalardan ogoh bo‘lish darkor. Mana shunday xalqimiz turmush tarzi, ma’naviyati, estetik madaniyatiga kirib kelishga intilayotgan «badiiy mahsulotlardan» ehtiyot bo‘lmoq kerak. Chunki, beozorgina ko‘ringan biror buyum, multfilm yoki «ommaviy mahsulot» odamlar qalbi va ongiga ta’sir etishi, milliy-estetik madaniyatiga putur yetkazishi mumkin. Ularning «tashviqotlardan ko‘zlangan maqsadi ham juda katta, ya’ni katta foydaga ega bo‘lish, u yoki bu mamlakatning iqtisodiyoti va moddiy resurslarini qo‘lga kiritish, ularning milliy ma’naviyatini egallash, o‘z urf-odat, an’ana, axloqiy qadriyatlarini o‘zgalar ongi va qalbiga singdirish, ularni amalga oshirish yo‘li bilan o‘zga millatni ma’naviy qashshoq, o‘zligidan mahrum qilishdan iborat ekanligi inkor etib bo‘lmaydigan haqiqatdir».[3]

“Ommaviy madaniyat” millat va xalq tanlamaydi. Shu bois ko‘p millatli O‘zbekiston xalqi har qanday mahalliy va milliy nizolarga yo‘l bermasdan yagona milliy mafkura atrofida birlashishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Birinchi Prezident

I.A.Karimov aytganlaridek: “Agarki, shu muqaddas zaminda yashayotgan barcha insonlar-millati, til va dinidan qat’iy nazar O‘zbekiston mening yagona vatanim, deb yashaydigan, belini mahkam bog‘lab astoydil mehnat qiladigan bo‘lsa, bilib, qo‘ying bizni hech qanday kuch yenga olmaydi, yurtimiz va xalqimiz hech kimga qaram bo‘lmaydi”.[4]

Hozirgi zamon madaniyatshunosligida e’tirof etilishicha, ma’naviy ne’matlar ishlab chiqarishning muayyan turi bo‘lgan ”ommaviy madaniyat” “o‘rtacha” iste’molchiga mo‘ljallangan bo‘lib, tijorat, moddiy foyda ko‘rish maqsadida original ma’naviy mahsulotni ko‘paytirish va tarqatish imko-niyatlarini anglatadi”. Ommaviy estetik madaniyatning muhim tomoni shundaki, u yoshi, ijtimoiy va milliy toifasi jihatidan o‘z iste’molchisini aniq belgilab oladi, shunga mos badiiy-estetik usullar va qadriyatlar tanlaydi, moddiy manfaat yo‘lida turli vositalarni ishga soladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Многоликая глобализация. Культурное разнообразие в современном мире. Под.ред. П. Бергера, С. Хантингтона. –М.: Аспект-Пресс, 2004. –С. 123

2. Хусанов Б., Ғуломов В. Муомала маданияти.-Тошкент:Иқтисод-молия. 2009.-57 б.

3. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллат. -Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. – 46 б.

4. Karimov.I.A. Inson,uning huquq va erkinliklari oily qadriyat. – T.O’zbekiston.2006. 97-б.

DAST TO’QIMACHILIK MAXSULOTLARINI VUJUDGA KELISHI VA ULARNING TURLARI

Tojimamatov Nuritdin
Andijon Davlat Universititeti
Tojimamatovnuriddin@gmail.com

Annotatsiya: Bu mavzu yuzasidan qisqacha hulosam shuki, insonlarni yengil sanoatga bo’lgan extiyoji doimo ortib boradi. Shuning uchun ham istemolchilar uchun doimiy ravishda ham sifatli, ham zamonaviy kiyimlarga bo’lgan talabini qondirish maqsadida avval yengil sanoatni kelib chiqish tarixini bilishimiz maqsadga muofiqdir.

Kalit so’zlar: banoras, zandanachi, urchuq, dastgoh, ip gazlama konbinati, ishlab chiqarish texnologik sikli, investitsiya.

To‘qimachilik buyumlari ishlab chiqarish qadim zamonlarda paydo bo‘lgan. G‘o‘za ekish, qo‘lda ip tayyorlash va gazlama to‘qish Hindiston, Xitoy, Misr va O‘rta Osiyoda miloddan bir necha asr ilgari ma’lum bo‘lgan. To‘qimachilik sanoati mashinalashgan ishlab chiqarishga birinchi bo‘lib o‘tgan sanoat tarmog’idir. Yevropada XVIII asrning 2-yarmidagi sanoat to‘ntarishi shu tarmoqdan boshlangan.

O‘zbekistonda To‘qimachilik sanoati uzoq tarixga ega. O‘rta asrlarda mahalliy hunarmandlar tayyorlagan atlas, beqasam, baxmal, banoras, zandanachi, olacha kabi mahsulotlar uzoq mamlakatlarda mashhur bo‘lgan, Buyuk ipak yo‘li orqali Yevropa va Yaqin Sharq mamlakatlariga chiqarilgan. Lekin mayda tarqoq hunarmandchilikni birlashtirib sanoat asosini yaratish va gazlamalar ishlab chiqarish esa faqat XX asrning 20-yillaridan boshlandi.

1926-yilda Farg‘ona to‘qimachilik fabrikasining birinchi navbati ishga tushirildi (10000 urchuq va 300 to‘quv dastgohi), 1932-yilga kelib uning ikkinchi va uchunchi navbatlari ham qurildi (19900 urchuq, 906 to‘quv dastgohi). 1930-yilda Samarqand shoyi to‘qish fabrikasi ishlay boshladi. 1932-yildan Toshkent to‘qimachilik

korxonasini qurish boshlandi. 1935-yil bu korxona gazlama ishlab chiqara boshladi (33630 urchuq, 1152 dastgoh).

To‘qimachilik sanoati mashinalari, dastgohdari bazasini yaratishda 40-yillarda qurilgan "Toshtekstilmash" zavodining hissasi katta bo‘ldi. Urushgacha bo‘lgan yillarda Qo‘qon ip yigiruv paypoq to‘quv fabrikasi, Farg‘ona, Toshkent trikotaj buyumlari fabrikalari, Marg‘ilon shoyi fabrikasi, Samarqand yangi trikotaj fabrikasi barpo etildi. Urush yillarida (1941— 45) Toshkentga Rostovdon shahridan trikotaj, Leningraddan ip, Marg‘ilonga Ijevskdan shoyi to‘qish, Farg‘onaga yigiruv to‘quv fabrikasi ko‘chirib keltirildi. Natijada O‘zbekistonda To‘qimachilik sanoati o‘sish sur’atlari tezlashdi. 50-yillarda yangi korxonalarni qurish, ishlab turgan korxonalarni kengaytirish davom etdi. 60-yillar o‘rtalarida Namangan kastyumbop va shtapel gazlamalar kti qurila boshlandi. Toshkentda "Malika" trikotaj ishlab chiqarish konbinati, Buxoro to‘qimachilik kombinati (1973— 76), Namangan noto‘qima materiallar ishlab chiqarish birlashmasi (1974), Pop noto‘qima materiallar kombinati (1977), Andijon ip gazlama konbinatining 1 navbati (1981), Xiva gilam kombinati qurib ishga tushirildi. 80-yillarda yirik to‘qimachilik korxonalarida bir qancha filiallar ochildi. Shuningdek, Paxtaobod, Chuvama, Qo‘rg‘ontepa, Marqamatda hamda G‘ijduvon va Vobkentda fabrikalar qurilib ishga tushirildi. Filiallarda ham ishlab chiqarish texnologik siklining tugal bo‘lishiga erishildi.

90-yillarda O‘zbekiston To‘qimachilik sanoati yangi sifat o‘zgarishlari bosqichiga o‘tdi. Respublikaning xorijiy mamlakatlar bn hamkorlik aloqalari tobora kengayib, chet ellik sheriklar bn barpo etilgan qo‘shma korxonalar soni ko‘payib bordi.

O‘zbekiston To‘qimachilik sanoatiini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri jahon bozoriga paxta tolasini chiqarish emas, balki jahon bozorida raqobatbardosh ip gazlama ishlab chiqarishni ko‘paytirishdan iborat strategiya tanlandi. Shu maqsadda AQSH, Italiya, Turkiya, Pokiston, Hindiston, Koreya Respublikasi va boshqa mamlakatlar firmalari bn ip gazlama ishlab chiqaradigan yangi qo‘shma korxonalar tashkil etildi. Korxonalarni chet el ilg‘or to‘qimachilik texnologiyasi bn jihozlash boshlandi. 1993—94 ylarda "Buxoroteks" aksiyadorlik

jamiyatiga Shveysariya, Germaniya uskunalari o‘rnatildi. 1994-yilda Turkiyaning "Yazeks" korporatsiyasi bn hamkorlikda Qoraqalpog‘iston Respublikasining Ellikqal’a tumanida to‘liq texnologik siklli to‘qimachilik majmui ishga tushirildi.

1995 — 2003-yillarda O‘zbekiston To‘qimachilik sanoatiga kiritilgan xorij sarmoyalari 519,89 mln.dan ortiqroq AQSH dollarini tashkil etdi, shu jumladan, Janubiy Koreyaning "Kabul tekstaylz" kompaniyasi kiritgan investitsiya 186 mln., Turkiyaning "Timi", "Tipash" kompaniyasi 75 mln. (Namangandagi "Kosonsoy—Tikmen" kostyumbop va paltobop gazlamalar, jun choyshab va qo‘lda to‘qiladigan gilamlar uchun yigirilgan ip), "Bursel" firmasi 52,9 mln. (Chinoz to‘qimachilik tekstil), "Astop" firmasi 40,3 mln ("Asnamtekstil"), Yaponiyaning "Marubeni" firmasi 60 mln. ("Silk Road", Namangan) AQSH dollaridan iborat bo‘ldi. O‘zbekiston To‘qimachilik sanoatida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi tobora o‘sib bormoqda. O‘zbekiston To‘qimachilik sanoatida 2003-yilda 453,3 mln. m kv gazlama, shu jumladan, 415,2 mln.m^2 ip gazlama, 167 mln. juft paypoq, 28,6 mln. dona trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

1. Akramov V. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘zbekistonda hunarmandchilik. “O‘IF” j. -1973 yil, 1-soni, 58-b. Boburnoma. -T., 1989. 94-b.

2. Вестник истории мировой культуры. -М., БСЕ, 1957. Головин Э. Кустарные промыслы Туркестана. -Т., 1909. -10-с.

3. Shomirzayev, M.Kh. (2020). “Technology” In Secondary Schools Organization of Science Classes. The American Journal of Social Science and Education Innovations, Impact Factor 5.525 (11). -P. 395-405. (www/usajournalshub.com/index.php/tajet).

4. Shomirzaev M.X. Maktab o‘quvchilarida xalq hunarmandchiligi kasblariga qiziqishni fanlararo shakllantirish // “Mehnat va kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani material-lari. –Buxoro, 2019.- B.28-30.

5. Shomirzaev M.X. O‘zbek milliy hunarmandchiligining shakllanish genezisi va rivojlanish texnologiyasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. –T.: Yangi nashr, 2016. -88 b.

6. Шомирзаев М.Х. Технология обучения народному-прикладному исскусству, трудовое и эстетическое воспитание учащихся V-VII классов общеобразовательных школ. Монография. – Т.: Yangi nashr, 2019. – 144 с.

ТАКОМИЛЛАШТИРИЛГАН БАРАБАНГА БИРИКТИРИЛГАН ҚОПҚОҚА ДОН УЮМИ БОСИМИНИНГ ТАЪСИРИ

Собиров Холхўжа Аббозович

т.ф.н., доцент., Андижон машинасозлик институти

Хакимов Миролим Муродилжонович

таянч докторант., Андижон машинасозлик институти

Аннотация: Ушбу мақолада такомиллаштирилган барабанли кўчма дон қуритиш машинасининг тажриба синов нусҳасининг кинематик схемаси келтирилган, шунингдек унинг барабанига пружина ёрдамида бириктирилган шарнирли қопқоққа таъсир қилаётган дон уюмининг босими ҳисобланган.

Калит сўзлар: Машина, дон, шоли, қуритиш, барабан, қопқоқ, ҳажм, масса, зичлик, ғоваклик.

Қуритиш табиий ёки саноат техникаси ёрдамида амалга оширилади. Табиий қуритиш, инсоният томонидан қўлланилиб келинаётган озиқ – овқат маҳсулотларини қайта ишлаш ва сақлашнинг энг қадимги, кенг тарқалган шакли ҳисобланади. Чунки у арзон, осон ва қулай. Лекин айрим муаммолар мавжуд, узоқ қуритиш вақти, катта майдонларга бўлган талаб, об-ҳавонинг таъсири, қуритиш вақтида назорат қила олмаслик, маҳсулотларнинг ифлос бўлиши, қуритишнинг бир хилда эмаслиги ва бошқалар. Ҳолбуки саноат қуритиш техникаси юқоридаги камчиликларни бартараф этади.


G.S.V. Raghavan ва бошқа тадқиқотчиларнинг фикрича АҚШ, Британия, Канада ҳамда Франция мамлакатларида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қуритиш учун саноат энергиясининг 7 – 15 % и, Германия, Дания мамлакатларида эса 15-20% гача сарфланади [1].

Ушбу жараёнларда энергия интенсивлигини камайтириш учун, техник ва технологик жихатдан янгиланган қуритиш қурилмаларини ихчам, арзон, қулай

ишлайдиган ва энергия тежамкор қуритиш қурилмаларинин такомиллаштириш талаб этилади.

Ўтказилган адабиётлар таҳлили ва патент изланишлар натижасида кўчма дон қуритиш машинасининг қуритиб аралаштирувчи барабани конструкцияси такомиллаштирилди [2, 3].


Такомиллаштирилган барабанли кўчма дон қуритиш машинаси тажриба синов нусхасининг кинематик схемаси 1-расмда келтирилган ва у қуйдагилардан иборат: 1-таъминловчи бункер; 2-винтли транспортёр; 3, 6, 7 -новлар; 8-қўзғалмас секция; 4-қуритиш барабани; 5- бошқарилувчи қопқоқ; 9-калорифер; 10 -вентилятор; 11,15-электродвигатель; 12-муфта; 13 -редуктор; 14-муфта; 15 -тасмали узатма; 16-подшипник; 17-рама; 18-тиркама; 19-ғилдираклар; 20-пружина.




1-расм. Тажриба синов нусхасининг кинматик схемаси.

Тажрибавий тадқиқотларда тадқиқ этилиши белгилаб олинган барабанга бириктирилган пружиналанган қопқоқни очилиб ёплиш жараёни барабан ичидаги дон уюмининг қопқоқа кўрсатаётган босим кучига боғлиқ бўлади.

Қопқоққа таъсир этаётган дон уюми массасини аниқлашда тажрибавий тадқиқотлар ҳамда математик ва геометрик усуллардан фойдаланилди. Бунда дон (шоли) билан тўлдирилган барабан ичида асосининг ўлчамлари қопқоқнинг ўлчамларига тенг бўлган тўғри тўртбурчакли призма ҳосил қилинди, унинг баландлиги барабан ичидаги доннинг тўлиш даражаси натижасида ҳосил бўлган энг юқори баландлик олинди (2 ва 3 - расмлар).



2 - расм. Қуритиш барабанида дон уюмининг кўриниш ҳолати



3 - расм. Қопқоққа таъсир этаётган дон уюмининг босимини аниқлаш схемаси

Такомиллаштирилган барабаннинг радиуси 0,46 мм бўлса, 3-расмдаги ҳисоб схемага кўра тўғри тўртбурчакли призманинг баландлиги H=1,4*$r_Б$ = 0,644 м, асосининг узунликлари мос равишда l_1=0,08 м ва l_2=0,12 м бўлганда унинг хажми қуйдагига тенг бўлди.

$$V_{призма} = S \cdot H = l_1 \cdot l_2 \cdot H = 0{,}08 \cdot 0{,}12 \cdot 0{,}644 = 0{,}006182\ м^3 \quad (1)$$

Дон уюмида ғоваклик деган тушунча мавжуд бўлиб, доннинг йирик ва майдалиги, намлиги бегона аралашмалар борлигига боғлиқ. Дон уюмининг ғоваклиги қанчалик катта бўлса, дон уюмининг зичланиши шунчалик кам бўлади. Доннинг ғоваклиги орасидаги хажми дон уюми эгаллаган умумий хажмига нисбати билан ифодаланади [4; 82-б]

$$S = \frac{W - V}{W} \cdot 100 \qquad (2)$$

бунда, W – дон уюми эгаллаган умумий хажми, м^3; V – ҳақиқий дон эгаллаган хажм, м^3. Дон уюми эгаллаган умумий хажмини $W = V_{призма}$.деб қабул қилиб оламиз.

Айрим турдаги дон уюмининг хажмий масса зичликлари ва ғоваклигининг қийматлари (Л.А. Трисвятский бўйича) 1-жадвалда келтирилган [4; 83-б, 5].

1-жадвал

Дон тури	Зичлиги, кг/м^3	Ғоваклиги, %
Буғдой	730-850	35-45
Арпа	580-700	45-55
Маккажухори	680-820	35-55
Шоли	440-550	50-65

Дон (шоли) уюмининг массаси унинг ҳақиқий дон эгаллаган хажмига нисбати хажмий масса зичлиги эканлигини хисобга олсак [6, 7; 16-20-б.], призма шаклидаги дон (шоли) уюмининг массасини аниқлаш мумкин.

$$m_к = \rho \cdot V = \rho \cdot \left(V_{призма} - \frac{60 \cdot V_{призма}}{100} \right) = 1{,}236 \ кг \qquad (3)$$

Барабан ичидаги дон уюмининг қопқоққа кўрсатаётган босими қуйдагича аниқланади

$$P_Д = \frac{G_к}{S} = \frac{m_к \cdot g}{l_1 \cdot l_2} = 1263{,}01 \ \frac{Н}{м^2} \qquad (4)$$

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, дон уюмининг қопқоққа кўрсатаётган босимини ўзгариши ва қопқоқнинг бурчак кўчиши, тезлиги ҳамда

тезланишига боғлиқ графиклар олинади, шунингдек унга мос равишда пружина бикрлигини аниқлаш имконияти яратилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Raghavan, G.S.V., Rennie, T.J., Sunjka, P.S., Orsat, V., Phaphuangwittayakul, W., and Terdtoon, P. Overview of new techniques for drying biological materials with emphasis on energy aspects. Brazilian Journal of Chemical Engineering, 22(2):195-201, 2005.

2. Патент Республики Узбекистан на полезную модель № FAP 01831. Устройство для сушки продуктов зерновых культур. Собиров Х.А., Беккулов Б.Р., Хакимов М.М., Рахмонкулов Т.Б. 10.02.2022.

3. Патент Республики Узбекистан на полезную модель № FAP 0207. Устройство для сушки зерновых продуктов. Собиров Х.А., Беккулов Б.Р., Хакимов М.М., Рахмонкулов Т.Б. 11.08.2022.

4. Бўриев Ҳ., Жўраев Р., Алимов А. Дон маҳсулотларини сақлаш ва қайта ишлаш. – Тошкент: Меҳнат, 1997. – 176 б.

5. Собиров Х.А., Хакимов М.М. Айрим донли экинларнинг қуритиш хусусиятлари // «Kimyo, oziq-ovqat hamda kimyoviy texnologiya mahsulotlarini qayta ishlashdagi dolzarb muammolarni yechishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati» мавзусидаги халқаро илмий-техник анжумани материаллари тўплами НамТИ, 23-24 ноябрь, 2021-йил, 800-803 бетлар.

6. ГОСТ 13586.5-2015. Зерно. Метод определения влажности. – Москва: Стандартинформ, 2015. – 11 с.

7. Алиакберов И.И. Разработка и обоснование параметров энерго-сберегающей установки для сушки зерна. Дисс. ... канд.техн.наук. – Казань, 2011. – 117 с.

UCHINCHI RENESSANS YOSHLARIDA ILMIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH MEZONLARI

Tursunova Shakhnoza Ashrafovna

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti assistenti

Annotatsiya: Maqolada yangilanayotgan O‘zbekistonning Uchinchi Renessansni qurayotgan yoshlar ilmiy tafakkurini rivojlantirish mezonlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. O‘zbek xalqi o‘z milliy-madaniy taraqqiyoti bilan jahonda alohida xurmat va e’zozga ega bo‘lgan xalq hisoblanadi. Bu - e’tirof etilgan aksioma. Ana shu milliy-madaniy boyliklarni xalqimiz ongi shuhratiga singdirish, ularning qalbiga jo etish asosida millat madaniy-ma’naviy qiyofasini shakllantirish eng dolzarb masalalardan biridir.

Kalit so‘zlar: yoshlar, Uchinchi Renessans, ilmiy tafakkur, mezonlar, ehtiyojlar, axloq, inson huquqlari va erkinliklari.

Аннотация: В статье проанализированы с научной точки зрения критерии развития научного мышления молодежи, задействованной в построении Третьего ренессанса в Новом Узбекистане. Узбекский народ признан мировым сообществом как нация с богатой культурой. Это общепризнанная аксиома. Одним из самых актуальных вопросов является процесс осознания народом Узбекистана культурных ценностей свойственных менталитету узбекского народа и формирование культурного и духовного облика нации.

Ключевые слова: молодежь, Третий ренессанс, научное мышление, критерии, потребности, этика, права и свободы человека.

Annotation: The article analyzes from a scientific point of view the criteria for the development of scientific thinking of young people involved in the construction of the Third Renaissance in the New Uzbekistan. The Uzbek people are recognized by the world community as a nation with a rich culture. This is a generally accepted axiom. One of the most pressing issues is the process of awareness by the people of

Uzbekistan of the cultural values inherent in the mentality of the Uzbek people and the formation of the cultural and spiritual image of the nation.

Keywords: youth, the Third Renaissance, scientific thinking, criteria, needs, ethics, human rights and freedoms.

Insoniyat taraqqiyotiga o‘zining salmoqli xissasini qo‘shgan o‘sha yangiliklaru ta’limotlarga qaramasdan, ilm-fan, madaniyat rivojlangan uchunchi ming yillikning boshida ham urushlardan jabr ko‘rayotgan, qiyinchiliklarga duchor bo‘layotgan baxtsiz insonlar xali ham bor. Boz ustiga bunday illatlar yangi shakl va mazmunda yana paydo bo‘lishi davom etmoqda. Aslida, “jamiyat ehtiyojlariga ko‘ra axloqiy jihatdan saqlanib borsa, u ijtimoiylashadi” [1, 29-b.]. Aholisi ijtimoiylashgan jamiyat kuchli jamiyatdir. Zero, kuchli jamiyat – bu inson huquqlari va erkinliklarini, demokartik qadriyatlarni ustuvor biluvchi va inson omilini ro‘yobga chiqaruvchi jamiyatdir [2, 12-b.].

Ijtimoiy faol shaxs esa bu – davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etuvchi va jamoaga etakchilik qiluvchi shaxsdir [3, 342-b.].

Eng achinarlisi shundaki, ilm-fan, madaniy rivojlanish taraqqiyoti kuchaygan sari insonni tarbiyalash, uning qalbini davolash zaruriyati shunchalar dolzarb bo‘lib bormoqda. Voqealar ummonida o‘zini “yo‘qotib qo‘ymaslik” zarurati tobora kuchliroq sezilmoqda. Ana shunday sharoitda faqatgina o‘z fikri, tafakkuri, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi asosida rivojlantirishga harakat qilgan inson, xalqgina o‘zini asrab qolishi mumkin. Aslida sog‘lom ma’naviy ehtiyoj inson qalbini nurga, yaxshilik, ezgulikka to‘ldiruvchi, uning yomon illatlardan ximoya qiluvchi vosita hisoblanadi.

Fuqaro ma’naviy ehtiyojini shakllantirish o‘ta murakkab va ma’lum vaqtni talab etadi. Buning uchun, eng avvalo, shaxsda o‘zini-o‘zi rivojlantirishga mayillik bo‘lishi lozim. Bu esa, ko‘proq oila, mahalla, o‘qiyotgan yoki ishlayotgan bilim yurti, muassasa, tashkilotdagi, umumiy tarzda aytadigan bo‘lsak, jamiyatdagi o‘rnak va ibrat masalasiga bog‘liq. Bu birinchi masala.

Masalaning ikkinchi jihati yon-atrofimizda, dunyoni boshqa mamlakatlarida yoshlarga taqdim etilayotgan turli ma’naviy “ne’matlar” saviyasiga bog‘liq. Ma’lumki, “sadizm” iborasi fransuz yozuvchisi Markiz de Sad (1740-1814 yillar) nomi bilan bog‘liq. Sadizmning ma’no-mohiyati-jinoiy buzuqlik, yostiqdoshiga jismoniy azob etkazilgan taqdirdagina to‘la-to‘kis xuzur qilish, haddan tashqari shavqatsizlik, boshqalarning azoblanishidan xuzurlanish demak. Taniqli adib M.SHoxanov ta’kidlaganidek, de Sad asarlarida tasvirlangan ma’naviy qashshoqlik, ashaddiy shavqatsizlik manzaralari faqat la’natlashga loyiq. O‘z onasini zo‘rlagan murtad, qizini o‘ziga o‘ynash tutib, so‘ng uni murdasini ovloq joyga eltib tashlaguncha yalab-yulqab borgan vosvos ota xaqidagi parchalarni o‘qishni o‘zi ham azob. SHunday bulsa-da, de Sad kitoblarini o‘qishga mushtoq bo‘lgan kitobxonlar juda ko‘p [4,128-b.].

Biz ko‘pincha sog‘lom ma’naviy ehtiyojni shakllantirish to‘g‘risida gapiramiz, uning zarurligi xususida o‘z muloxazalarimizni beramiz – bu to‘g‘ri. Ammo, yana shu ham ma’lumki, jahon amaliyotida sog‘lom ma’naviy ehtiyojni shakllantirishning umume’tirof etilgan yagona yo‘li yo‘q. Bunday ehtiyoj, bir tomondan millatning milliy-madaniy tarixiy merosi, jamiyat fuqarolarining mazkur merosga bo‘lgan munosabati natijasida shakllansa, boshqa tomondan, davlatning milliy-madaniy merosga, uni fuqarolar tomonidan o‘zlashtirishga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq.

Demak, eng avvalo, kattalarda shaxsiy namuna bo‘lishi lozim.

Ijobiy shaxsiy namuna - o‘quvchilar shaxsini shakllantirishda alohida o‘rin egallashi mumkin bo‘lgan metod bo‘lib, shaxsga shaxs orqali ta’sir etishning eng ob’ektiv yo‘li hisoblanadi. YOshlar balog‘at yoshiga etib, mustaqil hayotni boshlagunlariga qadar bilish, o‘rganish jarayonida o‘qituvchi-tarbiyachiga, ota-onaga, qo‘ni-qo‘shniga, doston, drama yoki adabiy asarlar qahramonlariga taqlid qilishadi. O‘quvchilar o‘zlari yoqtiradigan odamga taqlid qilish natijasida o‘zlarini mag‘rur tutadilar, xatti-harakatlari xuddi kattalarnikidek tuyuladi. YA.N.Komenskiyning fikricha, «Bola o‘qishni o‘rganishdan oldin taqlid qilishni o‘rganadi» [5, 78-b.]. Taqlid qilish orqali yoshlarning o‘z tajribasi qo‘shilib ketib, ularda yangi shaxsiy xislatlar paydo bo‘la boshlaydi.

Yoshlar Qalbi shakllanayotgan qalb hisoblanadi. Bu qalb ma’naviy ideallarni ustun ko‘radi. SHu ma’noda “ma’naviy ideal -Insonning etuklik mezonidir” [6, 204-b.]. Olimlarning fikricha, ma’naviy ideal, oxir oqibatda shaxsda fuqarolik hissining umumdavlat darajasida shakllanishiga olib keladi [7, 272-b.].

Yoshlarning shakllanish jarayoni to‘g‘ri belgilanmas ekan, bunday vaziyatda insonning vertual dunyoga kirib qolish ehtimoli ko‘p bo‘ladi. Vertual dunyoda inson qalbida xali to‘la anglab etilmagan qandaydir g‘ayriodatiy o‘zgarishlar ro‘y beradi, undaylarda turli tubanliklarga tushish erkinlik sifatida tahlil etiladi. YAna shu narsa ma’lumki, vertual dunyoda inson ma’naviy javobgarlikni xis etmaydi. Xattoki, mutaxassislarning ta’kidlashicha, vertual dunyo, uning zamonaviy axborot texnologiyalari bag‘rida yaratilishi atom bombasining kashf eshilishidan ham xavfli. Hozirgi sharoitda ayrim yoshlarimizning vertual dunyoga tushib qolishi, ularning real dunyodan ajralib qolayotganliklarining ikki sababi bor, deb o‘ylaymiz: birinchidan, undaylar o‘zining mustaqil ma’naviy qiyofasiga ega emas. Natijada “chetda”gi narsalar uni o‘ziga tortadi, asta-sekin real dunyodan oyog‘i uzilganini sezmay qoladi. Ikkinchidan, bunday toifadagi yoshlarda o‘zini-o‘zi rivojlantirishga ehtiyoj yo‘q. SHuningdek, bu narsa ularni moslashuvchanlik, ergashuvchanlik kayfiyatiga tushirib qo‘yadi.

Bugungi yoshlar ertaga jamiyatimizning taqdirini belgilovchi avloddir. Biz bugun yoshlarga qanday tarbiya bersak, bizning kelajagimiz ham o‘shanday bo‘ladi. Yoshlarni kelajakka munosib tayyorlash, ularga yaxshi ta’lim berish, ularni mehr-oqibatli, ilmparvar sahovatli, mehnatsevar, vatanparvar, odobli, axloqli qilib voyaga etkazish katta avlodning asosiy vazifasi bo‘lib qolmog‘i lozim [8, 19-22-b.].

Ajdodlarimiz merosida an’analarga sodiqlik vorislikning muhim belgisidir. Vorislik o‘tmishdan meros bo‘lib qolgan. “Voris” so‘zi davom ettiruvchi ma’nosini beradi. “Vorislik” - jamiyat taraqqiyoti jarayonida yangilik bilan eskilik o‘rtasidagi zaruriy aloqa bo‘lib, inkorni inkor qonunining eng muhim belgilaridan biri hisoblanadi. “Vorislik tushunchasi hodisalarning ob’ektiv aloqasini, o‘tmish, hozirgi va kelgusi hodisalarning zaruriy bog‘liqligini ifoda etuvchi umumfalsafiy tushunchadir” [7, 16-b.]. Vorislik o‘tmish merosiga tayanib taraqqiyotni yuksak

bosqichga ko‘tarish, taraqqiyotdagi uzluksiz aloqa va bog‘lanishni ta’minlashdir.

Xalqimiz azal-azaldan kattaga hurmat, kichikka izzat tamoyili asosida yashab keladi. Odamlararo munosabatlarda yosh kattaligi muhim axamiyat kasb etadi. Katta yoshli odamlarning fikr-mulohazalari jamoaviy qaror qabul kilishda asos bo‘lib kelgan. Keksalar demografik qatlam sifatida o‘z ijtimoiy mehnat faoliyatini muayyan darajada ob’ektiv va sub’ektiv sabablarga ko‘ra cheklab oila yoki mahallaga, o‘z tengdoshlari doirasiga ko‘chirib yashovchilar tushuniladi. Keksalar zimmasiga ajdodlarga xos turmush tarzi, ma’naviyat, madaniyatni yosh avlod tafakkuriga singdirishdan iborat ijtimoiy mas’uliyat yuklangan.

Yoshlarda ilmiy tafakkurni diniy va dunyoviy bilimlar asosida shakllantirishda quyidagilarga e’tibor berish zarur:

- Ilmiy bilimlar ratsional asosga ega bo‘lgani uchun ijtimoiy borlig‘ muammolarini aqlu idrok prinsiplariga muvofiq echish yo‘llarini taklif etadi. Diniy bilimlar esa din dogmatikasi shakllantirgan aqoidlar, talablar nuqtai nazaridan kelib chiqib irratsional yondashadi.

- Ilmiy bilimlar ilmiy xodimlar avtoritetiga tayanadi, ularning qarashlarini mutloq haqiqat bo‘lmaydi, bugun bo‘lmasa ertaga ular tanqidga uchraydi va bu holni ilm-fan tabiiy voqelik deb biladi. Diniy bilimlar esa avtoritetlar, ya’ni payg‘ambarlarni fikrlari, deganlari va odatlarini mutloq haqiqat deb targ‘ib etadi. Ularni shubhaga olganlar bilan kurashadi.

- Ilmiy bilimlar ijtimoiy taraqqiyotni nazarda tutadi, har bir ilmiy yangilikni shu nuqtai nazardan baholaydi, o‘rganadi. Diniy bilimlar ichki ma’naviy-e’tiqodiy jarayonlarga qaratiladi. Ijtimoiy taraqqiyot muammolari ularning diqqatini jalb etavermaydi.

- Yoshlar o‘zining psixoemansial va sotsiobiologik xususiyatlariga muvofiq yangilikka intiladi, yangi-yangi informatsiyalarga ehtiyoj sezadi. Aynan ushbu omillar ularda ilm-fanga qiziqish uyg‘otadi. Diniy bilimlar ma’naviy-ahloqiy qadriyatlarga murojaat etganida o‘z dogmatikasini ulug‘lash bilan chegaralanadi. Ma’naviyatda sotsiodinamik o‘zgarishlarni, uning ijtimoiy qonuniyatlarini ochib

berishga intilavermaydi, natijada ma’naviyat ahloq diniy dogmatikaga bo‘ysindiriladi.

- Yoshlar ma’naviyati ularni sotsiopsixologik va ematsional holati sifatida dinamik hodisa, ularni tashqi ta’sirlar asosida o‘zgarish xususiyatiga ega. Bu ilmiy bilimlarning fundamental xususiyatiga muvofiqdir. SHunday ekan, ushbu ikki dinamik jihat bir-birini to‘ldirib boyitib kelishi sabali yirik olimlar yoshlarni ilm-fanga jalb etishga ijtimioiy taraqqiyot omili sifatida qarashadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, bugungi kun yoshlari nihoyatda katta hajmda axborotlarga ega. Biroq, mohiyatan ushbu axborotlarning aksariyati ularning shaxs sifatida kamol topishi, intellektual jihatdan rivojlanishi, mavjud qobiliyatlarini oshirishlari, samarali ijtimoiylashuvlari, o‘z ustida izchil ishlashlari, kasbiy kamolotga etishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Xuddi shu kabi axborotlar mavjud sharoitda talabalarda ta’lim olish, mutaxassis sifatida kamol topishga nisbatan qiziqishning pasayishiga olib kelmoqda. Bu esa o‘z-o‘zidan pedagog kadrlarni talabalarga o‘quv jarayonida individual yondashuvini talab qiladi. YUrt ijtimoiy-iqtisodiy taraqqièti faqatgina ijtimoiy sub’ektlarning intellektual salohiyati, jismonan faolliklari asosida rivojlanadi yuksaladi.

Adabiyotlar:

1. Клакхон. Зеркало для человека. Введение в антропологии. Санкт Петербург, «Евроазия», 1998.
2. Государства и право. – Журнал 2002 г., №1 стр. 12.
3. Афанасьев В.Т. Системность и общество. – Москва: «Наука», 1989.
4. Aytmatov CH., Shoxanov M. Cho‘qqida qolgan ovchining oxu zori. – Toshkent: Sharq, 1998.
5. Azizxodjaeva N. N. O‘qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. – Toshkent, 2000.
6. Ильенков Э.В. Философии и культура. – Москва: «Ипл», 1991.
7. Ионин Л.Г. Социология культуры. – Москва: «Аспект», 2004.

8. Xayrullayev M., Shoraxmedov D. Madaniyat va meros. - Toshkent: G`.G`ulom nomli adabiyot va san'at nashriyoti, 1973.

9. Masharipova G.K. Vorisiylik va innovatsion yondashuvning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni//“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti bosh assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqini o‘rganish va jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib etishning dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy–amaliy seminari materiallari (2020 yil 20 noyabr). – Toshkent, 2021. – 19-22-betlar.

YOSHLARDA INNOVATSION YONDASHUVNI SHAKLLANTIRISH

Kuryazov Muzaffar

Xiva pedagogika kolleji moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Annotatsiya: Maqolada pedagogika kasb-hunar kolleji talabalarida innovatsion yondashuvni shakllantirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Bugungi davlatimizning Yoshlar siyosatida yosh ishchi kuchlarni jalb qiluvchi kichik biznes va xususiy-tadbirkorlik uchun byudjet va byudjetdan tashqari moliyalash manbalari, tijorat banklari, byudjetdan tashqari fondlarning mablag‘larini va chet el kreditlarini jalb qilish hisobiga qulay investitsiya muhiti va zarur shart-sharoit yaratish, yoshlarning o‘zini-o‘zi ish bilan ta’minlashining har qanday ko‘rinishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash eng dolzarb muammolardan biridir.

Kalit so‘zlar: yoshlar, innovatsiya, zamonaviy sivilizatsiya, ijtimoiy, iqtisodiy transformatsiya, bilimlar jamiyati, individuallik.

Аннотация: В статье научно анализируются вопросы формирования инновационного мировоззрения у студентов профессионального педагогического колледжа. В современной молодежной политике нашей страны необходимо создать благоприятный инвестиционный климат и необходимые условия за счет привлечения бюджетных и внебюджетных источников финансирования, коммерческих банков, внебюджетных фондов и иностранных кредитов для субъектов малого предпринимательства и частных лиц. предпринимательства, привлекающие молодых работников, молодежное самозанятость, одной из наиболее актуальных проблем является всесторонняя поддержка любых форм самозанятости.

Ключевые слова: молодежь, инновации, современная цивилизация, социальные, экономические преобразования, общество знаний, индивидуальность.

Abstract: The article scientifically analyzes the formation of an innovative worldview among students of a professional pedagogical college. In the modern

youth policy of our country, it is necessary to create a favorable investment climate and the necessary conditions by attracting budgetary and extrabudgetary sources of financing, commercial banks, extrabudgetary funds and foreign loans for small businesses and individuals. entrepreneurship that attract young workers, youth self-employment, one of the most urgent problems is the comprehensive support of any form of self-employment.

Keywords: youth, innovations, modern civilization, social and economic transformations, knowledge society, individuality.

Zamonaviy sivilizatsiyaning o‘sish chegaralari ta’lim, uning sifati va mavjudligi bilan belgilanadi. Ijtimoiy va iqtisodiy transformatsiya amaliyotining o‘sib borayotgan dinamikasi sharoitida ta’lim va ijtimoiy moslashishning yangi shakllaridan foydalanishni, davlat manfaatlarini optimallashtirishni va kundalik paydo bo‘lgan bilimlar jamiyatida individuallikni talab qiladi. Ta’lim tizimidagi innovatsion jarayonlar ta’lim jarayonining o‘zgarishi va shaxsga yo‘naltirilgan tendensiyasini ta’minlaydi, shunda talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalari ularning bilim va shaxsiy sifatlarini, kompetentligini rivojlantirish vositasiga aylanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ta’kidlab o‘tganlaridek: “Odamlarimizni kasb-hunarli qilish, ularning biznesiga keng yo‘l ochish, haqiqiy mulkdor bo‘lib, daromad topishi uchun zarur sharoitlarni yaratmoqdamiz” [1, 1-bet.]. SHuningdek, “Aholimizning faolligi, zamonaviy texnologiya va kasb-hunarlarga intilishi oshib bormoqda. Iqtisodiyotimizda kundan-kunga yangi-yangi yo‘nalish va sohalar yaratilmoqda” [1, 1-bet].

Ta’lim va fan iqtisodiyotga, ijtimoiy hayotga chuqur singib ketgan bo‘lib, hayot darajasi sifatiga va xususan alohida mamlakat va umuman xalqaro hamjamiyatning doimiy rivojlanish imkoniyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ma’lumki, innovatsiyalar – bu nazariy asoslangan, maksadga yo‘naltirilgan hamda amaliy-mo‘ljallangan yangilik sanaladi. Har kanday innovatsiya, kiritilgan yangilik ta’lim oluvchilardan yuqori

darjadagi emotsionallik hamda intellektuallikni talab kiladi. Manashu sabablarga ko‘ra ta’limda innovatsiyalar o‘ziga asta-sekinlik bilan yo‘l ochib boradi. oliy ta’lim muassasalaridagi o‘kuv jarayoni, kuzatganimizda,innovatsion amaliyot ta’lim oluvchidan nafaqat o‘qituvchi bilan faol dialogga kirishishni, balki dunyoni anglashda faol va tashabbuskor bo‘lishni taqozo qiladi.

“O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da ko‘rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: “Innovatsiya (ingl. “innovationas” – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta’minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanishi” [4, 169-bet].

Mamlakatimizda yoshlarning tafakkuri va aqliy salohiyatini ruyobga chiqarish uchun zarur imkoniyatlarni yaratish masalasiga alohida e’tibor berib kelinmoqda. Innovatsiya - bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak” [2, 19-20-betlar]. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohatlar tarkibida, jumladan, yoshlarning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish, ta’lim jarayonidagi faolligini yuksaltirish, kasbiy faoliyat uchun zarur bilim, ko‘nima malakalar egallashini, muammolar ustida ishlashda mustaqil va ijodiy yondashuvini ta’minlovchi innovatsion tafakkurni rivojlantirishning mexanizmlarini takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish muhim masalalar hisoblanadi.

Yoshlarni ish bilan ta’minlash uchun avvalo ular o‘rtasida tadbirkorlikni keng rivojlantirish, bu borada yangi imkoniyatlar yaratish lozim [].

Bugungi kunda nafaqat ta’limning innovatsion tizimi, balki pedagoglarning ruhiy holatining faollashganligini ko‘ramiz. Innovatsion jarayonlar to‘g‘risidagi fikrlar, nazarimizda, quyidagi savollar atrofida guruhlangan: innovatsion jarayonning farqi, xususiyati, tabiati nimada; bu jarayonning sub’ekti kim, bu sub’ekt o‘zini qanday namayon etadi; qaysi muammolarni echish orqali innovatsion jarayonlar

ochib beriladi; ta’limdagi innovatsiyalarning qaysi turlarini yaqqol namayon bo‘lmoqda; o‘qituvchining o‘quv jarayonida yangiliklardan (psixologik, metodik, kognitiv) xabardorligi; o‘quv muassasasida innovatsion jarayonlarning motivlar bilan ta’minlanganligi; ta’lim texnologiyalari va ta’lim islohotlarida ularning roli. Sh.Mirziyoyev Taraqqiyotimizning yangi bosqichi bo‘lgan 2017 yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va O‘zbekiston Respublikasini 2018 yilda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Murojaatnomasida “Innovatsiya - bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak. Shuning uchun biz “Innovatsion rivojlanish vazirligi”ni tashkil etdik va uning oldiga aniq vazifalarni qo‘ydik. Bu vazirlik nafaqat iqtisodiyot sohasida, balki butun jamiyat xdyotida eng muxim loyixalarni amalga oshirishda uziga xos lokomotiv rolini bajaradi, deb ishonamiz. Kelgusi yilda ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, buning uchun zarur moliyaviy resurslarni safarbar etish, ushbu jarayonda iqtidorli yoshlar ishtirokini, ijodiy g‘oya va ishlanmalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash vazifasi e’tiborimiz markazida bo‘ladi” [4, 88-bet].

«Innovatsion ta’lim» tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinmoqda: qator mualliflar innovatsiyalarni falsafiy-nazariy nuqtai nazardan qarasalar, boshqalari o‘kuv jarayonida qaysidir omilni, masalan, ta’limning faol metodlari, yoki ta’limning texnik vositalarini, oqilona ishlatishni tushinmoqda. Ta’limiy innovatsiyalarning mohiyati ularning amaliy xarakterga egaligida: ular oliy ta’lim bitiruvchilari, shuningdek malakasini oshirish kurslari tinglovchilarida innovatsion tafakkur layoqatini shakllantirishga qaratilgan. Demak, oliy ta’lim innovatsiyalari deganda biz rivojlanuvchi yangi bilimlar hamda ta’limning innovatsion jo‘shqinligini tushunamiz. Innovatsion jo‘shqinlik deganda A.K.Markova yangi bilimlarning texnologik yoki ijtimoiy reallikka aylanishi, ilmiy bilimlarning tovar yoki xizmat ko‘rsatish sohasiga aylanishini tushunadi. Innovatsion ta’limning xarakterli xossasi – o‘z-o‘zini idora qilish, professionallik, markazlashuvchanlik (anropotsentrizm)dir. Innovatsion ta’limning maqsadlari quyidagilardan iborat: ta’lim oluvchilarning

yuqori darajadagi ma’naviy hamda intellektual-shaxsiy rivojlanishini ta’minlash; ta’lim oluvchilarning ilmiy tafakkur ko‘nikmalarni egallashga shart-sharoit yaratish; ijtimoiy-iqtisodiy hamda kasbiy sohalarga yangiliklarni kiritish metodologiyasini o‘rgatish. Ko‘pchilik pedagoglar professionalizmni quyidagicha tushunishadi: kasbiy masalalar echimini topishdagi mahorat darajasi; o‘z kasbiy faoliyatini yuritish layoqati; nestandart holatlarga ijodiy yondashuv, unimdor echimni izlash mahorati; rivojlanishning intellektual-shaxsiy darajasi; tayanch malaka va kompetentltikning mavjudligi. Demak, innovatsion ta’lim ta’lim jarayonini o‘z mutaxassisligi ijtimoiy va umummadaniy bilim va ko‘nikmalarining texnologiyalar tomonga harakati tarzida bir safga ko‘yadi (kasbiy madaniyat), bu unga kasbiy masalalarni tushunish vositasi va echish metodlarini o‘zlashtirish imkonini beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, bugungi kun yoshlari nihoyatda katta hajmda axborotlarga ega. Biroq, mohiyatan ushbu axborotlarning aksariyati ularning shaxs sifatida kamol topishi, intellektual jihatdan rivojlanishi, mavjud qobiliyatlarini oshirishlari, samarali ijtimoiylashuvlari, o‘z ustida izchil ishlashlari, kasbiy kamolotga etishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Xuddi shu kabi axborotlar mavjud sharoitda talabalarda ta’lim olish, mutaxassis sifatida kamol topishga nisbatan qiziqishning pasayishiga olib kelmoqda. Bu esa o‘z-o‘zidan pedagog kadrlarni talabalarga o‘quv jarayonida individual yondashuvini talab qiladi. YUrt ijtimoiy-iqtisodiy taraqqièti faqatgina ijtimoiy sub’ektlarning intellektual salohiyati, jismonan faolliklari asosida rivojlanadi yuksaladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. - Xalq so‘zi, 2022 yil 21 dekabr. – 272 (8334).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018.

3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. - Toshkent: O‘zbekiston, 2018. 2-jild.

4. Masharipova G.K. Vorisiylik va innovatsion yondashuvning jamiyat taraqqiyotidagi o`rni//Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2021, 20 noyabr. – 22-23-betlar.

5. O‘zbekiston milliy ensiklopeiyasi. Zebuniso-Konigil / 4-tom. Bosh tahrir hay’ati a’zolari: M.Aminov va b. – Toshkent: “O‘zbekistan milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.

MTT TARBIYALANUVCHILARIDA DIALOGIC NUTQNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Axmedova Dilyora Baxtiyor qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi

Annotatsiya: Bolalarda nutqning asosiy poydevori maktabgacha yoshida shakllanar ekan, demak biz bolalarga dialogek nutqni o’rgatishda avvalombor kichik guruhlardan boshlashimiz kerak chunki maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogek nutq shakilanmasa ular maktabga borganda ham ravon gapirishga qiynaladi.

Tayanch so'zlar: diolog, monolog, ravon nutq

Ravon nutq - bu kishilarning muloqotini va o'zaro bir-birlarini tushunishlarini ta'minlovchi mazmunan keng yoyilgan fikr hisoblanadi Ravon nutqni fikrlash dunyosidan ajratib bo'lmaydi: ravon nutq bu fikrlar ravonligidir,Ravon nutqni shakllantirish, uning vazifasini o'zgartirish murakkablashib borayotgan bola faoliyati oqibati bo'lib, u bolaning atrofdagilar bilan muloqotga kirishish sharoiti, muloqot shakliga bog'liq bo'ladi. Maktabgacha yoshda u muloqot va ta'lim jarayonida shakllanadi. Ravon nutqning shakllanishi ilk yoshdan boshlab asta-sekin ro'y beradi.Agarda bolalarda ravon nutq shakilanmay qolsa bolalarning kelajakda so’zlashish usuliga ta’sir qiladi

Bolalar hayotining dastlabki yetti yilida atrofdagi odamlar bilan muloqat qilishda avvalombor ularning so’zlashish usuliga katta etibor beriladi.SHuning uchun ham dastlab bolalarda diologik,monologik va ravon nutqni o’rgatish muhum ahamiyat kasb etadi.

Har bir kishi hayotida ravon nutq muhim ahamiyatga ega bo'lib, u uchta asosiy vazifani bajaradi: individuallararo, ichkiindividual va umuminsoniy.vazifalarni bajaradi. Nutq vazifasi uning ontogenezdagi haqiqiy rivojlanish jarayoni bosqichini aks ettiradi, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga egadir:

1-vazifasi -individuallararo - kishilar o'rtasidagi muloqot vositasi hisoblanadi. Ushbu holatda nutq og'zaki nutq, monolog, dialog, bir nechta odamlar suhbati sifatida ko’rib chiqiladi.

2-vazifa - ichkiindividual - bu yerda nutq ko'plab psixologik jarayonlarni (fikrlash, diqqat-e'tibor, xotira, tasavvur va boshqalarni .) aniq-tiniq anglash darajasiga ko'targani hamda shaxsga psixologik jarayonlarni tartibga solish va nazorat qilish imkonini bergani holda ularni amalga oshirish ta’minlab beradi.

3-vazifasi - umuminsoniy - bu o'rinda nutq alohida bir odamga umuminsoniy ijtimoiy-tarixiy tajriba kabi shakilarni o’rgatib ta’minlab beradi.

Nutqning shakllanishida va bolaning undan foydalanishida maktabgacha bosqichdagi turli davrlarda bolalarda o'zgarib turadigan kommunikativ tusdagi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Kommunikativ tusdagi omillar deganda biz shuni tushunamizki muloqotni yo'lga qo'yishga, muloqotga extiyoj tug'ilishiga ta'sir qiladigan omillar tushuniladi.

Dastlabki yetti yilda bolada kattalar bilan muloqotga ehtiyoj rivojlanishining 4 ta bosqichi ro'y beradi.

I-bosqich - vaziyatli-shaxsli muloqot (bola hayotining birinchi yarim yilida) - kattalarning diqqat-e'tiboriga va yaxshi muomalasiga bo'lgan ehtiyoj tushuniladi.

II-bosqich - vaziyatli-amaliy muloqot (6 oydan boshlab 2 yilu 6 oygacha) - kattalar bilan hamkorlikka va ularning ishtirokiga muhtojlikni tushunamiz

III-bosqich - vaziyatsiz-bilish muloqoti (2 yilu 6 oydan boshlab 4 yoshgacha) - kattalarning hurmat bilan munosabatda bo'lishlariga muhtojlikni hamda U bolaning jismoniy olamdagi his qilinmaydigan o'zaro bog'liqliklarini aniqlashga yo'naltirilgan bilish faoliyati doirasida vujudga kelgan . Ushbu davrda bola kattalar bilan o'ziga xos "nazariy" hamkorlikka intiladi, u predmetli olamning hodisa va voqealarini birgalikda muhokama qilishni ifodalab beradi.

IV-bosqich - vaziyatsiz-shaxs muloqoti (4 yoshdan 7 yoshgacha) - kattalar bilan o'zaro bir-birini tushunishga va kattalarning g'amxo'rlik ko'rsatishiga ehtiyojmandlik. Bu ehtiyoj bolaning insoniy munosabatlar olamiga qiziqishi tufayli vujudga kelib, u bolaning munosabatlar qoidalari va me'yorlarini o'zlashtirish bilan bog'liqdir. Bola

kattalar bilan qarashlar umumiyligiga erishishga intiladi va bu unga ulardan o'z xatti - harakatlarida qo'llanma sifatida foydalanish imkonini keng ochib beradi.

Shunday qilib, nutqni rivojlantirish jarayoniga muloqot vositasi, ya'ni kommunikativ faoliyat sifatida qarash kerak. Uning vujudga kelishi va rivojlanishi bolaning muloqot va umumiy hayot faoliyati ehtiyojlariga bog'liq holda tushuniladi.

Nutqqa u bajaradigan tahlil vazifasidan kelib chiqib yondashish, nutqning eng avvalo bolaning atrofdagi odamlar bilan muloqot vositasi sifatida paydo bo'lishini tushunib yetishga olib keladi. O'z-o'zidan, agarda bolaning muloqoti nutqqa jon bag'ishlasa, uning rivojlanish sur'ati va muddati bolalarda muloqot faoliyati turli yoshguruhlarda bo’ladi

bosqichlarida qanday yo'lga qo'yilganligi bilan bog'liqdir, ushbu vazifalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi bolaning ong va erkinlikning yuqori darajasiga qanchalik tez erishishi, bolaning unga turli sohalardagi bilimlarini rivojlantirish va takomillashtirish imkonini beradigan yozma nutqni qancha muddatda o'zlashtira olishiga bog'liqdir.

Matndan kelib chiqadigan ravon nutqni shakllantirish, uning vazifalarini o'zgartirish bola faoliyatining murakkablashayotgani oqibati bo'lib, u bolaning atrofdagilar bilan muloqotini mazmuni, sharti va shakllariga bog'liq hisoblanadi. Nutq vazifasi fikrlashning rivojlanishi bilan parallel ravishda shakllanadi, ular bola til vositasida ifodalaydigan mazmun bilan uzluksiz ravishda bog'liq bo'lib rivojlanib boradi.

Bolalarda ravon nutqni rivojlantirish - maktabgacha ta'lim muassasasining asosiy vazifasi hisoblanadi, maktabgacha yoshining nihoyasiga kelib bola kattalarga xos bo'lgan og'zaki nutqning asosiy shakllarini egallashi, ya'ni ravon nutqning ikki shakli -dialogik va monologik nutqni egallab olishi shart hisoblanadi. Yil davomida bolalarga o’rgatishda tarbiyachida katta masulyat talab qiladi. CHunki tarbiyachi har bir bola bilan alohida shug’illanishi kerak .Agarda biron bir bolaning nutqida kamchilik bo’lsa unda o’sha bola bilan tarbiyachi shug’ulanib uning nutqida kamchiliklarini bartaraf qilishi kerak

Dialogik matn tarkibida so‘roq olmoshlari, muomala odobiga oid so‘z va iboralar, yuklamalar, undovlar, kirish so‘zlar keng qo‘llanadi. Bunday matndagi gaplar, asosan, sodda gaplardan tashkil topadi, sodda gaplarning bir tarkibli turlari, to‘liqsiz gaplar, so‘z-gaplar faol ishlatiladi.

Dialogik matn so‘zlashuv uslubi va badiiy uslubga xosdir. Dialogik va monologik nutqlar va mavzusi, suhbatdoshlarning o‘zaro munosabati, yoshi, jinsi, dunyoqarashi, bilimi, jamiyatda egallagan o‘rni va mavqei dialogik nutqning mazmunini belgilaydi.dialogek nutq inson hayoti davomida eng ko’p ishlatadigan nutq turlari hisoblanadi. CHunki ko’cha kuyda ham maktab,kolejjda ham albata biz dialogek nutqdan foydalanamiz.Dialogek nutqni maktabgacha yoshdagi bolalarda o’rgatishda qiyinchiliklar bo’lishi mumkun ammo tarbiyachi o’tadigan mashxulotlarida bolalarga ko’pincha didaktek o’yinlar orqali tushuntursa bolalarda dialogek nutq shakilanib boradi.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda dialogik nutq maktabgachga yoshdagi bolalardan boshlab o’rgatish kerak, chunki butun hayot davomida ishlatiladigan nutq hisoblanadi .Avvalombor, dialogik nutqni o’rganishdan oldin bolalarga nutq haqida ma’lumot berish kerak buladi.Keyin esa albatta ravon nutq haqida ham tushuncha hosil qilish kerak .Nutq inson hayotining ajralmas bir qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. M.Aminov A.Madvaliyev O’zbek tilida ish yuritish Toshkent 2000-yil
2. E.Qilichev B.Qilichev Nutq madanyati va uslubiyat asoslari Toshkent 2001-yil “O’qtuvchi “
3. R.M.Qodirova Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari .1998-yil
4. Islombekova.Z Talaffuzga o’rgatish va eshtish qobilyatini rivojlantirish metodikasi.

ЗНАЧЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Акимбекова Хакима Тургуновна
Преподаватель кафедры Языков
Ташкентского университета Прикладных наук

Аннотация: В данной статье рассматривается роль информационных и коммуникационных технологий в образовательном процессе, способы использования сети Интернет, основные понятия сети Интернет, интернет-провайдеры, электронная почта, интернет-адрес (URL, веб-сервер, электронная почта, веб-браузеры, веб-страницы, yandex, google, rambler и несколько других сервисных программ обсуждаются о важности образования.

Ключевые слова: Интернет-сеть, Интернет-сервисы, электронная почта, чат, видеосвязь, телевидение, видеомагнитофон, кинопроектор, диапроектор, информационные технологии.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’limda jarayonida axborot-kommunikasiya texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi o‘rni, internetdan foydalanish yo‘llari, internetdagi asosiy tushunchalar ya’ni internet provayderlari, elektron pochta, internet manzil ya’ni (URL, veb server, elektron pochta, veb brouzerlar , veb sahifalari, yandex, google, rambler va boshqa bir qancha xizmat dasturlarining ta’lim olishdagi ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: internet tarmog‘i, internet xizmatlari, elektron pochta, chat, videomuloqat, televizor, videomagnitofon, kinoproektor, diaproektor, axborot texnologiyalari.

В настоящее время для обучения с использованием технических средств достаточно наличия одного компьютера. Известно, что функции, ранее выполнявшиеся телевизором, видеомагнитофоном, кинопроектором, диапроектором и т. д., могут успешно выполняться только на одном

компьютере. Кроме того, значительно повышается качество передачи, хранения, визуализации информации. Благодаря этому компьютерная грамотность уже стала важным признаком культуры, а в будущем станет необходимостью для каждого человека, где бы он ни работал. Поэтому работа на компьютере, обучение работе с компьютером в ближайшем будущем стали обычной работой.

Мы педагоги все больше используем современные информационные технологии в учебном процессе.Современные информационные технологии становятся для нас, педагогов, особенно в наше время, очень важным процессом в эффективном проведении уроков. В комплекс современных средств информационных технологий входят: компьютер, сканер, видеокамера, видеокамера, ЖК-проектор, интерактивная электронная доска, факс-модем, телефон, электронная почта, мультимедийные средства, Интернет и интернет-сети, системы мобильной связи, системы управления базами данных. , искусственный интеллект, системы Современные средства информационных технологий осуществляют определенные действия осознанно и планомерно.

Это следующие:

- компьютер, а также принтер, модем, микрофон и устройство звукового вещания, сканер, цифровая видеокамера, мультимедийный проектор, планшет для рисования, музыкальная клавиатура и т.п. и их программное обеспечение;

- аппаратное обеспечение;

- виртуальные текстовые конструкторы, умножения, музыка, физические модели, географические карты, экранные процессоры;

- сбор информации - справочники, энциклопедии, виртуальные музеи;

- тренажеры технических навыков (ввод информации с набора ключей не глядя на ключи, начальное освоение программных средств).

Конечно, основой этих средств информационных технологий является компьютер.

В настоящее время мы используем компьютеры в системе образования по четырем направлениям.

Это следующие:

- как объект изучения;

- как технические средства обучения;

- в управлении образованием;

- используется в научно-педагогических исследованиях.

Мы, педагоги, в основном используем компьютеры в учебном процессе в следующем порядке: т. е. пассивное использование - компьютер как простой калькулятор, реактивное общение - компьютер как экзаменатор, активное общение - компьютер направляет ученика и принимает экзамен, интерактивное общение - компьютер как искусственный интеллект, то есть в общении со студентом.

Эффективная организация процессов педагогического образования на основе современных информационных технологий:

- объединение педагогов, программистов и профильных специалистов в команду, создающую курсы дистанционного обучения и электронную литературу;

- распределение задач между педагогами;

Когда дело доходит до компьютера, конечно, Интернет является одним из его основных процессов. Интернет (Интернет) — это совокупность всемирных компьютерных сетей, то есть всемирная глобальная компьютерная сеть, функционирующая на основе единого стандарта.

В современных условиях, когда совершенствуются и развиваются новые средства информационных технологий, одним из важных условий для обучающихся в образовательном учреждении молодых студентов (в целом, работающих в любой сфере) становится умение самостоятельно находить необходимую информацию из Интернет-систему, чтобы иметь возможность полноценно и правильно решать задачи, связанные с их текущей специальностью.

Широкие возможности и простота Интернет-технологий приводят к увеличению количества пользователей Интернета каждую минуту.

Большинство этих пользователей — студенты, читатели и сотрудники, занимающиеся научными исследованиями. Исходя из этого, можно сказать, что использование интернет-технологий в образовательном процессе, в частности, веб-сайтов, посвященных образовательным учреждениям, позволяет вывести качество и эффективность образования на значительно более высокий уровень.

Одним словом, современные информационные технологии открывают перед учащимися большие возможности в процессах передачи, хранения и поиска информации. В настоящее время многие информационно-образовательные ресурсы создаются в электронном виде в образовательных учреждениях.Направление развития информатизации образовательных процессов напрямую связано с созданием информационно-образовательных сред путем интеграции различных образовательных информационных ресурсов.

Широкие возможности и простота Интернет-технологий приводит к увеличению количества пользователей Интернета ежеминутно.Если учебный процесс организован с использованием вышеперечисленных программ, использование Интернет-технологий в образовательном процессе, в частности, веб-сайтов, посвященных образовательным учреждениям, поможет значительно повысить качество и эффективность образования, студенты с интересом подходят к науке, что ведет к развитию качества образования.

Литературы:

1. Я. Н. Зорников, Л. П. Волкова. Проблемы и перспективы международной интеграции высшего образования.-Воронеж, 2009. С. 13-18.

2. Ричард Арум, Мелисса Велес. Улучшение учебной среды: школьная дисциплина и сравнительная перспектива. Издательство Стэнфордского университета, США: 2012.

3. Х. Фрай, С. Кеттеридж, С. Маршалл. Справочник по преподаванию и обучению в высших учебных заведениях. Нью-Йорк, Рутледж, 2009 г.

ЕНГИЛ САНОАТ ТАРКИБИДАГИ ТЎҚИМАЧИЛИК МАҲСУЛОТЛАРИНИНГ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ТАХЛИЛИ

Сулайманхонова Нафруза

Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти

14а-20 гуруҳи талабаси

Аннотация: Мақолада кейинги йилларда “Ўзтўқимачиликсаноат” уюшмаси таркибидаги корхоналарнинг мамлакатимиз экспортининг қитъалар бўйича ишлаб чиқарган маҳсулотларининг экспорт салоҳиятини географияси талқин қилинган.


Калит сўзлар: енгил саноат, тўқимачилик, рақобат, калава ип, тайёр маҳсулот, тикув-трикатаж, экспорт, корхона, пахта толаси, газлама.

Кейинги йилларда олиб борилган таркибий ўзгаришлар натижасида ипакчилик тармоғи енгил саноат таркибидан чиқарилиб, алоҳида уюшма шаклида фаолият юритмоқда. Статистик маълумотларга кўра, 2021 йил 1 январь ҳолатига кўра “Ўзтўқимачиликсаноат” уюшмаси таркибида жами 1816 та корхона фаолият юритган. Ушбу корхоналар ташқи бозорга калава ипдан тортиб, кенг ассортиментдаги тайёр маҳсулотларни етказиб бермоқда. Булар замонавий дизайн ва юқори сифатли ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларни рақобатбардошлигига эришилаётгани натижасидир. “Ўзтўқимачиликсаноат” уюшмаси таркибидаги 1180 та корхона 2019 йилда жаҳоннинг 54 та мамлакатига ўз маҳсулотларини экспорт қилган. Айни пайтда мазкур уюшма корхоналари ўз маҳсулотларини Россия, Туркия, Канада, Жанубий Корея, Сингапур, Эрон, Исроил, МДҲ мамлакатлари, ХХР, АҚШ ва қатор араб давлатларига экспорт қилиб келмоқда ва уюшма таркибидаги корхоналарнинг экспорт салоҳияти йилдан-йилга ўсиб бормоқда

“Ўзтўқимачиликсаноат” уюшмаси таркибидаги корхоналар томонидан хорижга экспорт қилинаётган маҳсулотлар бозори сегментларини ўрганиш

шуни кўрсатадики, кейинги йилларда маҳсулотлар экспортини асосий қисми Россия, Жанубий Корея, Туркия ва бошқа МДҲ мамлакатлари ҳиссасига тўғри келмоқда.

2020 йилда Ўзбекистан дунёда пахта толаси ишлаб чиқариш бўйича олтинчи ва унинг экспорти бўйича ўн биринчи ўринни эгаллаган. Ўзбекистон тўқимачилик саноатида ишчи кучи, энергия, сув ҳамда хом ашёнинг нисбатан арзонлиги туфайли жахон бозоларида маҳсулотлар таннархи бўйича рақобат устунлигига эга. Шунинг учун 1991-2021 йилларда пахта толасини қайта ишлаш хажми 7 фоиздан 58 фоизгача ошди. Бирок, тўқимачилик маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмида (пахта толасини ҳисобга олмаганда), тайёр газламалар ва тикув-трикотажлар улуши 2020 йилда 36 фоиз бўлиб, шундан 26 фоизи тайёр кийимларни ташкил этди.



Расм -1. Тўқимачилик маҳсулотлари экспортининг қитъалар бўйича географияси[ ]

2020 йилда Ўзбекистоннинг тўқимачилик маҳсулотлари экспорт таҳлил қилинганда (расм-1), экспорга чиқарилаётган маҳсулотларнинг 58 фоизи МДҲ мамлакатлари, 22 фоизи Шарқий Осиё давлатлари, 1 фоизи Яқин Шарқ ва Жанубий Осиё давлатларига, 15 фоизи Европа Иттифоқи ва қолган 2 фоизи бошқа мамлакатлар ҳиссасига тўғри келганлиги аниқланган.

Мустақилликка эришган илк йилларда республикамиз енгил саноатида фақатгина пахта хомашёси экспорт қилинган бўлса, ҳозирда эса тайёр тўқимачилик ва енгил саноат маҳсулотлари етказиб берувчи экспортёр сифатида жаҳон бозорларига кириб бормокда (жадвал 1).

Жадвал -1

Ўзбекистонда тўқимачилик маҳсулотлари экспорти таркибининг таҳлили[1]

№	Маҳсулотлар	2018 йил		2020 йил	
		Экспорт млн. АҚШ доллар	Жамидаги улуши, %	Экспорт млн. АҚШ доллар	Жамидаги улуши, %
1	**Пахтадан йигирилган ип**	81,8	37,7	726,7	45,6
2	**Тайёр кийимлар**	16,1	74	585,7	36,8
3	**Трикотаж мато**	0,2	0,1	65,5	4,1
4	**Пахтадан газламалар**	33,5	15,4	65,6	4,1
5	**Ипак ва ипак маҳсулотлари**	34,6	15,9	49,9	3,1
6	**Бошқа тўқимачилик маҳсулотлари**	17,3	8	42,9	2,7
7	**Гиламлар**	0,3	0,1	31	1,9
8	**Пахта чиқинди маҳсулотлари**	33,4	15,4	26,8	1,7
ЖАМИ	**217,2**	**100**	**1594,1**	**100**	

Жадвал маълумотлари таҳлилига кўра, Ўзбекистонда тўқимачилик маҳсулотлари экспорти салкам 20 йил ичида ўртача 7,3 мартага ошган бўлса, трикотаж мато экспорти 327,5 мартага, пахта ипи эса 8,9 мартага ошган. Энг муҳими юкори қўшилган қийматта эга тайёр кийимлар 2018 йилда 16,1 млн. АҚШ доллари ҳажмида экспорт қилинган бўлса, 2020 йилда мазкур кўрсаткичлар 585,7 млн. АҚШ долларига етиб, 36,4 мартага ошган ёки жами экспортдаги улуши 36,8 %ни ташкил этган. Шу билан бирга, Ўзбекистон Республикасида пахта толаси ва ундан йигирилган ип экспорт кўрсаткичлари нисбатан йилдан-йилга пасайиб бормокда. Шунинг учун республикамизда пахта толасини сотишга чек қўйилиб, ип калава шаклида сотиш йўлга қўйилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида «Тўқимачилик саноати маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмини 2 баробарга кўпайтириш» вазифаси белгиланган бўлиб, *м*азкур вазифани муваффақиятли бажарилиши республикамиз тикув трикотаж корхоналарида экспортбоп маҳсулотлар ишлаб чиқаришни такомиллаштиришни тақозо этади. [2]

Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида мамлакатимизда тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини ривожлантириш, соҳа корхоналарининг инвестиция ва экспорт фаолиятини қўллаб-қувватлаш бўйича комплекс чора-тадбирлар амалга оширилиши натижасида республикада ишлаб чиқарилаётган пахта толаси тўлиқ ва ип калаванинг 45 фоизи қайта ишланмокда. Шунингдек соҳанинг экспорт салоҳияти 3,2 миллиард доллардан ошди.[3]

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. “Ўзтўқимачиликсаноат” уюшмаси ҳисоботи материаллари. 2020й

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси» ПФ-60-сонли Фармони. // www.lex.uz.

3.Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони 2023 йил. 10 январь № ПФ-2

MAHALLIY BUDJETLARNI QO’SHIMCHA MANBALARDAN FOYDALANISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Bobobekov Soxib Bobobek o‘g‘li

O’zbekiston Respublikasi Bank - Moliya Akademiyasi magistri

So‘nggi yillarda mamlakatimizda budjet va ijtimoiy siyosatning uyg‘unligini ta’minlash maqsadida moliya tizimining sohalarini, jumladan budjet tizimini va uning tarkibiy qismi hisoblangan mahalliy budjetlarni samarali boshqarish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu holat davlat ijtimoiy siyosatining joylardagi ijobiy ijrosini ta’minlash, shuningdek, hududiy iqtisodiyot muammolari keskinlashuvining oldini olishni hamda mahalliy budjetlar huquq va majburiyatlarning kengayib borishi sharoitida ularning moliyaviy imkoniyatlarini yaxshilash uchun zamin yaratadi. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida uchinchi ustuvor yo‘nalish “Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari” - deb nomlanib, unda xarajatlarning ijtimoiy yo‘naltirilganini saqlab qolgan holda davlat budjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta’minlash, mahalliy budjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan budjetlararo munosabatlarni takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilishi ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2019-yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasini ma’ruzasida “…Budjyet mablag‘laridan samarali foydalanish tizimini yanada takomillashtirish zarur. Budjyet hisobidan mablag‘ ajratiladigan har qanday dastur yoki loyihaning sifat va miqdor ko‘rsatkichlaridan iborat, natijaga yo‘naltirilgan indikatorlari bo‘lishi kerak” – deya ta’kidlab o‘tganliklari bugungi kunda mahalliy budjetlarda yechimini kutayotgan masalalar mavjudligini ko‘rsatadi.

Mahalliy budjetlar daromad bazalarini mustahkamlashda ular ixtiyoriga berilgan mahalliy soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha tadbirlar muhim o‘rin tutadi. Shuni alohida

ta’kidlash lozimki, mahalliy budjetlar mahalliy soliqlar va yig‘imlarni tashkil etish va boshqarishda mustaqil bo‘lsalarda, Moliya Vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan tegishli me’yorlar doirasida faoliyat yuritadilar.

Mahalliy budjetlarga respublika budjetidan beriladigan ajratmalar iqtisodiy mustaqillik darajasiga u qadar salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi. Uning ko‘lami va ta’sir doirasi donor hududlar yoki repitsient hududlar imkoniyatlariga bog‘liq.

Mahalliy budjetlar umumdavlat iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda, ijtimoiy infrastrukturani saqlash va rivojlantirishga davlat mablag‘larini taqsimlashda alohida ahamiyatga ega.

Mahalliy budjetlar moliyaviy barqarorligi tushunchasi birinchi bor akademik G.B.Polyak tomonidan taklif etilgan. Olimning fikriga ko‘ra, hududiy byudjetlarning barqarorlik darajasi minimal budjet xarajatlarini qoplash uchun zarur bo‘lgan mablag‘lar hajmi bilan belgilanadi.

Rm= DS + DR+ Id

Rm - Xarajatlar summasi;

DS - o‘z daromadlari miqdori;

DR - tartibga soluvchi daromadlari miqdori;

Id - qo‘shimcha manbalar,(zaiflashgan byudjetlarning keskin holatlarida)

Mahalliy budjetlar davlatning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda, davlat mablag‘larini taqsimlash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bizning fikrimizcha, byudjetga

“Budjet - turli darajadagi markazlashtirilgan pul mablag‘lari fondini vujudga keltirish, taqsimlash va foydalanishga oid asosiy moliyaviy reja bo‘lib, u tegishli davlat yoki mahalliy idora tomonidan ishlab chiqiladigan hamda tasdiqlanadigan yuridik hujjatdan iborat” deb ta’rif berilishida aynan mahalliy budjetlarning o‘ziga xos xususiyatlari namoyon bo‘ladi.

Mahalliy budjetlar O‘zbekiston Respublikasining byudjet tizimining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Ular davlat hokimiyatining har bir mahalliy organi o‘z faoliyatini amalga oshirishi uchun uning ixtiyorida aniq moliyaviy baza yaratadi.

Mahalliy budjetlar tizimi mahalliy talab ehtiyojlarni tuliqroq hisobga olish hamda davlat tomonidan markazlashgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlar bilan to‘g‘ri olib borish imkonini beradi. Mahalliy budjetlarning daromadlari - mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari oldidagi muhim strategik ahamiyatga molik bo‘lgan vazifalarning amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan markazlashtirilgan pul fondini shakllantirish bilan bog‘liq pulli munosabatlar shaklidir.

ХЎРАКИ НЎХОТНИНГ ЛИНИЯЛАРНИ ЎРГАНИШДАГИ ТАБИИЙ-ИҚЛИМ ШАРОИТЛАРИ ТАВСИФИ

Зоҳиджон Зафаржон ўғли
Дон ва дуккакли экинлар илмий тадқиқот институти докторанти
zokirovzohid@gmail.com
Мўминов Элер Мусажонвич
Дон ва дуккакли экинлар илмий тадқиқот институти докторанти
muminovelyor@gmail.com

Аннотация: Навларнинг дон хосилдорлиги ва унинг сифат кўрсаткичлари кўп жиҳатдан экинга қўлланиладиган агротадбирларга ҳам боғлиқ. Шу сабабли ушбу тадбирларни бажарилиши энг самарали муддат ва меъёрларда, илмий асосланган бўлиши талаб этилади. Ушбу мақолада нўхотнинг ўрганиш жараёнидаги адабиётларни тахлили ҳамда табиий тасвифланган.

Таянч сўзлар: тупроқ шароитлари, сув ва бошқа ресурсларни тежайдиган замонавий агротехнологиялар, ўсув даври давомийлиги иссиқликка, қурғоқчиликка, зарарли ҳашарот ва замбуруғли касалликларга чидамлилик.

КИРИШ

Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича 2017–2021 йилларга мўлжалланган Ҳаракатлар стратегиясида «қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини изчил ривожлантириш, мамлакат озиқ-овқат хавфсизлигини янада мустаҳкамлаш, қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши соҳасига интенсив усулларни, энг аввало, сув ва бошқа ресурсларни тежайдиган замонавий агротехнологияларни жорий этиш ва бошқа вазифалар белгиланган.

Эртапишар, дон тўлишиш даври қисқа кунларда ўтадиган нўхат навларини яратиш лалми ерларда дон ҳосилдорлигини ошириш ҳамда турли йилларда рўй берадиган иссиқлик ва қурғоқчилик каби ноқулай об-ҳаво шароитларида ҳам барқарор дон ҳосилдорлигини таъминлайди. Ўсув даврининг давомийлиги

нўхат ўсимлигининг генетик жиҳатдан ирсий тузилишига боғлиқ бўлиши билан бирга, унинг қандай шароитда ўстирилаётганлигига, яъни тупроқ-иқлим шароитларига, етиштириш агротехнологиясига бевосита боғлиқ бўлади. Нўхат навларида ўсув даври давомийлиги иссиқликка, қурғоқчиликка, зарарли ҳашарот ва замбуруғли касалликларга чидамлилик ҳамда доннинг сифат кўрсаткичлари каби муҳим белги ва хусусиятлари билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, ўзгармас миқдор ҳисобланмайди ва етиштириш шароити, асосан, навнинг генетик хусусиятлари билан белгиланади. Эртапишарликни белгилашда униб чиқиш-гуллаш даврининг давомийлиги муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади.

Ғайбуллаева М. маълумотларига кўра, дон тўлишиш даври ва дон пишиши учун энг қулай шароит тупроқда намлик етарли сақланган ҳолда ўртача кунлик ҳаво ҳарорати 16-200 С, ҳаво намлиги 50 % дан кам бўлмаганда кузатилади. Агар ҳаво ҳарорати юқорида кўрсатилган миқдордан баланд бўлганда дон тўлишиш даври ва дон пишиши давомийлиги қисқариши, аксинча, паст ҳароратда эса дон пишиш даврининг узайиши кузатилади. Ушбу қонуниятни 2006 йилда кузатилган об-ҳаво шароитларининг натижалари таҳлилида ҳам кўриш мумкин. 2006 йилда ўртача йиллик ёғин миқдори 234,6 мм ни, кўп йилликка нисбатан 90,4 мм кам бўлганлиги, ҳаво ҳароратининг 23,8 % юқори, ҳаво нисбий намлигининг июн ойида 20,2 % кам бўлиши таъсирида нўхат нав намуналари ўсимликлари ўсиши ва ривожланишига салбий таъсир қилиши, ўз навбатида ҳосилдорликнинг камайишига олиб келди. Ер юзидаги барча тупроқ иқлим шароитида дуккакли-дон экинлари қишлоқ хўжалиги экинлари учун энг яхши ўтмишдош бўлиб ҳисобланади.[1]

Нўхат ўсимлиги Ўзбекистон шароитида қишлаб чиқадиган шакллари, навлари бор. Уруғлари 2-5 ^{0}C ҳароратда кўкара бошлайди. Майсалари 11 ^{0}C совуққа чидайди. Қурғоқчиликка ва юқори ҳароратга чидамли. Ўзбекистоннинг тоғли минтақасида ва умуман серёғин йиллари аскохитоз, фузариоз сингари замбуруғ касалликлари билан зарарланади. Брухус қўнғизидан кам зарарланади, аммо нўхат қўнғизидан кучли зарарланади. Улар нўхат

уруғларини кучли зарарлайди, айниқса, суғориладиган ерларда, децис ёки золон билан ишланади. Дуккаклари пишганда ёрилмайди. Ўзбекистонда бўз, ўтлоқ-бўз, ўтлоқ тупроқларда яхши ўсади. Шўрга чидамсиз. Нўхат ўсимлиги дунё деҳқончилигида 10,2 млн. гектарга экилган. Шундан 8 млн. гектари Ҳиндистонда. Экилиш майдони бўйича дуккакли дон экинлари орасида учинчи ўринни эгаллайди. Ўзбекистонда нўхат лалмикор ва сувли ерларда 4-5 минг гектар майдонга экилади. Суғориладиган ерларда гектаридан 20-25 ц, лалмикорликда 8-10 ц дон ҳосили етиштирилади.

Ж.Наҳалбоев, Ж.Эргашев, А.Умурзақовлар Ғаллаорол илмий-тажриба станцияси лалмикор типик бўз тупроқларда нўхат 41 нав намуналари бўйича олиб борган тажрибалари орасида андоза Юлдуз навига (ўртача 10,9 с/га) нисбатан юқори ҳосилга эга бўлган нав намуналари танлаб олинди. Бу нав намуналар орасида андоза навга нисбатан гектаридан 1,3- 2,8 с кўп дон олишга эришилган. Жумладан, андоза навга қараганда ФЛИП 07-178с (13,7 с/га), ФЛИП 07-177с (13,5 с/га), ФЛИП 09-308с (12,3 с/га), ФЛИП 09-210с, ФЛИП 09-432с (12,2 д/га) каби кўп дон ҳосили берган нав намуналари келгуси селекция жараёнларида ўрганиш учун танлаб олинди. Тадқиқотлар давомида олинган натижаларга асосланиб хулоса этганда, лалмикор майдонларда нўхатнинг географик жиҳатдан келиб чиқиши турлича бўлган нав намуналарининг қимматли-хўжалик белги ва хусусиятларини эътиборга олиб танлаш ишларини бажариш ҳисобига янги навлар яратишда селекция жараёнларига жалб этиш босқичларини тезлатиш, серҳосил, касалик ва зараркунандаларга чидамли нўхат навларини яратиш ҳамда келгусида уруғларини кўпайтириб, экин майдонларини кенгайтириш имконини беради. [2]

Тажриба ўтказиш ва тажриба даласининг тупроқ шароитлари.

Андижон вилоятининг тупроқлари денгиз сатхидан 430-460 метр баландликда жойлашган бўлиб, асосан суғориладиган ерларни ташкил этади.

Дала тажрибалари Дон ва дуккакли экинлар илмий-тадқиқот институти тажриба даласида ўтлоқи тупроқлар шароитида олиб борилади.

Тажриба олиб бориладиган ер майдони ўртача маданийлашган суғориладиган ўтлоқи тупроқ бўлиб, механик таркиби ўта қумоқ, тупроқ ҳосил қилувчи она жинслар оллювиал-пролювал ётқизиқлардан иборат, сизот сувлари 1,5-2,0 метр юза жойлашган таьмига кўра чучук, чириндили (А+В), қатлам 0-50 см атрофида ҳамда озуқа элементлари билан яхши таъминланган.

Жадвал 2.1.1

Тажриба даласи тупроғининг агрокимёвий кўрсаткичлари.

Т.р	Намуна олинган қатлам чуқурлиги, см	Гумус %	Умумий %			Ҳаракатчан мг/кг		
			Азот	фосфор	калий	Н-HO_3	$П_2O_5$	K_2O
1	0-30	1.62	0.135	0.146	1.61	19.5	34.6	210
2	30-50	1.01	0.094	0.120	1.27	15.3	27.8	180
3	50-70	0.81	0.072	0.090	1.01	7.8	15.4	120
4	70-100	0.34	0.031	0.027	1.15	4.2	10.1	80

Жадвал маълумотларидан кўриниб турибдики, тупроқда чиринди ҳайдов қатламида (0-30) 1,62 % тенг, тупроқнинг пастки қатламларига томон сезиларли камайиб борган ва энг чуқурда (70-100см) унинг миқдори 0,34% ташкил этади.

Табиий-иқлим шароитлари.

Тажрибалар ўтказиладиган майдон Андижон вилояти Андижон туманида жойлашган бўлиб, ҳавонинг ўртача нисбий намлиги 62-65 фоизни, қишда эса бу кўрсаткич 75-80 фоизни ташкил этади.

Иқлими ўзгарувчан континентал бўлиб, январ-феврал ойиларида ўртача ҳарорати 5-6 Сни ташкил этса, ёзи мўътадил келади, энг иссиқ ойи июлда ўртача ҳарорат +28,2-32,5 С бўлади. Ёғингарчилик йил давомида кам бўлиб, унинг асосий қисми (70-80 %) қиш ва баҳор ойларига тўғри келади.

Иқлим шароитлари ушбу худудда қишлоқ хўжалик экинлари, жумладан нўхат парвариши учун қулай келади, аммо нўхатнинг гуллаш ва дуккаклаш ва бошқа фазаларида куннинг кескин исиб кетиши нўхат хосилдорлигига ва сифатига маълум миқдорда салбий таъсир кўрсатади. Кунлик ҳово хароратининг исиб кетиши купроқ ўрта кечки ва кечки навларнинг хосилдорлигига хамда сифатига салбий таъсир кўрсатди.

Кўп йиллик маълумотларга кўра асосан бир йиллик ўртача ёғин миқдори 257.9-388,9 мм, + 10С дан юқори бўлган кунларнинг давомийлиги 210-215 кунни ташкил қилиб, фойдали ҳароратлар йиғиндиси 2800-3100С ни ташкил этади.

Хулоса қилиб айтганда, иқлим шароитлари вилоятда қишлоқ хўжалик экинлари, жумладан нўхат парвариши учун қулай худуд хисобланади, аммо эрта баҳорда ёғингарчиликни кўп бўлган йиллари бегона ўтларни кўпайишига сабаб бўлиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Ғайбуллаева М. Адир тупроқларда нўхатнинг тупроқ унимдорлигига ва азот тўпловчи бактерияларга таъсири. Ўзбекистон қ/х жур № 4.2021.32-33 бет.

2.Наҳалбоев Ж., Эргашев Ж., Умурзақов А. Лалмикор майдонларда нўхатнинг бошланғич манбаларини танлаш натижалари. // Агро илим 2017-й. №1[45] сон. 29-бет.

JAHONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING USTUVOR YO’NALISHLARI

Berdiyev Ilhom Zokirovich

O’zbekiston Respublikasi Bank-Moliya akademiyasi magistri

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining XXI asr boshlaridagi ustuvor yo‘nalishlaridan biri raqamli iqtisodiyotni shakllantirish hisoblanadi.

Raqamli itqisodiyot o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlariga qiymatni yaratish va raqamli iqtisodiyotdan olinadigan foyda nuqtai-nazaridan keng imkoniyatlar yaratadi. Raqamli iqtisodiyot juda katta hajmdagi axborotlarni to‘plash, ulardan foydalanish va tahlil qilish asosida rivojlanib bormoqda. Jumladan, jahonda 1992-yilda axborotlar oqimi hajmi bir kunda 100 gegabayt (gb)ni tashkil etgan bo‘lsa, 2017-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 45 ming gb.ga teng bo‘ldi. Prognozlarga ko‘ra, IP grafik hajmi sekundiga 150 ming gb.ga yetishi kutilmoqda. Raqamli iqtisodiyotni jahon iqtisodiyotiga ta’siri ikki yo‘nalishda sodir bo‘lmoqda: birinchidan, yangi “qo‘shilgan qiymatni yaratish zanjiri” qiymat to‘plangan ma’lumotlarni “raqamli intellekt”ga aylanishi va undan tijorat maqsadida foydalanish jarayonidagi monetizatsiyalashuv tufayli vujudga keladi. Ikkinchi yo‘nalish “raqamli platform” bo‘lib , biznes modellar tomonidan to‘plangan ma’lumotlarga asoslanadi va iqtisodiyotda amal qilayotgan tarmoqlarni o‘zgarishiga olib keladi.

XXI asr boshlarida raqamli iqtisodiyotning jahon YaIMdagi ulushi turli xil hisob-kitoblarga ko‘ra, 4,5-15,5 foizni tashkil etmoqda.

Tahlillar ko‘rsatishicha, jahon axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) sektorida yaratilgan qo‘shilgan qiymatning 40,0 foizi AQSH va Xitoy hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.Jahonda AKT sektorida band bo‘lganlar soni 2010 yildagi 34 mln. kishidan 2015 yil 39 mln. kishiga yetdi. Jumladan, ularning 38 foizi kompyuter xizmatlari sohasida band yoki jahonda band bo‘lganlarning umumiy sonining 1,8-2,0 foizi AQT sektori xissasiga to‘g‘ri keladi. Kompterlik xizmatlar industriyasi jahon iqtisodiyotidagi yagona sektor sifatida dunèning barcha mintaqalarida barqaror sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Hattoki ―Covid-19‖ pandemiyasi sharoitida ham jadal

sur’atlar bilan rivojlanib, iqtisodiy jihatdan eng yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biriga aylandi.

Tahlillar ko‘rsatishicha, “Covid-19” pandemiyasi sharoitida AQShda internet tarmog‘i orqali haftalik kinolar ko‘rish hajmi 32 foizga, qisqa metrajli videolar ko‘rish 36 foizga va o‘yin platformalaridagi trafiklar hajmi 75 foizga ortdi. 2020 yil I kvartalida amerikaliklarning video- o‘yinlarga sarflagan xarajatlari 11 mlrd. doll.ga qo‘paydi.

XXI asr boshlarida jahonda AKT xizmatlarining eksporti hajmi umumiy xizmatlarning eksportiga nisbatan jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Ushbu holat jahon iqtisodiyotini borgan sari raqamlashib borayotganligini yana bir bor isbotlaydi. Jumladan, 2018 yil raqamli texnologiyalar yordamida ko‘rsatilgan xizmatlar eksportining hajmi 2,9 trln. doll.ni tashkil etib, jahonda xizmatlar eksportining 50 foiziga teng bo‘ldi. Vaholanki ushbu ko‘rsatkich 2005-2018 yillarda 3 marta ortdi.

Global tadqiqotlar ko‘rsatishicha, raqamli iqtisodiyotni rivojlanishidan olinadigan samara ijobiy xarakterga ega bo‘ladi. Masalan, — McKinsey kompaniyasining hisob-kitoblariga ko‘ra, AKT sohasida yaratilgan bir ish o‘rni umuman iqtisodiyotda 2-4 ish o‘rinlarini ochilishni rag‘batlantiradi. PWC kompaniyasi hisob-kitoblariga ko‘ra, iqtisodiyotni raqamlashtirishning 10 foizga ortishi ishsizlik darajasini 0,84 foizga kamayishiga olib keladi. So‘nggi 15 yil mobaynida Fransiyada o‘tkazilgan chuqur tahlillar ko‘rsatishicha, ish o‘rinlarini raqamlashtirish sababli ishdan bo‘shatilgan 500 ming ish o‘rni mamlakatda qo‘shimcha 1,2 mln. ish o‘rinlarini yaratish imkonini berdi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish o‘tish mamlakatlari iqtisodiyotining tarmoq va sektorlarida iqtisodiy va ijtimoiy dividentlarni ko‘payishiga olib keladi. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirishni jadallashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida 2030 yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning strategiyasini qabul qilish;
- raqamli iqtisodiyotni huquqiy-institutsional asoslarini muntazam takomillashtirib borish;

- raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini rivojlantirish uchun investitsiyalarni jalb etish mexanizmini yaratish va yanada rivojlantirish lozim.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING DIQQATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH BO’YICHA TAVSIYALAR

Esbergenova Biybiayim Kaypnazarovna

Xojeyli tumani XTB ga qarashli 34-maktab psixologi

Annotatsiya: bugungi havola qilinayotgan ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o’quvchilarning psixologiyasi qanday kechishini, davrlar orasida aynan kichik maktab yoshidagi bolalarning xususiyatlarini ko’rib chiqamiz va shu bilan birgalikda bilish jarayonlaridan aynan diqqatning xususiyatlari bilan tanishamiz va bolalarning diqqatini rivojlantirish borasida diagnostik ishlarni tavsiya qilamiz.

Kalit so’zlar: yosh davrlari, metodikalar, kubiklar, bilish jarayonlari, o’yin, texnologiya, nerv faoliyati.

Hozirgi davrda mamlakatimizda, shu jumladan xalq maorifi tizimida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar o‘qituvchilar, barcha pedagoglar oldiga o‘quvchining bilimlarini yuksak darajada o‘zlashtirishi; o‘quvchilar mustaqil tafakkurini, ular aktivligini rivojlantirish; ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash; ularning tafakkur, muloqot, o‘qish, mehnat qilishga bo‘lgan qobiliyatlarni taraqqiy ettirish kabi murakkab va mas’uliyatli vazifalarni qo‘ymoqda.



Kichik maktab yoshi davri 7 yoshdan 10-11 yoshgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda bolalarda qanday o‘zgarishlar bo‘ladi, nimalarga qiziqa boshlaydi, bilish jarayonlari qanday bo‘ladi degan savollarga birma-bir javob berib o’tsak: Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o‘qishi ko‘p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog‘liq. Bolaning maktabda o‘qishga tayyorligi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Shaxsiy tayyorgarlik. Motivatsion sohaning rivojlanganlik darajasi. Bilishga qiziqishning mavjudligi. Ijtimoiy munosabatlar tizimida o‘zining maxsus o‘rni bo‘lishiga intilish, muhim baholanadigan faoliyatni bajarish — o‘quvchi bo‘lish.

Intellektual tayyorgarlik. Tevarak-atrofda mo‘ljal ola bilish, bilimlar zaxirasining mavjudligi. Idrok va ko‘rgazmali-obrazli tafakkurning ma’lum darajada rivojlanganligi. Umumlashtirish darajasi — narsa va hodisalarni farqlash va umumlashtira olish ko'nikmasi.


O‘quv faoliyatiga tayyorgarlik: — kattalarni diqqat bilan eshita olish va uning ko‘rsatmalarini aniq bajarish; — topshiriqni mustaqil bajarish; — chalg‘ituvchi omillarga e’tibor bermasdan topshiriqni bajarishga kirishish.

Endi esa kichik maktab yoshidagi bolalarning diqqat qilish xususiyatlarini ham ko‘rib chiqsak: Maktab ta’limiga tayyorlanayotgan bolada **diqqat** nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror boladi. Boshlang’ich sinf o‘quvchilarida diqqatni irodaviy zo‘r berish bilan boshqarish va vaziyatga moslash imkoniyati yaxshi bo‘lmaydi. Buning asosiy sababi, ularda **ixtiyoriy diqqatning** kuchsizligi va beqarorligidir. Bolalarda **ixtiyorsiz diqqat** ko‘proq rivojlangan bo‘ladi. Boshlang’ich sinf o‘quv materiallarining yaqqolligi, yorqinligi, jozibadorligi, o‘quvchida beixtiyor his-tuyg‘ularni uyg‘otadi va kuchli irodaviy zoliqishsiz fan asoslarini egallash imkonini beradi. 1—2-sinf o‘quvchilari diqqatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri — uning yetarlicha barqaror emasligidir. Shuning uchun ham ular o‘z diqqatlarini uzoq muddat muayyan narsalarga qarata olmaydilar va diqqat ob’ektlari ustida uzoq tura olmaydilar. Ta’lim jarayoni kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ixtiyoriy, barqaror, mustahkam, kuchli, faol ongli diqqatni rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Bilim olish jarayonida mustaqil aqliy mehnat qilish, misol-masalalar

yechish, mashqlar bajarish, takrorlash irodaviy zo‘r berish jarayonida ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi.

SEGEN DOSKASI

Bu metodika oligofrenopedagogika asoschilaridan biri E.Segen tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, bolaning shakllarni farqlash qobiliyatini aniqlashga, motorika xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan (N.A.Shivarev, 1970). Qattiq qog‘oz kartonga 1-rasmdagi figuralar chiziladi.



1-rasm. Segen doskasi

Keyin ular ehtiyotkorlik bilan qirqib olinadi. Har bir variant bir-biridan murakkabligi bilan ajralib turadi: 1 - doskada 10 ta har xil butun figuralar bor; 2 - doskada 2 ta figura bo‘lib, ularning har biri ikki qismdan iborat; 3 - doskada har biri ikki va uch qismdan iborat 4 ta figura; 4 - doskada ikki qismdan iborat 5 figura.

Bolaga 10 soniya davomida doska ko‘rsatiladi. Keyin doskadagi figuralar stol ustiga tushadigan qilib ag‘dariladi. Eksperimentator ularni aralashtirib, har bir figurani o‘z joyiga qo‘yishni so‘raydi. Tajriba boshida eksperimentator 2-3 namunani ko‘rsatib berishi mumkin. Keyin bolaning o‘zi topshiriqni qanday bajarayotganini diqqat bilan kuzatadi. Bunda bola «sinash va xato qilish» kabi harakatlar qiladimi, figuralarni joyiga qo‘yishda bola qanchalik diqqat-e'tiborli, buni u qanchalik o‘rganadi, tadqiqotchi shu kabilarga e'tibor berib, kuzatishi kerak. Birinchi topshiriqni bajargandan so‘ng, keyingi qiyinroq topshiriqqa o‘tiladi. Sinaluvchining har bir topshiriqni bajarish vaqti, uning qilgan harakatlari maxsus qog‘ozga yozib

boriladi (3-jadval).Sinaluvchi topshiriqlarni o‘zi bajara olmasa, 1 daqiqadan so‘ng unga yordamlashish mumkin.

3-jadval

Figuralarni joylashtirish bo‘yicha topshiriqlarni bajarish qarori

Doska №	Sinaluvchi harakatlari	Ko‘rsatilgan yordam turi	Topshiriqni bajarish vaqti

Bu metodika juda sodda bo‘lib, 3 yoshdan katta bolalarni tekshirishda foydalanish mumkin. Bolalar figuralarni o‘yin deb qabul qilib, bu topshiriqlarni qiziqib bajaradilar.

Qor to'pi o'yini

Birinchi bola o'z ismini chaqiradi, to'pni boshqasiga uzatadi va u o'z navbatida birinchi va o'zining ismini chaqiradi, keyin uchinchi ishtirokchi to'pni oladi va hokazo. O'yin barcha ishtirokchilar bilan aylana shaklida o'tkaziladi.

"Tinglang va bajaring"

Mashg'ulotchi bir nechta harakatlarni ko'rsatmasdan nomlaydi. Vazifani 1-2 marta takrorlashga ruhsat beriladi. Keyin bolalar bu harakatlarni rahbar tomonidan atalgan tartibda takrorlashlari kerak.

* Boshingizni o'ngga, to'g'ri, boshingizni pastga tushiring, boshingizni ko'taring.

* O'ng qo'lingizni yuqoriga ko'taring, chap qo'lingizni yuqoriga ko'taring, ikkala qo'lingizni pastga tushiring.

"Ta’qiqlangan so'z" o'yini

Uy egasi savollar beradi, o'yinchi javob beradi. Javoblar boshqacha bo'lishi mumkin, lekin siz oldindan kelishilgan bitta ta’qiqlangan so'zni ayta olmaysiz, masalan, "yo'q" so'zi. Shundan so'ng siz savollar berishni boshlashingiz mumkin:

Siz vannada uxlaysizmi? Oppoq oy ko‘rganmisiz? Siz ucha olasizmi? Oyga borganmisiz?

Kognitiv psixik jarayonlar insonga atrofdagi dunyo va o'zi haqida bilim beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalikda nutqni o'zlashtirishning uzoq va murakkab jarayoni asosan yakunlanadi. 7 yoshga kelib, til bolaning muloqot va fikrlash vositasiga aylanadi.

Demak biz yuqorida keltirib o’tgan metodika va mashqlar o’quvchilarning diqqatini rivojklantirishga, shakllantirishga yordam bera ekan. Uni bemalol maktablarda, uyda ota-onalar bilan birgalikda qo’llasak bo’ladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Ergash G’oziyev ,,Umumiy psixologiya’’ Toshkent 2010. { 417-419-b}

2. Z. T. Nishanova, Z.Q.Urbanova S.Abdiyev ,,Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya’’ Toshkent-2011. {113-122 b}

BUDJET XARAJATLARINI SMETA ASOSIDA REJALASHTIRISH


Kumakov Rasul Zayniddin o’g’li
O’zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi magistri

O’zbekistonda mustaqillikning ilk kunlaridan budjet tashkilotlarini moliyalashtirish mexanizmini isloh qilishga, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga davlat siyosati darajasida alohida e’tibor qaratilib, qator choratadbirlar amalga oshirildi. Davlat tomonidan mablag‘ bilan ta’minlanadigan qator ijtimoiy sohalar: ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, ijtimoiy ta’minot, davlat boshqaruvi organlari muassasa va tashkilotlari budjet tashkiloti maqomida faoliyat qiladi. Davlat byudjetining katta miqdori ham aynan shu sohalarni moliyalashtirishga yo’naltirilmoqda.

Byudjet tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirish va budjetdan moliyalashtirish xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi. Xarajatlar smetasini tuzish, ko‘rib chiqish va tasdiqlash, ro‘yxatdan o‘tkazish, moliyalashtirish uchun qabul qilish tartiblari Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari, Moliya vazirligining buyruqlari va tegishli tarmoq vazirliklarining me’yoriy hujjatlari bilan belgilab qo‘yilgan. Lekin oxirgi yillarda davlat moliyasini isloh qilish loyihasini amalga oshirish doirasida so‘nggi natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish tamoyillarining joriy qilinishi, o‘rta muddatli budjet istiqbollarini belgilash siyosatining ilgari surilishi, davlat budjetining g‘azna ijrosi mexanizmlarining joriy etilishi, budjet mablag‘lari hisobidan davlat xaridlarini tashkil etish tartiblarining belgilanishi va budjet siyosatidagi boshqa o‘zgarishlarning amalga oshirilishi budjet tashkilotlari xarajatlarini aniq rejalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishni talab etmoqda. Respublikamizda xarajatlar smetasidan samarali foydalanish borasidagi asosiy kamchiliklar byudjet tizimining kengligi, xarajatlar smetasini tuzishning va g’aznachilik tizimining shaffof emasligida namoyon bo’lmoqda. Ayrim hollarda xarajatlar smetasini shakllantirish tamoyillarining buzilishi, xarajatlarning rag’batlantirish vazifasini to’laqonli bajarmayotganligi holatlari kuzatilmoqda. Natijada byudjet tashkilotlarining

moliyaviy tang holatlarga tushishiga ham yuz bermoqda. Byudjetdan moliyalashtirish deyilganda rejada ko’zda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun sub’ektlarga byudjetdan mablag’larni taqdim etish tizimi tushuniladi. U pul mablag’larini taqdim etishning o’ziga xos bo’lgan shakl va metodlari bilan xarakterlanadi hamda ma’lum bir printsiplarga tayanadi. Xarajatlar smetasi budjet tashkiloti yoki byudjet mablag’lari oluvchi tomonidan moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan, uning uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag’lar xarajatlar moddalari bo’yicha aks ettiriladigan hujjat hisoblanadi.

Demak, smeta notijorat faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotning maqsadga yo’naltirilganligi nuqtai nazaridan pul mablag’larining tashkil topishi va sarflanishi to’g’risidagi axborotni o’zida mujassamlashtiruvchi moliyaviy rejasidir. Ish haqini to’lashga va joriy faoliyatga xarajatlar budjetdan ajratilganligini, shuningdek mablag’larning maqsadliligi va choraklar bo’yicha taqsimoti hajmini belgilovchi hujjatdir. Xarajatlar smetasi mohiyatini quyidagi rasm ma’lumotlaridan ham kengroq tushunish mumkin.



JAHONDA NORASMIY IQTISODIYOT XUSUSIYATLARI

Asqarov Ismatillo Oltiboyevich
O’zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi magistri

Lotin Amerikasidagi ikki mamlakat (Ekvador, Yamayka), Afrikadagi to‘rt mamlakat (Jazoir, Tunis, Nigeriya, Svazilend) va Osiyodagi bir mamlakat (Tailand) lardagi tadqiqot natijalari bo‘yicha axbortlardan foydalanib D.Mid va K.Morrissonlar ushbu rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik biznesning legalliligi (ro‘yxatdan o‘tkazish, soliqlarni to‘lash va mehnat qonunchiligiga rioya qilish) va kapital sig‘imkorligini solishtirishgan. Ushbu tadqiqotning natijalari juda qiziqarlidir.

D.Mid va K.Morrissonlar mavjud ma’lumotlar kichik biznesda jismoniy va “inson” kapitalining o‘rni to‘g‘risidagi mulohazalarni olib borish uchun yetarli emasligini ta’kidlashadi. “Inson” kapitali haqida to‘xtalsa, Ekvador va Yamaykada tadbirkorlarning yarmidan oshig‘i o‘rta va oliy ma’lumotga egalar, Tailandda bilimlilik darajasi ancha pastdir. Bu ma’lumotlar norasmiy sektorda, asosan, ma’lumotga ega emas odamlar ishlaydi degan tushunchani inkor etadi. Tailand va Tunisda ko‘pchilik (50-70%) kichik korxonalar jismoniy kapitalga investitsiyalarni amalga oshirsalar, Jazoirda esa kamchilik (15-30%) korxonalar bunday investitsiyalarni amalga oshiradilar, bu ushbu mamlakatda norasmiy sektor korxonalarida modernizatsiya jarayonlarini past darajada ekanligidan dalolatdir.

D.Mid va K.Morrissonlar xulosasiga ko‘ra “uchinchi dunyo” mamlakatlarining deyarli barchasida ko‘pchilik korxonalar quyidagi umumiy xususiyatlarga egadirlar: band bo‘lganlarni soni kam, soliq va boshqa qoidalarga rioya qilmaslik, past darajada kapital sig‘imkorligi. Ammo bu xususiyatlarning barchasi birdaniga uchramasligi mumkin, shu sabab norasmiy sektorning universal ta’rifini ishlab chiqish murakkablashmoqda. “Norasmiylik”ni o‘ziga xos mozaikaga o‘xshatish mumkin, uning elementlari ichida qonuniy va tasodifiylarini ajratib olish juda murakkabdir. Ushbu holatni e’tiborga olib, tadqiqotchilar tahlilchilarni turli mamlakatlarning ma’lumotlarini tanqidiy baholashlari va har bir holatda norasmiy sektor

tushunchasiga qanday mazmun berilayotganing aniq ko‘rsatishlarini so‘rashmoqda. Chunki har bir mamlakatda norasmiy sektorga turli holatda turli mazmun berilmoqda.

Har qanday holatda “uchinchi dunyo” tadqiqotchilari norasmiy sektor rivojlanayotgan mamlakatlarda katta ahamiyatga egaligini yakdillik bilan tan olishmoqda. Ba’zi mamlakatlarda u hatto rasmiy iqtisodiyotdan ham oshib ketgan

Lotin Amerikasi mamlakatlari YaIMda xufyona iqtisodiyotning ulushini baholash, 1980-yillarning ikkinchi yarmi, %da

Lotin Amerikasi	xufyona iqtisodiyot
Boliviya	50ga yaqin
Peru	39
Meksika	25-35
Kolumbiya	15-25
Argentina	12

Alohida hududlarning rivojlanish darajasi bilan norasmiy sektorning miqyoslari o‘rtasida aniq teskari proporsional bog‘liqlik mavjud: norasmiy sektor Afrikaning kam taraqqiy etgan mamlakatlarida ulkan, Osiyoda katta va Lotin Amerikasida nisbatan kam tarqalgan. Turli davrlar uchun norasmiy sektor miqyoslarini baholanishini solishtirish iqtisodiyotning bu sektorini “ishib ketish” tendensiyasiga egaligini ko‘rsatmoqda.

Rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda “xufyona iqtisodiyot” mavjudligini amerikalik iqtisodchi P.Gutmann kashf etgan. P.Gutmann 1978 yilda AQSh norasmiy iqtisodiyoti hajmini rasmiy YaMMga nisbatan taxminan 10% deb baholagan edi, V.Tanzi esa bu ko‘rsatkichni 4,4% deb qayd qilgan edi. Mutaxassislar ushbu hodisani miqyosi haqida munozaralarni davom ettirishi bilan rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotning ushbu sektoriga muntazam ravishda e’tibor qaratila boshlandi. Keyinchalik norasmiy iqtisodiy faoliyatning maxsus tadqiqotlari faqatgina AQShda emas, balki boshqa rivojlangan mamlakatlarda ham olib borilish boshlandi.

Shunday qilib, 1980-yillarga kelib, iqtisodchilar norasmiy iqtisodiy faoliyat (garchi har xil shakl va ko‘lamlarda bo‘lsada) hamma joyda - Janubda va Shimolda, G‘arbda va Sharqda mavjud ekanligiga ishonch hosil qildilar. Bu dunyoning istalgan

mamlakatida norasmiy iqtisodiyot uchun umumiy va u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar uchun maxsus hisoblangan tahlillarga bag‘ishlangan maxsus iqtisodiy-komparativ tadqiqotlar uchun sharoit yaratdi.

МАЛИК НАБИЕВ – ТАСВИРИЙ САНЪАТ ЖАНРЛАРИНИНГ МОҲИР ТАРҒИБОТЧИСИ

Феруза Ҳасанова Раҳмоналиевна

Камолиддин Беҳзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институти ўқитувчиси

Аннотация: Мазкур мақолада Бадиий таълим тизимига салмоқли ҳисса қўшган буюқ мусаввир, тарихий сиймолар образи ҳамда тасвирий санъат жанрларининг моҳир тарғиботчиси, Ўзбекистон Бадиий академияси академиги, Ўзбекистонда халқ рассоми, профессор, Малик Набиевнинг ижодий фаолияти тадқиқ қилинган. Унда М.Набиев ижодида юксак маънавий кўтаринкилик, ўзига хослик, рангтасвирга миллий руҳ, урф-одатлар, замондошлар, тарихий сиймолар, машҳур намояндалар образлари туркумини олиб кириши баён этилган.

Калит сўзлар: Тасвирий санъат, композицион ечим, тарихий сиймолар Амир Темур, Беруний, Бобур, Ибн Сино, Жомий ва Навоий Ал- Розий, Рудакий, Ал - Хоразмий , Спитамен , ЮНЕСКО, «Курер» журнали , миллий руҳ маънавий кўтаринкилик, янгича йўналиш.

«Ҳаётда ўз қўшиғини топа олган, уни бетакрор оҳангда кўпчиликка манзур қилиб куйлай олган санъаткорни бахтли деса бўлади»

Ўрол Тансиқбоев

Санъат шундай бир мўъжиза эканки, уни севиб бағрига кирган инсон доимо ўзини ёш, навқирон сезиб меҳнат қилиб толмас, ўзи севган машғулотисиз яшай олмас экан. Тасвирий санъатга умр бўйи ана шундай мафтун бўлиб келаётган рангтасвирчи рассом Малик Набиев тасвирий санъатнинг илк сабоқларини рассом Баҳром Ҳамдамийдан ўргангач, устоз маслаҳатига биноан рассомлик билим юртига ўқишга киради. Малик Набиев

тасвирий санъатнинг илк сабоқларини рассом Бахром Ҳамдамийдан ўргангач, устоз маслахатига кўра 1933 йилда рассомлик билим юртига ўқишга киради. 1937 йилда билим юртини имтиёзли диплом билан муваффақиятли тугатгандан сўнг эса шу ерда ўқитувчи бўлиб ишлай бошлайди. Ўша йиллардан бошлаб санъат борасидаги. мустақил ижодий йўли бошланган эди. У ўз асарлари билан кўргазмаларда иштирок этди. 1936 йилда эса рассомлар уюшмасига қабул қилинди.

Мусаввир уруш йилларида профессор Михаил Фёдорович Шемякин раҳбарлигида тасвирий санъат сирларини янада чуқурроқ ўрганишга киришди. Урушнинг оғир йилларида қишлоқларни кезиб, этюдлар, портретлар ишлади, фашистларни қораловчи плакатлар чизиб, чақириқлар. шиорлар ёзиб, фронт ортидаги меҳнати билан ғалабани яқинлаштиришга ўз ҳиссасини қўшди.

Малик Набиев 1962 йилда Низомий номли Тошкент давлат педагогика институти бадиий-графика факультетини тугатгач мазкур институтда ўқитувчи, катта ўқитувчи, доцент, профессор. кафедра мудири каби лавозимларда то умрининг охирига қадар фаолият юритди, ёшларга тасвирий санъат сирларини ўргатди. Ёшлигидан тарихий мавзуларга бўлган қизиқиши ва ҳаракатлари зойи кетмади. Вақтлар ўтиши билан рассомнинг тарихдан ҳикоя қилувчи ранглавҳа, чизма-тасвир ва кичик композициялари катта-катта полоноларга айланди. Малик Набиев ўз асарларида тарихий воқеалар мазмунини аниқ ифодалашга ҳаракат қилади.

У Тарихий шахслар образини яратиш нақадар мушкуллигига қарамасдан ўзининг тинимсиз меҳнати туфайли буюк сиймолар образини юксак бадиий савияда ярата олди. Улар амир Темур, Беруний, Бобур, Ибн Сино, Жомий ва Навоий, Ал Розий, Ал Хоразмий каби бир қанча йирик олим, шоир, давлат арбобларининг образларидир. Рангтасвирчи рассом М.Набиев авлоддан-авлодга ҳикоя қилиниб келинаётган тарихий воқеаларни астойдил ўрганиб, тарих сирларини жонли рангларда тасвирлашга муваффақ бўлган. Тарихий мавзудаги бошқа асарларида мусаввир халқпарвар қаҳрамонлар образини ҳамда озодлик учун бўлган халқ қўзғолонлари моҳиятини моҳирона очиб берган. Бу борада,

айниқса, Искандар Зулқарнайнга қарши жанг қилган сўғдийларнинг қаҳрамони бўлмиш Спитамен тўғрисидаги “Спитамен қўзғолони’’ асаридаги жанг пайти тасвири, «XVII асрдаги Самарқандда ҳунармандлар қўзғолони», «Жиззахдаги 1916-йилги қўзғолон» деб номланган картиналари диққатга сазовордир.

Яна шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, рассомнинг кўп йиллик тинимсиз меҳнати натижасида1962 йилда яратилган буюк шоир, адиб, файласуф ва давлат арбоби Заҳириддин Бобур сиймоси тасвирланган портрети илм аҳли ва ижодкорлар орасида олқишларга сазовор бўлди.Мазкур асарни яратиш мақсадида рассом. кўп йиллар давомида изланишлар олиб борди. У Бобур яшаган жойларда-Андижон, Самарқанд, шаҳарларида, Афғонистон, Хиндистон ва бошқа бир қанча хорижий мамлакатларда ҳам бўлди. Бобур яшаган, ижод қилган, жанг қилган жойларни ўз кўзи билан кўрди. Бобир ҳақида яратилган мўъжаз рангтасвир асарлари билан танишди.

Дарҳақиқат, биз Заҳириддин Муҳаммад Бобур портретига кўз юритар эканмиз М. Набиевнинг Бобур шеърияти билан батафсил танишгани, унинг аччиқ ва сермазмун ҳаётини мукаммал ўрганганлигини, Бобурни навқирон ва тўлақонли гавдалантирган портрети воситасида ҳис этамиз.

Кўпдан бериким ёру диёрим йўқдир,

Бир лаҳзаю бир нафас қарорим ёўқдир.

Келдим бу сари ўз ихтиёрим бирла

Лекин боруримда ихтиёрим йўқдир.

Бобур ўз юртидан олисларга кетиб, она юртига меҳру муҳаббатини ана шунга ўхшаш изҳор қилаётган ҳолати, рассомнинг жонли бўёқларида намоён бўлган. Хуллас, Бобур портретидаги турли хил бўёқларда акс эттирилган туйғулар уйғунлиги бутун борлиғингизни ранглар сеҳри билан қамраб олади.

Мўйқалам соҳибининг тарихий сиймоларга бағишланган ғоявий жиҳатдан бой , ҳар жиҳатдан мукаммал ишланган асарларидан яна бири буюк қомусий олим Абу Райҳон Берунийнинг портрети (1972) дир.

Мутафаккир Беруний образи рассомнинг бир неча йиллик изланишлари, портретнинг бир неча бор эскизиар ва рангламаларини ишлаши натижасида

юзага келган. Шу тариқа асарнинг бир нечта, бир-биридан фарқ қилувчи нусхалари яратилган.

1949 йили Ал- Беруний вафотининг 900 йиллиги муносабати билан олим портретини яратиш учун танлов эълон қилинади. Бу конкурсда ўттиз нафардан ортиқ Ўзбекистонлик ва бошқа халқларнинг йирик рассомлари иштирок этишади. Шу танловда Малик Набиев ҳам қатнашди. Мусаввирнинг асарларидаги буюк олим образи бошқа рассомлар томонидан ишланган намуналарга нисбатан тўлақонли, деб эътироф этилади. 1973 йилда эса Беруний таваллудига 1000 йил тўлиши муносабати билан иккинчи маротаба конкурс эълон қилинади. Рассом Малик Набиев Беруний образи устида изланишни давом эттириб ва ниҳоят иккинчи маротаба ҳам конкурс ғолиби бўлади. Бу портрет конкурсдан сўнг ЮНЕСКОнинг «Курер» журнали муқовасида ва хорижий мамлакатларнинг кўпгина журнал ва газеталарида ҳамда открытка, марка, плакат тарзида бир неча бор нашрдан чиқарилди. Портретда илм муаммоларини ечишга чоғланган вазмин нигоҳи олисни кўзлаётган аллома характери ифода этилган. Рассом илм сирларини ечиш учун бутун вужуди билан киришган инсонпарвар олим Абу Райҳон Берунийнинг бутун салобатини тасвирда гавдалантиради. Картинанинг кейинги планларидаги китоблар илм-фанга боғлиқ бўлган буюмлар Берунийнинг қомусий олим ва мутафаккир эканини янада бўрттириб кўрсатилишига хизмат қилган.

Тасвирий санъатда тарихий шахслар образини Малик Набиев ижодисиз тўлиқ тасаввур қилиб бўлмайди. Айниқса, Соҳибқирон Амир Темур образига рассомнинг мурожаат қилиши сабаблари хусусида тўхталиш жоиздир. Тақдир тақозоси билан 1941 йил июнь ойида Амир Темур даҳмаси, сўнгра Мирзо Улуғбек ва Бибихоним қабрлари очилганлиги маълум. Бир оз вақт ўтгандан сўнг қабрдан топилган ашёлар, жумладан Соҳибқироннинг бош суяги ҳам Тошкентдаги Ўзбекистон халқлари тарихий музейига олиб келинган. Бу ҳақда мусаввир ҳикоя қилади: «М. Герасимов музей биносида жаҳонгирнинг бош суяги асосида ҳайкал портрет ишлашни бошлаб юборади. Мен бу жараённи ўз кўзим билан кўрганман. Начора, замон тақозоси экан. Албатта, бу воқеа

ростдан ҳам даҳшат. Соҳибқироннинг арвоҳи чирқираб, руҳий азоб чеккан бўмиши табиий... Ўша 1941 йилдан бери улуғ саркарда сиймосини яратиш нияти мени бир дақиқа ҳам тарк этгани йўқ».. Эллик йилдан ортиқ вақт ичида Амир Темур образини ҳар томонлама ўрганиш учун олиб борган тадқиқотлари, изланишлари ҳақида сўзлаб беришларини сўраганимизда рассом бизга яна шу фикрларни баён қилди:

“Шу давр ичида Амир Темур ҳақида кўплаб асарлар билан танишдим.

Мавжуд миниатюраларни, қаерда бўлмасин, имконият даражасида қидириб топдим. Мен Ҳиндистоннинг Калкутта, Бомбай шаҳарларидаги музейларда, Эроннинг Теҳрон, Исфахон, Туркиянинг Истамбул. Кўнё, Измир ва бошқа шаҳарларида, Англиянинг «Британия» музейида, Франция, Испания каби мамлакатлар музейларида сақланаётган миниатюраларнинг асл нусхаларини кўришга муваффақ бўлдим. Уларда Амир Темур турлича тасвирланган. Ҳиндистоннинг Бобур миниатюра мактаби, Беҳзод (Ҳирот) миниатюра мактаби вакиллари чизган Амир Темур қиёфаси бирбиридан тубдан фарқ қилади. Истамбул музейидан жой олган Темур портрети ҳам бутунлай бошқача...Хуллас, Амир Темур сиймосини яратиш учун бир эмас, бир-неча миниатюра мактабини ўрганиб чиқдим. Тарихий асарларни яратишда аввало мен боболар руҳидан мадад сўрайман, ана шу нарса менга доимо далда бериб туради...” [12]

Ҳақиқатдан ҳам рассом бу портрет асарини яратиш борасида астойдил изланишлар олиб борган, ютуққа юксак маҳорати, мўйқаламининг кучи туфайли эришган.Санъат ихлосмандлари эътиборини ўзига жалб қилган Амир Темур портретида Соҳибқирон саркарда қиёфасида гавдалантирилган. Бошига олтин тож кийган Темурнинг нигоҳи бир нуқтага қаратилган ва жиддий ҳаёл оғушида эканлиги чап қовоғини бир оз кўтарилиб, қоши тепага чимирилганидан сезилиб туради. Улуғвор фикр билан бандлигидан далолат беради. Юз қиёфаси асосан буғдойранг туслар орқали тасвирланган. Пешона,

[12]E:/Documents%20and%20Settings/User/Мои%20документы/Downloads/mustaqillik_davri_ozbekiston_sanati%20(14).pdf

юз қисмида пайдо бўлган чизиқлар, шунингдек, бурун, лаб, қулоқ, соқол, мўйлов каби жойларидаги ҳолатлар

Темурнинг ёши бир оз ўтганлигини кўрсатсада, унинг тетик ва бақувватлилиги сақланганлиги яққол сезилиб турибди. Айниқса, бу ҳолат юзда кўзга тасбланаётган пишиқлик, чайирликни тасвирланишида янада аниқроқ кўринади. Жиддий фикр ва ҳаёл билан бандлиги эса соҳибқиронни янада салобатли қилиб кўрсатади. Елкадор, қўллари эса бамайлихотир қиличга таянган ҳолда тасвирланган портретда қўл бармоқлари шундай характерли тасвирланганки, бу Соҳибқирон Темурнинг машаққатли жангу жадаллардан мардонавор ўтганини яна бир бор тасдиқлаб турибди. Шарқона безатилган шоҳ саройининг бир бўлаги, деразадан Самарқанд шаҳрининг манзараси. Кўринади. Девордаги фонда нақшин безаклар, Соҳибқирон ўтирган салтанат курсисининг бадиий бойлиги, шунингдек Амир Темур эгнидаги либосларнинг ўзига хос қимматбаҳо кўринишга эга бўлиши томошабинга завқ улашади.

Малик Набиев буюк инсон Амир Темур образини тасвирлаш борасида катта муваффақиятни қўлга киритди. Темурни илм, санъат аҳилларига ҳомийлик қилган маърифат ҳомийси эканини ҳам ифодалай олди. Хуллас, Малик Набиев шарқона характерга эга бўлган Амир Темурни узоқ ва машаққатли жангу жадаллардан сўнгги ҳолатдаги образини тасвирлашга эришган.

Тарихий шахслар образини яратиш нақадар мушкул. Бу муш- кулликларни ижодкор тинимсиз меҳнат машаққатлари билан дадил енга олган. Рассомнинг кўплаб портретларида буюк сиймолар образи замонага ҳамоҳанг даражада гавдаланганлигини кўрамиз ва беихтивор ҳайратланамиз.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, Малик Набиев асарларида мусаввирнинг, тарихий сиймолар, машҳур намояндалар, замондошлар образлари туркуми, шунингдек, тасвирий санъат жанрларининг ўзига ҳос услублари, ўлка манзаралари, халқимизнинг ўтмиши ва бугунги куни, юксак маънавий кўтаринкилик асосида рангтасвирда ифода этиб, ундаги миллий руҳ, ёркин бўёкларда катта маҳорат билан акс эттирилиши алоҳида аҳамиятга эгадир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Н. Ойдинов Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар Т.Ўқитувчи 1997 й

2. М. Аҳмедов. М.Набиев ҳаёти ва ижоди.Т., Адабиёт ва санъат нашриёти 2000 йил.

3. Набиев М. Рангшунослик. —Т .: Ўқитувчи, 1985. 40-б.

4. Т. Н. Турсуналиев. Рангшуносликка оид терминлар луғати. —Т.: Низомий номидаги ТДПУ. 2002. 20-б.

5. https://www.google.com/search?q=Malik+Nabiev+referat%2C+kurs+ishi&oq=Malik+Nabiev&aqs=chrome.0.69i59j69i57j69i59l2j0l2.29685j0j8&sourceid=chrome&ie=UTF-8

6. http://elib.buxdu.uz/index.php/pages/buyuk-shaxslar/item/7408-nabiyev-malik-nabiyevich

INGLIZ TILI DARSLARIDA O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Nizamatdinova Gularom Tilewbayevna

Nukus shahar,18-maktab ingliz tili o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada bugungi zamonaviy pedogogik texnologiyalar asosan eshitib, o‘qib tahlil qilib, mantiqiy fikrlashga asoslanganligi, har bir o‘quvchining mustaqil fikri esda saqlab qolish qobiliyati yangi darsliklarda ham o‘z aksini topayotganligi, shular asosida o‘quvchilarni qiziqtiruvchi turli xil o‘yinlar joy olgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim metodlari, “objects?”, “back to back?”, “bingo?”, Last Man “Standing (oxirgi qolgan odam)”.

Ta’lim metodlari ta’lim maqsadini yoritishga xizmat qiladi, u yordamida ta’lim mazmunini o‘zlashtirish yo‘llari ifoda etiladi, o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro harakati, xususiyati aks ettiriladi.

Ta’lim metodlari tizimida og’zaki bayon qilish metodlari muhim o‘rin tutadi. Og’zaki mashqlardan ta’lim jarayonida keng foydalaniladi. Ular o‘quvchilarning umumiy madaniyati, mantiqiy fikrlashi hamda bilish qobiliyatini rivojlantirish bilan bog’liqdir. Shuningdek, og’zaki mashqlarning nutq boyligini oshirish va xorijiy tillarni o‘rganishdagi ahamiyati beqiyos.

OBJECTS? — bu qiziqarli o‘yin orqali o‘quvchilarning xotirasi va so‘z boyligini tekshiramiz. So‘z boyligimizni qanchalik oshirsak, ingliz tilida so‘zlashuv mahoratimiz shuncha yaxshilanib boraveradi.O‘yinning shartlari: doska va sinfxonada joylashgan 15 buyumdan foydalanamiz. Buyumlarning hammasini stol ustiga qo‘yib, barcha o‘quvchini chaqirib, stol ustidagi buyumlarni ko‘zdan kechirishlarini aytamiz, so‘ng hamma buyumlarning ustini biror narsa bilan berkitamiz. So‘ng o‘quvchilardan eslab qolgan 15 ta buyumni qog‘ozga yoki daftarlariga ingliz tiliga yozishlarini so‘raymiz. 2-3 daqiqadan so‘ng o‘qituvchi buyumlar nomlarini doskaga yozadi va o‘quvchilar o‘zlari yozgan buyumlar nomlarini tekshirib oladi. Eng ko‘p to‘g‘ri yozgan o‘quvchi g‘olib sanaladi.

BACK TO BACK? — бу o‘yin o‘quvchi xotirasini charxlaydi va eshitish qobiliyatini o‘stiradi. Stolga rang-barang rasmlarni chap tomoni bilan qo‘yib chiqamiz, ikki o‘quvchini doskaga chiqaramiz va ularning birovidan rasmlarni tanlab olishini so‘raymiz, ikkinchi o‘quvchiga ko‘rsatmasdan ular ikkita bir-biriga teskari stulga o‘tiradilar. Rasmni ushlab turgan bola topishmoq usulda unda nima tasvirlanganini aytadi va ikkinchi o‘quvchi eshitgan so‘zlarni qog‘ozga tushiradi. Eshitganlarini yaqqol va aniq tushirsa o‘quvchi g‘olib bo‘ladi. Bu o‘yin yuqori sinflar uchun ham juda qiziqarli.

BINGO? — bu o‘yinni o‘ynash uchun biroz tayyorgarlik ko‘rishga to‘g‘ri keladi. Ammo u juda qiziqarli. 4x4 shaklda bingo qog‘ozlarini tayyorlang va har bir katagiga so‘zlar yozing hamda o‘quvchilarga tarqating. So‘zlar takrorlanmasligi va siz ularni o‘qib berganingizda o‘quvchilar borlarini belgilashlari kerak. Sahifadagi barcha so‘zlarni birinchi bo‘lib belgilagan o‘quvchi g‘olib sanaladi.

Last Man Standing (oxirgi qolgan odam)

Bu o‘yin tezkor o‘yin hisoblanadi. Lekin O‘quvchilarga o‘ylash uchun biroz vaqt beradi. Bu o‘yin birgalikda o‘rganishga undaydi, ya’ni boshqa o‘quvchilar so‘zlayotganida qolgan o‘quvchilar o‘zlari so‘z o‘ylayotgan bo‘lishadi. O‘yinni o‘ynash uchun sizga kopto‘kcha kerak bo‘ladi. Va hamma o‘quvchilar doira shaklida turib olishlari kerak. Birorta mavzu tanlashingiz kerak bo‘ladi. Masalan: Things found in a a kitchen (oshxonada topiladigan buyumlar), food, profession va hokazo.

Biror o‘quvchiga to‘pni uloqtirish orqali o‘yin boshlanadi. O‘sha o‘quvchi mavzuga doir biror inglizcha so‘z aytadi va to‘pni keying o‘quvchiga uloqtiradi. To‘pni qabul qilgan har bir o‘quvchi shu mavzuga doir biror so‘z aytishi kerak bo‘ladi. Agar ular aytilgan so‘zlarni qayta aytsa yoki bir necha soniya ichida so‘z topa olmasa, ular o‘yindan chiqadi va o‘yinni o‘tirgan holda kuzatadi. Havotir olmang, ular baribir o‘rganayotgan bo‘ladi

Bu o‘yin biroz boshqacharoq qilib o‘zgartirsangiz ham bo‘ladi. Biror mavzuga so‘z aytish o‘rniga, har bir o‘quvchi keyingi o‘quvchiga biror boshqa mavzu aytishi mumkin. Masalan, siz “say something red” (biror qizil narsani ayting) deb o‘yinni boshlashingiz mumkin. Kopto‘kni ushlab olgan birinchi o‘quvchi “strawberry” deb

keyin o‘zi biror mavzu tanlab ko‘ptokni boshqasiga uloqtirishi mumkin. Bu o‘yinni biroz murakkablashtiradi, sababi o‘quvchi biror so‘z haqida o‘ylashidan oldin, qaysi mavzuga doir so‘z o‘ylashi kerakligini ham bilishi lozim.

Ko‘pchilik ingliz tilida so‘zlashuvchilar Pictionary, rasm chizish o‘yini bilan yaxshi tanish. Rasm chizish maqsadi uchun siz oddiy doska yoki oq magnit doskadan foydalanishingiz mumkin. Sinfni 2 guruhga bo‘ling va har bir jamoa uchun doskaning bir tomonida jadval chizing. Siz jamoalarning ballarini shu yerga yozib borasiz. A jamoadan bir kishi chiqadi va ko‘pgina teskari o‘girilgan so‘zlardan bittasini tanlaydi va shu so‘zni doskaga chizib beradi. Keyin boshqalar topishi kerak bo‘ladi. So‘zni birinchi bo‘lib to‘g’ro topgan jamoaga ball beriladi. 10 ball olgan jamoa g’olib sanaladi.

Bu maqolamizda keltirilgan usullarni har bir ingliz tili o‘qituvchisi ularga ijodiy yondashgan holda o‘zlarining darslarida ishlatishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.S. Manoj, Multi- Track Modular Teaching: An Advanced Teaching-learning method, Amazon, ISBN 978-93-5361-582-6, June 2019

2. Владимирова Л. Н. Интернет на уроков иностраннова языка. Журнал «Иностранные языки в школе», 2002, №3 с.39-41

3. Гез, Н.И. методика преподавания иностранных языков/ Н. Ию Гезб – М: Просвещение, 1982.-156с

РЕСПУБЛИКАМИЗ ТИКУВ ТРИКОТАЖ КОРХОНАЛАРИДА ЭКСПОРТБОП МАҲСУЛОТЛАР ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИ

Юлдашев Самад Нормўминович

Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти доценти

Аннотация: Мақолада мамлакатимиз тўқимачилик саноатини ривожлантириш ва экспортбоп сифатли маҳсулотлар ишлаб чиқариш бўйича амалга оширилаётган чора-тадбирлар ҳамда тикув-трикотаж ишлаб чиқаришининг ўз хом ашё базасига эга эканлиги пахта хом ашёсига қайта ишлов берадиган тўқимачилик саноатининг ривожланиши баён этилган.

Калит сўзлар: тикув трикотаж маҳсулотлари,экспорт, иқтисодиёт, инвестиция, тўқимачилик, маҳсулот, рақобат, самарадорлик, пахта толаси, ип калава, тармоқ, бошқариш**.**

Жаҳонда охирги 10 йилда иқтисодиётнинг глобаллашуви натижасида тўқимачилик маҳсулотлари ишлаб чиқариш марказлари Европа ва АҚШдан Жанубий-Шарқий, Марказий Осиё, Жанубий Америка мамлакатларига кўчди.[1]

Шу боисдан тўқимачилик саноати ишлаб чиқаришни замонавий бошқарув усулларини қўллаган ҳолда янада ривожлантириш муҳим вазифа ҳисобланади.

Жаҳон бозорида рақобат тобора кескинлашиб бораётган ҳозирги даврда корхоналарни реконструкция қилмасдан, замонавий илғор технология билан жиҳозламасдан, ишлаб чиқарилаётган маҳсулот турларини янгиламасдан туриб, уларнинг иқтисодий ва молиявий барқарорлигини таъминлаш мумкин эмас. Ишлаб чиқаришни ташкил этишнинг узлуксиз шаклларини жорий этиш мамлакатимиз тўқимачилик саноатини ривожлантириш ҳамда экспортбоп сифатли маҳсулотлар ишлаб чиқариш бўйича амалга оширилаётган чора-тадбирлар муҳим ҳисобланади. Тикув-трикотаж ишлаб чиқаришининг ўз хом

ашё базасига эга эканлиги пахта хом ашёсига қайта ишлов берадиган Ўзбекистон тўқимачилик саноатининг жадал суръатлар билан ривожланиши учун асос бўлади.

Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида мамлакатимизда тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини ривожлантириш, соҳа корхоналарининг инвестиция ва экспорт фаолиятини қўллаб-қувватлаш бўйича комплекс чора-тадбирлар амалга оширилиши натижасида республикада ишлаб чиқарилаётган пахта толаси тўлиқ ва ип калаванинг 45 фоизи қайта ишланмоқда. Шунингдек соҳанинг экспорт салоҳияти 3,2 миллиард доллардан ошди.[2]

2022 йилда ғоят мураккаб ва синовли йилни босиб ўтдик дейилади мурожаатномада **“...тараққиётга — фақат машаққатли ва жасоратли меҳнат орқали эришилади”.[**3]

Республикамиз тикув-трикотаж корхоналари рақобатбардошлигини оширишнинг муҳим йўналишларидан бири бизнес жараёнларни бошқариш самарадорлигини ошириш ҳисобланади. Сўнгги йилларда бошқарувга нисбатан жараёнли ёндошув, кўпгина маҳаллий ва хориж корхоналарида ўз самарасини кўрсатгани боис, борган сари кўпроқ аҳамият берилмоқда.

Жараёнли ёндашувга кўра, корхонада бошқарувчи ва бошқариладиган жараёнларни бири-биридан фарқланади. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, бизнес-лойиҳалаштириш бўйича услубий таъминотнинг етарли эмаслиги сабабли, корхонада бошқаришни ташкил этишни такомиллаштиришга етарлича эътибор қаратилмаяпти. Бу ҳолат эса, тикув-трикотаж корхоналарида рентабеллик даражасининг паст бўлишида ўз аксини топмоқда. Шу билан бирга, тўқимачилик саноати тармоғи ўзининг иқтисодий тавсифига кўра, юқори даражадаги айланма маблағларга, тайёр маҳсулотга бўлган юқори даражадаги ўсиб бораётган талабга эга эканлиги боис, бизнес учун салоҳиятли ва жозибадор ҳисобланади ҳамда юқори даромад келтирадиган соҳа ҳисобланади. Шу боисдан ҳам, рақамли иқтисодиёт шароитида экспортбоп, юқори сифатли тикув-трикотаж маҳсулотларини ишлаб чиқариш корхоналари фаолиятини ташкил этишда бизнес жараёнларини бошқариш, хусусан бошқарувга нисбатан

жараёнли ёндошувга асосланиш бугунги куннинг долзарб масаласи ҳисобланади.

Ўзбекистонда тўқимачилик саноати муҳим ўринни эгаллаб, ушбу тармоқни янада ривожлантириш учун хорижий инвестицияларни жалб этиш, экспортбоп маҳсулотлар ишлаб чиқаришни жорий этиш, бошқаришда инновацион усулларни қўллаш борасида кенг кўламдаги амалий ишлар олиб борилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида «Тўқимачилик саноати маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмини 2 баробарга кўпайтириш» вазифаси белгиланган бўлиб, м*азкур вазифани муваффақиятли бажарилиши республикамиз* тикув трикотаж корхоналарида экспортбоп маҳсулотлар ишлаб чиқаришни такомиллаштиришни тақозо этади. [4]

Шу билан бирга 2022 йил 21 январдаги ПФ-53-сон «Тўқимачилик ва тикув-трикотаж корхоналарида чуқур қайта ишлаш ва юқори қўшилган қийматли тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқаришни ҳамда уларнинг экспортини рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги **фармони,** 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги фармони[1], 2021 йил 16 ноябрдаги ПФ-14-сон «Пахта-тўқимачилик кластерлари фаолиятини тартибга солиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармони, 2020 йил 5 майдаги ПФ-5989-сон «Тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини қўллаб-қувватлашга доир кечиктириб бўлмайдиган чора-тадбирлар тўғрисида»ги фармони ва мазкур фаолиятга тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга ошириш мақсадга мувофиқдир.

Ҳозирги жаҳон бозорлари узоқ давом этган тарихий жараён натижасида аввало, етакчи мамлакатлар ички бозорлари негизида ташқи савдо (экспорт ва импорт) алоқаларини шаклланиши ва уларнинг миллий давлатлар чегарасидан чиқиб, халқаро иқтисодий муносабатлар даражасида ривожланаётганлиги илмий адабиётларда баён этилган.

Экспорт (*лот. exporto -олиб чиқаман, инглиз export*) - товар, капитал в қимматбаҳо қоғозларни ташқи бозорга олиб чиқиш ва сотиш, импорт (*лот. importo - олиб келиш*) мамлакатнинг ички бозорида сотиш учун шунингдек, уларни учинчи мамлакатга ўтказиб юбориш учун чет эл товарлари олиб келиш, реэкспорт - учинчи мамлакатга олиб чиқиш ва реимпорт - қайта ишлаш ёки олиб чиқилган мамлакатга қайтадан олиб кириш маъноларини англатувчи атамалар умумлашган холда халқаро савдо жараёнларини ифодалайди. Шунинг учун экспорт назарияси хам халқаро савдо назариясининг ажралмас қисми сифатида иқтисодчи олимлар томонидан ўрганилиб ва такомиллапггирилиб келинмокда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати:

1. Азимова.Ф.П. Тўқимачилик саноати корхоналари фаолияти самарадорлигини бошқаришни такомиллаштириш. Монография.2022й. 28 июнь.”Factor book” нашриёти.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони 2023 йил. 10 январь № ПФ-2

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 2022йил. 21 декабрь.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси» ПФ-60-сонли Фармони. // www.lex.uz.

IMPROVING THE METHODOLOGY OF FORMATION OF INFORMATION AND COMMUNICATION COMPETENCE IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL PREPARATION OF FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS

Urinboyeva Feruza Zokir qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchi

Annotation: The possibilities of using various services, computer programs, electronic educational resources for teaching future English language teachers in specialized groups are considered, examples of created electronic manuals and applications in the process of teaching a foreign language are given.

Keywords: educational resources, the process of teaching a foreign language, the creation of electronic manuals and applications, information and communication competence.

INTRODUCTION

The field of second and foreign language teaching and learning has been an issue of debate for a long time. Various theories and methods of language learning have been introduced. Grammar translation method occupied the field of foreign and second language teaching for many decades and is still of use today. The field has also been dominated by the behaviorist theory and the idea that language is nothing but a social behavior that can be learned as any other behavior through the process of habit formation; and many language drills have been designed for this purpose. Learners may share the same aim of learning a language which is ‘being able to use it effectively’; but which ability is required for that? and how to achieve it? have been questions for both linguists and methodologists!

The modern education system is becoming increasingly dependent on information technology and requires teachers to have a large stock of various knowledge, skills, and the ability to be mobile and keep up with the times. A teacher

who owns information and communication technologies (hereinafter referred to as ICT) and introduces them into the educational process improves not only the quality of education, but also their professional skills. With the introduction of ICT, the teacher gets the opportunity to educate himself, develop creatively and strive for professional growth [1].

MATERIALS AND METHODS

Terrel and Krahen (2013) have defined communicative competence as the use of language in social communications without grammatical analysis. They related communicative competence to the communication and didn’t give a focus for the grammatical competence. This means that communicative competence is manifested in the communication. They argued that the primary goal of language learning should be the development of the communicative skills.

Today, the teacher must meet the requirements of modern education. To be able not only to select forms and methods for developing interest in the subject being studied, improving the quality of education, but also to be ready for continuous improvement of their knowledge. And the variety of ICT tools that can be used in the learning process: electronic textbooks, dictionaries and reference books, didactic material, presentations, forums for communication and much more - will help to realize educational tasks, to form the competence of a teacher.

RESULTS AND DISCUSSION

The formation of information and communication competence of a teacher occurs in stages [2]:

1. Basic competence (the need to use ICT in the educational process, motivation to obtain the necessary knowledge in this area).

2. General competence (the desire to introduce the acquired knowledge into the educational process, a phased reflection of one's activities in the use of ICT).

3. Professional competence (the desire to transfer the experience gained in the field of ICT to colleagues and students, the desire to participate in the creation and implementation of a program related to informatization of the educational process in an educational institution).

Modern teenagers live in the world of electronic culture, therefore, in my professional work, I strive to constantly search for and introduce modern information and communication technologies into the educational process in order to captivate them with the English language. I try to create conditions for the development of students' creative abilities, teach them to think independently, increase motivation to study the subject, encourage their individual abilities and talents.

One of the priority tasks in education is the development of students' independence, preparing them for adulthood. Today it is very important to educate a person who can easily navigate in the information space. To do this, I study electronic educational resources myself, and then I involve students. After analyzing the curriculum and textbooks on the subject "English", I came to the conclusion that the material of a country-specific nature is not enough. Therefore, I considered it relevant to create, together with the students of the profile group, electronic educational resources that will be useful to both students and teachers.

CONCLUSION

The use of ICT in the educational process allows students to study the subject with interest, to involve them in self-development. Of great importance for the teacher is the formation of his information and communication competence. When the need to use ICT in the educational process, the motivation to acquire the necessary knowledge in this area develops into a desire to transfer the experience gained in this area to colleagues and students, into a desire to participate in the creation and implementation of a program related to informatization of the educational process in an educational institution, it can be considered that a modern teacher fully complies with the new standards of a necessary, updated, in-demand teacher.

References:

1. Dubakov, A.V. Web quest technology in the process of practical language training of future translators / A.V. Dubakov // Information and communication

technologies in teaching foreign languages: Sat. scientific Art. / resp. ed. A.V. Dubakov; Shadr. state ped. in-t. - Shadrinsk: ShGPI, 2012. - P. 3–7.

2. Sysoev, P.V. Competence of a foreign language teacher in the field of using information and communication technologies: definition of concepts and component composition / P.V. Sysoev, M.N. Evstigneev // Foreign languages at school. - 2021. - No 5. - P. 16-18.

3. www.ziyonet.uz

4. www.natlib.uz

UNABI MEVASINI SIFATLI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Omonboyev. D. O.
ToshDAU talabasi
G‘aniyeva. N. A.
ToshDAU talabasi
Tog‘ulova. S. X.
ToshDAU talabasi

Annotatsiya: Chilonjiyda o’simligidan tayyorlangan turli preparat va damlamalarning inson organizmidagi har xil kasalliklarning oldini olish,ularning qo’llanilish va ta’sirini o’rganish.

Kalit so’z: Glikoza, askorbin kislota, vitaminlar, larengit, astma, o’pka kasalliklari va har xil yaralar, mirt urug’i, chilonjiyda urug’i, nevrasteniya, isteriya, kardionevroz.

Bugungi kunda dunyo mevachiligida, xususan, unabi (chilonjiyda) ko‘chatlarini yetishtirish, bog‘larini barpo qilish va yalpi hosil miqdorini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, dunyo bo‘yicha hozirgi kunga kelib, subtropik meva guruhiga kiruvchi unabining jami barpo etilgan bog‘ maydoni 410 ming gektar bo‘lib, yalpi hosil 7,5 mln. tonnani tashkil qiladi. Unabi Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya, Afg‘oniston, Pokiston, AQSH va Rossiya kabi davlatlarda katta miqdorda yetishtiriladi. Xitoyda intensiv tipdagi unabi bog‘lari qariyb 200 ming gektardan ortiq maydonda barpo qilingan. Unabi mevalarini yetishtirish oziq-ovqat xavfsizligi globallashib borayotgan bugungi kunda hosildorlikni oshirish hamda sifatli hosil olish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Manbalarga ko‘ra, chilonjiyda mevasi tarkibida o‘rtacha 25-32 foiz, quritilganda 63,8 foizgacha shakar, 2,6 - 3,4 foiz oqsil, 3,7 foizgacha moy, 10 foizgacha tannid moddasi, 250 - 1300 mg foizgacha C vitamini, kaliy, magniy va pektin moddalari mavjud. Tibbiyotda shamollashga qarshi, immunitetni oshiruvchi, qonni suyultiruvchi, asab sistemasini tinchlantiruvchi, yurak

qon-tomir kasalliklari, ayniqsa, qon bosimiga qarshi hamda qon tarkibidagi xolesterin moddasini kamaytirish uchun foydalaniladi. Unabi mevasidagi vitaminlar miqdori limon va apelsinga qaraganda 10-15 barobar ko‘pdir. Bu nafaqat dorivorlik xususiyati bilan, balki mevali o‘simlik sifatida ham alohida e’tiborga molik. Shu sabab ko‘pgina davlatlarda uning yirik mevali serhosil navlari yaratilgan. Bundan tashqari, unabi daraxti qurg‘oqchilikka, issiq, sovuq, kasallik va zararkunandalarga chidamli bo‘lib, uzoq umr (300-yilgacha) ko‘radi. Tez hosilga kiradi, har yili muttasil yaxshi hosil beradi. Tuproq tipi va relyefga unchalik talabchan emas. Unabining mevasi yirik, xushbo‘y va mazali. Uning oziq-ovqat sanoatidagi ahamiyati katta. Yirik mevali navlari faqat oziq-ovqat sanoatida ishlatish maqsadida yetishtiriladi va maxsus plantatsiyalarda o‘stiriladi. Shu maqsadda O‘zbekiston haroitida unabining bir qancha yirik mevali navlari o‘rganilib, keng miqyosda o‘stirish tavsiya etilgan. Olimlarimiz olib borayotgan tadqiqotlarida unabi urug‘larining unuvchanligini oshirish, sifatli ko‘chatlarni tezkor yetishtirish, mo‘l va sifatli hosil olish agrotexnik elementlarini takomillashtirish masalalari muhim ahamiyatga ega. Bu masalalarni hal etish esa respublikada ushbu qimmatli meva bog‘larini barpo qilish uchun tezkor ko‘chat yetishtirish, unabi bog‘larining hosildorligi, meva sifati hamda ishlab chiqish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Unabi mevasining ta’mi yoqimli, u quritilgan va quritilmagan holda iste’mol qilinadi. Unabi mevasi terilgandan so‘ng soya yerda quritiladi va shu holatda saqlanadi va iste’mol qilinadi, ayniqsa, unabi mevasidan qandolatchilikda hamda konserva sanoatida keng foydalaniladi. Mevasidan sharbat, murabbo, ichimliklar va konservalar hamda shirinliklar tayyorlashda foydalaniladi. Unabining asosiy dorivorligi tarkibida ko‘p miqdorda rutin moddasi mavjud. Mevasida rutin moddasining mavjudligi tufayli u gipertoniya kasalligiga chalingan insonlar uchun qimmatli hisoblanadi. Bu daraxt, asosan, O‘zbekistonning tog‘oldi hududlarida o‘sadi. Unabi to‘rt-besh yildan boshlab hosil bera boshlaydi. O‘ttiz-qirq yoshdan boshlab serhosil daraxtga aylanadi, har yili meva soladi. Olti-yetti yoshli daraxtlar 18-20, o‘n besh-yigirma yoshlilari esa, 50 kilogrammgacha hosil beradi.

Unabi Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya, Afg‘oniston, Pokiston, AQSH va Rossiya kabi davlatlarda kata miqdorda yetishtiriladigan chilonjiyda mevasi tarkibida o‘rtacha 25-32 foiz, quritilganda 63,8 foizgacha shakar, 2,6 - 3,4 foiz oqsil, 3,7 foizgacha moy, 10 foizgacha tannid moddasi, 250 - 1300 mg foizgacha C vitamini, kaliy, magniy va pektin moddalari mavjud. Tibbiyotda shamollashga qarshi, immunitetni oshiruvchi, qonni suyultiruvchi, asab sistemasini tinchlantiruvchi, yurak qon-tomir kasalliklari, ayniqsa, qon bosimiga qarshi hamda qon tarkibidagi xolesterin moddasini kamaytirish uchun foydalaniladi. Unabi mevasidagi vitaminlar miqdori limon va apelsinga qaraganda 10-15 barobar ko‘pdir. Bu nafaqat dorivorlik xususiyati bilan, balki mevali o‘simlik sifatida ham alohida e’tiborga molik. Shu sabab ko‘pgina davlatlarda uning yirik mevali serhosil navlari yaratilgan. Bundan tashqari, unabi daraxti qurg‘oqchilikka, issiq, sovuq, kasallik va zararkunandalarga chidamli bo‘lib, uzoq umr (300-yilgacha) ko‘radi.

Xulosa: Chilonjiyda mevalarida qimmatli va biologik faol moddalarga boy bo’lib, farmasevtika va oziq-ovqat sanoatida keng qo’llaniladi. Chilon mevalari g’alla hosili bo’lmagan yillari xalqni ocharchilikdan saqlab qolgan ishonchli vosita bo’lgan. Shuning uchun ham chilonning yirik mevalari Xitoy xalq seleksiyasi tomonidan yaratilgan navlari butun dunyoda tarqalib ketgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Farmatsevtik texnalogiya (Maxmudjonova. K.S, Shadmonova.Sh va Rizayeva.N) fan darsligi Ivan.I.K, Galina.V.

2. M va Murodova.L.I. Chueshov V.I, Gladux.E V va boshqalar.

3. Andriy Stanislavovich Gavrilov 2010.

4. Mixayilova G.V, Murodova.L.I 2011,

ЛЕЙКОЗ БИЛАН ОҒРИГАН БЕМОРЛАРДА ОЛИКИМЁТЕРАПИЯ ЖАРАЁНИДА ТЕМИР МЕТАБОЛИЗМИНИНГ ДИНАМИКАСИ

Бўриев Ўткир

Тошкент тиббиёт академияси гематология, трансфузиология ва лаборатория иши кафедраси магистри

Сулейманова Д.Н.

Илмий раҳбар: т.ф.д. профессор

Илмий ишнинг мақсади: Лейкоз билан оғриган беморларда темир метаболизмини кўрсатгичлари ва қон таҳлилини поликимётерапия жараёнида баҳолаш

Тадқиқот материаллари ва усуллари: Материаллар : Республика иҳтисослашган гематология илмий-амалий тиббий маркази(РИГИАТМ)нинг 2 – катталар лейкоз бўлимида даволанаётган 24 та ўткир ва сурункали лейкозли 20-70 ёшли 12 та эркак ва 12 та аёллар ва уларни касаллик тарихлари, вена қони намуналари

Усуллар : Сўровнома, анамнез, бирламчи кўрув, клиник-лаборатор усуллари , умумий қон таҳлили Sysmex қон анализи апаратида аниқланган, геманализатор аппаратида ферритин ва қон зардобидаги темир кўрсатгичлари аниқланган.

Натижалар ва мухокама : 24 та ўткир ва сурункали лейкозли беморларда даволашдан олдин гемоглобин кўрсатгичи 89,41±2,76г/л , ферритин кўрсатгичи 171,19± 11,45мкг/л, қон зардобидаги эркин темир 11,64± 1,96мкмол/л лиги аниқланди. Беморларга қуйидаги даволаш муолажалари ўтказилди: ўткир лейкозли беморларга << 7+3>> схема бўйича Цитарабин + Доксорубицин, сурункали лейкозли беморларга касаллик турига ва босқичига қараб асосий группа дорилари: гидроксикарбамид 500 мг, интерферон α 2б 3 млн, гливек 100-400 мг ҳамда ёрдамчи ва ўринбосар терапия сифатида : гематрон 10.0 ,

антибиотиклар ва ҳамда гематрансфузион эритмалар тромбо консентрат, музлатилган янги плазма, эритроцитар масса кабилар қўлланилди.

Даволаш натижасида беморлардаги гемоглобин кўрсатгичи 106.9±2,55 г/л га ошди (P<0,05), ферритин кўрсатгичи 178.4± 10,25мкг/л ва зардобдаги эркин темир 14 ± 1,15 мкмол/л ташкил этди , аммо ишончли ўзгариш аниқланмади (P>0,5) .

Эркак беморларда даволашгача гемоглобин кўрсатгичи 70,57±2,45 г/л, ферритин 102,51±12,12 мкг/л, зардобдаги эркин темир 9,17 ± 1,56 мкмол/л лиги аниқланди. Даволаш натижасида беморлардаги гемоглобин кўрсатгичи 82,42 ± 1,92г/л га, ферритин 121,34± 12,45 мкг/л га, зардобдаги эркин темир 12,54± 2,01мкмол/л гача кўтарилди.Даволаш натижасида гемоглобин кўрсатгичлари ишончли даражада кўтарилган(P<0,05), аммо ферритин ва қон зардобидаги темир кўрсатгичлари ишончли даражада ошмаган (P>0,5).

Аёл беморларда даволашгача гемоглобин кўрсатгичи 95,87±2,80 г/л, ферритин 232,62±13,01 мкг/л, зардобдаги эркин темир 13,18± 1,20 мкмол/л лиги аниқланди. Даволаш натижасида беморлардаги гемоглобин кўрсатгичи 109,62 ± 2,45г/л га кўтарилди (P<0,05), аммо зардобдаги эркин темир кўрсатгичи (15,38± 2,18мкмол/л) ва ферритин кўрсатгичи (228,37±12,02 мкг/л) ишончли ўзгармади(P>0,5).

Хулоса:

1. Лейкоз билан оғриган беморларда поликимётерапия жараёнида темир метаболизмида ишончли ўзгаришлар аниқланмади, лекин гемоглобин кўрсатгичи ишончли даражада ошди.

2.Поликимётерапиягача эркакларнинг гемоглобин кўрсатгичлари аёлларникига нисбатан ишончли даражада паст бўлган ва даволашдан сўнг аёлларда гемоглобин кўрсатгичи эркакларга нисбатан ишончли даражада юқори эканлиги аниқланди.

МЕҲНАТ РЕСУРСЛАРИНИ БОШКАРИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ВА УЛАРДАН УНУМЛИ ФОЙДАНИШ

Султонов Иброхим Султон ўғли
Тошкент Давлат Иқтисодиет университети магистранти
Машрапов Шохбозбек Маҳамматжон ўғли
Тошкент Давлат Иқтисодиет университети магистранти

Аннотация: Ушбу мақолада мехнат ресурслари, уларнинг шаклланиши , корхона ва ташкилотларда меҳнат ресурсларини бошқаришни такомиллаштириш назарий жиҳатдан тадбиқ қилинган.

Калит сўзлар: Меҳнат ресурслари, бандлик, меҳнат ресурсларини бошқариш, экстенсив усул, интенсив усул, меҳнат унумдорлиги омиллари.

Кириш

Ўзбекистонда иқтисодий ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва иқтисодиётни модернизациялаш жараёни меҳнат ресурсларини бошқариш соҳасида хам туб ўзгаришлар қилинишини тақозо этади.Маьлумки, иқтисодиёт тармоқлари фаолияти унда ишловчи меҳнат ресурслари таркибининг қай даражада шаклланганлиги билан белгиланади.

Ўзбекистон жаҳон стандарти талабларига жавоб берувчи ва экспортбоп маҳсулотлар ишлаб чиқаришни таьминловчи юқори технологияга асосланган ишлаб чиқаришни ташкил этиш, енгил саноат корхоналарининг инфратузилмасини ривожлантириш ва инновацион технологияларни жорий этиш ҳисобига жаҳон бозорида рақобатбардош маҳсулотлар ишлаб чиқариш кўламини кенгайтиришни ўз олдига мақсад қилиб қўйган.Мақсадларимизга эришиш учун албатта, замонавий, малакали, ёш, иқтисодчи кадрларга кундан кун талаб ошиб бормоқда.

Меҳнат ресурслари бугунги мамлакат иқтисодиётини модернизация қилиш ва тубдан янгиланиш шароитида муҳим аҳамият касб этади, унинг ижтимоий –

иқтисодий тараккиётдаги ахамиятини микро-, мезо-, макро даражаларда яккол намоён булади. Меҳнат ресурсларининг микро даражадаги ахамияти уларнинг корхона (ташкилот) фаолиятидаги ўрни хамда ишлаб чикаришдаги иштироки билан белгиланади. Маьлумки, меҳнат ресурслари ишлаб чиқаришнинг асосий омили бўлиб, уни юзага келтирувчи барча ресурслар бевосита мазкур омил оркали бошқарилади. Ҳудуд ва минтақалар иктисодиётида меҳнат ресурсларининг роли унинг мезо даражадаги аҳамиятини кўрсатади.

Мавзуга оид адабиётлар тахлили

Мамлакатимизда меҳнат ресурслари самарали фойдаланиш бугунги куннинг долзарб вазифаси бўлиб, бу борада илмий-амалий тадқиқотлар олиб бориш заруратини келтириб чиқаради. Илмий манбаларда меҳнат ресурслари ва уларни оқилона шакллантириш ва самарали фойдаланиш юзасидан турли илмий талқинлар ва қарашлар мавжуд.

Мамлакатнинг қайси худудида мехнат ресурслари юкори кўрсаткичга эга бўлса, у ерда ишлаб чиқариш, саноат , ижтимоий- иктисодий инфратузилма ва коммуникация ривожланади.

Меҳнат ресурслари ва уларнинг шаклланиши юзасидан иқтисодчи олимларнинг назарий қарашларини таҳлил киламиз. У.Стаффорд, Г.Скарруфи, Б.Диванзетти ва Т.Маннлар бойлик тўплаш, олтин, кумуш ва қимматбахо буюмларга эгалик ққилиш ғоясини илгари суриб, давлатнинг бойлиги уларнинг миқдори билан белгиланади, унга меҳнат орқали эришилади, дея таъкидлашган. Меркантилистик таълимотни мантиқий жиҳатдан давом эттирган Жон Ло (1671-1729) асосий эътиборни олтин-кумушларга эмас, балки пул муомаласига қаратар экан, иқтисодий равнакнинг калити пулнинг мўллигида, унинг кўплиги эса куп одамларни иш билан банд этади, деб тушунтиради. В. Петти меҳнат эксплуатациясини ёклаб, иш ҳақини чеклаш ва ишчиларга минимум иш ҳаки тўлаш ғоясини илгари сурди. У ишчи кучини эмас, балки меҳнатни товар ҳисоблаб, меҳнат бойликнинг отаси, ер эса унинг онасидир, дея таъкидлаган. Маьлумки, юртимизда иктисодчи олим К.Абдурахмонов меҳнат ресурслари , уларнинг шаклланиши ва ўзига хос хусусиятлари , улардан оқилона

фойдаланишнинг назарий жиҳатларини кенг асослаб берган. Жумладан, унинг фикрича , меҳнат ресурслари мамлакат ахолисининг ўз руҳий-физиологик ва ақлий сифатлари билан моддий неьматлар ишлаб чиқаришга қодир меҳнатга лаёкатли қисми ҳисобланади. Улар таркибига фақат иқтисодий фаол аҳолигина эмас , ҳозирги пайтда ишламаётган ва иш кидираётган меҳнатга лаёкиятли шахслар , шу жумладан, ишлаб чикаришдан ажралган холда таьлим олаётганлар хам киритилади [1].


Ишлаб чиқариш омилларининг барча турлари орасида мехнат ресурслари алоҳида ўрин тутади. Меҳнат ресурсларига кенг маьнода : меҳнатни ҳосил қилиш, айирбошлаш ва ундан фойдаланишни таьминловчи ижтимоий муносабатлар, ижтимоий меьёр ва ва институтлар тизими сифатида карашлар хам мавжуд. Меҳнат ресурслари қандай шаклланишини аниклаш учун биз биринчидан, меҳнат ресурсларини 3та йирик ёш гуруҳлари буйича – мехнатга лаёкатли кишилар, меҳнатга лаёқатли кишилардан ёшрок ва меҳнатга лаёқатли ёшдан каттарок кишиларни , иккинчидан, хар бир гурух ахоли сонига , унинг ўзгаришига таьсир килувчи омилларни, учинчидан, меҳнат ресурслари ва аҳолининг табиий ва механик узгаришдаги умумий ўзига хос томонларини кўриб чиқишимиз лозим. Меҳнат ресурслари атамасидан режали иктисодиёт шароитида марказлашган усулда бошқариш муҳитида кенг фойдаланилган.Ушбу атама инсон ресурсларини бошқариш ва улардан самарали фойдаланишда қулай дастакдир.

Тахлил ва натижалар

Барча ташкилотлар учун – йирик ва кичик, тижорат ва нотижорат , саноат ва хизмат кўрсатиш соҳалари учун одамларни бошқариш жуда муҳимдир. Одамларсиз ташкилот бўлмайди. Керакли одамларсиз хеч кандай ташкилот ўз мақсадларига эриша олмайди.

Меҳнат ресурсларини шакллантириш- бу инсоннинг жисмоний ва аклий салохиятини узлуксиз тиклаш ва ушлаб туриш, унинг касбий малака ва таьлим даражасини мутассил ошириб боришдир. Бу хусусият хам алоҳида шахсга , хам


корхонада ёлланиб ишлаётган ҳодимлар гурухига тааллуқлидир.Меҳнат ресурсларини шакллантириш, одатда, тўрт боскични босиб утади .



1-расм. Меҳнат ресурсларини шакллантиришнинг боскичлари [2].

Экстенсив усул меҳнат фаолиятини амалга оширишга қодир ходимларнинг сони уларнинг қобилияти ўзгармаган холда ортишини англатади.Интенсив усул эса бевосита ходимларнинг салохиятини таьлим ва касбий тайёргарлик оркали амалга оширишни назарда тутади.Иш кучининг кенгайтирилган тарзда такрор хосил килиш ишлаб чикариш ҳажми , маҳсулот ва хизматлар сифатига яхши таьсир курсатади.

2022-йил Ўзбекистонда меҳнат ресурслари сони карийб 19,5миллион кишини ташкил этган. Меҳнат ресурслари сони энг кўп бўлган худудлар кесимида :



Статистика агентлигининг дастлабки маьлумотларига кўра, ҳудудлар кесимида меҳнат ресурслари сони буйича Самарканд вилояти етакчилик қилмокда – 2160,4 минг киши.

Ундан кейинги ўринларда мехнат ресурслари сони мос равишда 2095,5 минг киши ва 1916,8 минг кишини ташкил қилган Фаргона вилояти хамда Тошкент шахри жой олди.

Ушбу кўрсаткич қолган ҳудудлар кесимида қуйидагича кўринишга эга бўлди: Қашқадарё вилояти – 1 819,3 минг киши; Андижон вилояти – 1 777,9 минг киши; Тошкент вилояти – 1 616,3 минг киши; Наманган вилояти – 1 592,8 минг киши; Сурхондарё вилояти – 1 469 минг киши; Қорақалпоғистон Р. – 1 074,6 минг киши; Бухоро вилояти – 1 073,4 минг киши; Хоразм вилояти – 1 050,1 минг киши; Жиззах вилояти – 791,1 минг киши; Навоий вилояти – 570,2 минг киши; Сирдарё вилояти – 487,2 минг киши. Таҳлилларга кўра меҳнат ресурсларининг энг юкори улуши Самарканд ва Фаргона ; энг паст улуши эса Сирдарё ва Навоий вилоятларига туғри келмоқда [3] .

Ҳозирги вақтда корхоналарнинг кадрларни корхонада ўқитишни ташкил этиш учун харажатлари даражаси тўланадиган иш ҳаки миқдорининг ўртача 0,5-0,7% ни ташкил қилади.Шу билан бирга, амалиёт шуни курсатадики, корхонанинг касбий салоҳиятини оддий такрорлаш учун зарур бўлган минимал харажатлар камида 1,5-2% булиши керак. Муаммонинг моҳияти шундан иборатки, инсон капиталининг ўсиши технологик тараққиётнинг тезлашиши ва кейинчалик постиндустриал ривожланиш траекториясига ўтиш билан чамбарчас богликдир.

Бундай ҳолда, инсон капиталининг узлуксиз ўсишининг ўзига хос кумулиятив жараёни мавжуд. Бу жараёнда ишлаб чиқаришга тобора мураккаб техникаларни жорий этиш ва меҳнат унумдорлигини доимий равишда ошириш ҳаракатлантирувчи кучлар хисобланади.

Хулоса ва таклифлар

Ўзбекистон иктисодиётининг замонавий ривожланиши меҳнат ресурсларига инвестициялар капитални тақсимлашнинг бошка турларига

қараганда самалирок эканлигини англаб етди. Меҳнат ресурслари ташкилотнинг асосий активи сифатида кўриб чиқилиши керак.

Меҳнат ресурсларидан унумли фойдаланишни таьминлаш учун янги иш ўринларини яратишда корхоналарни иктисодий манфаатдорлигини ошириш, бюджет тўловлари ва ходимларнинг вақтинча ва қисман бандлиги учун ижтимоий суғурта бадалларини камайтириш , уларни ишга қабул килиш жараёнини енгиллаштириш, иш билан бандликни ноанаьнавий шаклларини ривожлантиришни кенг тадбиқ этиш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати :

1.Абдурахмонов К.Х. Мехнат бозори назариясига янгича ендашувлар // Мехнат иктисодиети (назария ва амалиет). Олий укув юртлари учун дарслик. – Т.: 2019. 18-23 б.

2. Абдурахмонов К.Х. Меҳнат иқтисодиёти: Назария ва амалиёт/ Дарслик.Қаландар Абдурахмонов. Қайта ишланган ва тўлдирилган 3-нашри. Т.: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “FAN” нашриёт давлат корхонаси.Т.: 2019.-161б.

3. stat/uz сайти маълумотлари.

BYUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY AKTIVLAR HISOBIGA OID MASALALAR

Sh.Sh.Odilbekov

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti

Annotatsiya: Byudjet ijrosi jarayonida davlat byudjeti mablag’lari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag’lari shakllanishi hamda sarflanishini uzluksiz hisobga olish, ularni hujjatlashtirish va axborotlarni tizimli shakllantirish uchun buxgalteriya hisobi tashkil etiladi. Byudjet tashkilotlarida moliyaviy aktivlar hisobining muhimligi , hisob-kitob operatsiyalarining yurititlishi kabi masalalar bu maqolada ko’rib chiqilgan.

Kalit so’zlar: Byudjet tashkilotlari, moliyaviy aktivlar, byudjet tizimi, asosiy mablag’lar, likvidlilik, nazorat.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach barcha sohada bo’lgani kabi byudjet tizimida ham islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, Davlat byudjeti ijrosining xalqaro talablar darajasida me’yoriy xuquqiy tizimi yuzaga keldi, byudjet tizimining g’azna ijrosi joriy qilindi. Bu esa o’z navbatida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat byudjetining g’azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarorida belgilanganidek “Davlat byudjetining g’azna ijrosini tadbiq etish hisobiga byudjet tizimini yanada isloh qilish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda byudjet mablag’larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, barcha darajalardagi byudjet daromadlari va xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish... ”ga xizmat qilmoqda. Buni byudjet mablag’larining asosiy iste’molchisi hisoblangan byudjet tashkilotlarining mablag’lari to’lig’icha g’aznachilikka qamrab olingani bilan izohlash mumkin.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib byudjet tashkilotlarini moliyalashtirishning byudjet mablag’lari bilan birga byudjetdan tashqari mablag’larni shakllantirish imkoniyati qonuniy jihatdan mustaxkamlab qo’yilgan hamda byudjet

tashkilotlarining nafaqat byudjet mablag’lari balki byudjetdan tashqari mablag’lari bo’yicha shaxsiy hisobvaraqlari g’aznachilik va uning xududiy bo’linmalarida yuritiladi.

Byudjet tashkilotlarining byudjet va byudjetdan tashqari manbalar hisobidan shakllangan pul mablag’lari tashkilotlarning likvidlilik jihatdan eng yuqori o’rinda turuvchi aktivi hisoblanib majburiyatlarni to’lash vositasi hisoblanganligi sababli ular to’g’risida batafsil ma’lumotga bo’lgan talabdan kelib chiqib ular hisobini yuritish zarurati tug’iladi. Ushbu jarayonda axborotga bo’lgan extiyoj qonunchilik bilan tartibga solingan pul mablag’lari va hisob-kitob operatsiyalari hisobini tashkil qilish orqali qondiriladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida “Buxgalteriya hisobi to’g’rsida”gi Qonunga ko’ra xar bir xo’jalik yurituvchi sub’ekt o’z faoliyati davomida amalga oshiriladigan muomalalarni hujjatlashtirish orqali ularning qonuniyligini ta’minlash maqsadida buxgalteriya hisobini tashil etishi lozim. Buxgalteriya hisobini tashkil etishdan maqsad foydalanuvchilarni o’z vaqtida to’liq hamda aniq moliyaviy va boshqa buxgalteriya axboroti bilan ta’minlashdir.

Byudjet ijrosi jarayonida davlat byudjeti mablag’lari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag’lari shakllanishi hamda sarflanishini uzluksiz hisobga olish, ularni hujjatlashtirish va axborotlarni tizimli shakllantirish uchun buxgalteriya hisobi tashkil etiladi. Byudjet tashkiloti - davlat funktsiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko’ra tashkil etilgan, davlat byudjeti mablag’lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilotidir. Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish shartlari va ularning byudjet hisobini yuritish tartibi byudjet to’g’risidagi qonun hujjatlari bilan belgilanadi .

Byudjet tashkilotlari moliyaviy aktivlariga hisobvaraqlardagi pul mablag’lari, kassadagi pul mablag’lari, pul hujjatlari, yo’ldagi pul jo’natmalari, moliyaviy qo’yilmalar . Byudjet tashkilotlari pul mablag’lari harakati moliya organlari tomonidan ochilgan shahsiy hisobvaraqlarda yuritiladi. Byudjet tashkilotlarida shahsiy hisobvaraqalarni ochish, yuritish, yopish tartibi “Byudjet tashkilotilarning shaxsiy hisobvaraqlarini O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

G’aznachiligida va uning hududiy bo’linmalarida yuritish qoidalari” ga asosan amalga oshiriladi. Byudjet tashkilotlarida pul mablag’lari hisobi byudjet (byudjet tomonidan muassasa xarajatlarini va boshqa tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilgan) va byudjetdan tashqari (ta’lim muassasalarida o’qitishning to’lov kontrakt shakli, rivojlantirish jamg’armasi, boshqa mahsus mablag’lar, byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi mablag’lari hisobidan byudjet tashkilotlari xodimlarining ijtimoiy to’lovlarini qoplash uchun kelib tushgan, chet el valyutasidagi) bo’yicha yuritiladi. Byudjet tashkilotlari Davlat byudjeti g’azna ijrosiga o’tishi munosabati bilan hizmat ko’rsatuvchi banklarda ochilgan byudjet, byudjetdan tashqari mablag’lari bo’yicha hisob schyotlari yopilib G’aznachilik va uning hududiy bo’limlaridagi ochilgan shahsiy hisobvaraqlarga o’tkazildi.

Byudjet tashkilotlarida naqd pulsiz hisob shakllarini qo’llagan xolda hisoblashuv muomalalari amalga oshiradi. Bunda asosan to’lov topshiriqnomasi shakli qo’llaniladi. To’lov topshiriqnomasida to’lovchi bo’lib, G’aznachilik va uning xududiy bo’limlari nomi ko’rsatiladi. Byudjet tashkilotlari nomi, shahsiy hisobvarag’i nomeri, STIR to’lov topshiriqnomasida alohida qatorda keltiriladi.

Byudjet tashkilotlarida naqd pul muomalalarini amalga oshirish uchun kassa hizmati tashkil etiladi.

Byudjet tashkilotlarida pul mablag’lari va hisob-kitob operatsiyalari hisobini tashkil etishdan maqsad - foydalanuvchilar (ichki, tashki)ni daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi jarayonida pul mablag’lari va hisob-kitob operatsiyalari bo’yicha buxgalteriya va moliyaviy axborotlari bilan ta’minlashdan iborat.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Sh.Sh.Odilbekov, “Moliyaviy aktivlar hisobi va uni takomilllashtirishga oid masalalar”., Xorazm Ma’mum Akademiyasi axborotnomasi–12/2-2022 UO’K 336.02

2. Muxamadaliyeva N.B.,Zuxurova N.A., G.A.Akramova “Buxgalteriya hisoblari tamoyillari” fanidan o’quv qo’llanma.T-2020 .

3. A.Rizaqulov,B.Xasanov .,“Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari”-T-2004

4. Mexmonov S., “Buxgalteriya hisobi”-T Fan vatexnologiya2012

5.Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисоби миллий стандартлари тўплами. – Т.: «NORMA», 2011.

КОРХОНАЛАРДА КОРПОРАТИВ БОШҚАРУВ ТИЗИМИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ

Султонов Иброхим Султон ўғли
Тошкент Давлат Иқтисодиет университети магистранти
Машрапов Шохбозбек Маҳамматжон ўғли
Тошкент Давлат Иқтисодиет университети магистранти

Аннотация: Ушбу мақолада корпоратив бошкарув тизимини ташкил этиш ва ривожлантиришнинг назарий ва услубий асослари ёритилган бўлиб, унда корпоратив бошкарув тизимининг моҳияти ва аҳамияти, корхонанинг бошқарув тамойиллари, корхоналарда корпоратив бошкарувнинг хусусиятлари ва моделлари буйича фикр ва мулоҳазалар келтирилган.

Калит сўзлар: корпоратив бошқарув, корпоратив бошқарувни такомиллаштириш, корпоратив бошқарув соҳаси, акциядорлар.

Корхонанинг муваффакиятли ривожланишини таьминлаш унинг эгаси ва рахбарларидан менежмент сохасида кенг билим ва кўникмаларга эга бўлишни талаб қилади. Сўнгги йилларда давлат тасарруфидан чиқариш жараёни ва хусусий капиталнинг бизнесга жалб этилишини кучайиши шароитида корпоратив бошқарувнинг долзарблиги жадал ўсиб бормоқда. Хусусан, Ўзбекистонда корпоратив бошқарув миллий кодексини ишлаб чиқиш борасида кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда.Бу вазифаларнинг амалга оширилиши иқтисодий ўсишни таьминлаш, корхоналарга инвестицияни киритиш, маҳсулотлар сифатини ошириш, экспортбоп маҳсулотлар ишлаб чикиш ва албатта, барқарор рақобат муҳитини яратиш имконини беради.

Корпоратив бошқарувни такомиллаштириш Ўзбекистонда корхоналар фаолиятини тиклаш, аксиядорлар манфаатларини ва хуқуқларини химоя қилиш, миллий корпорациялар шаклланиши учун керакли шароитларни яратиб бериш бугунги куннинг долзарб масалаларидан ҳисобланилади.

Жаҳонда корпоратив бошқарувга бўлган муносабат XX асрнинг 90-йилларига тўгри келади.Бу даврга келиб, корпоратив бошқарув тамойиллари жорий этилиб, халкаро глобал трансмиллий корпорациялар ташкил этилди, бу билан параллел равишда корпоратив бошқарув моделлари жорий килинди. Таькидлаш жоизки, корпоратив бошқарув тизимларининг ривожланиши сўнгги бир неча асрларда содир бўлди ва ўзгаришларнинг сабаби, йирик компанияларнинг банкротлиги ва тизимли инқирозлар туфайли эди. 1721-йилда содир булган Жанубий денгиз савдо компаниясининг қулаши Буюк Британия бизнес амалиёти ва қонунчилигини қайта кўриб чикишни такозо этди [1].

Корпоратив бошқарувни ўрганишга қизиқишнинг ортиши 1990-йилларнинг бошларида бир қатор йирик компанияларнинг банкрот бўлиши муносабати билан пайдо булди.Банкротлик хамма жойда содир бўлди: Итлалиядаги Пармалат можароси, Американинг Энрон корпорациясининг банкротлиги , Францияниng Вивенди Универсалидаги можаролар ва фирибгарликни олдини олиш учун йечим қидирилади бошланди.

Америкалик иктисодчи олим Р.Монкс ва Н.Миноу корпоратив бошқарувни – корпорация ривожланиш йуналиши ва фаолият кўрсаткичларини белгилаш жараёнида турли иштирокчилар (бош ижрочи директор, рахбарият, акциядорлар, ходимлар) уртасидаги муносабат сифатида талкил килган.

Олимлар К.Жон ва Л.Сенбет уз тадқиқотларида корпоратив бошқарув шундай механизмлардан ташкил топадики, улар ёрдамида корпорация фаолиятини иштирокчилари корпоратив инсайдерлар ва менежерлар устидан уларнинг манфаатлари бузилишига қарши назоратни олиб боришади [2].

Ўзбекистон тадкикотчи – олимлари хам корпоратив бошқарув тушунчасини таьрифлашда четда қолишмаган. Улар ўтказилган тадқиқотлари доирасида корпоратив бошқарув тушунчасига ўз таьрифлари ва изохларини бериб ўтишган. Улар орасида биринчилардан булиб Т.Мадиеров – Корпоратив бошқарув ишлаб чикаришни ривожлантириш фаолияти,мавжуд моддий, молиявий ва мехнат ресурсларидан фойдаланишни капитал маблағларнинг янги

техника ва технологияларни кўплаб жалб этилиши билан уйгунликда олиб борилади деб талқин қилган.

Иктисодчи олимлар Ш.Зайнутдинов ва Д.Рахимова – Корпоратив бошқарув – манфаатдор шахсларнинг даромад олиш максадида биргаликдаги харакатларидир деган фикрга келишган. Д.Х.Суюновнинг таърифига кўра : - Корпоратив бошқарув – корпоратив мулк шаклига кирувчи, субьектларнинг хукукларини химоя қилувчи амалдаги меьёрлар хамда бошкарувнинг маьлум бир тамойиллари асосида корхона мақсадига эришиш учун амалга ошириладиган харакатлар мажмуидир [3] .

Корпоратив бошқарув нима? деган саволга биз, бу муаммо анча мураккаб, нисбатан янги ва ривожланишда давом этмоқда деган тўхтамга келамиз.



1-расм. Корпоратив бошқарув сохаси

Манба: Муаллиф ишланмаси.

Демак, корпоратив бошқарув тизими- бу компания ўз инвесторларининг манфаатларини ифодаловчи ва ҳимоя қиладиган ташкилий модел. Бу тизим директорлар кенгашидан тортиб ижрочиларнинг иш ҳақи схемалари ва банкротлик тўғрисидаги деклорация механизмларини ўз ичига олади . Шу ўринда, корпоратив бошқарув акциядорлар манфаатларини ва уларнинг корпорация ривожланишидаги ролини хисобга олиши, бу жамоавий хулқ-атворнинг аньаналари ва тамойилларини хисобга олган ҳолда мулкчилик,

корпоратив коммуникациялар, корпоратив ривожланиш стратегияси ва маданиятига асосланиши керак. Корпоратив бошқарув бизнесни ташкилий ва ҳуқуқий бошкариш муаммоларини хал килади, ташкилий фаолиятини оптималлаштиради.

Ўзбекистонда ишлаб чиқариш соҳасида корпоратив бошқарувни такомиллаштириш учун қулай муҳитни шакллантириш, корхоналарни ривожлантириш йуналишларини белгиловчи ички ва ташқи тартибга солиш органлари ёрдамида амалга оширилади. Биз биламизки, ички тартибга солиш органларига акциядорлик жамиятининг ўзини ўзи бошқариш тизимини ташкил этувчи ва уларга аьзо бўлган ташкилотларнинг ижобий имиджини яратиш ва ракобатбардошлигини оширишни максад қилган уюшмалар ва бошка нотижорат ташкилотлар киради. Ташки тартибга солиш тартибга солиш ва назорат қилувчи органлар томонидан тегишли қонунчилик базасини шакллантириш орқали амалга оширилади.

Корхоналарда корпоратив бошқарув тизими шундай тузилиши керакки , у стратегик хатолар юзага келишини олдини олиши, агар улар юзага келса, самарали тузатиши керак.Натижада, стратегик қарорларни қабул қилиш жараёни сезиларли равишда ўзгариши керак.

Стратегик қарорлар узига хос хусусиятга эга бўлиши керак - уларни ишлаб чиқиш жараёни натижадан кам эмас. Бундан ташкари , стратегик қарорларни шакллантириш кўпинча жуда оддий бўлиб, стратегияни ишлаб чиқиш жараёнида қилинган фаразларнинг катта тўпламини яширади. Агар назорат органи стратегияни ишлаб чиқишда иштирок этмаган бўлса, бу стратегик қарорларнинг бажарилишини назорат қилишда нокулайликларни келтириб чиқаради. Бундан биз шу хулосага келамизки, стратегик йўналтирилган корпоратив бошкарув тизимида бошкарув билан биргаликда стратегик карорларни ишлаб чиқишда йирик аксиядорлар, институционал инвесторлар ва директорлар кенгаши аьзолари иштирок этишлари керак.



2-расм. “AMIRAN TEX PRODUCTION” маъсулияти чекланган жамиятнинг бошқарув структураси

Манба: Муаллиф ишланмаси

Корхона рахбари бутун жамоага осойишта шароит яратиши керак, чунки бутун бошқарув тизими ва натижада бутун ишлаб чиқариш шу нарсага боғликдир. Биз биламизки, корхона фаолияти корхона раҳбари томонидан ва Низомга мувофик бошкарилади.Рахбар амалдаги конунларга амал килган холда ишчи ва хизматчиларга маош тўлаш, уларни моддий рағбатлантириш ёки жарима солиш тўғрисида қарор қилади, буйрук ва фармойишлар беради. Раҳбар қарор қилган буйрук ва фармойишлар корхона ишчи ва ходимлари бажариши учун мажбурийдир. Хар бир ишлаб чиқариш корхона рахбари корпоратив бошқарувни тадбиқ этар экан, Ўзбекистон Республикасида асосий деб эътироф этилган ва турли мамлакатларда корпоратив хулк- атворнинг энг яхши

стандартларини ўзида мужассам этган 4та тамойилдан фойдаланишга ҳаракат қилади.

1.Бошқарув қоидаларининг адолатлилиги. Ушбу тамойил компанияга барча акциядорларнинг, шу жумладан миноритарларнинг хуқуқларини таьминлаш билан бирга ҳалол рақобат шароитида муваффаккиятли фаолият юритиш имконини беради.

2.Шаффофлик. Бу тамойил компания фаолиятига таалукли барча мухим масалалар, шу жумладан мулкий тузилма, молиявий ҳолат, фаолият натижалари буйича ишончли маьлумотларни ўз вактида ва тўғри ошкор қилишни таьминлайди.

3.Жавобгарлик. Ушбу тамойил компания фаолияти билан боғлик қарорларни қабул қилувчи менежерлар акциядорлар, инвесторлар, ҳодимлар , бошка манфаатдор шахслар олдидаги жавобгарликни ўз зиммасига олади.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, корпоратив бошкарув тизимини ташкил этиш ва ривожлантиришнинг назарий ва услубий асослари, корпоратив бошқарув тизимининг моҳияти ва аҳамияти, корхонанинг бошқарув тамойиллари, корхоналарда корпоратив бошқарувнинг хусусиятлари ва моделлари бўйича илмий-назарий ёндашувларни ўрганиб чиқиш ва умумлаштириш натижасида корпоратив бошқарув директорлар кенгаши, кенгаш ва жамият акциядорлари ўртасидаги муносабатларнинг мажмуи , муайян тизими эканлиги; корпоратив бошқарувга бўлган бир хил ёндашув мавжуд эмаслиги ва улар ривожланиб бораётганлигини кўрсатади.

Фойдаланилган адабиетлар руйхати :

1. Ханкелдиева Г.Ш. Корхоналар корпоратив бошкарувининг бахолаш усулларини тахлил килиш.// «Иктисодиет ва инновацион технологиялар» илмий электрон журнали. №5, 2017й. сентябрь-октябрь.

2.Е.А. Дорожинская. Корпоративное право: курс лекций / Е.А.Дорожинская; Новосибирск: Изд-во СибАГ,2016-264б.

3. Ш.Зайнутдинов ва Д.Рахимова. Корпоратив бошкарув асослари. -Т.: Академия 2007,-48б.

BYUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY AKTIVLAR VA KASSA MUOMALALARI NAZORATI

Sh.Sh.Odilbekov

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti

Annotatsiya: Byudjet tashkilotlarida moliyaviy aktivlar hisobi , kassa muomalalari nazorati muhim ahamiyat kasb etadi.Bu maqolada kassa nazorati tushunchasi – kassadagi naqd pul va unga tenglashtirilgan mablag’lar qoldig’ini inventarizatsiyadan o’tkazish va hisob ma’lumotlari bilan solishtirish usullari yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: moliyaviy aktivlar hisobi , pul mablag’lari, kassa muomalalari, me’yoriy-xuquqiy xujjatlar, inventarizatsiya, dalolatnoma, moddiy javobgarlik.

Byudjet tashkilotlari daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosini amalga oshirishda moliyaviy aktivlar, ya’ni pul mablag’lari hisobi alohida tashkil etiladi. Moliyaviy aktivlarga hisobvaraqdagi pul mablag’lari, kassadagi pul mablag’lari, pul xujjatlari, yo’ldagi pul jo’natmalari va moliyaviy qo’yilmalar kiradi. Byudjet tashkilotlarida pul mablag’laridan maqsadli va byudjet intizomiga amalga qilgan holda foydalanishni nazorat qilish alohida axamiyat kasb etadi.

Byudjet tashkilotlarida pul mablag’lari hisobi nazorati quyidagi vazifalardan iborat:

- ✓ byudjet tashkilotlari pul mablag’lari hisobini amaldagi me’yoriy-xuquqiy xujjatlar talablari bo’yicha tashkil etilishini o’rganish;
- ✓ pul mablag’lari hisobini buxgalteriya boshlang’ich va yig’ma xujjatlari hisob registrlarida o’z vaqtida rasmiylashtirilishini tekshirish;
- ✓ byudjet va byudjetdan tashqari pul mablag’larini daromadlar va xarajatlar smetalari bo’yicha maqsadli sarflanishini tekshirish;
- ✓ buxgalteriya schyotlarida pul mablag’lari mavjudligi hamda harkatini aniq, to’liq va o’z vaqtida aks ettirlishini tekshirish;

✓ tashkilot kassasida, shaxsiy hisobvaraqlardagi pul mablag’lari, pul xujjatlari, moliyaviy qo’yilmalar butligini nazorat qilish;

✓ chet el valyutasidagi pul mablag’larini O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan xorijiy valyuta kurslari bo’yicha kurs tafovutlarini to’g’ri aniqlanganligi va o’z vaqtida aks ettirilganligini tekshirish;

✓ byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag’lari mavjudligi holati va harakatiga oid buxgalteriya yozuvlarini tekshirish va boshqalar.

Byudjet tashkilotlarida pul mablag’lari nazoratida kassa muomalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunda kassa nazorati tushunchasi – kassadagi naqd pul va unga tenglashtirilgan mablag’lar qoldig’ini inventarizatsiyadan o’tkazish va hisob ma’lumotlari bilan solishtirish tushiniladi.

Kassa muomalalarining nazorati – bunda, avvalgi o’tkazilgan tashqi yoki mustaqil kassa inventarizatsiyasidan boshlab hozirgi o’tkazilgan mustaqil kassa inventarizatsiyasigacha bo’lgan davrdagi barcha kassa muomalalarini tekshirish tushuniladi.

Kassa inventarizatsiya qilinayotganda kassada xaqiqatda bo’lgan pul mablag’lari va boshqa boyliklar tekshiriladi. Xaqiqatda bor bo’lgan pul mablag’lari hisoblanganda kassada pul belgilari, pochta markalari va davlat boji markalari hisobga olinadi.

Inventarizatsiya dalolatnomasida mavjud pul mablag’lari boyliklarning qoldig’i naturada va hisob ma’lumotlari bo’yicha inventarizatsiya kuniga ko’rsatiladi hamda inventarizatsiya natijasi aniqlanadi. Shunga alohida etibor qaratish kerakki, kassadagi valyuta mablag’lari inventarizatsiyadan o’tkazilganda bloklangan pul kupyuralari ochib tekshirish qurilmasi yordamida sanoqdan o’tkazilishi zarur.

Kassa muomilalarining nazoratida quyidagilarga alohida e’tibor qaratish lozim:

✓ to’lov qaydnomalarida pul oluvchining imzosi haqiqiy ekanligi.

✓ kirim va chiqim kassa orderlarini qayd etish daftarida - sana, tartib raqami va summa kirim va chiqim kassa orderlari va kassa daftaridagi shunga o’xshash ko’rsatkichlarga muvofiqligi;

✓ chiqim kassa orderlarida - olingan summalar hisobi to’g’riligi (yozma ravishda) va pul oluvchining imzosi, shuningdek, korxona xodimlar jadvalida bo’lmagan oluvchilar pasport ko’rsatkichlari yozib qo’yilganligi;

✓ barcha xujjatlarda - pul mablag’lari uchun mas’ul rahbarlarning imzolari mavjudligi. Barcha chiqim kassa hujjatlariga rahbar shaxsan imzo chekkanligiga e’tiborni qaratish lozim.

Bankdan cheklar bilan olingan naqd pullar to’liq kirim qilinganligi tekshirilganda chek daftarchasining barcha ko’rsatkichlari (koreshogi) mavjud ekanligini tekshirish lozim.Byudjet tashkilotida bir nechta kassir bo’lsa, har bir kassir uchun yuritiladigan kirim qilingan va berilgan pullar hisobi bo’yicha daftar (KO-5 shakli) to’g’ri yuritilayotganini tekshirish kerak.

O’z vaqtida olinmagan ish haqi va boshqa hisoblangan pullar bo’yicha deponentlangan summalar to’lanishiga alohida e’tibor berish kerak. Tekshiruvchi kassa muomalalariga oid ichki nazorat holati to’g’risida iloji boricha to’liq ma’lumot olishi, tashkilotda kassa intizomiga qanday rioya qilinayotganligini aniqlashi zarur.

Byudjet tashkilotlarida kassa mumomalalarini tekshirish yoppasiga amalga oshiriladi, avvalam bor kassa hisoboti bo’yicha naqd pul koldiqlari bosh kitob va balans ko’rsatkichlariga muvofiqligini tekshirib olinadi. Ko’plab bo’limlarga ega bo’lgan tashkilotlarda ish xaqi, stipendiyalar, pensiyalar, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari va boshqa to’lovlarni to’lashga kassirdan boshqa shaxslarga tashkilot raxbarining yozma buyrug’i bilan ruxsat berilishi mumkinligini inobatga olib mazkur shaxslar bilan moddiy javobgarlik to’g’risida shartnoma tuzilganligini tekshirish kerak. Bundan tashqari, to’lovlarni berish uchun tarqatuvchilarga berilgan pullarni hisobga olish daftarlarini yuritilishi nazoratga olinishi zarur.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Sh.Sh.Odilbekov, “Moliyaviy aktivlar hisobi va uni takomilllashtirishga oid masalalar”., Xorazm Ma’mum Akademiyasi axborotnomasi–12/2-2022
UO’K 336.02

2.Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисоби миллий стандартлари тўплами. – Т.: «Norma», 2011.

3.To`ychiyev A.J., Ismoilxo`jayeva X.G`. “Byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari jamg`armalar mablag`lari hisobi va nazorati samaradorligini oshirish”. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali № 4-5, avgust-oktyabr, 2018 yil.

4.OstonoqulovA.A. “Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg`armalarini shakllantirish va hisobga olish hususiyatlari” “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali № 6, dekabr, 2018 yil.

ИНГИЧКА ТОЛАЛИ ҒЎЗАНИНГ ЯНГИ НАВЛАРИГА ЭКСТРЕМАЛ ИҚЛИМ ТАЪСИРИНИ КАМАЙТИРИШГА ДОИР ТАДҚИҚОТЛАР

Худойшукров Шодмон Жайловович

Денов тадбиркорлик ва педогогика институти магистранти

Аннотация: Республикамизда глобал иқлим ўзгаришлари таъсирида қишнинг илиқ келиши, март, апрел ва май ойларида хаво харорати энг паст ва энг баланд амплитудасининг катта кўламда кескин ўзгаришлари, ёз ойларида хавонинг хаддан зиёд қизиб, ҳароратнинг кутарилиб кетиши ва бундай об-ҳаво узлуксиз узоқ вақт (2018 йи 22 кун, 2019 й 35 кун, 2020 й 26 кун, 2021 й кун, 2022 й кун) давом этиши ҳаво нисбий намлигининг ниҳоятда паст бўлишига, нам тақчиллигининг 90 мб гача ошиб кетишига олиб келмоқда.

Шунингдек, дарёларда сув оқимларининг камайиб бораётганлиги, ҳудудларда зах сувлар сатхининг пасайиб бораётганлиги илгари шаклланган гидрологик тартибларга ўзгартириш киритмоқда. Сувга бўлган талаб эса аксинча барча сохаларда кундан кунга ошиб бораётганлигини эътиборга олиб ИТПИТИ да янги ингичка толали ғўза навларини сув танқислиги шароитида парваришлаш ва сифатли тола олиш агротехникасини ишлаб чиқишга доир синов ва дала тажрибалари олиб борилмоқда.

Таянч сўзлар: Суғориш технологиялари, Ингичка толали ғўза навлари, ҳосилдорлик.

Жанубий минтақа тақир, тақир-ўтлоқ, тақирсимон чўл тупроқлари шароитида қўлланиб келинаётган ингичка толали ғўза агротехникасида захира тўплаш мақсадида феврал-март ойида 2.0-3.0 минг $м^3$/га меёрида суғорилиб, тупроқнинг юза 10-12 см қатламида ер етилганда (намлик ҳажмга нисбатан 20-21%, ЧДНС га нисбатан 70-80%) чигит экилганда (1.04-10.04) ҳайдалма ва қуйи қатламлар намлиги жуда юқори тупроқ ҳажмига нисбатан 23-25 % да бўлиши, ҳар сафар трактор юрганда деформацияланиб зичлашиб ва тепкиланиб,

берчлашиб, тупроқ зичлиги 1.43-1.52 г/см^3 ортиши, шунингдек чигит экиш апарати қолдирган из тагида 2.5 см қалинликда алохида зичлашган қатлам пайдо бўлиши аниқланди.

Узоқ йиллар ерга ишлов бериш, ҳосил етиштириш асносида хайдов қатламда фақат гумус эмас, шунинг билан бирга бизга маълум бўлган барча элементлар ҳам ўзлаштирилиб, унинг эркин ўзлаштириладиган ҳамда умумий шакли ҳам камайиб бориши содир бўлиши аниқланган. Қўлланилган органик, минерал ўғитлар ва кимёвий моддаларнинг тупроқ фаунаси томонидан қайта ишланган мураккаб бирикмалари хайдов қатлам тагига силжиши, сингиши ва тўпланиши тупроқ тахлилларида аниқланди. Шу қатламни юмшатиш, ер юзасига чиқариш билан хайдов қатламни сезиларни фоизга бойитиш ва қувватини ошириш мумкинлиги аниқланди.

Нихол илдизлари кенг ёйилиб ва чуқурлашиб олиши учун тупроқни юмшоқ холда сақлаш мақсадида шудгорни суғориш, ерни экишга тайёрлаш ва экиш технологияларига доир тажрибалар олиб борилди. Институт марказий тажриба хўжалигида 15-ноябр куни “Арион” тракторида 4 корпусли плуг билан 45 см чуқурликда ярим ағдармасдан тўлиқ ағдариб шудгорланди.

Ғўзада генератив органлар ривожланиш фазалари бошланиши арафасидан озиқа элементларига бўлган кунлик эҳтиёжнинг ортиши, озиқа элементларига талаби нисбати ўзгариши, яъни антогенезда биохимик ва физиологик жараёнлар, алмашиш- қайтарилиш реакциялари натижасида ҳосил қилинадиган ассимлянтлар таркибидаги ҳаётий зарур мураккаб бирикмалар таркиби ўзгариши аниқланди. (буни ривожланишда сифат ўзгариши деб айтиш ҳам мумкин). Гуллаш, авж гуллаш, кўсаклаш, кўсакларнинг етилиш фазаларида сезиларли сифат ўзгаришлари содир бўлиб, бу даврда ҳосил қилинган мураккаб моддалар таркибида ҳам ўзгаришлар содир бўлиб, тупроқдан сўриб олинадиган элементлар нисбати ҳам ўзгариши аниқланди.

Ингичка толали ғўза навларидан қуруқ ва ўта иссиқ иқлим сув танқислиги шароитида шудгорлаш, экиш, суғориш, озиқлантириш ва бошқа агротехник тадбирлар мақбул муддат ва меъёрларда қўлланилганда таклиф этилаётган ғўза

агротехникасида, илдизи чуқурлашиб, қуйи қатламлар намлиги ва озиқа элементлардан самарали фойдаланиши, ҳамда вегетатив ва генератив органларнинг мақбул миқдорда бошқарилиши эвазига юқори ҳосил, сифатли тола ва чигит олиш мумкин эканлиги аниқланди.

Ғўза навларидан 2020 йилда 32,1-39,8 ц/га, 2021 йилда 34,2-41,8 ц/га, 2022 йилда 29,6-37,7 ц/га ҳосил териб олинди. Олинган ҳосилнинг тола ва чигит сифат белгилари аниқланди. Унга кўра андоза Сурхон-14 нави тола узунлиги йиллар ва қайтариқлар ўртача миқдори 35,1 мм ни ташкил этди. Тола узунлиги белгиси СТ-1651 навида (39,9 мм), СП-1607 навида (37,8 мм), Сурхон-18 навида (37,2 мм), Сурхон-14, Сурхон-16 навида (36,9-36,3 мм) ни бошқа навларда 35,0-35,7 мм ни ташкил этиши, бир дона кўсак вазни Сурхон-106, СП-1607, Термиз-202, СТ-1651 ва Сурхон-16 навларида юқори (3,0-3,7 гр), бошқа навларда 2,8 гр ни ташкил этиши аниқланди. Чигит вазни (1000 дона чигит) СП-1607 нави (118 гр), Термиз-208 нави (117,4гр), юқори бўлиб, бошқа навларда 116,0-115,8 гр ни Сурхон-103 навида 115,4 гр ни ташкил этиши аниқланди.

Хулосалар ва тавсиялар:

Тадқиқотларда фойдаланилган комплекс хўжалик белгилари ва ҳосилдорлиги бўйича ва жанубий минтақа экстремал шароитига бардошли СП-1607 навини селекция-генетик изланишларда бошланғич манбаа сифатида фойдаланиш тавсия этилади. Ингичка толали янги ғўза навларидан юқори ҳосил ва сифатли тола олишни ўзига хос агротехникасини такомиллаштиришга доир ўрганилган навлар устида илмий-тадқиқот изланишларини давом эттириш, фан ютуқлари ва инновация технологияларидан янада самарали фойдаланишни ўзлаштириш манфаатдор кластерлар, фермер хўжаликлари ва қишлоқ хўжалиги корхоналари билан хамкорликда пахта ҳосилдорлигини оширишнинг энергия ва манбаа тежовчи технологияларини такомиллаштириб жадал жорий этиш тавсия этилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1) С.А.Рахмонқулов, А.Б.Данабаев, Х.Х.Жалолов, Х.Дадахўжаев- “табиий гармселга бардошли ғўза навларини танлаш бўйича услубий қўлланма” Тошкент-2015 й

2) А.М.Шапиро, Э.М.Оскалина, О.К.Усмонова, редактор М.Г.Хорст- “Использование климатических данных для эффективного планирования и управления орошением, перевод русской версии” Тошкент 1997 ст.222

3) О.Т.Алимардонов, Б.Ч.Жўраев, Н.Н.Очилдиев, А.Б.Данабаев- “Сурхондарё вилоятида ғўзадан юқори ва сифатли ҳосил етиштириш агротехнологиялари” Термиз-2022 й 163-б

4) С.А.Рахмонқулов, А.Б.Данабаев, Х.Жалолов, Х.Дадахўжаев- Гармселни ғўзанинг қимматли хўжалик белгиларига салбий таъсири ва уни бартараф этиш чоралари. “Ўзбекистон пахтачилигини ривожлантириш истиқболлари” номли Республика илмий тўплами, Тошкент,2014, Б-213.

5) А.Б.Данабаев, Х.Д.Чариева, Ш.Абдуолимов, Х.Жалолов, С.Болтаев- Термиз-202 ғўза навининг морфо-биологик ва қимматли хўжалик белгилари ҳамда парваришлаш агротехникасининг ўзига хос жиҳатлари. “Ўзбекистон пахтачилигини ривожлантириш истиқболлари” номли Республика илмий тўплами, Тошкент, 2014Б-157

АМИР ШОҲМУРОД ДАВРИДА БУХОРО АМИРЛИГИДА ИЛМ-ФАННИНГ РИВОЖИ

Муҳайё Умарова

Камолиддин Беҳзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институти

“Ижтимоий фанлар, касбий таълим ва педагогика” кафедраси ўқитувчиси,

ЎзР ФА Тарих институти изланувчиси

Аннотация: Мақола Бухоро Амири Шоҳмуроднинг таълим соҳасидаги ислоҳотлари, Бухоро амирлигида мадраса ва мактабларнинг таълим дастури, мутафаккирлар асарларида таълим тизимининг ёритилиши, таълим соҳасида камчилик ва ютуқларга бағишланади.

Калит сўзлар: Амир Шоҳмурод, Аҳмад Дониш, Бухоро тарихнавислиги, шариат меъёрлари, таълим дастури, дунёвий билимлар, мактаб, мадраса.

Бухоро амирлигининг маънавий, ҳамда илмий муҳитида мактаб ва мадрасалар алоҳида ўрин тутган. Бухоро ҳукмдори Амир Шоҳмурод даври ҳам бундан мустасно эмас. Шоҳмурод ибн Дониёлбий отаси оталиқ вафот этгач, унинг васияти ва сарой аъёнларининг ҳоҳиш иродаси билан 1785 йил 10-июнда Бухоро давлати хукмдори бўлади[13] ва ўзининг ҳукмронлиги даврида илм-фан, дин ва таълим соҳасига алоҳида эътибор қаратган. Илм олишга эътиборни кучайтирган ва диний билимларни ривожлантирган. Мирзо Салимбекнинг “Кашкули Салимий” асарида ва Абу Тохирхўжанинг “Самария” асарида таъкидланишича, Амир Шоҳмурод ёшлигида Мир Араб мадрасасида таҳсил олган. Тасаввуф илмини чуқур ўзлаштириб сўфиёна турмуш тарзида ҳаёт кечирган. Бевосита илмнинг мазмунин - моҳиятини тушуниб етганлиги учун ҳам таълим соҳасида ислоҳотлар ўтказган ва мадраса битирувчиларининг ва мансабдор шахсларнинг билимини шахсан ўз назоратига олади.

[13] Трактат Аҳмада Дониша “История мангитской династии”. Издательство “Дониш”. Душанбе. 1967. - Б. 29.

Амир Шоҳмурод томонидан вақф мулкларининг тикланиши, диний таълим тизимига катта имкониятлар эшигини очган. Шунинг учун ҳам жойларда вақф мулклари асосидаги мадраса ва мактабхоналар кўпайган. Талабаларга нафақа тайинланиши мадрасаларда илм истовчиларнинг янада кўпайишига сабаб бўлган.

Бухоро амирлигининг барча шаҳар, қишлоқ ва овулларида мактабхоналар мавжуд бўлган. Мактаблар кўпинча бир синф хонасида иборат бўлганлиги учун ҳам уларни мактабхона деб аташган. Ўғил болалар мактабхоналарининг аксарият масжидлар, мадрасалар, қорихоналар қошида ёки хусусий мактабдорлар хонадонларида, қиз болалар мактаблари отин аёллар уйларида ёки бадавлат кишиларнинг мактаб ёшидаги қизлари учун уларнинг уйларида ташкил этилган.

Амирликдаги анъанавий таълим тизиминг юқори босқичи бўлган мадрасалар тарихи IX – X асрларга бўриб тақалади. Мадрасалар олий таълим вазифасини бажариб, мамлакатнинг бошқарув тизими, ҳуқуқ-тартибот ва таълим тизими учун кадрлар тайёрлашда муҳим роль ўйнаган.

Бухоро мадрасаларида давлат бошқаруви, иш ва ҳужжат юритиш учун ҳам малакали кадрларни тайёрлашда муҳим ўрин эгаллагани маълум. Бундан ташқари саводли ва мадрасада таълим олганлар амирликнинг илмий ва маданий ҳаётида ҳам катта ҳисса қўшганлар. Мадрасани битирганлар амирликнинг юқори диний уламолар табақаси сафига киришган. Мадрасаларда талабалар Қуръон, тафсир, фиқҳ, шариат асослар (усул), диний-ахлоқий адабиётларни, тарих, фалакиёт, мантиқ, фалсафа, ҳандаса ва бошқа фанларни ўрганишган. Лекин бу даврда мадрасаларда диний-ахлоқий таълим беришга асосий эътибор қаратилиб, дунёвий таълим бериш бир қадар орқада қолган эди.

Мадрасалардаги битирув имтиҳонларига (хатмонага) шахсан амир Шоҳмуроднинг ўзи ташриф буюриб, имтиҳон жараёнига эътибор билан қараганлари манбаларда зикр қилинган[14].

[14] [14]Трактат Аҳмада Дониша “История мангитской династии”. Издательство “Дониш”. Душанбе. 1967. - Б. 29-30.

Бухоро мадрасаларида ўқитилган айрим фан ва китоблар хусусий, шу таълим даргоҳигагина хос бўлмай, мусулмон дунёсидаги бошқа мадрасаларда ҳам ўргатилган. Аммо, бунда ҳар бир мадраса ва мударрис маълум маънода мустақил йўл тутган, ўз билим ва тажрибасига таяниб иш кўрган. Иккинчидан мадраса дастуридан жой олган китоблар (дарслик, қўлланма)га шарҳ ёзиш ҳам анъана тусини олган. Муайян билим ва мударрислик тажрибасига эга олимларгина шарҳ ёзиш учун ўз иқтидорини синовдан ўтказган.

Шу билан бирга, амирликдаги мадрасаларни тугатиб бир қатор илмларни эгаллаган машҳур кишиларнинг яшаб ўтганлиги мадраса таълимининг ютуқларини ҳам кўрсатиб турибди. Ўша даврда амир Шоҳмуроднинг ўзи ҳам “Фатвои аҳли Бухоро”[15] асарини ёзганлиги алоҳида эътиборга моликдир. Бу асар Бухоро амирлиги қозилар учун дастури амал бўлиб хизмат қилган. Ҳар бир қози китобни ёддан билган ва қозилик қарорларини қабул қилинишида унумли фойдаланилган.

Бухоро амирлигининг маънавий, ҳамда илмий муҳитида мактаб ва мадрасалар алоҳида ўрин тутган. Мадрасаларда талабалар Қуръон, тафсир, фиқҳ, шариат асослари, диний-ахлоқий адабиётлар, тарих, фалакиёт, мантиқ, фалсафа, ҳандаса ва бошқа фанларни ўрганишган. Лекин бу даврда мадрасаларда диний-ахлоқий таълим (илми адён) беришга асосий эътибор қаратилиб, дунёвий таълим (илми абдан) бериш бир қадар орқада қолган эди. Бухоро амирлигида Шоҳмурод ибн Дониёлбий даврида амакиси Муҳаммад Яқуб “Гульшан ул мулук[16]”, ўғли Ҳусайн Мирий “Маҳазин ат-тақво”[17], Мирза Сидиқ Мунши “Тарихи Манзум”[18], Ҳумулий “Тарихи Ҳумулий” асарлари ўз даври ва бугунги кун учун муҳим тарихий, диний асарлар ҳисобланади.

Бухоро амирлиги Амир Шоҳмурод даврида таълим тизими ўрганиш натижасида XVIII аср охирида Мовароуннаҳр тарихида ўта муҳим, эсда қоларли сиёсий воқеаларга бой бўлганлиги ва XVIII аср иккинчи ярми- XIX аср

[15] Шоҳмурод ибн Дониёлбий Фатвои аҳли Бухоро. Қўлёзма. Ўз ФА ШИ, инв.№ 5804
[16] Мухаммад Яъкуб. Гулшан ул-мулук. ШКМ. №1507-3.
[17] Мири (Мир Хусайн бин Шах Мурад) Махазин ат – таква. Абу Райхон Беруни номидаги Ўзбекистон Шарқшунослик институти. №51.
[18] Мирзо Содиқ Мунши Тарихи манзум. Инв№2731/III.

бошларида Бухоро амирлиги сарҳадларида илм-маданият ва шариат фанлари тараққий этганлигини кузатамиз. Амир Шоҳмурод даврида тафсир, ҳадис, фиқҳ, калом, усул, сарфу наҳв илмларидан иборат бўлган шариат илмлари Бухорода ривожланганлигини кузатамиз. Мактаб ва мадрасалар Бухоро амирлиги илмий ва маданий муҳитида жуда муҳим ўрин эгаллаган.

Амир Шоҳмурод Бухоро шаҳрида ва амирликнинг турли вилоятларига бориб, улардаги масжид ва мадарасаларда шариат ҳуқуқи нормалари ва уларни тадбиқ этишга оид масалалар юзасидан машғулотлар олиб борди. Амир Шоҳмурод нафақат таълим жараёнида, балки бошқа фуқароларнинг ҳам ислом ҳуқуқи нормаларини билишликка даъват этиш билан бирга, уларга кенг имтиёз ва имкониятлар яратиб берди.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати:

1. Айний С. Асарлар. 1том. Тошкент: Бадиий адабиёт, 1963. Б.352.
2. Абдурауф Фитрат. Баёноти сайёҳи ҳинди. Садои Шарқ. 1988. №6. 23.б.
3. Трактат Аҳмада Дониша “История мангитской династии”. Издательство “Дониш”. Душанбе. 1967. С.29.
4. Ёвкочиев Ш.А. Традиции религиозного образования в Узбекистане. Исламские ценности Центральной Азии: толерантность и гуманизм. Историко-философские и культурные аспекты./ Материлаы Международной научной конференции. Т., 2008. – С.140-145.
5. Наливкин В. Что даёт средне-азиатская мусульманская школа в образовательном и вопитательном отношениях // Турк. Лит. Сборник в пользу прокажены.-СПБ, 1900.-С. 323.
6. Маев Н. Туземная школы // Туркестанские ведомости.1884,30 октябрь.
7. Муҳаммаджонова Л. XX асрнинг бошларида Бухорода ижтимоий - сиёсий вазият ва демократик ҳаракатлар ривожланиши (1908-1920). Тарих фан. ном. дисс.– Тошкент, 2000.

8. Муҳаммад Саййид Балжувани. Тарихи Нофеи. Таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари Ш.Воҳидов ва З.Чориевлар. Тошкент: Академия, 2000.с.112-114.

9. Шоҳмурод ибн Дониёлбий Фатвои аҳли Бухоро. Қўлёзма. Ўз ФА ШИ, инв.№ 5804

10. Мири (Мир Хусайн бин Шах Мурад) Махазин ат – таква. Абу Райхон Беруни номидаги Ўзбекистон Шарқшунослик институти. №51.

11. Мухаммад Яъкуб. Гулшан ул-мулук. ШКМ. №1507-3.

12. Мирзо Содиқ Мунши Тарихи манзум. Инв№2731/III.

13. Шарифжон Махдум (Садри Зиё). Тарих. ЎзР ФАШИ, қўзлёзма, инв. №2241, 85 а в.

14. Холиқова Р. Бухоро ҳукмдорлари. Автобиографик очерк (XIX-XX аср бошлари) // Жамият ва бошқарув, 2004. – № 2;

15. Umarova M. Features of the reforms of Emir Shakhmurad during the reign of the Bukhara Emirate.//The American Journal of Social Science and Education Innovations. –T. 10. 2021. C. 49-54.

16. Умарова М. Аҳмад Донишнинг “Таърихи салтанати манғития” асарида бухоро ҳукмдори Амир Шоҳмуроднинг таърифи //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2021. – Т. 4. – №. 11.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA FAOLIYAT MARKAZLARINI SAMARALI TASHKIL QILISH

Xolmurodova Farog‘at Jumanazarovna
Urganch davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Zamonaviy maktabgacha ta’lim sog‘lom
va barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhum o ‘rin tutadi.
(Sh. Mirziyoyev)

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Ilk qadam” davlat o ‘quv dasturi asosida amalga oshirilayotgan faoliyat markazlari haqida aytib o ‘tilgan. Shuningdek faoliyat markazlari haqida ham qisqacha to ‘htalib o ‘tilgan.

Kalit so‘zlar: rivojlantiruvchi markazlar, til va nutq, tarbiyachi, faoliyat, nutq o‘stirish, mashg‘ulot.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat ya’ni rivojlantiruvchi markazlarni tashkil etish “Ilk qadam” Davlat o ‘quv dasturi va shu bilan bir qatorda “ Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo ‘yiladigan davlat talablari” asosida amalga oshiriladi. Bizga ma’lumki maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mashg ‘ulot jarayonlari asosan 5 ta markazga bo‘lingan holda olib boriladi. Bular quyidagilar: 1. “Til va nutq” markazi. Bu faoliyat markazida bolalar bilan birgalikda Nutq o‘stirish, tabiat, atrof olam va badiiy adabiyot bilan bog‘liq mashg‘ulotlar amalga oshiriladi. 2. “Qurish yasash, konstuksiyalash va matematika” markazi. Bu markazda esa qurish yasash, konstruksiyalash va matematika mashg‘ulotlari olib boriladi. 3. “San’at “markazi. San’at markazida rasm, applikatsiya, loy qurish va shu bilan birgalikda origami mashg‘ulotlari olib boriladi. 4. “Syujetli- rolli o‘yinlar” markazi. Bunda har bir guruhni yoshini inobatga olgan holda o ‘yinlar rejalashtiriladi. 5. “Ilm fan va tabiat” markazi. Bu rivojlantiruvchi markazda asosan bolalar bilan birgalikda oddiy tajribalar amalga oshiriladi.

Faoliyat markazlarida faoliyat olib borish har bir bolani indevidual qobilyatlarini va shu bilan bir qatorda qiziqishlarini inobatga olgan holda tashkil etiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat markazlarining tashkil etishning sharti bolalarni tarbiyalashda tarbiyachidan tayyor bilimni olishdan ko‘ra, bolaga rivojlantiruvchi markazlarda faoliyatni tanlash imkoniyatini berishdan iborat. Bu orqali bolada olamdagi ya’ni dunyo haqidagi bilimlarni mustaqil egallash va shu bilan bir qatorda bolalarni qobilyatlarini rivojlantirish, mustaqil izlanish, tadqiqot jarayonlariga qo‘shilish imkonini beradi. Faoliyat markazlari bolalarni uyushtirish, o‘qitish, ta’lim berish, komunikativ funksiyalarni amalga oshirishni talab etadi. Eng asosiysi esa ular mustaqil izlanishlari lozim. Bolalar va kattalar o ‘rtasidagi munosabatlar shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida bolalarni tashabbusini rag‘batlantirib borish kerak. Har bir faoliyat markazlarining dizayni bolalarni o‘ziga tortadigan ular uchun qulay va shu bilan bir qatorda jozibali bo‘lishi lozim. Xammamizga ma’lumki maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim va tarbiya asosan o‘yin orqali amalga oshiriladi, shunday ekan guruh xonalarida rivojlantiruvchi markazlarni yaratishda o‘yin faoliyatini yetakchi ekanligini inobatga olgan holda bolalarni yosh guruhlariga mos holda turli xil o‘yinlar tashkil etilishini amalga oshirishni taqazo etadi. Bizga ma’lumki bola rivojlanishining asosini nutq tashkil etadi. Bola nutq orqali o‘z fikrlarini bayon etadi va ifodalaydi. Bolaning nutqi faqat o‘quv faoliyatida rivojlanib qolmasdan balki o‘yin tarzida ham amalga oshiriladi. Markazlardagi bolalarning o‘yin va kognitiv faoliyati davomida tarbiyachi bolalarning ishini kuzatib boradi, tavsiya etilgan materiallar bolalar uchun qanchalik qiziq, qulay va xavfsiz ekanligiga e’tibor qaratadi. Agar kerak bo‘lsa, tarbiyachi didaktik materiallarni to‘ldiradi yoki o‘zgartiradi. Tarbiyachi guruhdagi barcha bolalar besh kun davomida har bir markazga tashrif buyurishini ta’minlaydi. Kuzatish va tahlil asosida kutilayotgan natija, muammolar, yechimlar tarbiyachi har hafta oxirida bolalarning o‘z maqsadlariga erishgan yutuqlarini qayd etib borishi natijasida muammolar pedagogning va bolalarning shaxsiy ishi bilan belgilanadi. Bundan tashqari rivojlantiruvchi markazlarida o‘quv va bilim jarayonini tashkil qilishda turli xil usullar, uslublar va o‘yin shakllaridan foydalanish: suhbat, hikoya, shou, badiiy

adabiyot o‘qish ensiklopedik adabiyotlarni o‘qish, ko‘rib chiqish va muhokama, tushuntirish, munozara, video namoyishlarni tomosha qilish, AKT lardan foydalanish, ijodiy faoliyat, tadqiqotlar, tajribalar, tajriba jonli va jonsiz tabiatning sirlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, rivojlantiruvchi markazlarida to‘g‘ri tashkil etilgan ishlar har bir bolani o‘ziga yoqadigan narsani topishga, bolani kuchli va qobiliyatiga ishonishga, kattalar va tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlarni o‘rganishga, tushunishga imkon beradi va ularning his-tuyg‘ularini va xatti-harakatlarini baholashga imkonyat yaratadi va shu rivojlanayotgan ta’limni rivojlantirishga hizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Qodirova F.R. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. T.: “ISTIQLOL, 2006y. O‘quv qo‘llanma.

2. D.R. Babayeva “Nutq o‘stirish metodikasi” T.: Fan va texnalogiyalar 2009yil. O‘quv qo‘llanma.

3. D.R. Babayeva “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi” T.: “Barkamol avlod fayz” 2018y. Darslik.

4. D. R. Babayeva “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasu” T.: TDPU 2017yil. O‘quv qo‘llanma.

5. Q.S.Shodiyeva o‘rta guruh bolalari nutqini o‘stirish” T.:” O‘qituvchi” 1993y. O‘quv qo‘llanma.

6.Madraximova N. Ya. ”Bolalar nutqini o‘stirish” fanidan mustaqil ishlarni bajarish. Uslubiy qo‘llanma. UrDU noshirlik bo‘limi, 2021-yil.

7. Quchqorova N.M. Kichik yoshdagi bolalarga kreativ yondashuv asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish. T., Uslubiy qo‘llanma, 2022-yil.

SPECIFIC PATHOMORPHOLOGY OF LIVER TISSUE IN NEONATAL SEPSIS

Allaberganov Dilshod Shavkatovich

Zubtiyev Sardor Uktamovoch

Tashkent medical academy

dilshodbek9347225@mail.ru

sardoruktamovich@gmail.com

Annotation: under the influence of endogenous and/or exogenous infection of babies in the perinatal period, the response reaction of immune organs that have not yet developed during fetal development develops differently (in the form of immunodeficiency) and is manifested by dystrophic and necrotic changes of most parenchymatous organs[1]. Sepsis is most common in low- and middle-income countries. About 670,000 newborns die from sepsis each year[4]. In this study, the liver tissue of infected and diagnosed sepsis babies born before and after term was studied at autopsy. It is manifested by the development of toxic dystrophy (vacuolar dystrophy) and fatty dystrophies with small droplets in hepatocytes in the systemic response of acutely developed vessels. As is known, prematurity and low body weight are considered as the main risk factors for both the development of sepsis itself in newborns and its severity [2,3,5]. Today, although a high level of progress has been achieved in the effective treatment and comparative diagnosis of this disease, nevertheless, neonatal sepsis remains a leader among the current tasks in biological and medical sciences.

Key words: neonatal period, sepsis, dystrophy, necrosis, liver, premature birth, vacuolar dystrophy.

Research object and subject: As a research object, autopsy archival materials of 29 infants who died of neonatal sepsis in 2019-2020 were selected at the Republican Pathological Anatomy Center. Histological examination of the isolated

liver tissue was prepared in a standard way (stained with hemotoxylin-eosin), and its pathomorphological changes were analyzed.

Results: 19 of the 29 newborns who died from neonatal sepsis were boys (65.5%), 10 were girls (35.5%), and among them were premature babies (75, 8 percent). Early neonatal sepsis (0-7 days) - 17 cases (58.6) in the first place in mortality rates, late neonatal sepsis (8-28 days) - 12 cases in the second place (41.4%) was determined.

The studied materials:

clinically and morphologically - due to hypofunctional changes of the liver, with a sharp decrease in the rheological properties of blood, dysproteinemia, hemorrhagic syndromes and an increase in liver enzymes;

by macroscopic examination - in all cases, the color of the liver becomes dull, it has an elastic consistency, and the color of the surface and in the cut state changes to light yellow-brown, as well as the fact that the liver capsule is in a tense state;

as a result of histological examination, the microscopic analysis of staphylococcal neonatal sepsis of various etiologies revealed the following changes in the liver;

- first of all, the manifestation of microcirculatory disorders that increase with the prolongation of the duration of sepsis;

- increased development of dystrophic-necrobiotic changes in hepatocytes and sinusoidal liver cells;

- in 6 cases (20.6%) subcapsular hematomas of the liver were observed as a manifestation of hemorrhagic syndrome;

- a sharp increase in vascular permeability around the triads was manifested by diapedesis hemorrhages, active transformation of histiocytes and an increase in macrophages;

- the migration of Kupffer cells around the vein of the liver triad was detected.

Summary:

1) In 75.8% of cases, this pathology developed against the background of premature birth;

2) Damage and decrease in number of endotelocytes, as well as decrease in the number of stellate macrophages (Kupffer cells);

3) Various degrees of expansion of sinusoidal spaces in the liver tissue in mild and moderate types of early neonatal sepsis;

4) Development of collicative necrosis, occurrence of multifocal foci of collicative necrosis in severe and severe types of early neonatal sepsis;

5) In sepsis in the late neonatal period, damage and decrease in the number of endotheliocytes, as well as a decrease in the number of stellate macrophages (Kupffer cells) were found.

List of used literature:

1. Allaberganov D.Sh., Morphological and morphometric changes of lymph nodes in neonatal sepsis. http://repository.tma.uz/xmlui/handle/1/882

2. Samsygina, G. A. Neonatal sepsis / G. A. Samsygina. - Moscow, 2014. - 173 p.

3. Sepsis: classification, clinical diagnostic concept and treatment / Ed. V.S. Savelyeva, B.R. Gelfand. - M .: LLC "Medical Information Agency", 2013.)

4. https://www.who.int/ru/news/item/30-08-2022-half-of-health-care-facilities-globally-lack-basic-hygiene-services---who--unicef

5. Early and Late Onset Sepsis in Very-Low-Birth-Weight Infants from a Large Group of Neonatal Intensive Care Units / C. P. Hornik, P. Fort, R. H. Clark [et al.] // Early Hum Dev. – 2012. – Vol. 88, Suppl 2. – P. 69–74.

O‘QITUVCHI OBRAZI PEDAGOGIK MADANIYATNING MUHIM TARMOG‘I SIFATIDA

Doniyorova Gulbahor Bobir qizi
Toshkent viloyati Chirchiq davlat
pedagogika universiteti 1-bosqich doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda pedagog obrazining ta‘lim-tarbiya jarayonidagi tarkibiy qismlari va pedagogik imij shart sharoitlari yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: Pedagog, obraz, o‘z-o‘zini anglash, pedagogik muloqot, imijologiya.

Ta'lim vazifalarining murakkabligi zamonaviy o'qituvchining kasbiy muhim fazilatlaridan biri sifatida tasvirning rolini o'rganishga alohida ahamiyat beradi. Shu munosabat bilan nazariy va amaliy bilimlarning yangi tarmog□i bo□lmish imidjologiyaning roli yangilanmoqda. Zamonaviy jamiyatda uni aktuallashtirishning ob'ektiv shartlari quyidagilardan iborat edi: birinchidan, nazariy ahamiyatga ega bo'lgan obrazni shakllantirishning asosiy shartlari va qonuniyatlarini, uning tarkibiy qismlarini, shuningdek, bunda qo'llaniladigan vositalar va usullarni ishlab chiqish emas. Ikkinchidan, bu imidjologiyaning amaliy foydaliligi, bu uning inson faoliyatining turli sohalarida va kasbiy talabda favqulodda mashhurligiga olib keldi.

O'qituvchi obrazi bizda uning kasbiy mahoratining muhim jihati va maktab o'quvchilariga pedagogik ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida qaraladi. U ikki jihatdan namoyon bo□ladi: birinchidan, jamiyat tomonidan o□qituvchiga qo□yiladigan talablar nuqtai nazaridan (u o□qituvchini tarbiyachi va axloqiy tajriba tashuvchi sifatida tasavvur qiladi); ikkinchidan, o'qituvchining pozitsiyasidan - u o'zini bolalarga qanday ko'rsatishga intiladi, jamiyatga nimani e'lon qilishni xohlaydi.

O□qituvchi obrazi ko□p jihatdan uning ijtimoiy ma□qul obrazidir. E.Fromm ta'kidlaganidek, ijobiy imidjga ega bo'lish uchun shaxs yuksak kasbiy fazilatlarga va yoqimli shaxsiy fazilatlarga ega bo'lishi kerak. □Shaxsning ma□naviy boyligi□,

deydi K.M.Gurevich, - hissiy mazmun tashqi xulq-atvor, tashqi ko'rinish orqali namoyon bo'ladi. Yuzida o'tib bo'lmaydigan zichlik izlari bor, lekin bizni aql-idrok cho'qqilariga chiqishga chaqiradigan shaxs shubhali.

O'qituvchining imidjini shakllantirish - bu o'qituvchiga bolalar bilan muvaffaqiyatli ishlash uchun ob'ektiv ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy fazilatlar va munosabatlarning kuchli tomonlari haqida ma'lumot berishga qaratilgan faol maqsadli faoliyat. O'qituvchi obrazining yosh avlod kamoloti uchun to'g'ri tushunilgan o'qituvchilik va tarbiyaviy ahamiyati uning individualligini modellashtirishga mas'uliyatli munosabatini shakllantiradi. O`qituvchining pedagogik axloqning asosiy tamoyillarini amaliy o`zlashtirishi, uning kasbiy madaniyatini yuksaltirishi va mehnatni ilmiy tashkil etishi obrazni shakllantirishning muhim jihati hisoblanadi. Muvaffaqiyatli ishlab chiqilgan pedagogik qiyofa o'qituvchining o'zini o'zi tasdiqlashiga va uning keyingi kasbiy o'zini o'zi takomillashtirishga ta'sir qiladi.

Pedagogik ko'nikmalarning aksariyati, asosan, o'qituvchining shaxsiyati va faoliyatidagi o'zini o'zi anglash, o'z-o'zini aks ettirish muammolari bilan bog'liq.

Keling, o'qituvchilarning shaxsiy faoliyatining obrazli xatti-harakatlarini belgilaydigan bir qator xususiyatlarini tahlil qilaylik, ulardan birini tanlaymiz - o'z-o'zini anglash. A.N.Leontev o'z-o'zini anglashni "odamning ehtiyojlari, moyilligi va xatti-harakatlari, tajribalari va fikrlariga ongli munosabati" deb ta'riflagan. Bizning tanlovimiz "o'z-o'zini anglashning eng yuqori darajasi sifatida tavsiflangan, uning mazmuni dunyodagi shaxsning semantik yo'nalishlari tizimi bo'lgan shaxs, umumiy inson bilan tanishish vositasi, vositasi ekanligi bilan izohlanadi. mohiyati."

Kasbiy o'z-o'zini anglash o'qituvchi shaxsining o'zagi bo'lib, u etakchi shaxs tuzilmalari: motivlar, munosabatlar, qadriyatlar, e'tiqodlar, ideallarning munosabatlari va muvofiqligini amalga oshiradi.

O'qituvchining kasbiy o'z-o'zini rivojlantirishi undan shakl va usullarni, o'quv materiali dasturining tuzilishi va mazmunini, individuallashtirilgan ta'lim dasturlarini va integrativ kursni ishlab chiqishni o'zgartirishni talab qiladi. Bunga tayyorlikning asosi - mustaqillikni rivojlantirish, o'qituvchining ijodiy tashabbusi. Individual

obrazni shakllantirish o□qituvchining o□z-o□zini rivojlantirishning ajralmas qismi hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'qituvchining individual qiyofasi uning kasbiy o'zini o'zi anglash xususiyatlari va rivojlanish darajasini ham bevosita aks ettiradi.

Tasvir ijtimoiy ta'sirlar ta'sirida shakllanadi, ular ma'naviy hayotni takror ishlab chiqarishning ijtimoiy algoritmini ifodalaydi, lekin ularning roli axloq va axloqning o'zaro ta'sirini ta'minlash bilan chegaralanadi. Aytishimiz mumkinki, tasvir jamiyatning ma'naviy hayotining tabiiy va odatiy algoritmidir. Tasvir nafaqat imkon qadar ko'proq odamlarga yoki shaxsan kimgadir yoqadigan sub'ektiv istakni ifodalaydi, balki ushbu holatni amalga oshirishga imkon beradigan "o'yin qoidalari" ni ham o'zida mujassam etgan. Boshqacha qilib aytganda, obraz psixika hayotini (shu jumladan uning eng intim tomonlarini) borliqning individual va guruh tajribasi bilan uyg□unlashtirish zarurligini aks ettiradi.

Pedagogik faoliyatning tabiati o'qituvchilarni doimo kommunikativ vaziyatlarga qo'yadi, samarali shaxslararo o'zaro ta'sirga hissa qo'shadigan fazilatlarning namoyon bo'lishini talab qiladi. Biz fikr yuritish, empatiya, moslashuvchanlik, xushmuomalalik va hamkorlik qilish qobiliyatini ana shunday fazilatlarga bog'ladik. Bizning fikrimizcha, tasviriy xatti-harakatlarning ana shu fazilatlari hissiy qulaylik holatini, intellektual faollikni, ijodiy izlanishni rag'batlantiradi, o'zaro tushunish va empatiyaga yordam beradi. Shu bilan birga, bu fazilatlar o'qituvchining insonparvarlik salohiyatini tashkil etadi va har bir bolaning shaxsiyatini rivojlantirishga yordam beradi, pedagogik o'zaro hamkorlikning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini ta'minlaydi.

O'qituvchiga o'zini ko'rsatish qobiliyatini rivojlantirish emas, balki o'zini va boshqalarni ko'rish va baholash qobiliyatini rivojlantirish kerak, shuni tushunish kerakki, o'qituvchi qiyofasini rivojlantirish va shakllantirishdan maqsad aktyor yoki o'qituvchini tarbiyalash emas. niqobda, lekin hal qilinishi kerak bo'lgan pedagogik vazifalarga qarab o'zini namoyon qilishi kerak bo'lgan aktyor, ijodkor fazilatlariga ega o'qituvchi. O'qituvchi doimo shaxslararo muloqotning turli muammolariga duch keladi. Pedagogik muloqot madaniyatining yo'qligi yoki uning past darajasi ko'pincha

ziddiyatli vaziyatlarga, o'qituvchi va talaba yoki butun sinf o'rtasidagi ziddiyatlarga olib keladi. Konfliktni muvaffaqiyatli hal etish o'qituvchining umumiy psixologik savodxonligi va pedagogik madaniyat darajasiga bog'liq. O'qituvchi va shogird munosabatlarining asosi bo'lgan asosiy axloqiy me'yorlar: har bir o'quvchining qadr-qimmatini hurmat qilish, ularning ichki dunyosiga ishonch va e'tibor, ma'naviy sezgirlik va xayrixohlik. Talabani o'qituvchi tomonidan psixologik jihatdan barkamol idrok etish o'zaro tushunish va samarali hamkorlikni o'rnatishga yordam beradi. Bu imkoniyat o'qituvchiga asosan shakllangan pertseptiv qobiliyatlar bilan ta'minlanadi, ya'ni. mimika, imo-ishoralar, nutq, harakatlar orqali bolalarning hissiy holatini to'g'ri baholash qobiliyati. Ijtimoiy idrok etishning o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikkita turi mavjud: to‘g‘ri idrok etish (bolani yoki boshqa shaxsni idrok etish va tinglash) va empatik (bolaga alohida sezgirlik, boshqasiga hamdardlik va hamdardlik).

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bodalev A. Insonni inson tomonidan idrok etish va tushunish.-M: MGU,1982 yil.

2. Vigotskiy L.S. Sobr. op. 6t da. - M.: Pedagogika, 1984; Muxina V.S. Rivojlanish psixologiyasi. -M.: Akademiya, 1997;

3. Leontev A.N. Faoliyat. Ong. Shaxsiyat. 2-nashr.- M.: Politizdat, 1977;

O‘ZBEK XALQ ERTAKLARI TADQIQI YUZASIDAN

Raximov Sarvarjon Akramjon o‘g‘li
Qo‘qon DPI tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbek xalq ertaklarining o‘zbek va xorijiy davlat olimlari tomonidan o‘rganilishi, ularning tarixi, o’zbek xalq og‘zaki ijodiga hissa qo‘shgan tadqiqotchilar asarlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: ertaklar, motiv, folklor, o‘zbek xalq ertaklari qahramonlarining o‘ziga xos nomlari.

REGARDING THE STUDY OF UZBEK FOLK TALES

Raximov Sarvarjon Akramjon o‘g‘li,
Kokand DPI researcher

Annotation: This article provides information about the study of Uzbek folk tales by Uzbek and foreign scientists, their history, the works of researchers who contributed to Uzbek folklore, and their characteristics.

Key words: fairy tales, motive, folklore, unique names of characters of Uzbek folk tales.

Hozir texnika va texnologiya rivojlanib borayotgan davrda yashamoqdamiz. Har bir rivojlangan davlatning taraqqiyot pog‘onasi negizida, albatta, yuksak tafakkurli, innovatsion g‘oyalar sohibi bo‘lgan yoshlar turadi. Bunday yoshlarni tarbiyalashda ular uchun yaratilayotgan sharoit, ijtimoiy muhit bilan birga, oilada berilayotgan tarbiya ham juda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bolalarning yoshligidan zehnli, dunyoqarashi keng qilib tarbiyalashda ertaklarning o‘rni beqiyos.

Inson tug‘ilibdiki, beixtiyor folklor san’ati durdonasi bo‘lgan ona allasini eshitib, ozgina ulg‘aygach esa ertaklar tinglab o‘z tafakkurida olam manzarasini gavdalantiradi.

“Jahon madaniy merosining bu o‘lmas asarlari bizga insoniyatning nasl-u nasabi, tarixiy ildizlari, olijanob ideallari bir ekanini, binobarin, turli millat va elat vakillarining kelajak sari intilishlari ham mushtarak ekanini anglatadi.[19]

XX asrning 20-yillaridan boshlab xalq og`zaki ijodiga doir ko`pgina ilmiy ishlar yaratildi. Bu borada H.Zarifov, M.Jo`rayev, M.Alaviya, M.Afzalov, M.Murodov, Q.Karimov, K.Imomov, A.Musaqulov, G`.Jahongirov, Z.Husayinova, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, O.Safarovlarning xizmati katta.

Mustaqillik yillarida esa K.Beknazarov, M.Q.Bozorova, N.H.Dosanov, K.N.Qodirov, Z.J.Rasulova, M.M.Jo‘rayeva, Sh.I.Nazarovalar[20] o‘zbek xalq ertaklari bo’yicha ilmiy tadqiqot ishlarini himoya qilishdi.

O‘zbek xalq ertaklarini o‘rganish nafaqat bizda, balki, chet davlatlarda ham juda qiziqish uyg‘otganligi sir emas. Xususan, qardosh xalqimiz bo‘lgan usmonli turklarda (Turkiya) ham qator izlanishlar olib borilgan. Ulardan biri Otaturk universitetining professori Huseyin Baydemir 2004-yilda “O‘zbek xalq ertaklari: tahlil va matn”[21] mavzusida (PhD) doktorlik dissertasiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi va “O‘zbek xalq ertaklari“ nomli kitoblarini nashr ettirdi.

Turk folklorshunoslari Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin Turk dunyosiga e'tibor qaratdilar. O‘n yildan ortiq vaqt davomida turkiy xalqlar folklorini o‘rganish jadallashtirildi. Bu tadqiqotlar olib boriladigan muhim markazlardan biri Otaturk universitetidir. Turk tadqiqotchisi Bilge Seyido‘g‘li tashabbusi bilan Turk dunyosi folkloriga oid tadqiqotlar doirasida juda qimmatli tadqiqotlar olib borilmoqda. 2001-yilda tayyorlagan va Bilge Seyido‘g‘li boshchiligidagi loyiha doirasida 2002-yilda

[19] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro baxshichilik san’ati festivali ochilishiga (2019-yil 5-10-aprel) bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan

[20] Beknazarov K.“O‘zbek xalq maishiy ertaklari (o‘rganilishi, tasnifi, poetikasi – 1993); Bozorova M.Q. “O‘quvchilarda do‘stlik, o‘rtoqlik hissini tarbiyalashda xalq an’analaridan foydalanish (o‘zbek xalq ertaklari) – 1994); Dosanov N.H. “O‘zbek xalq ertaklari tilida aniqlovchilar”; Qodirov K.N. “O‘zbek sehrli ertaklarida zamon va makon talqini”; Rasulova Z.J. “O‘zbek xalq sehrli ertaklarida “G‘aroyib buyumlar”lar spetsifikasi, genezisi va badiiyati” – 2012; Jo‘rayeva M.M. “Fransuz va o‘zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari” – 2017; Nazarova Sh.I. “O‘zbek xalq ertaklarida sinov motivlarining genezisi va poetikasi” – 2017.

[21] Hüseyin Baydemir, Özbek halk masallari inceleme-metin., Erzurum - 2004.

O‘zbekistonga kelib, 2002-yilda “Turk dunyosi xalq og‘zaki ijodi”ga oid tadqiqot ishlari olib bormoqda. Turkiyada o‘zbek ertaklari to‘g‘risida to‘liq tadqiq qilinmaganligi sababli o‘zbek xalq ertaklari ustida ishlashga qaror qilindi. Turk tadqiqotchilari tomonidan tezisda yetmishta xalq ertaklari o‘rganildi. Ertak matnlari S. Seydaliyevaning "Chalpak yoqqan kun"', Komil Imomovning "Kenja Botir", Mansur Afzalovning "Oltin Beshik" romani bo‘lib, ular Komil Imomov, M.I. bilan birgalikda tayyorlagan. M.Afzalov, Z.Husayinova va N.S.Saburovlar tomonidan tayyorlangan “Suv qizi” kitoblaridan olingan.

Tadqiqotda tanlangan ertaklar o‘rganilganda ular naqshlarga juda boy ekani ma’lum bo‘ldi. Ma’lum bo‘lgan motivlarni o‘rganishga qaror qilindi, muhim tarkibiy tahlil sifatida ushbu ilmiy ish tadqiqoti ikki qismga bo‘lib olib borildi. Tadqiqot yakunida natijalar, manbalar, lug‘at va aniqlangan motivlar ko‘rsatkichi ham mavjud. Birinchi qism tadqiqotning ekspertiza qismini tashkil etadi. Ertaklar, ularning epizodlari bo‘yicha umumlashtiriladi. Aniqlangan motivlar birinchi marta Arzurum ertaklarini qo‘llash orqali Turkiyaga kiritgan Stit Tompsonning “Motif Index of Folk Literature”[22] ko‘rsatkichiga ko‘ra Bilge Seyido‘g‘li tomonidan tasniflangan. Motivlar epizodlar ostida berilgan. Ilk bor har bir ertakning motivlari shu paytgacha qilingan motiv tadqiqotlaridan farqli ravishda alohida guruhlangan. Shunday qilib, ertakning barcha motivlari birga ko‘rinishi ta'minlandi.Aniqlangan barcha motivlarni Tompsonning yuqorida keltirilgan motivlar katalogida topib bo‘lmadi. Bu naqshlar zikr qilingan katalogning qayerda bo‘lishi kerakligiga qarab raqamlangan va raqamlar oldiga (T) qo‘yib, turkcha naqshlar ekanligi ko‘rsatilgan. (T) bilan ko‘rsatilgan motivlarni sanab o‘tishda bu sohada ilgari qilingan motiv tadqiqotlari ham hisobga olingan. Bu kabi tadqiqotlarda yaxlitlikni ta'minlash nuqtai nazaridan bir xil raqamlarni berishga harakat qilingan.Har bir ertak ostida manbalar izoh sifatida keltirilgan. Bizda mavjud bo‘lgan manbalarda shu kabi ertaklarning hammasi bo‘lmasa-da, ba'zilari haqida ma'lumotlar mavjud. “Ertakning hikoyachisi,

[22] Bilge Seyidoğlu, Erzurum Halk Masalları Üzerinde Araştırmalar, Metinler ve Açıklamalar, Otatrk universiteti., Anqara 1975.

tuzuvchisi, tuzilgan sana va joyi” sifatida tafsilotlar qo‘shimcha ma’lumot sifatida qavs ichida keltirilgan.

Matnlarni Turkiyadan turk tiliga o‘tkazishda ertaklarning o‘ziga xos tili va til xususiyatlariga alohida e’tibor qaratilgan. Ertaklarda ko‘p qo‘llaniladigan olmosh kabi rasmiy iboralarning tuzilishini buzmaslikka, yoqimli jarangli qofiya qolipini saqlashga harakat qilingan. Biroq asos bog‘lovchi (o‘tish) formulalari standart turkiy so‘zma-so‘z ko‘chirilganda kerakli ma’noni bergan bo‘lsa-da, biz o‘rganib qolgan ertak uslubiga to‘liq mos kelmasligi kuzatilgan. Masalan, ertaklarning asl matnlarida juda keng tarqalgan rasmiy ibora "Yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib”. Agar so‘zma-so‘z tarjima qilinganda, "Yo‘l yurgan va yo‘l ko‘p yurganida" kabi ma'noni anglatadi. "Buning o‘rniga "Oz ketdi, uzoq ketdi" iborasi. Ertaklarda qo‘llanilgan 6 ta o‘ziga xos ism aniq saqlanib qolgan. Bektemir Botir, Rustam botir, Kenja botir kabi nom guruhlarida "botir" so‘zi bir qismdir. Lekin yolg‘iz qo‘llangan “botir” so‘zi “bahodir”, “yigit” yoki “qahramon” deb tarjima qilingan. Agar kerak bo‘lmasa, ertaklarning nomlari o‘zgartirilmagan. Masalan, ertaklarimizdan biri “Bulbuligo‘yo” deb ataladi. Xuddi shu ertak turkchasiga avval “Hoş Avazli Bulbul” nomi bilan tarjima qilingan. Huseyin Baydemir uni "Hoş Avazli Bulbul" yoki "Gaplashuvchi bulbul" deb tarjima qilishi mumkin edi. Ularning nomlari ushbu tadqiqotda aynan saqlanib qolgan. Bu turdagi ismlarning ma'nolari tadqiqot orqasiga qo‘shilgan lug‘atda izohlangan. Turkchasiga tarjima qilinmagan so‘zlardan biri "Yalmog‘iz"dir. Bu so‘zni "Jodugar", "Sehrgar", "Jodugar kampir" yoki "Kannibal ayol" deb tarjima qilish mumkin. Lekin bu ma'nolarning hech biri so‘zning ma'nosiga to‘liq javob bermaydi.Yalmog‘izda jodugarlarning barcha xususiyatlari bor edi. Jodugarlardan farqli o‘laroq, ular bir nechta boshga ega bo‘lishi mumkin. Ular jodugarlardan ham shafqatsizroqdir. Hammasi ularning bir qismi yovuzlik tarafdori va deyarli barchasi kanniballardir.Ular kannibalizm nuqtai nazaridan bir oz gigantlarga o‘xshasa-da, jinsi va shakli xususiyatlari jihatidan ular bilan bir xil.

Matnlarni ko‘chirish jarayonida yuqorida tilga olinganlardan tashqari ba’zi so‘zlarning turk tilidagi aniq ekvivalentlari topilmadi. Ularning soni cheklangan bo‘lsa-da, bu so‘zlarning ma'nolari lug‘at qismida berilgan. Tadqiqot oxirida

aniqlangan motivlar ko‘rsatkichi qo‘shiladi. Bu ko‘rsatkichda keltirilgan motivlar o‘zbek ertaklarida aniqlangan motivlardan iborat bo‘lib, har bir motiv sarlavhasining oxirida qavs ichida shu motivni o‘z ichiga olgan ertak raqami ko‘rsatilgan. Shunday qilib, qaysi ertaklarda motiv borligini osongina ko‘rish ta'minlanadi. Raqam oldidagi motivlarni (T) Stit Tompsonning motivlar indeksida topib bo‘lmadi. Ushbu tadqiqotda ertak tushunchasiga urg‘u berilmagan. Ertak va ertaklarning xususiyatlari oldingi tadqiqotlarda batafsil yoritilgan. Xuddi shu ma'lumotni bu yerda berish keraksiz takrorlash bo‘ladi, deb o‘ylangan. Ertaklar haqida Bilge Seyido‘g‘li, Turk tili va adabiyoti entsiklopediyasining “Masal” ("Ertak") maqolasida, “Erzurum Halk Masalları Üzerinde Araştırmalar” (“Arzurum xalq ertaklari bo‘yicha tadqiqotlar”) nomli asarining muqaddimasi va birinchi qismlarida batafsil ma’lumot bergan. Shu asarning uchinchi qismida motiv tushunchasiga alohida to‘xtalib o‘tgan. Ertak va ertaklar tushunchasi haqida ma’lumot beruvchi yana ko‘plab tadqiqotlar mavjud. Ulardan ba'zilari Shukru Elchinning "Halk Edebiyatina Giris" nomli kitobida ertak maqolasi, Pertev Naili Boratavning "100 Soruda Türk Halk Edebiyati", Saim Sakaog‘luning " Gümüşhane Masalları/Metin Toplama ve Tahlil, Masal Araştırmaları” Umay Gunayning “Elazığ Masalları (inceleme)” nomli tadqiqoti va “Türk Dünyası El Kitabında "Masal” maqolasi, Ali Berat Alptekinning “Taşeli Masallar”, “Kazak Masallarından Seçmeler” (”Qozoq ertaklaridan saylanmalar”), Metin Karadag‘ning “Türk Halk Edebiyatı Anlatı Türleri” (“Turk xalq adabiy hikoyasi turlari”)[23] nomli asaridir.

O‘zbekistonda ertak tushunchasi, ertak an’anasi.

K.Imomov Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida “ertak” so‘zi “etuk” sifatida qo‘llanganligini ta’kidlaydi; voqeani og‘zaki bayon qilish ma’nosini bildiradi.” O‘zbeklar orasida “ertak” so‘zining lug‘aviy ma’nosi “aytmoq, hikoya qilmoq” degan ma’nolarda qo‘llanadi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “ertak”, “xalq og‘zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to‘qima va uydirmaga asoslangan, sehrli-sarguzasht va maishiy

[23] Huseyin Baydemir. Özbek halk masallari, inceleme-metin. (PhD) diss. Erzurum-2004 10-12-b.

mazmundagi epik badiiy asar; cho‘pchak”[24] deb yuritilgan. Iristoy Qo‘chqortoyev esa “ertak” deb ta’riflaydi, - xayoliy odamlar, g‘ayrioddiy kuchlar, mo‘jizalar, devlar, farishtalar, hayvonlar haqidagi uydirma va haqiqatda mavjud bo‘lmagan voqealarni ko‘rsatadigan xayoliy hikoyalar avloddan-avlodga o‘tib kelgan xayoliy hikoyalardir".[25] O‘rganilayotgan asarlarda boshqa o‘zbek folklorshunoslarini uchratib bo‘lmadi.Yoki rus folklorshunoslarining ta’riflari o‘z holicha olinib, qo‘llanilgan yoki odatda “ertak” so‘zining lug‘aviy ma’nosi berilgandan so‘ng, janrga xos xususiyatlar darhol o‘tib ketilgan.

O‘zbekistonning turli hududlarida “ertak” so‘zi turlicha nomlar bilan ataladi. Surxondaryo, Samarqand va Farg‘ona o‘zbeklari orasida “matal” deb ataladi. Buxoro atrofidagi ba’zi shahar va qishloqlarda, ba’zi boshqa joylarda, ayniqsa, o‘zbek va tojik tillarida so‘zlashuvchi xalqlar orasida bu tur “ushuk” yoki “shuk” deb ataladi.Xorazmda “varsaki” , Toshkent shahri va uning atrofida “cho‘pchak” sifatida ishlatiladi. O‘zbeklarda “ertak”, “matal”, “cho‘pchak” so‘zlaridan tashqari “hikoya”, “afsona”, “o‘trik” kabi so‘zlar ham bu janrni tasvirlash uchun ishlatiladi. Alisher Navoiy asarlarida “Afsona, ertak, matal, idioma” o‘rniga “cho‘pchak” qo‘llangan bo‘lib, Toshkent va uning atrofida uchraydigan mazkur nomdagi so‘z shu nomdan kelib chiqqan.

O‘zbekistonda hikoya qilish an’anasi juda qadimiy. Ertak aytadigan odamlarga "ertakchi" deyiladi. Folklorshunos G. Jahongirov o‘zining “O‘zbek bolalar folklori” nomli kitobida “Devonu lug‘otit-turk” asarida ertak an’anasining qanchalar qadimiyligi haqida na’munalarlarni keltirib, quyidagi muhim ma’lumotlarni beradi: Shahardan shaharga, qishloqdan qishloqqa sarson bo‘lib, xalq mehr-muhabbatidan bahramand bo‘lgan.To‘y-hashamlarda, muhim majlislarda xalq ularni burchakda o‘tirib tinglab, ularga hurmat va ehtirom ko‘rsatar edi. Abdug‘afur Shukurov kabi olimlar ko‘p ertaklarni o‘z xotiralarida saqlay olganlar. Ularni o‘z zeb-ziynatlari bilan bezab, olib kelganlar. O‘zbek xalqining uzoq yillardan to hozirgi kungacha yetib

[24] O'zbek tilining izohli lug'ati (80 mingdan orti qso’z va so’z birikmasi). T:. O’zbekiston millliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. – 1981. B-52.

[25] I.Qo’chqortoyev. O’zbek xalq adabiyoti atamalari va turkiy muqobillari. –xalqaro turkcha Jahon xalq adabiyoti kongressi materiallari 2000-y 26-28-may, Madaniyat vazirligi nashriyoti, Anqara 2022-yil 512-513-betlar

kelgan bebaho boyliklari” – xalq ertaklarini o‘rganish, tadqiq etish har bir davrda dolzarb bo‘lgan.

O‘zbekistonda ilk folklorshunoslik XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida yashagan rus sharqshunoslari, tadqiqotchi sayyohlari tashabbusi bilan boshlangan. XX asr ularning xotiralarida, asarlarida o‘zbeklar hayoti, urf-odat va an’analari, og‘zaki adabiyoti haqida muhim ma’lumotlar bor, ba’zi ertaklar haqida batafsil ma’lumot berdilar. A. Vasilyev "Xurshiddin Polvon", "Shahzoda Nazar Muhammad va malika Nazar Bibi'", A. N. Samaylovich "Annamurod ota", “Erni er kilgan xotin” ertaklari nashr ettirishgan. O‘zbek xalq ertaklarini Turkistonda missioner sifatida bo‘lgan N. P. Ostroumov nashr etadi”. Tohir Qahhor Ostroumovning “Turkiston o‘lkasi gazeti”da yozuvchi bo‘lib ishlagani, o‘zbek ertaklarini bir necha bor nashr etganini ta’kidlaydi.” Bulardan tashqari A. A.Kushachevish, N. Lyapunova, V. V.Bartold, A. A.Divayev, I.Berezin, Y.Lyutsh. va V.Radlofflar O‘zbek xalq ertaklariga ham e’tibor qaratadi.[26]

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi mahsullari 1917-yilgi Oktyabr inqilobidan keyin tuzilib, ilmiy jihatdan qayta ishlana boshlandi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida o‘zbek xalq og‘zaki ijodini to‘plash va qayta ishlash bo‘limiga topshirildi. Turkiston Sovet Respublikasi Maorif Xalq Komissarligi qoshidagi Fan bo‘limiga topshirildi. 1920-yillarda yuqorida tilga olingan bo‘limning O‘zbekiston Ilmiy qo‘mitasi yig‘ish ishlarini olib bordi. Bu qo‘mita a’zolaridan biri G‘ozi Olim Yunusov 1922-yil yozida Toshkent, Sirdaryo, Samarqand shaharlarida ko‘plab xalq og‘zaki ijodi materiallarini, jumladan, ertaklarni jamladi. Afsuski, O‘zbekiston Ilmiy qo‘mitasi tomonidan to‘plangan bu materiallarning katta qismi bizning davrimizga yetib bora kelmadi”.

1930-yilda G‘ozi Olim “O‘guz adabiyotda sinfiy tuygular” nomli maqolasini chop ettiradi. Unda xalq ertaklarito‘xtalib, ularni ijtimoiy tabqalar nuqtai nazaridan ko‘rsatadi. Otajon Hoshim o‘zining “O‘zbek folklori to‘g‘risida” (1935) nomli maqolasida xalq og‘zaki ijodida satira va komediyaga e’tibor qaratadi, asosiy ertak qahramonlariga ishora qiladi. M. Afzalov va B. Karimovning “O‘zbek xalq og‘zaki

[26] Huseyin Baydemir. O’zbek xalq masallari. Inceleme-metin. PhD. diss. Erzurum-2004 10-12-b.

ijodi” (1939) maqolasida xalq ertaklarining tarixiy-tarbiyaviy ahamiyatiga e’tibor qaratilgan.1935-yilda Farg‘ona vodiysida Hodi Zarif boshchiligida kompilyatsiya ishlari olib borilgan. Shunday qilib, Hasan Hudoyberdi o‘g‘li, Qozon Hoji, Husanboy Rasul o‘g‘li kabi professional hikoyachilar birinchi marta Hodi Zarif tomonidan nashr etilgan va ularning repertuaridagi eng go‘zal ertaklar yozilib, sotib olindi. So‘ngra 1941-yilda Hodi Zarif tomonidan “Oktyabr Sotsialistik inqilobidan keyingi o‘zbek folklori” kitobi chop etildi. Bu asar “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” kitobining davomi hisoblanadi.

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbek xalq ertaklarini tadqiq etishda ko‘proq badiiy-poetik aspektda o‘rganish ko‘plab kuzatiladi. Lekin ularning semantik-grammatik, milliy-madaniy xususiyatlarini, ularda qo‘llanilgan turg‘un birikmalarni lingvistik tahlil etilmaganligi uchun ham tadqiqot ishimizning ilmiy yangiligini belgilab beradi. Keyingi ishlarimizda shu xususiyatlarining lisoniy tahlillarini ochib berishga harakat qilamiz

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. Xalqaro baxshichilik san’ati festivali ochilishiga (2019-yil 5-10-aprel) bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan
2. Beknazarov K.“O‘zbek xalq maishiy ertaklari (o‘rganilishi, tasnifi, poetikasi – 1993).
3. Bilge Seyidoğlu, Erzurum halk masalları üzerinde araştırmalar, metinler ve açıklamalar, otatrk universiteti., Anqara 1975.
4. Bozorova M.Q. “O‘quvchilarda do‘stlik, o‘rtoqlik hissini tarbiyalashda xalq an’analaridan foydalanish (o‘zbek xalq ertaklari) – 1994).
5. Dosanov N.H. “O‘zbek xalq ertaklari tilida aniqlovchilar”.
6. Hüseyin Baydemir, Özbek halk masallari inceleme-metin., Erzurum - 2004.
7. Jo‘rayeva M.M. “Fransuz va o‘zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari” – 2017.

8. Nazarova Sh.I. “O‘zbek xalq ertaklarida sinov motivlarining genezisi va poetikasi” – 2017.

9. Qodirov K.N. “O‘zbek sehrli ertaklarida zamon va makon talqini”.

10. Rasulova Z.J. “O‘zbek xalq sehrli ertaklarida “G‘aroyib buyumlar”lar spetsifikasi, genezisi va badiiyati” – 2012.

KONTENTGA ASOSLANGAN YONDASHUV ASOSIDA LEKSIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH JARAYONIDAGI QIYINCHILIKLAR TIPOLOGIYASI VA BARTARAF ETISH IMKONIYATLARI

Bakirova Xilolahon Botiralilyevna

O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada nofilologik oliy ta’limda chet tilni o’qitish tizimida kontentga asoslangan yondashuv asosida leksik kompetensiyani rivojlantirish jarayonidagi qiyinchiliklar tipologiyasi va bartaraf etish imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek olimlarning metodik tipologiya borasidagi fikrlari tahlil qilinib umumlshtirilgan.

Kalit so’zlar: kontentga asoslangan yondashuv, qiyinchiliklar tipologiyasi, bartaraf etish imkoniyatlari, leksik kompetensiyani rivojlantirish, metodik tipologiya, leksik qiyinchiliklar.

TYPOLOGY OF DIFFICULTIES AND OVERCOMING POSSIBILITIES IN THE PROCESS OF DEVELOPING LEXICAL COMPETENCE ON THE BASIS OF THE CONTENT-BASED APPROACH

Bakirova Khilolakhon Botiralivevna

Independent researcher of Uzbekistan State World Languages University

Abstract. This article discusses the typology of difficulties in the process of developing lexical competence and the possibilities of their elimination based on the content-based approach in the foreign language teaching system in non-philological higher education. In addition, the opinions of scientists regarding methodical typology are analyzed and summarized.

Key words: content-based approach, typology of difficulties, opportunities for elimination, development of lexical competence, methodological typology, lexical difficulties.

ТИПОЛОГИЯ ТРУДНОСТЕЙ И ИХ ПУТИ ПРЕОДОЛЕНИИ В ПРОЦЕССЕ ФОРМИРОВАНИЯ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ НА ОСНОВЕ КОНТЕНТНОГО ПОДХОДА

Бакирова Хилолахон Ботиралиевна

Исследователь Узбекского государственного университета мировых языков

Аннотация. В данной статье рассматривается типология трудностей в процессе формирования лексической компетенции и возможности их устранения на основе контентного подхода в системе обучения иностранному языку в нефилологическом вузе. Также анализируются и обобщаются мнения ученых относительно методической типологии.

Ключевые слова: контентный подход, типология трудностей, возможности устранения, развитие лексической компетенции, методологическая типология, лексические трудности.

O‘quv jarayonida erishiladigan muvaffaqiyat darajasini yanada kuchaytirishning turli yo‘llari mavjud bo‘lib, til materialini o‘rgatishda metodik tipologiya va maxsus mashqlar asosida tashkil etish ulardan biri xisoblanadi. Myetodik adabiyotlarda leksik qiyinchiliklar tipologiyasi muammosini hal qilish borasida turli xil yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularda so‘zlarni tasniflash uchun bir qator tamoyillar ishlab chiqilgan. Metodik tipologiya masalasi ilk bor 60 yillar boshlarida fanda paydo bo‘lganidan beri ko‘plab olimlar bu masalaga turli nuqtai nazardan yondashib kelganlar. Metodik tipologiya va uning afzalliklari bo‘yicha bir qator respublikamiz va chet el olimlari tadqiqot olib borganlar. Olimlar turli nazariyalarni ilgari surganlar. Jumladan, S.F. Shatilovning fikricha, leksikaning metodik tipologiyasi bu til materialini talabalar

tomonidan o‘zlashtirishdagi qiyinchilik turlari bo‘yicha guruhlashni anglatadi va u so‘zlarni faol o‘zlashtirish bo‘yicha qiyinchiliklarni belgilaydigan omillarga quyidagilarni kiritadi:

1) ona tili va chet til so‘zlari ma’nolari hajmining o‘zaro mos kelishi yoki mos kelmasligi: bunda ma’no jixatdan bir-biriga mos kelmaydigan so‘zlar faol o‘zlashtirish uchun bir xil ma’noga ega bo‘lgan so‘zlarga qaraganda ko‘proq qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi;

2) ma’lum tildagi so‘zning boshqa so‘zlar bilan bog‘lana olishligi yoki erkin munosabati darajasiga ko‘ra: so‘z birikmalari, frazeologik birliklar, iboralar shular jumlasidandir.

3) so‘zning tuzilish xususiyatiga ko‘ra: sodda, murakkab yoki yasama so‘zlar. Sodda so‘zlarni o‘rganish osonroq bo‘ladi.

4) so‘z ma’nosining konkretligi yoki abstraktligi. Konkret so‘zlarni o‘rganish ko‘pincha abstrakt so‘zlardan ko‘ra osonroqdir. [6]

Yana bir olim N.V. Nikolayevning eng keng tarqalgan metodik tipologiyasi nemis tili misolida so‘zlarni 8 turga bo‘lishdan tashkil topadi. [2]

1) ma’nolari ona tili va chet tilda to‘g‘ri keluvchi internasional va o‘zlashgan so‘zlar: nem. *die Musik, der Designer, das Theater* (ing. *the music, the designer, the theatre*). Ushbu so‘zlardagi qiyinchilik tushunishda emas balki talaffuzda bo‘ladi.

2) yasama va qo‘shma so‘zlar, shuningdek tarkibiy qismlari o‘quvchilarga tanish bo‘lgan so‘z birikmalari: nem. *der Lieblingsschriftsteller, die Gemäldegalerie* (ing. *the favorite writer, the picture gallery*). Bunday so‘zlarni tushunishda o‘quvchilarning bilimlariga tayanish kerak bo‘ladi.

3) ma’nolari hajmi ona tilidagi tegishli so‘zlarning ma’nolari hajmiga zid bo‘lmagan o‘zak so‘zlar: nem. *der Tisch, der Fichtenbaum, der Stuhl* (ing. *the table, the pine tree, the chair*).

4) ma’no tarkibiga ko‘ra o‘rganilayotgan tilga xos bo‘lgan so‘zlar (realiyalar): nem. *der Herr, das Brandenburger Tor, der Zwinger* (ing. *the Lord, the Brandenburg Gate, the Zwinger*). Ularning ma’nosini ona tilida izohlash orqali ifoda etiladi.

5) o‘zagi ona tili bilan umumiy bo‘lgan, ammo mazmuni jihatidan farq qiluvchi so‘zlar (bular tarjimonning aldamchi do‘stlari xisoblanadi): nem. *die Familie, das Magazin* (ing. *the family, the magazine*).

6. individual tarkibiy qismlari o‘quvchilarga ma’lum bo‘lsa-da, ona tilidagi ular bilan bog‘liq leksik birliklarning tarkibiy qismlariga o‘xshash bo‘lmagan iboralar va qo‘shma so‘zlar. Bunday so‘zlarni tushunishda eng yaxshisi kontekstga tayanish lozim bo‘ladi.

7. ma’no doirasi ona tilidagi tegishli so‘zlarning ma’no doirasidan kengroq bo‘lgan leksik birliklar: nem. *der Jahrmarkt* (ing. *the fair*). Bunday leksik birliklarning semantizasiyasi bir nechta kontekstni o‘z ichiga oladi.

8. ma’nolari hajmi ona tilidagi tegishli so‘zlarning hajmi bilan bir xil bo‘lgan leksik birliklar: nem. *der Wortschatz* (ing. *Vocabulary*) [8]

T.V.Jerebilo leksik qiyinchiliklarni quyidagicha tasnif qiladi:

- qardosh tillarning leksik birliklari ma’nolari hajmining nomutanosibligi, leksik birlikning morfemik tuzilishi haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lmaslik, chechen/rus tillaridagi bir biriga yaqin bo‘lgan so‘zlarning ma’nolariga asoslangan noto‘g‘ri assosasiyalar;

- so‘zning kombinatorial xususiyatlarining mos kelmasligi. [3; 21 — 22-b.]

Yana bir olim S.G.Ter-Minasova leksik malakalarni shakllantirishdagi qiyinchiliklarni ikki turga: tillararo va til ichki qiyinchiliklariga ajratadi. Tillararo qiyinchiliklarga ona tili va chet tillardagi so‘zlar ma’no hajmining mos kelmasligini nazarda tutadi. [198; 291-b.] Bunga misol qilib rus va ingliz tillaridagi so‘zlarning ma’no hajmidagi farqlarni keltiradi. Rus tilida нога va *рука so‘zlarning ma’no xajmi ingliz tilidagi foot — leg* va *hand — arm so‘zlariing ma’no xajmidan kengroq. Boshqa misol “золотой” so’zi золотые часы* va *золотые волосы so‘z birikmalarida bir xil ishlatiladi, lekin ingliz tilidagi ekvivalentlarida ikki xil so‘z ishlatiladi gold watch, golden hair* kabi. Rus tilida *встречать fe’li nemis tiliga qaraganda kengroq ma’noga ega va 3 ta: treffen, begegnen, empfangen fe’llari bilan ifodalanishi mumkin. ingliz tilidagi to run* so‘zi rus tilidagi *бегать* so‘zidan kengroq semantikaga ega.

S.G. Ter-Minasova tillararo qiyinchiliklarga yana stilistik konnotasiyani xam kiritadi. Olim ularni tuzoq, shuningdek, chegaraga bostirib kirmoqchi bo‘lgan "bosqinchilar" - chet elliklar bilan urushishdagi tilning mudofaa usullari («западнями и ловушками, но также и оборонительными приемами языка в его войне с „захватчиками”-иностранцами, пытающимися вторгнуться в его пределы») deya o‘xshatish qiladi.

Misol uchun *черная кошка — black cat* so‘z birikmasi rus tilida (baxtsizlik, omadsizlik keltiruvchi) salbiy konnotasiyaga ega lekin ingliz tilida aksincha (omad keltiruvchi) ijobiy konnotasiya ifoda etadi. Shuningdek, rus tilida *зеленые глаза* ijobiy konnotasiyaga ega bo‘lsa, ingliz tilida *green eyes* hasadni metafora bilan ifodalash, ya’ni salbiy ma’noga ega.

Ingliz tiliga boshqa tillardan kirgan o‘zlashma so‘zlar xam qiyinchilik tug‘diradi. Masalan tish so‘zi tooth, tish doktori lotin tilidan kirgan *dentist, sigir* so‘zi *cow, sigir go‘shti* fransuz tildan kirgan *a* beef kabi o‘zagi tubdan farq qiluvchi so‘zlari bilan ifodalanadi. Bu guruh qiyinchiliklariga til interferensiyasi (ona tili tizimining salbiy ta’siri)ni yuzaga keltiruvchi leksik birikmalar (*лексическую сочетаемость)ni xam kiritiladi. Masalan, rus tilida работать над собой* so’z birikmasi *to develop one's abilities* deb emas balki *to work at oneself* deb, *посещать занятия* ni *to attend classes* deb emas *to visit lessons* deb tarjima qilinadi. Nemis tilida *нос корабля — der Bug (Nase* deb tarjima qilinadi. Eng ko‘p qiyinchilik muqobili yo‘q bo‘lgan so‘zlar bilan bog‘liq, *Boxing day* so‘z birikmasini *день бокса* deb bera olmaymiz. Bu esa rus madaniyatida *Рождество* kunidan keyingi kunda sovg‘alar solingan qutilarni ochish marosimi nishonlanmasligi bilan bog‘liqdir. Shu kabi qiyinchiliklar idioma va frazeologik birliklar bilan xam yuzaga keladi. Masalan *a bull in a china shop — слон в посудной лавке, с глазу на глаз — unter vier Augen (nem.), face-to-face (ingl.), tête-à-tête (frans.) The police are barking the wrong tree* – frazeologik jumlani t*arjima qilishda so‘zma-so‘z emas balki tavsiflash orqali amalga oshirish kerak bo‘ladi. Bunda, polisiya noto‘g‘ri gumon qilayotgani ya’ni jinoyatga aloqasi bo‘lmagan odamdan gumon qilayotganini anglatadi. Bu kabi misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Yana bir qiyinchilik shundaki, ingliz tilida*

so‘zlar rus tiliga qaraganda ancha qisqaroq, shuning uchun ularda talaffuz va eshitish bilan bog‘liq qiyinchiliklar xam yuzaga kelishi mumkin.

Til ichki qiyinchiliklar, birinchi navbatda, so‘zlarning ko‘pma’nolilik xususiyatiga ko‘ra yuzaga keladi, masalan *get* fe’lining ma’nolari lug‘atda bir nechta sahifalarni egallaydi va to‘g‘ri tanlov uchun kontekstni bilish kerak bo‘ladi, ko‘pincha esa "tilni his qilish - *чувство языка*" yordam beradi, yana bir yo‘li so‘zlardan foydalanish uchun konkret vaziyat xam yordam berishi mumkin.

Masalan, ingliz tilida *historical* so‘zini *исторический факультет* so‘z birikmasida shunday holatda emas balki, *history faculty* shaklida tarjima qilinadi. Yana bir misol: *Он посмотрел на часы* jumlasini tarjima qilish uchun: soatni qo‘l soati *(watch*), yoki devor / stol soati *(clock)* ekanligini bilish kerak bo‘ladi. Bunda nutqning qaysi turi (регистр речи) ni: rasmiy, norasmiy, yozma nutq yoki og‘zaki nutq ekanligini hisobga olish kerak bo‘ladi. Shuningdek, britancha va amerikacha so‘z birikmalaridan to‘g‘ri foydalanishni xam o‘z ichiga oladi. Agar britanlar tomonidan yozilgan matn tarjima qilinsa, u holda *faculty* so‘zi *fakultet* deb tarjima qilinadi. Agar amerikacha matn bo‘lsa *преподавательский штат* deb tarjima qilinadi.

Keyingi qiyinchilikni so‘zlarning yasalish xususiyatlari keltirib chiqaradi. Masalan, nemis tilida *der Frühlingswind, der Herbstwind* so‘zlaridagi bog‘lovchi tovushlarning mavjudligi yoki mavjud emasligi kabilarni misol qilish mumkin.

Navbatdagi qiyinchilik ingliz tilida sinonim so‘zlarning ko‘p ekanligidadir. Masalan: *to look (смотреть): to stare (смотреть с удивлением, любопытством); to glare (смотреть со злостью, с яростью); to gaze (смотреть с восхищением, нежностью); to peer (смотреть быстро и украдкой)* va xokazolarni misol qilish mumkin.

Bundan tashqari kitobda o‘zlashtirish osonroq bo‘lgan so‘zlar quyidagicha tasniflanadi:

- ma’no hajmi ona tilidagi so‘zlarning semantik hajmiga zid bo‘lmagan so‘zlar (shu jumladan ikki tilda bir xil ma’noga ega bo‘lgan xalqaro va o‘zlashma so‘zlar: *robot, eccentric);*

- yasama va qo‘shma so‘zlar, shuningdek tarkibiy qismlari o‘quvchilarga tanish bo‘lgan so‘z birikmalari *(countless, soft-hearted).*

Turli xarakterga ega bo‘lganligi uchun ko‘proq qiyinchiliklarni keltirib chiqaruvchi so‘zlar quyidagi mezonlarga ko‘ra guruhlangan:

- mazmunan faqat o‘rganilayotgan tilga xos bo‘lgan so‘zlar *(kilt);*

- o‘zagi ona tili bilan umumiy bo‘lgan, ammo mazmunan farq qiluvchi so‘zlar (accurate);

- tarkibiy qismlari o‘quvchilarga ma’lum bo‘lsa-da, semantik ya’ni idiomatik va ma’no jihatidan ona tiliga o‘xshash bo‘lmagan iboralar va qo‘shma so‘zlar *(white elephant, breadwinner);*

- ma’no doirasi ona tilidagi tegishli so‘zning ma’no doirasidan kengroq bo‘lgan leksik birliklar *(table);*

- ona tilidagi tegishli so‘zlar ma’nolari hajmi teng bo‘lgan leksik birliklar (auditorium) [5; 291-b.].

O.A.Liskina paydo bo‘luvchi qiyinchiliklarning omili sifatida chet tildagi nutqni idrok etish va undan foydalanishning madaniy xususiyatlarini nazarda tutadi:

- o‘rganilayotgan til leksik birliklarining leksik va frazeologik moslashuvidagi qiyinchiliklar, bu har bir tilga xos bo‘lgan so‘zlarning birikish hajmi bilan belgilanadi;

- leksik birlikning polisemiyasi ya’ni, so‘zning ma’nolari turli tillarda mos kelmasligi;

- so‘zni kontekstda idrok qilishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar, masalan, so‘zma-so‘z tarjimaga butun jumlaning ma’nosini buzilishiga olib kelishi mumkin. [4].

Ch.Yuyszyan esa chet til leksikasini o‘zlashtirishda chastotalilik xususiyatini chet til leksikasini rivojlantirishga to‘sqinlik qilishini ta’kidlaydi. Chunki bu, so‘z ma’nosining o‘z o‘rnida ishlatilmasligiga, leksik birliklarning birikishi, ma’no torayishi yoki kengayishi me’yorlarining buzilishiga, paronimlarni farqlash, antonimlar, sinonimlar va omonimlarni ishlatishda noto‘g‘ri foydalanishga, ko‘p

ma’noli so‘zning ma’nosini aniqlash uchun kontekstga yetarlicha e’tibor berilmasligа sabab bo‘ladi. [9]

Olimlarning bu kabi metodik tipologiya bo‘yicha olib borgan tadqiqot ishlarini ko‘plab keltirishimiz mumkin. Mazkur nazariyalardan shu ma’lum bo‘ldiki, metodik tipologiya ko‘p funksiyali bo‘lganligi sababli turli maqsadlarni o‘z oldiga qo‘yadi. Masalan, nutq faoliyatining turiga ko‘ra material tanlash va tashkil qilish; til materialini tarkibi va shakliga ko‘ra taqqoslash; yo‘l qo‘yiladigan xato va kamchiliklar xarakteriga ko‘ra tamoyillar tanlash va boshqalar. Lekin barcha metodik tipologiyalar negizini tashkil qiluvchi asosiy maqsad bu o‘rganilayotgan chet til materialini o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishdan iborat.

Demak, metodik tipologiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) til birliklarini ular yuzaga keltiradigan qiyinchiliklarga ko‘ra tiplarga ajratish;

2) mazkur tiplarni ularni o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklar darajasiga ko‘ra tasniflash;

3) qiyinchiliklarni bartaraf etishni ta’minlovchi metodlar ishlab chiqish;

4) til materialini o‘zlashtirish darajasini yanada takomillashtirishga yordam beruvchi mashqlar tizimini yaratish.

Biz mazkur dissertasion ishimizda ingliz tilidagi terminologik leksikaning mazmuni, tarkibi, hosil bo‘lish omillari, ta’lim sharoitlarining ob’yektiv sabablarini inobatga olgan holda ularni o‘rganishda yuzaga keluvchi qiyinchiliklarni va ularni bartaraf etish usullarini tadqiq etishni maqsad qilib oldik.

O.A. Liskinaning fikricha metodik tipologiyada leksikani o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarga qarab guruhlarga ajratish uslubiy jihatdan maqsadga muvofiqdir. Bunda so‘zlarning shakli, vazifasi va ma’nosi jihatidan qiyinchiliklar ajratib ko‘rsatiladi. Leksik birliklarning funksional xususiyatlari ularning eng muhim xarakteristikasi bo‘lganligi sababli, ularni funksional qiyinchiliklar nuqtai nazaridan darajalanishi eng to‘g‘ri yondashuv xisoblanadi. So‘zning funksional xususiyati - bu uning ma’no xususiyatlari jumladan: hajm, ko‘pma’nolilik, ona tili interferensiyasi kabilar, so‘zning konkret muloqot jarayonlariga muvofiq ravishda foydalanish xususiyatlarini belgilaydi. [4] Olimning mazkur nazariyasini yoqlagan xolda biz xam

qiyinchiliklar tipologiyasini yaratishda tyerminlarning funksional xususiyatlarini nazarda tutdik.

Shu o‘rinda interferensiya va transpozisiya tushunchalariga ta’rif berib o‘tishni lozim topdik. **Transpozisiy**a - ijobiy ta’sir, **interferensiya** - salbiy ta’sir.

Ona tilidan keyingi navbatda o‘rganiladigan har qanday til ikkinchi deb hisoblanadi. Uni o‘rganishda o‘ziga xos qiyinchiliklar paydo buladi. Oldin o‘zlashtirilgan birinchi tilning yordam berishi (transpozisiya) yoki xalaqit berishi (interferensiya) xollari yuz beradi. Boshqa tomondan qaralsa, ikkinchi til o‘z navbatida ona tiliga o‘rganiladigan chet tilga ham salbiy yoki ijobiy ta’sir qiladi. [1] Biz tasnif qilgan qiyinchiliklar tipologiyasida interferensiya tufayli xosil bo‘lgan qiyinchiliklarni transpozisiya yordamida bartaraf etish mumkinligi ochiqlangan.

Biz dissertasion ishimizning o‘rganish ob’yekti bo‘lgan energetika sohasi terminlarining metodik tipologiyasini ishlab chiqishda Respublikamizdagi nofilologik oliy o‘quv yurtlari chet til professor - o‘qituvchilaridan va energetika mutaxassisligi talabalaridan sohaviy terminlarning ahamiyati va o‘zlashtirish darajasini aniqlash bo‘yicha anketa – so‘rovnomalar, yozma ishlar oldik. O‘tkazilgan so‘rovnomalar va yozma ishlar asosida erishilgan natijalar va yuqorida tahlil qilingan metodist olimlar jumladan, N.V.Nikolayev [7], S.F.Shatilov [8], T.V.Jerebilo [3; 21 — 22 b.], S.G.Ter-Minasova [5; 291-b.], O.A.Liskina [4] larning metodik tipologiya xaqidagi nazariyalarini va terminlarni o‘qitish va o‘zlashtirishdagi mavjud qiyinchiliklar va kamchiliklarni tahlil qilgan holda **energetika sohasi terminlarinig metodik tipologiyasini** quyidagicha tasnif qildik: (1-rasmga qarang)



1-rasm. Energetika sohasi terminlarining metodik tipologiyasi.

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, yuzaga keluvchi qiyinchiliklarni ikkita asosiy guruhga ajratilgan:

1. **Tillararo interferensiya qiyinchiliklari;**
2. **Til ichki interferensiya qiyinchiliklari.**

Mazkur guruhlar xam o‘z navbatida quyidagi kichik guruxlarga bo‘linadi:

1. Tillararo interferensiya qiyinchiliklari;

1) Oson o‘zlashtiriladigan terminlar (easy to learn):

a) shakl va ma’no jihatidan bir-biriga mos keluvchi faqat talaffuz jihatidan farq qiluvchi internasional va o‘zlashgan terminlar, masalan: *avtomatik - automatic; adiabatik – adiabatic; atom – atom; blok – block; ventilyator – ventilator; volt – volt; gaz – gas; generator – generator* va xokazo.

2) Qiyin o‘zlashtiriladigan terminlar (difficult to learn):

a) shakl va ma’no jihatidan bir-biriga mos kelmaydigan terminlar, masalan: *agregat – unit; bog‘lama – yoke; bug‘- steam; gidrotexnika - hydraulic engineering; gidroagregat - hydroelectric unit; yonish - combustion* va xokazo.

b) terminli so‘z birikmalar: bunda terminlarning boshqa so‘zlar bilan birikishida qiyinchilik yuzaga kelishi mumkin, ya’ni boshqa so‘zlar ta’sirida termin o‘zgarishi mumkin, masalan: *ishqalanish- rub, ishqalanish kuchi – friction; kollektor – collector, kollektor halqasining siqilishi - commentators ring; kompensasiyalash –*

compensate, reaktiv quvvatini kompensasiyalash - indemnification of jet power; mufta – muff, o‘tish muftasi (biriktirgichi) – adapter, shaxobchalash muftasi - tee joint va xokazo.

2. Til ichki interferensiya qiyinchiliklari:

1) Oson o‘zlashtiriladigan terminlar (easy to learn):

a) o‘zagi bir bo‘lgan, so‘z yasovchi qo‘shimchalar orqali yangi termin xosil qilish oson bo‘lgan yasama so‘zlar, masalan: *izolyator – insulator, izolyasion – insulation, izolyasiya – isolation, ion - ion, ionlanish - ionization, kation - cation, kationlash – cationing; kompensator – compensator, kompensasiya – compensation, kompensasiyalash - compensate* va xokazo.

2) Qiyin o‘zlashtiriluvchi terminlar (difficult to learn):

a) Sinonim terminlar: *asbob - uskuna –apparatus (arrangement, device, equipment, facility, means, gear, unit); vtulka - bush(ing) (sleeve); zanjir - circuit (chain); kanal - canal (channel); kengaytirgich – expander (flash box, flash-tank, dilator)* va xokazo.

b) Polisemik ya’ni ko‘p ma’noli terminlar. Bunda bir ma’nosi umumfoydalaniluvchi so‘z sifatida ishlatiluvchi, ikkinchi ma’nosi esa termin sifatida ishlatiluvchi so‘zlar: *power - energiya (termin sifatida), kuch (umumfoydalaniluvchi so‘z sifatida); critical – kritik, tang (termin sifatida), tanqidiy (umumfoydalaniluvchi so‘z sifatida); matter – modda (termin sifatida), mazmun (umumfoydalaniluvchi so‘z sifatida); nominal – ishchi (termin sifatida), nomlash - (umumfoydalaniluvchi so‘z sifatida); hand – strelka (termin sifatida), qo‘l (umumfoydalaniluvchi so‘z sifatida); current – tok (termin sifatida), joriy (umumfoydalaniluvchi so‘z sifatida)* va xokazo.

Biz taklif qilayotgan mazkur leksik qiyinchiliklar tipologiyasi leksik birliklar semantikasi va ularning sintagmatik va paradigmatik xususiyatlarini qamrab oladi. Ushbu turdagi qiyinchiliklar bo‘lajak mutaxassislarga, leksik kompetensiyani rivojlantirish jarayonida, terminlarni o‘qitishda namoyon bo‘ladi, ammo biz chet til leksikasi bilan ishlashda yuzaga keladigan muammolar faqat mazkur ko‘rsatilgan qiyinchiliklar bilan chegaralanib qolmasligini ta’kidlamoqchimiz.

Bo‘lajak muxandis talabalar tomonidan ingliz tilining leksik tizimini o‘zlashtirishda biz taklif qilgan qiyinchiliklar tipologiyasi bizning o‘quv jarayoni uzoq kuzatuvimizga asoslangan bo‘lib, o‘quv jarayonida talabalarning leksik muammolarini xal qilishga imkon beradi.

Bizning kuzatishlarimiz natijasi shuni ko‘rsatdiki, o‘rganilayotgan leksikaning yuqorida sanab o‘tilgan xususiyatlarini to‘liq bilmaslik, leksik birlikni ishlatishda eng ko‘p uchraydigan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ya’ni, talabalar ko‘pincha leksik birliklarning muhim bo‘lgan: semantik, paradigmatik, sintagmatik va xokazo xususiyatlarini anglamaydilar va bu leksikani reseptiv va produktiv o‘zlashtirishda qiyinchiliklar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, ikki tillilik sharoitida, ona tili va rus tillari leksik tizimlari interferensiyasi tufayli xam chet til leksikasini o‘zlashtirishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bu tur qiyinchiliklarni, asosan tilni bilmaslik ya’ni, o‘zbek talabalarining rus tilini va rus talabalarning o‘zbek tilini bilmasliklari sababli yuzaga kelishini xisobga olib, biz taklif qilayotgan qiyinchiliklar tipologiyasi tarkibiga kiritmadik.

Demak, yuqoridagi taxlillar natijasi shuni ko‘rsatadiki, mavjud qiyinchiliklar, bo‘lajak mutaxassislarning leksik kompetensiyasini rivojlantirishda to‘siq bo‘lishi muammolarini bartaraf etishni ta’minlovchi, maxsus metodika ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Buning uchun til materialini o‘zlashtirish darajasini yanada takomillashtirishga yordam beruvchi maxsus mashqlar tizimini yaratish lozim bo‘lmoqdi.

Leksikaning metodik tipologiyasi o‘quv jarayonida leksik materialni oqilona tartibga solishga imkon beradi. Bunda chet til so‘zlarining funksional-semantik xususiyatlari hamda ona tili va xorijiy tillarning o‘zaro ta’sir omillari hisobga olinishi maqsadga muvofiq.

Yuzaga keluvchi qiyinchiliklarni bartaraf etish omillari sifatida quyidagilar tavsiya etiladi:

- leksik birliklarni o‘zlashtirishda turli xil qiyinchiliklarga duch kelinganligi sababli, ularni o‘rganish samaradorligini oshirish uchun o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarni belgilash va ularni tiplariga qarab guruhlarga ajratish kerak.

- leksik birliklarni guruhlash va tushuntirishda ular keltirib chiqaradigan qiyinchiliklar jihatlariga e’tibor qaratilishi va ularni bartaraf etish yo‘llarini izlash lozim bo‘ladi.

- matndagi notanish so‘zlarning ko‘pligi o‘quvchilarning ularni tushunishlariga salbiy ta’sir qiladi va o‘quv materialini o‘zlashtirishda to‘siqlar paydo bo‘lishiga olib keladi. Chet tilini o‘rganishda leksik qiyinchiliklarni muvaffaqiyatli bartaraf etish qobiliyati eng muhim vazifalardan biridir. O‘rgatilayotgan til materialidagi notanish so‘zlarning optimal foizi 5% deb belgilangan chegaradan oshib ketmasligini ta’minlash maqsadida o‘quvchilarga leksik qiyinchiliklarni bartaraf etishda yordam berish muhimdir.

Metodik tipologiyada leksikani o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarga qarab guruhlarga ajratish uslubiy jihatdan maqsadga muvofiqdir. Bunda so‘zlarning shakli, vazifasi va ma’nosi jihatidan qiyinchiliklar ajratib ko‘rsatiladi. Leksik birliklarning funksional xususiyatlari ularning eng muhim xarakteristikasi bo‘lganligi sababli, ularni funksional qiyinchiliklar nuqtai nazaridan darajalanishi eng to‘g‘ri yondashuv hisoblanadi. So‘zning funksional xususiyati - bu uning ma’no xususiyatlari jumladan: hajm, ko‘pma’nolilik, ona tili interferensiyasi kabilar, so‘zning konkret muloqot jarayonlariga muvofiq ravishda foydalanish xususiyatlarini belgilaydi.

Bo‘lajak mutaxassislarda leksik kompetensiyani shakllantirishga yo‘naltirilgan mashqlar tizimi “Energetika” sohasi terminlarini o‘zlashtirishda yuzaga keluvchi qiyinchiliklar tipologiyasiga ko‘ra ishlab chiqilib, asosan terminlarning semantikasi va ularning sintagmatik va paradigmatik xususiyatlarini qamrab oladi. Mazkur mashqlar tizimi mavjud qiyinchiliklarni bartaraf etishni va bo‘lajak mutaxassislarning sohaviy terminlar bilan ishlash, o‘zlashtirish va nutqda qo‘llash malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Jalolov J.J Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik / J.J. Jalolov. — Toshkent: O‘qituvchi, 2012. — 432 b.

2. Дигтяр О.Ю. Организация лексического материала и его усвоения как фактор, соопределяющий эффективность обучения иноязычной лексике: английский язык, средняя ступень школьного обучения. Дисс.. канд. пед. наук. Владимир: -2009. 191с.

3. Жеребило Т.В. Анализ ошибок в устной и письменной речи / Т.В. Жеребило// [Текст] учебное пособие по спецкурсу. – Назрань: Пилигрим, 2008. – 92 с., 21-22 бет.

4. Лискина О.А. Формирование лексических навыков в системе дополнительного образования как важнейший этап подготовки к успешной межкультурной коммуникации / О.А. Лискина // Вектор науки Тольяттинского государственного университета, – 2011. – № 4. – С. 462-465.

5. Миролюбов А.А. Методика обучения иностранным языкам: традиции и современность / Под ред. А. А. Миролюбова. — Обнинск: Титул, 2010.— 464с.

6. Мясников А.А. Роль терминологической лексики в формировании коммуникативной компетенции студентов-не филологов. дис. … канд. пед. наук. – Санкт-Петербург. 2009. 195с.

7. Шамов А.Н. Лексические навыки устной речи и чтения – основа семантической компетенции обучаемых // Иностранные языки в школе. 2007. № 4. С. 19–21.

8. Шатилов С.Ф. Методика обучения немецкому языку в средней школе. Учебное пособие для студентов педагогических институтов. — 2-е изд., дораб. — М.: Просвещение, 1986. — 223 с.

9. Юйцзян Ч. Пути преодоления лексических ошибок в речи китайских учащихся / Ч. Юйцзян // Учёные записки ЗабГУ Серия: Филология, история, востоковедение. – 2012. – №2. – С. 275 – 278.

ПАХТА ТОЛАСИНИ ТОЗАЛАШ ЖАРАЁНИ НАЗАРИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ ШАРҲИ

Абдурахимов Комилжон Каримович
Саримсаков Олимжон Шарифжанович
Namangan muhandislik-texnologiya instituti
yoldashev93992020@mail.ru

Аннотация. Маълумки, пахта толасига зарба ёки силкитиш кучи таъсир этса, ундаги ифлос заррачаларнинг хом ашёга нисбатан ҳаракати содир бўлади, бу ўз навбатида унинг хом ашё таркибидан ажралиб кетиш интенсивлигини оширади. Толанинг аррали цилиндрга илашган ҳолда колосник панжараси бўйлаб ҳаракати давомида унинг таркибидаги заррача билан тўрли юза орасида контакт кучи ҳосил бўлиб, унинг таъсири остида заррачалар фазовий ҳаракатга келади, бунинг натижасида уларнинг бир қисми юзанинг очиқ жойларидан ташқарига чиқиб кетади.

Калит сўзлар: пахта, чигит, калта тола, тола, ҳаво босими.

1. Пахта толасини тозалаш жараёни назарий тадқиқотлари

Шундай механизмни тавсифлаш учун А.Г.Севостьянов томонидан модел таклиф этилган [4]. Бу моделга кўра, тўрли юзадаги хом ашё миқдорининг камайиши унинг массасига ва масса эгаллаган ҳажмнинг ўзгаришига тўғри пропорционал бўлади.

А.Г.Севостьянов моделига кўра тола таркибидаги ифлос аралашмаларнинг ажралиб чиқиши бу ҳол учун, толани тозалаш зонасига тушадиган масса m билан боғлиқлиги ва унинг зичлигини ρ қуйидагича кўринишда бўлиши мумкин:

$$\frac{dm}{m} = \lambda \frac{d\rho}{\rho}$$

бу ерда: $\lambda = 1/(1+a)$, $a > 0$ – мутаносиблик коэффициенти.

Толали материалларни тозалаш жараёнининг назарий таҳлиллари кўп ҳолларда шу моделга асосланган. Бу тадқиқотларни ривожлантиришга профессор Б.Мардонов катта ҳисса қўшди [5].

Охирги тенгламани интеграллаб, қониқтирувчи ҳолларда $m = m_9$ (m_0 – вақт бирлиги орасида биринчи ва иккинчи колосниклар орасидаги зоналарга тушадиган тозаланмаган тола массаси), $\rho = \rho_c$ бўлганда $\alpha = 0$ биринчи ва иккинчи тозалаш зонаси учун қуйидаги тенглама олинган:

$$\frac{m_1}{m_0} = \left(\frac{\rho_1}{\rho_c}\right)^{\lambda} \qquad (1.1)$$

Боғланишни (3) ҳисобга олган ҳолда,

$$\frac{m_1}{m_0} = [1 + A(p_1 - p_c]^{\lambda} \text{ бўлганда } 0 < \alpha < \alpha_0, \qquad (1.2)$$

Толанинг аррали цилиндр ва колосникли панжара зонасидаги ҳаракатини узлуксиз муҳит ҳаракати сифатида қараб, қатламдаги массанинг ҳар бир сектордаги ҳаракат тенгламасини оғирлик ва ишқаланиш кучини эътиборга олган холда Эйлер формуласи ёрдамида ёзиш мумкин [6]:

$$\rho_j v_j \frac{dv_j}{d\alpha} = -\frac{dp}{d\alpha} + \rho_j gR(\cos\alpha - f\sin\alpha) - f\rho_j v_j^2 \qquad (1.3)$$

Бу ерда $\rho_j = \rho_j(\alpha)$, $v_j = v_j(\alpha)$ ва $p_j = p_j(\alpha)$ функциялар орқали хом ашёнинг $\alpha_{j-1} \le \alpha \le \alpha_j$ сектордаги зичлиги, тезлиги ва босими белгиланган.

Тенглама 3 та ноаниқликни ўз ичига олади: p, ρ ва v. Бу тенгламаларни боғлаш учун сиқилган муҳит ҳолатидан фойдаланамиз, бунда қувват p ва зичлик ρ орасидаги алоқа юзага чиқади:

$$\rho = \rho_c[1 + A(p - p_c)] \qquad (1.4)$$

ва массани сақлашдаги оқимнинг стационар ҳаракатланиш қуйидагича бўлади:

$$\rho v S_0 = Q_0 \qquad (1.5)$$

бу ерда: $S_0 = k_0 Lh$ – оқимнинг кўндаланг кесишув қатлам майдони;

h – қатлам қалинлиги;

L – барабан узунлиги;

k_0 – юқоридаги қозиқчалар тола билан туташув майдонининг камайганлигини кўрсатувчи коэффициент;

Q_0 – тозалагич иш унуми;

ρ_c, p_c – тола юқорига келиб арра тиши билан туташгандаги унинг босими ва зичлиги;

A – хом ашёнингсиқилиш доимийси.

Унда $A<<1$ (1.5) дан тезликни аниқласа бўлади:

$$v = v_c[1 - A(p - p_c)] \qquad (1.6)$$

Қозиқчанинг хом ашёга бўлган зарбида оқимдаги тезлик қуйидагича $v_c = \beta v_k$ кўринишга эга, бу ерда v_k – қозиқчанинг чизиқли тезлиги, $\beta < 1$ – тезликнинг пасайиш коэффициенти, бу тажриба йўли билан аниқланади. $v_{ср} = 0{,}5v_k$ – қабул қилинган тозалаш жараёнидаги толанинг ўртача тезлиги.

Формула (1.6) даги , хом ашё билан арра тишининг юқори қисми учрашиш ўзаро таъсирини топган:

$$\rho_c = \frac{Q_0}{S_0 v_c} \qquad (1.7)$$

Бу тенгламадан тола оқимининг тозалаш жараёнидаги зичлиги аниқланади.

2. Пахта толасини тозалаш жараёни назарий тадқиқотлари

Исмоилов А.А. ишида [7] пичоқлари ўзгарувчан қадамда ўрнатилган ва аэромеханик тозалаш усули асосида ишлайдиган айланувчи барабан шаклида ишлаб чиқарилган тола тозалаш машинасининг янги конструкциясини ишлаб чиқди ва толани тозалаш жараёнини назарий ва амалий равишда ўрганди. Толалардан бегона ифлос аралашмаларини ажратиш учун оптимал шароитларни аниқлаш мақсадида пахта толасининг тола тозалагичнинг ишчи органлари билан ўзаро таъсири ўрганилди. Тола тутамининг турли шаклдаги панжаралар билан ўзаро таъсирида зарба импулсининг ўзгариши

экспериментал равишда ўрганилди ва пичоқли айланувчи барабаннинг рационал параметрлари тавсия этилди.

Котов Ю.С. [8] ўз ишида уч босқичли тўғри оқим туридаги тола тозалагичнинг аэродинамик, техник ва технологик хусусиятларини ўрганган, бунинг натижасида чиқиш бўйинидаги иш босимида аэродинамик қаршилик аниқланган, бу нисбатан энг кам аҳамиятли ҳисобланади. Уч босқичли тола тозалагичнинг асосий ишчи органларининг оптимал геометрик параметрлари топилди. Пахта толаси ҳаракатининг тенгламалар тизими аррали цилиндрнинг айланиш жараёнида ҳосил бўлган ҳаво оқими билан таъсирлашиш пайтидан бошлаб, арра тишининг олдинги юзига тўғри келадиган пайтгача олинади. Ҳаракат қонунидан арра тишининг олдинги юзи бўйлаб сирғанаётган толанинг нисбий тезлиги аниқланади.

Бабахонова М.Р. [9] ифлослик аралашмалари ва тола ўртасидаги боғланишнинг мустаҳкамлигига таъсир қилувчи асосий омилларни кўриб чиқди. Муаллиф ёпишиш кучларининг эмпирик боғлиқлигини алгебраик кўпҳад шаклида беради. Таъкидланишича, майда ифлосликларнинг толали массага ёпишиш кучи асосан ифлослик массасига ва толанинг намлигига боғлиқ.

Тадқиқотчилар Турсунов Х.К. [10] толани тозалаш жараёнининг механикасини кўриб чиқди. Аниқланишича, тола тозаловчи машиналарнинг пластмасса панжаралари ишлаганда чиқиндиларнинг толадорлиги пасаяди, тозаланган толадан тутамнинг сифат кўрсаткичлари ортади. Худди шу мақолада тутамга кўндаланг таъсир назариясидан фойдаланишга асосланган толани тозалаш машинасининг панжараси учун юклаш модели таклиф этилади. Транссендентал тенгламалар тизими тузилган.

Хулоса қилиб айтганда ҳисоблаш натижалари шуни кўрсатдики, панжара четининг радиуси камайиши билан тутам ва панжара орасидаги ишқаланиш кучи ортади ва муаллиф тозалаш жараёнини яхшилаш учун тозалаш вақтини камайтириш керак, деган хулосага келади. Панжара четининг радиуси 0,3 mm гача.

Буларнинг барчаси толани тозалаш технологияси ва асбоб-ускуналарини такомиллаштириш, ишлаб чиқарилаётган толанинг чиқиндиларда йўқотилишини минималлаштирган ҳолда тозалаш самарадорлиги ва давлат стандартига жавоб берадиган сифатини таъминлаш масалаларини ҳал этиш зарурлигини кўрсатади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Madumarov Sanjarbek Rustamjonovich, Jurayev Yuldashhon Yunuskhan Ugli, Yuldashev Khasanboy Sulayman o’g’li, GENERAL INFORMATION ON THE IMPORTANCE OF FEEDSTOCK DENSITY AND SPEED IN THE FIBER SEPARATION PROCESS, ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE, International scientific-online conference, October 20, 2022, https://doi.org/10.5281/zenodo.7229260

2. Samad S.Azimov, Ibrohimjon T.Tursunov , Khasanboy S.Yuldashev, DEVELOPMENT OF THE DESIGN OF A FEEDER OF VIBRATION ACTION FOR SUPPLYING COTTON SEEDS TO LINTER MACHINES Proceeding IX International Conference «Industrial Technologies and Engineering» ICITE – 2022, Volume IV M. Auezov South Kazakhstan University, Shymkent, Kazakhstan December 09-10, 2022

3. Yuldashev Khasanboy, Komiljon Abduraximov, Maftuna Inamova, Kamoldin Mirgulshanov, Study Of The Process Of Cleaning Seedcotton INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND CURRENT RESEARCH CONFERENCES “SCIENCE, EDUCATION, INNOVATION IN THE MODERN WORLD” CONFERENCE DATE 15-10-2021, Pages:44-50. https://doi.org/10.37547/iscrc-intconf14

4. Yuldashev Khasanboy , Maftuna Inamova, Mansur Qobilov, Abrorbek Abduxaliqov, Effect Of Moisture Continent In The Process Of Storing, Drying And Cleaning The Seed Cotton. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND CURRENT RESEARCH CONFERENCES “SCIENCE, EDUCATION, INNOVATION IN THE

MODERN WORLD” CONFERENCE DATE 15-10-2021, Pages:34-39. https://doi.org/10.37547/iscrc-intconf14

5. Sarimsakov Olimjon Sharipjanovich, Kurbanov Dilmurod Maripjanovich, Yo’ldashev Xasanboy Sulaymon O’gli, Jurayev Yo’ldashxon Yunusxon O’g’li, INVESTIGATION OF LOSING FIBER DURING CLEANING COTTON. «Zamonaviy dunyoda amaliy fanlar: muammolar va yechimlar» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya, May 18, 2022. https://doi.org/10.5281/zenodo.6559924

6. Sharipov Xayrullo Numonjanovich, Yo’ldashev Xasanboy Sulaymon O’gli, Jurayev Yo’ldashxon Yunusxon O’g’li, Urinboyev Bekzod Baxtiyor o’g’li, “RESEARCH OF LOSING FIBER CLEANER TECHNOLOGIES AND FOREIGN LINT CLEANER TECHNOLOGIES. RESEARCH OF LOSING FIBER CLEANER TECHNOLOGIES AND FOREIGN LINT CLEANER TECHNOLOGIES”. https://doi.org/10.5281/zenodo.6559910

7. Sarimsakov Olimjon Sharipjanovich, Yo’ldashev Xasanboy Sulaymon O’gli , Sharipov Xayrullo Numonjonovich, Madumarov Sanjarbek Rustamjonovich, INVESTIGATION OF SEPARATION OF USABLE FIBERS ADDED TO CONTAMINANTS DURING CLEANING COTTON “O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR” JURNALI 20-MAY, 2022-YIL

8. Sulaymonov Abror, Inamove Maftuna, Yuldashev Khasanboy, THEORETICAL STUDIES OF THE NATURE OF THE INTERACTION OF COTTON SEEDS IN THE GAP BETWEEN THE AGITATOR BLADE AND THE SAW CYLINDER, EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. Volume 2 Issue 11, October 2022 ISSN 2181-2020 Online: 18TH October 2022. Pages: 666-672. https://doi.org/10.5281/zenodo.7218857

9. Jurayev Yuldashhon Yunusxon ugli, Yuldashev Khasanboy Sulayman ugli, Tuhktaev Sherzod Solijanovich, INVESTIGATION OF FIBER LOSS IN IMPURITIES FROM THE SS-15A SEPARATOR. EURASIAN JOURNAL OF

ACADEMIC RESEARCH. Volume 2 Issue 11, October 2022 ISSN 2181-2020.Pages:425-431. https://doi.org/10.5281/zenodo.7193675

10. Yo’ldashev Xasanboy Sulaymon o’g’li, Qurbanov Dilmurod Maripjanovich, Maxmudova Gulshanoy Odiljon Qizi, INVESTIGATION OF FOREIGN LINT CLEANING SYSTEM TECHNOLOGIES. PEDAGOGLAR legal, medical, social, scientific journal, Pages:151-161. https://doi.org/10.5281/zenodo.5813657

11. Yo’ldashev Hasanboy Sulaymon o’gli , Xoshimov O ’tkirbek Xakimjon o’g’li, O ’rinboyev Bekzod Baxtiyor o’g’li, STUDY OF CLEANING PROCESSING OF SEED COTTON IJODKOR O‘QITUVCHI ILMIY-USLUBIY JURNAL 5 NOYABR / 2021 YIL / 12 – SON.Pages:209-213.

12. Sarimsakov Olimjon Sharipjanovich. Yo’ldashev Xasanboy Sulaymon O’gli, Sharapova Xayrullo Numonjonovich, Madumarov Sanjarbek Rustamjonovich, INVESTIGATION OF SEPARATION OF USABLE FIBERS ADDED TO CONTAMINANTS DURING CLEANING COTTON O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI.20.05.2022.Pages:448-455

BERDAQ ShÍǴARMALARÍNÍŃ IZERTLENIW JAǴDAYLARÍ

Tleumuratova N.M.

Qaraqalpaqstan Respublikası pedagoglardı jańa metodikalarǵa úyretiw milliy orayı aǵa oqıtıwshısı

Annotaciya: Bul maqalada Berdaq miyraslarınıń jańa kóz-qaraslarda izertleniwi jaǵdayları hám Berdaq shayırdıń dástanlıq shıǵarmaları boyınsha ilimiy jumıs alıp barǵan ilimpazlardıń miynetleri analiz etilgen.

Annotaciya: Bu maqolada Berdaq me’roslarining yangi qarashlarda tadqiq etilishi va Berdaq shoirning dostonlik ba’diiy asarlari bo'yicha ilmiy faoliyat olib borgan olimlarning asarlari tahlil etilgan.

Аннотация: В данной статье анализируются исследования наследия Бердаха и работы ученых, проводивших научную деятельность над эпическими произведениями поэта.

Gilt sózler: qaraqalpaq ádebiyatı, toplam, dástan, Berdaq shıǵarmaları, milliy miyras, ilimiy miyraslar

Kalt so'zlar: qoraqalpoq adabiyoti, to’plam, doston, Berdaq asarlari, milliy me’ros, ilmiy me’roslar

Ключевые слова: каракалпакская литература, сборник, эпос, произведения Бердака, национальное наследие, научное наследие.

XIX ásir qaraqalpaq ádebiyatınıń oǵada keń rawajlanǵan dáwiri bolıp tabıladı. Sebebi bul dáwirde qaraqalpaq xalqınıń atın álemge tanıtatuǵın eń jaqsı klassikalıq dóretpeler jaratıldı. Atap aytqanda, Ájiniyazdıń «Bozataw», «Demishler» shejiresi, Berdaqtıń «Shejire», «Xorezm», «Qulen bolıs» dástanların aytıp ótiwge boladı. Xalqımızdıń usınday bay ruwxıy tariyxı haqqında bizler óz tariyxımızdı, ádebiyatımızdı, tilimizdi bárin óz qolımız benen qayta jaratıp, qásterlep izertlep úyreniwge tiyislimiz. Bunıń ayqın dáliyli Berdaqtıń «Qulen bolıs» shıǵarması 1950-jılı Berdaqtıń toplamında tolıq járiyalanıp, keyninen bunı úyreniwge bolmaytuǵın

xalıqqa qarsı shıǵarma dep sol toplamda tolıǵı menen joq etip jiberilip sońınan ǵárezsizlik jıllarında bul dástan haqqında alımlarımızdıń pikirleri ózgerip, dástanda belgili bir tariyxıy adam obrazın, tulǵasın, is-háreketlerin, tereń adamgershiligin sıpatlawǵa arnalǵan tariyxıy kólemli dóretpe sıpatında bahalaydı.

Berdaq miyrasları ǵárezsizlik dáwirinde jańa kóz-qaraslarda izertlenip, úyrenilmekte. Bul baǵdarda izertlewshi marhum alım A.Murtazaev, sonday-aq X.Hamidov, S.Baxadırova, A.Pirnazarov, Á.Paxratdinov óz pikirlerin bildirgen. Akademik H.Xamidovtıń «Rukopisnoe nasledie Berdaxa» miynetinde Berdaq shayırdıń qaraqalpaq xalqınıń oǵada ullı klassik shayırı, milliy ádebiy miyraslardıń dóretiwshisi, úlken aǵartıwshı, ensiklopedist bilimdanlıǵı, óz xalqınıń tariyxın birinshi ret jazǵan milliy tariyxshı ekenligin hár tárepleme izertlenip úyrenildi. [1;192]

Berdaq haqqında usı dáwirge shekem jazılǵan miynetlerdiń sanı 300 den aslam, mine, sol ilimiy miynetlerdi, izertlewlerdi házirgi dáwir kóz-qaraslarınan qaldırmay talqılap úyreniw, Berdaq shıǵarmalarınıń túp nusqasına kewil bóliw, ayrıqsha alǵa qoyıladı.

Berdaq boyınsha keń túrde shuǵıllanǵan kandidatlıq hám doktorlıq dissertasiyalardı jazǵan belgili alım, filologiya ilimleriniń doktorı Aydar Murtazaev bılay jazǵan edi: «Bir nárse bizlerdiń hámmemizdi ókindiriwge tiyisli. Ol da bolsa, ádebiyattaǵı ulıwma klassikalıq miyraslarımızdı, folklorımızdı, iskusstvomızdı, milliy tábiyiy nusqasında retke keltirip, olarǵa erkin biyǵárez qalıs pikirler aytıp, izertlewler júrgize almaǵanımız. Bunnan bılayǵı bizlerdiń hám keleshek áwladtıń usı olqılıqlardı tolıqtırıw bas wazıypası bolmaǵı zárúr» [2;14-15] Durısında da milliy miyraslarımızdı qádirlew hám qásterlew, olardı túp nusqasında qayta tiklep durıs bahalawǵa házirgi kún tártibinde turǵan eń áhmiyetli másele bolıp qaladı.

Berdaq shıǵarmaların birinshi ret izertlewshiler N.Dáwqaraev, Q.Ayımbetov, O.Kojurov, I.Saǵıytovlar boldı. 60-jıldıń aqırı, 70-jıllardan baslap Berdaq dóretpeleri boyınsha monografiyalıq izertlewler kitap bolıp shıǵa basladı. Tariyx imlimleriniń kandidatı, professor M.Tilewmuratovtıń «Berdaq shıǵarmalarında tariyxıy derekler» [3;314] (Nókis-1968) hám «Qaraqalpaq poeziyası – tariyxıy derek» (Nókis 1995),

I.Saǵıytovtıń «Sahra búlbili» (Nókis-1974), K.Xudaybergenovtıń «Общественно-политические взгляды каракалпакских мыслителей XIX и начало XX веков» (Nukus-1975), B.Qurbanbaevtıń «Berdaq ijodi» (Toshkent-1982), Á.Paxratdinovtıń «Berdaq shayırdıń dástanlıq shıǵarmaları» (Nókis-1987) atlı miynetlerinde Berdaq shayırdıń ómiri hám onıń dóretiwshiligi jóninde bir qansha pikirler bildirilgen. Berdaqtıń iri kólemli shıǵarmaları jóninde, olardıń tariyxıylıǵı haqqında da pikirler aytılǵan. 90-jıllarda shayır tvorchestvosı doktorlıq dissertasiyalardıń izertlew obyektine aylandı. Marhum A.Murtazaev «Berdaqtıń sheberligi» degen temada 1993-jılı doktorlıq dissertasiyasın jaqladı. Usı jılı onıń «Berdaq shıǵarmalarında zamanagóylik hám sheberlik» (Nókis-1993-jılı) atlı miyneti baspadan shıqtı. Bul miynetlerinde Berdaqtıń tvorchestvosı tereń bahalandı.

Berdaq shayırdıń dástanlıq shıǵarmaları boyınsha ilimiy jumıs alıp barǵan filologiya ilimleriniń doktorı, professor Á.Paxratdinov boldı. Ilimpaz Berdaq shayırdıń dóretiwshiligi menen shuǵıllanıp, shayırdıń iri kólemli shıǵarmaları onıń tariyxıylıǵı haqqında da hár tárepleme izertlegen.

Berdaq miynetlerin Nájim Dáwqaraevtan baslap Qallı Ayımbetov, O.Kojurov, N.Japaqov, A.Murtazaev, Q.Maqsetov, I.Saǵıytov, S.Bahadırova, Á.Paxratdinov, A.Pirnazarov, akademik H.Xamidov, K.Mámbetov hám basqa da alımlar jeterli úyrenip shıqqan. Olardıń bárshe ilimiy miynetleri bizge ilimiy metodikalıq negiz bolıp xızmet etpekte.

Berdaq shıǵarmlarındaǵı ele úyrenilmey kiyatırǵan táreplerin ashıw, biziń tilimizge, dinimizge, tariyxımızǵa, dástúrlermizge baylanıslı oǵada kóp ideyalardıń sáwlelengen táreplerin úyrenip olardı búgingi jas áwladlarǵa jetkerip beriw baslı wazıypalardan biri sanaladı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Хамидов Х. Рукописное наследие Бердаха. Н., 1993
2. Murtazaev A. Berdaq shıǵarmalarında zamanagóylik hám sheberlik. N.,1993
3. Tleumuratov M. Berdaq shıǵarmalarında tariyxıy derekler. N., 1968
4. Tleumuratov M. Qaraqalpaq poeziyası tariyxıy derek. N., 1995.

ЧИГИТ САРАЛАШ ҚУРИЛМАСИДА ФРАКЦИЯЛАРГА АЖРАТИШ ТАДҚИҚОТЛАР ТАҲЛИЛИ

Исаев Шахбоз Шавкатжонович

Phd. isayevshahboz90@gmail.ru

Инамова Мафтуна Дедамирза қизи

acc. inamova93@mail.ru

Азимов Нуриддин Усмонжонович

Талаба nuriddinazimov34@gmail.com

Аннотация: Илмий мақолада республикамиз тўқимачилик саноатининг асосий хом ашёси сифатида ишлатилишини ҳисобга олиб, шу йўналишда мавжуд техника ва технологияларни такомиллаштириш долзарб масалалардан ҳисобланиши тадқиқотлар таҳлиллари асосида аниқланди. Республикамиз ҳамда хорижий олимлар томонидан олиб борилган илмий изланишлар натижалари асосий яратилган жинланган чигитларни саралаш ва тозалаш қурилмалари афзаллик ва камчилик жиҳатлари таҳлил қилиниб, мазкур тадқиқотнинг мақсад ва вазифлари белгилаб олинди.

Калит сўзлар: пахта, чигит, калта тола, Косонсой пахта тозалаш корхонаси.

Аннотация: В научной статье было замечено, что в хлопкоочистительных установках при отделении волокна от семян волокна остаются на внешней поверхности отделенных семян, которые отделяются от хлопкоочистительной машины. В проведенных экспериментах подробно изучались рабочие процессы семя сортировочного оборудования, а также колебания нового устройства и случаи изменения во времени. В результате проведенных экспериментов установлено, что устройство для сортировки семян может быть использовано в технологическом процессе и будет работать на необходимом уровне производительности.

Ключевые слова: хлопок, семена, короткое волокно, инструмент, ЭЮК. осцилограмма

Annotation: In the scientific article, it was observed that in the ginning plants, when the fiber is separated from the seeds, the fibers remain on the outer surface of the separated seeds, which are separated from the gin machine. In the experiments carried out, the operating processes of the seed sorting equipment were studied in detail, as well as the oscillations of the new device and the cases of change over time. As a result of the experiments, it was determined that the seed sorting device can be used in the technological process and will work at the required level of productivity.

Keywords: cotton, seeds, short fiber, instrument, EYUK. Ostsilogram

Назарий тадқиқотлардан кўринадики, камера ичидаги чигит ҳаракати тезлиги таъсир кўрсатар экан. Ҳаракат тезлигини ўзгартириб чигитнинг сепарацион камерада ҳаракатини бир маромда бўлишини ва шу билан бирга саралаш самарасини таъминлаш мумкин. Чигитларнинг ишчи камерада ҳаракати пайтида унинг бир маромда ҳаракатланишига, иш унумдорлигига ҳамда саралаш жараёнига салбий таъсир этувчи омиллар мавжуд. Амалий тадқиқотлар чигит саралагичнинг тажриба нусҳасида олиб борилди. Жиндан чиқган пахта чигит хом ашёсини физик-механик ва табиий хусусиятларини сақлаган ҳолда қайта ишлаш пахта тозалаш корхоналарининг бирламчи вазифасига киради.

Ҳозирги кунда Косонсой пахта тозалаш корхонаси мутахассислари билан бирга ушбу механик чигит саралагич тажрибавий конструкцияси тайёрланди. Шу билан бирга экспериментал тадқиқотларни ўтказилди.

1-жадвал

Тажрибалар натижасида олинган жиндан чиққан чигитлар фракциялари

№	Селекцион нави	Ифлослиги %	Шикастланиши %	Тукдорлиги %
1	С-6524	0,4	0,3	11,5
2	Андижон-35	0,3	0,2	11,6
3	Наманган-77	0,4	0,4	11,2

2-жадвал


1 кг чигитларни фракцияларга ажратилган натижалари

Селекцион нави	Чигит нуқсондорлик массаси, %	Чигитнинг тукдорлик даражаси, %	Чигит ифлослиги, %	Чигит пучлиги, %	Чигит намлиги, %	Тажриба учун олинган 200 та чигит массаси	Толаси бор чигитлар, %
Nam-77	0,60	14,00	0,36	0,07	8,60	22,84	4,39
С65-24	0,55	13,66	0,52	0,06	8,58	22,82	3,90

3-жадвал

Чигит саралагичда дастлабки тажрибалар натижаси

№	Айланишлар тезлиги	Ўртача	Пуч ва ифлос чигитлар, %	Тоза чигитлар, %	Линтер-ланадиган чигитлар, %	Жинга қайтадиган чигитлар, %
1	10	20	0,4	20,8	78,3	0,5
2	20		0,35	20,8	78,3	0,5
3	30		0,3	20,8	78,3	0,5



1-расм. Барабан айланишлар сонининг чигит ифлослигига таъсири

Кейинги ишда чигит саралагичда чигитларни саралаш бўйича турли параметрларга эга барабанлар айланишлар сони бўйича ўрганишлар амалга оширилди ҳамда қуйидаги графиклар олинди (1-расм).

Унга қаралса, чигитлар ичида энг кўп улуш – 1500 тадан 426 тани 10,4 мм бўлган чигитлар ташкил этишини кўриш мумкин. Бу 28 % ни ташкил этади. Кейинги ўринларда 385 та (25%) 10 мм ли, 312 та (21%) 9,6 мм ли чигитлар ташкил этади. Бошқа чигитлар миқдори 10 % дан ҳам паст.

Уларга кўра, муайян навдаги пахта чигитларининг 20-25% ини 6-10 мм йўғонликдаги чигитлар, 27 % ини солиштирма оғирлиги энг юқори бўлган чигитлар ташкил этади. Саралашда ушбу 3 фракцияни умумий массадан ажратиб олиш талаб этилади.

Саралагич бўйича ўтказилган назарий тадқиқот ишларини адабий шарҳлар натижаларини ҳисобга олган ҳолда ҳамда дастлабки бир омилли экспериментда чиқувчи параметрларга таъсир этувчи кирувчи омиллар яъни оптималлаш параметрлари сифатида қуйидагилар танлаб олинди: Y_1-қурилма иш унумдорлиги, кг/соат; Y_2 - саралаш самарадорлиги, %;

Амалий ва назарий тадқиқотлар асосида самарадорликка сезиларли таъсир кўрсатувчи омилларни танлаб олиш ҳамда параметрларни асослаш бўйича маълум метод асосида тўла омилли тажриба ўтказилди.


Таъсир этувчи омиллар шнек ва тўрли юзанинг айланиш тезлиги билан машинанинг унумдорлиги (кг/соат) ва тукдорлик ва саралаш самарадорлиги (%)

орасида тўғри чизиқли регрессион боғланиш бор эканлиги экспериментлардан аниқланди. Юқоридагилардан келиб чиқиб синовлар учун тўла омилли тажриба (ТОТ) 2^2 матрицаси асосида тажрибалар ўтказилиб, регрессион математик модел оламиз. 5-жадвалда режанинг табиий берилиши келтирилган.


4-жадвал

Тажрибани ўтказиш режаси

Омиллар	I тажриба			
	X_{min}	X_{max}	Δ	X_0
Шнек тезлиги, айл/мин	10	30	10	20
Тўрли юза тезлиги, айл/мин	10	30	10	20
x_1, x_2	-1	1		0



2-расм. Регрессион чизиқнинг чиқиш параметри *y* (унумдорлик, кг/соат) нинг ҳар хил қийматларидаги графиги



3-расм. Регрессион чизиқнинг чиқиш параметри у (тукдорлик, %) нинг ҳар хил қийматларидаги графиги

Чигит саралагич учун қурилманинг самарали ишлаши ва чигит тукдорлигини чиқувчи параметрлар сифатида олинди. Чигит саралаш қурилмасининг вақт бирлиги ичида ишлаб чиқарган маҳсулоти унумдорлиги асосий омил сифатида аниқлаб олинган. Тадқиқотлар натижасида олинган

омиллар таҳлилига кўра, юқоридаги графиклар (2, 3-расмлар) таҳлилидан кўриниб турибдики кирувчи омил сифатида олинган шнекнинг айланиш тезлиги ва тўрли юзанинг айланиш тезлиги ортиб бориши ҳолатлари маҳсулот чиқаришнинг унумдорлигига тўғри таъсир қилмоқда. Унумдорликнинг тўғридан-тўғри ошириб бориши -1 дан 1 гача ҳолатда таъсир қилди, яна бир омил сифатида олинган тукдорлик учун бизда рационал ҳолат 0,4 дан 0,2 ни оралиғида бўляпти.

Чигит саралаш қурилмаси технологик параметрларини аниқлаш мақсадида тўлиқ омилли статистик таҳлиллар ўтказилди ва регрессион тенгламалар асосида мақбул қийматлар: шнек тезлиги 20 айл/мин ҳамда тўрли юза тезлиги 20 айл/мин эканлиги аниқланди.

Хулоса қилиб айтганда **б**арабан айланиш сонига боғлиқ ҳолда ўтказилган амалий тадқиқотлар натижаларига кўра, сараланаётган пуч чигитлар 0,4% ни тукдорлиги паст бўлган чигитлар 20,8% ни линтерлашага мойил бўлган чигитлар 78,3% ни ва толаси бор чигитлар эса 0,5 % ни ташкил этади. Таклиф этилаётган қурилмада механик оқимининг йўналиши бўйича 20 айл/дақиқа чигитларни фракцияларга ажратишда, оптимал саралаш самарадорлигига эришилади

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Р.М.Мурадов., С.Т.Режаббоев., С.Хонтўраев., М.Бабева Чигитни саралашда чиқиндиларни тешиклардан чиқишини амалий тақиқ этувчи дастури таминот ЭХМ дастури бўйича DGU 2021 0836 рақамли

2.Ўзбекистон Республикаси Интелектуал мулк агентлигига фойдали моделга патент топширилган. FAP 20210023

3.М.А.Тожибоев., М.Инамова., С.Т.Режаббоев Пахтани чигит сифат кўрсаткичларининг лаборотория шароитида таҳлили Наманган муҳандислик технология институти Академик инновация фонди «Пахта, тўқимачилик ва энгил саноати маҳсулотлари сифатини таминлашнинг замонавий консепцияси» Халқаро илмий-амалий конференсия, 2020. №1.Б. 197-199. nammti_ilmiy@bk.ru

ONA TILI SAVODXONLIGI VA MATEMATIKA FANI UYG`UNLASHUVIGA OID TOPSHIRIQLAR MAZMUNI

G`oyibnazarova Nargiza Raximjonovna

Namangan viloyat PYMO`MM maktabgacha, boshlang`ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi katta o`qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola ona tili savodxonligi va matematika fani darslarini uyg`unlshtiruvchi topshiriqlarni o`rgatish yo`llari haqida yozilgan

**Kalit so`zlar:** uzviylik, og`zaki va yozma yozma nutq, matematika fani, tushunchalar, topshiriq, mazmun

СОДЕРЖАНИЕ ЗАДАНИЙ ПО СОЧЕТАНИЮ ГРАМОТНОСТИ НОСИТЕЛЯ ЯЗЫКА И МАТЕМАТИЧЕСКОЙ НАУКИ

Гойибназаровой Наргизы Рахимжоновпый

Национальный центр обучения педагоговновым методикам старший преподаватель кафедры методики методики дошкольного, начального и специального образования

Аннотация: данная статья написана о способах обучения грамоте на родном языке и заданиях, гармонизирующих уроки математики

Ключевые слова: непрерывность, устная и письменная речь, математика, концепции, задание, содержание

CONTENT OF ASSIGNMENTS ON THE HARMONIZATION OF NATIVE LANGUAGE LITERACY AND MATHEMATICS

Goyibnazarova Nargiza Rakhimjonovna

Namangan Regional National Center of Teaching New Methodologies to Teachers

Annotation: this article is written about ways to teach lessons in native language literacy and mathematics on harmonizing assignments

Keywords: continuity, oral and written written speech, mathematics, concepts, assignment, content

Fanlar o`rtasidagi o`zaro uzviylik tabiat va jamiyat voqealari o`rtasidagi mavjud uzviylikning obyektiv in’ikosidir. Binobarin, o`zaro uzviylik tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarga xos umumiy va muhim xususiyat sanaladi.

O`quv fanlariaro uzviylikka xos xususiyat avvalo, darsda qo`yilgan maqsad va vazifalarga hamda o`uvchilarning hayotiy ko`nikmalarni egallashiga erishuvini shakllantirishiga qarab belgilanadi. O`zaro bog`liqlikligining muvaffaqiyati esa darsda fanlar o`rtasidagi uyg`unlikni to`g`ri va aniq tomonlarini ko`rsatishdadir.

Boshlang`ich ta’lim ona tili darslarida o`quvchilarni og`zaki va yozma nutqini o`stirish bilan bir qatorda ularga berilgan topshiriqlar orqali boshlang`ich sinf ona tili va matematika fanini bog`liq tomonini ochib berish mumkin. Berilgan ta’limiy topshiriqlar o`quvchiarg ona tili va matematika faniga bog`lanish jihatlarini ko`rsatish bilan bir qatorda fanlarni o`zaro bog`lik ekanini ko`rsatib beradi.

Quyida shunday topshiriqlar orqali ona tili fani bian topshiriqlar orqali matematika faniga bog`lanish jarayonini ko`rib chiqamiz.

1-topshiriq. Ushbu so'zlardan mazmuni matematikaga oid gap hosil bo`lsin.

“Shaboda” guruhiga: Bino Sabzi

“Shabnam” guruhiga: Paxta Shaxmat

“Tong” guruhiga: Deraza Archa

Masalan: Bino to`rtburchak shaklda qurilgan ekan

Haxmat doskasi kvadratga o`xshaydi

Deraza oynalari oltita tortburchak shklli ekan

2-topshiriq: Berilgan so`zlarni o`rnini almashtirib yangi so`zlar hosil qiling.

Hosil- sohil ; kalit- tilak;

Berilgan so`zlardagi harflardan bohlanadigan matematika faniga xos so`zlar topib yozing?

Kesma – kema, eshik, son, metr, ayrish

Raqam- rom, ayirma, qo`shish, abakus, millimetr

3-topshiriq: So`zlardagi nechanchi o`rinda turgan harf boshqa o`ringa almashdi. Uni o`rinlarini qaysi o`rindagi harf almashganini aniqlash orqali ham

M: Hosil- sohil ; -s -3 o`rindan birinchi o`ringa almashdi, -h undoshi 3 o`ringa almashdi.

”Tushunchalar tahlili” metodi Bu metoddda o`quvchilarga tuli metematika oid belgilar beriladi ularni tushunhtiruvchi mazmuni ikkinchi cjizmaga yoziladi.

Tushunchalar	Mazmuni
6	Raqam
85	Son
	To`ri to`rtburchak
+	Qo`shish ishorasi

“To`g`ri talaffuz qil” ta’limiy topshirigida ham o`quvchilar berilgan sonlarni to`g`ri talaffuz qilishlari va ularning shakllarini to`g`ri yozishlari vazifasi beriladi. O`quvchilar uni quyidagicha bajaradilar

Masalan: 33-o`ttiz uch; 3 uch ; 64-oltmish to`rt;, 67-oltmish yetti; , 94-to`qson to`rt ; 47, 70, 32, 45, 36, 94

Matematika darsligida sonlarni xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi ko‘rinishida yozing deyilgan topshiriq o`rin olgan. Buni o`quchilar quyidagicha sonlarni raqam bilan ifodalab yozadilar:


Beriishi: uch yuz o‘n sakkiz yetti yuz yigirma yetti

3+100+10+8= 121 7+100+20+7= 134

Bu o`rinda ham matematika va ona tili fanlarini uyg`unlashuini ko`rish mumkin.

**Ziyraklik” o`yini** bunda rasmlarning usti yopib qo`yiladi. So`ngra 10 soniyaga ochib, o`quvchilardan uning qanday ketma-ketlikda joylashganini eslab qolishlari kerakligi so`raladi. (Bunda rasmlar ko`rgazmada osib qo`yilgan yoki slaydda ekranda ham namoyish qilinishi mumkin.) So`ngra rasmlarning o`rnini almashtirib qo`yib,

avvalgi holatida qanday ketma-ketlikda joylashganligini aniqlashadi. Mashqning so`nggi bosqichida ko`rsatilgan rasmlar ishtirokida bitta gap tuzish vazifasi beriladi.



Bunday topshiriq ishlarining ahamiyati shundan iboratki, o`quvchilar o`z bilim va ko`nikmalari - hayotiy tajribalariga, darslik va boshqa manbalardan ona tili savodxonligi va matematika fanlari o`rtasidagi bog`liqlikni anglashga doir bilimlari takomillashadi. Hayotiy ko`nikmalari shakllanadi, o`rgangan bilimlariga asoslanib mustaqil ijodiy faoliyat yuritadilar. Topshiriqlarni bajarish jarayonida o`quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyati va shu bilan birga fanlar o`rtasidagi interratsiyalashuv jarayonini ko`radilar, anglaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. T., O'qituvchi", 1013- yil.

3. I. Ikromova R. Grammatika, “Imlo va nutq o'stirishdan tarqatma materiallar”. T., «O'qituvchi», 1993 -yil.

KO’CHIRMA GAPLAR MAVZUSINI O’TISHDA ILG’OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Kuvatova Nafisa Zayerjonovna

SamDChTI akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola Ko’chirma gaplar mavzusini o’tishda ilg’or pedagogik texnologiyalardan foydalanish haqida bo’lib mavzu yuzasidan tadqiqotchi olimlarning fikr va mulohazalari chuqur o’rganib chiqildi.

Kalit so‘zlar: o`zga gap, dialog, ko`chirma gap, muallif gap, o`zlashtirma gap, nutq, qo`shma gap.

KIRISH

Bilamizki, o’zga gapli qurilmalar nutqdagi vazifasi, ohangi va tuzilishi jihatdan mustaqil tuzilmalar hisoblanadi. O’zga gapli qurilmalar nutq jarayonida boshqalarning fikr-mulohazasini bayon qilishda o’zga shaxs va so’zlovchi nutqining qorishuvi natijasida yuzaga keladigan sintaktik birliklardir. O’zganing gapi bu biror-bir shaxsning fikrini so`zlovchi o`z nutqida ishlatishi ya’ni muallif gapi orqali berilishidir.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarining nutqida ham dialog yoki boshqa nutqiy bayonotlarga qaraganda boshqa birovning nutqi juda ko`p ishlatiladi. Lekin ular aslida o`zga gap haqida nazariy ma’lumotga ega bo`lishmaydi. Shuning uchun ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarning og`zaki va yozma nutqida uchraydigan o`zga gaplarning tadqiqi haqidafikr yuritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Ma’lumki, o`zga gaplar nutqni boshqa bir insonga yetkazib berishda insonlar uchun asosiy yordamchidir. Bunday o`zga gaplardan katta-yu kichik birdek foydalanishadi. O`zga gaplar tuzilish jihatdan murakkab qurilma bo`lsa ham, xattoki boshlang`ich sinf o`quvchilari ham bundan keng foydalanishadi. Garchi, ularga bu davrda qo`shma gaplar haqida nazariy bilimlar berilmasada.

Ular o`zga gaplardan nafaqat og`zaki so`zlashuv jarayonida balki, yozma shakllarida ham foydalanishadi. Ko`chirma gapli qo`shma gaplar va o`zlashma gaplar 1-sinf maktab darsliklaridan berilib boriladi.

Masalan,

VAQT QADRI

Bobo nabirasini

Chaqirar der: “Hoy Boqi,Yorib qo`y shaftolini

Qishga bo`ladi qoqi”

Boqi der: “Jon bobojon,Biroz o`ynab kelayin.

So`ngra kelib, siz aytganIshlaringiz qilayin”.

Boqivoy kech kirganda Kirib keldi chang bo`lib.Bobosi qarar unga

Asabi tarang bo`lib. Boqi butun kunini O`yin bilan o`tkazdi.Oltinga teng vaqtini

Behudaga ketkazdi. Abdulla Po`latov[1]

Ushbu she’rda bolalarga xos bo`lgan voqealik tasvirlangan bo`lib, o`zga gapli qurilmalarga murojaat qilingan. Bu o`zga gaplar she’rni bo`yoqdorligini oshirishda va ma’nosini yaxshiroq yetkazib berish uchun qo`llanilgan. She’rda o`zga gap sifatida chol va nabiraning so`zlari keltirilmoqda. O`zga gapning ko`chirma gapli qo`shma gap turidanfoydalanilgan.

Bobo nabirasini

Chaqirar der: “Hoy Boqi,Yorib qo`y shaftolini

Qishga bo`ladi qoqi” Boqi der: “Jon bobojon,Biroz o`ynab kelayin.

So`ngra kelib, siz aytgan

Ishlaringiz qilayin” misralarida muallif gap birinchi, ko`chirma gap esa mullif gapidanso`ng ikkinchi o`rinda qo`llanilmoqda.

NATIJALAR

Insonlar so`zlashuv jarayonida nutqlarida juda ko`p turli xil so`zlardan va jumlalardan foydalanadilar. Bu jumlalarning ichida xatto boshqa bir shaxsning qachonlardir gapirib o`tgan nutqlaridan ham foydalanadilar va fikrlarini shu orqali bayon qiladilar. Boshqa birovning gapi o`zga gaplar deb ham ataladi. O`zga gaplar

ko`proq dialoglarda, so`zlashuv jarayonlarida uchraydi va yozma nutqlarda o`z aksini topadi. Bunday qo’llangan o’zgalarning gapi so’zlovchi nutqida hech qanday o’zgarishsiz kiritilishi yoki mazmuni saqlangan, ammo grammatik xususiyatlari o’zgartirilgan holda qo’llanishi mumkin. Bunga ko`ra o`zga gaplar, asosan, ikki turga bo`linadi:

1. Ko’chirma gapli qo’shma gap.
2. O’zlashtirma gap.

Mazmun jihatdan ham leksik, grammatik tuzilishi va xususiyatlari jihatidan ham umuman o`zgartirishsiz nutqqa tayyor holda olib kirilgan o`zga gap ko`chirma gap deyiladi. Bunday gaplar odatda so`zlovchi ya’ni muallif gapi bilan birga qo`llaniladi. Shunga ko`ra ko`chirma gap ikki qismdan tashkil topadi. Ular quyidagilar iborat: 1) o`zganing gapi ya’ni ko`chirma gap 2) so`zlayotgan shaxsning gapi ya’ni muallif gap.

Ko`chirma gaplarning qo`llanilishi:

1. Ko`chirma gaplar aksariyat hollarda muallif gapidan keyin keladi. (M : “K”.)

Masalan, Bugun Lev Tolstoyning quyidagicha fikrlarini o`qib, ta’sirlandim va zamirida qanchalik haqiqat borligini tushunishga urindim: “Qalbimizda Ollohning nuri bor. Uning nomi esa vijdondir”.

2. Ko`chirma gaplar muallif gapidan oldin kelishi ham mumkin.

Masalan, “Eng kuchli inson bu sabr qilgan insondir. Eng boy inson bu shukur qilgan insondir”, —deydilar onam.

3. Ko`chirma gaplar ba’zi hollarda muallif gapning orasida keladi. (M: “K”, — M.)

Masalan, “Jumladan, T.Bushuy, Sh.Safarovlar til birliklari orasidagi munosabatlarni an’anaviy tarzda sintagmatik, paradigmatik va ierarxik munosabatga ajratgan holda, paradigmatik munosabatga quyidagicha ta’rif beradilar: “Assotsiativ yoki paradigmatik munosabatlar birliklarning ayrim xususiyatlari umumiyligi yoki o`xshashligi asosida muayyan guruhlarga bo`linib, munosabatga kirishuvidir”.[2]

Ko`chirma gaplar muallif gapidan oldin (“K”,—M.) ham, keyin (M : “K”.) ham ishlatilishi mumkin. Ba’zi hollarda muallif gapining orasida (M: “K”, — M.) ham qo`llaniladi. Shuning uchun so’zlovchi gapi ko’chirma gap ichida va ko’chirma gap muallif gapi ichida keladi.

Imlosi: Ko`chirma gap yozma nutqda doimo qo`shtirnoq bilan ishlatiladi. Agar ko`chirma gap darak gap sifatida qo`llanilib, so`zlovchining nutqidan oldin qo`llanilsa, ko`chirma gap qo`shtirnoqqa olinadi va undan so`ng vergul va tire qo`yiladi. Tiredan so`ng muallif gapi yoziladi va oxiriga nuqta qo`yiladi.

Masalan: "Ayollar har narsani kechirishi mumkin, lekin hech narsani unutishmaydi”, — dedi dugonam Gulruh. Uning ko`rinishi quyidagicha bo`ladi: "K",—S.

Agar ko`chirma gap muallif gapidan keyin kelsa, muallif gapidan so`ng ikki nuqta qo`yiladi va qo`shtirnoq bilan ko`chirma gap yoziladi, qo`shtirnoq berkitilgach nuqta qo`yiladi. (M : “K”.)

Masalan, Ulug`bekning shiori quyidagicha edi: “Agar reja ish bermasa, rejani o`zgartiring.

Ammo maqsadni o`zgartirmang.

Agar ko`chirma gap muallif gapining orasida kelsa, muallif gapdan so`ng ikki nuqta qo`yiladi, qo`shtirnoq ichida ko`chirma gap ishlatilib, vergul va tire qo`yiladi. Undan so`ng yana muallif gapi qo`llanilib nuqta bilan yakunlanadi. (M: “K”, — M.)

Masalan, X. Shamsiddinovning qayd etishicha, “Bu jarayonda ko`ruv sezgisiga mansub xotira tasavvurining ishtiroki eng faol hisoblanadi. Buning o`z sabablari mavjud. Birinchidan, inson borliq haqidagi informatsiyaning asosiy qismini ko`ruv sezgisi a'zosi–ko`z orqali oladi: narsa- hodisaning shakli, rangi, holati, miqdori, harakati haqidagi ma’lumotlar ko`ruv sezgisi orqali shakllanadi. Ikkinchidan, ko`ruv sezgisi orqali olinadigan informatsiya narsa-hodisaning bevosita kontaktisiz muayyan masofa orqali ham shakllanishi mumkin. Shu sababli ham nom berilishi kutilayotgan narsa-hodisaga nom berishda ko`ruv xotira tasavvurlari assotsiatsiyasining o`rni beqiyos va unumlidir”[3] degan fikrlarni keltirib o`tgan.

So’zlovchi gapining kesimi ko’pincha dedi, aytdi, dedi, deb so`zlab berdi, deb so’radi, deb javob berdi, aytib berdi, gapirdi, so’zladi, aytdi kabi fe’llar bilan ifodalanadi.

Ko`chirma gap doimo muallif ya’ni so`zlovchi gapi bilan birga keladi va muallif gapi ko`chirma gapning kimga tegishligini izohlab keladi.

MUHOKAMA

Boshlang`ich sinf o`quvchilari nutqida yuqorida keltirilgan o`zga gapning barcha turlaridan uchratish mumkin. O`zga gaplar xatto she’riy jumlalar ichida ham keltirilishi mumkin. Masalan, 1-sinf “Ona tili va o`qish savodxonligi” darsligida quyidagicha misralar orasida foydalanilgan:

MEHRIBON KELINOYI

Men hech qachon darsimniDadamga qildirmayman.

Bajarolmay qiynalsam, Ayamga bildirmayan. Qiyin masalalarni Yechib bermaydi akam.

“O`zing bajar” –deb mendan Nari qochadi opam.

Vazifamni-chi doim

Qilib berar…kelinoyim. Xudoyberdi Komilov[4]

XULOSA

Boshlang`ich sinf o`quvchilari ongida o`zga gap haqida to`liq to`g`ri tushunchalar shakllanmagan. Ularning ba’zilari o`zga gap haqida kichik yoshdagi bolalar bilmagan faqat katta yoshli insonlar tomonidan foydalaniladigan gaplar majmuini tushunadilar, ba’zilari esa o`zga gap bu boshqa qishloq yoki shaharda yashovchi insonlar so`zlashadigan til deb tasavvur qiladilar. Lekin ular nutqlarida doimiy ravishda o`zga gaplarning barcha turlaridan foydalib keladilar. Ular o`zga gap haqida to`g`ri tushunchalarga ega bo`lib, dialoglarda kengroq foydalansalar, nutq va lug`at boyliklari oshib, dunyoqarashlari yanada kengayadi.

ADABIYOTLAR:

1. “Ona tili va o`qish savodxonligi” 1-qism: 1-sinf uchun darslik/ I.Azimova va boshqalar.-Toshkent Respublika ta’lim markazi, 2021.-20-bet

2. Lutfullayeva D.E. “Assotsativ tilshunoslik nazariyasi”/Monografiya/-

T:MERIYUS,2017. 23-bet

3. Lutfullayev D.E. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi/Monografiya/-T: MERIYUS, 2017. 52-bet

4. “Ona tili va o`qish savodxonligi” 1-qism. 1-sinf uchun darslik/ I.Azimova va boshqalar-Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. 12-bet.

5. Tillaboyeva, G., & Umarova, N. R. (2021). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA BADIIY TAXALLUSLARNING QO „LLANILISHI. Студенческий вестник, (13-5), 70- 72.

6. Tillaboyeva, G. S. Q. (2022). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDA “SHAXS” TUSHUNCHASI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(2), 182-196.

7. Qizi, G. S., & Umarova, N. R. (2021). The use of anthroponyms and pseudonyms in alisher Navoi’s gazelles. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(9), 349-353.

8. Tillaboyeva, G. S. Q. (2022). TILSHUNOSLIKDA LIBOS NOMLARI. Scientific progress, 3(4), 506-514.

9. Gulnoza, R., & Lola, K. (2022). OBRAZLAR TALQINIDA LINGVISTIK IMKONIYATLAR. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(Special Issue 3), 91-95.

10. Gulnoza, R., & Lola, K. (2022). OBRAZLAR TALQINIDA LINGVISTIK IMKONIYATLAR. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(Special Issue 3), 91-95.

11. Usmanova, O. S. (2022). National curriculum and new generation mathematicstextbook. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(2), 11-16.

12. Shuxratova, Y. (2021, March). DRAMATIC WORKS AND THE SADCONCEPT OF SPEECH. In Archive of Conferences (Vol. 17, No. 1, pp. 266-268).

13. Шухратова, Ю. Ш. (2021). SIMILARITY AND COMPARISON INCOMPOUND SENTENCES. Экономика и социум, (5-1), 454-457.

РАҚАМЛИ МАРКЕТИНГ ШАРОИТИДА КОРХОНАЛАР ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Файзуллаев Шухрат Шерали ўғли

Тошкент давлат иқтисодиёт университети таянч докторанти

Аннотация. Ушбу мақолада агросаноат корхоналарда рақамли маретингни қўллаш масалалари ҳақида сўз боради. Шунингдек, Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг қишлоқ хўжаликларининг рақамли маркетинг ва бизнес ечимларидан фойдаланиши бўйича таҳлилий маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: рақамли маркетинг, қишлоқ хўжалиги, фермерлар, платформа, сўров, рақобат.

Сўнги йилларда мамлакат иқтисодиёти ривожланишининг барча кўрсаткичлари бўйича белгиланган прогноз кўрсаткичлар бажарилмоқда. Иқтисодиётнинг ривожланишида янги босқичга олиб чиқилди. Жаҳон мамлакатларининг иқтисодиёти нисбатан паст суръатларда ривожланиб турган бир пайтда мамлакатимизда амалга оширилган иқтисодий ислоҳотлар натижасида эришилган ютуқлар халқимизнинг ва мамлакатимиз раҳбарининг тинимсиз меҳнати ва саъй-ҳаракатлари эвазига эришилмоқда.

Жаҳон иқтисодиётида истеъмолчиларга қаратилган юқори эътибор, нарх самарадорлиги ва харидор ҳамда сотувчи орасидаги юқори интерактивлик каби сабабларга биноан, рақамли маркетинг анъанавий маркетингдан устунлик қилмоқда. Истеъмолчи ва бизнес секторларининг эътибори анъанавий маркетинг медиа воситалари бўлмиш телевизор, радио, босма нашриётларга қараганда рақамли маркетингнинг медиа воситалари хисобланган интернет, ижтимоий тармоқлар, симсиз алоқа воситалари ва тезкор қидирув қурилмаларига кўпроқ қаратилмоқда[27].

[27] З.А.Хакимов, У.У.Шарифходжаев. Интерактив ва рақамли маркетинг. Ўқув қўлланма. Тошкент. “Иқтисодиёт” 2019. 11 б.

Бугунги кунда истеъмолчига қаратилган юқори эътибор, нарх самарадорлиги ва харидор ҳамда сотувчи орасидаги юқори интерактив тезлик каби сабабларга биноан рақамли маркетинг анъанавий маркетингдан устунлик қилмоқда. Истеъмолчи ва бизнес секторларининг эътибори анъанавий маркетинг медиа воситалари бўлмиш телевизор, радио, босма нашриётларга қараганда рақамли маркетинг медиа воситалари интернет, смартфонлар, симсиз алоқа воситалари ва тезкор қидирув қурилмаларига кўпроқ қаратилмоқда.

Мамлакатимизда иқтисодиётнинг бошқа соҳалари қатори қишлоқ хўжалиги соҳаси ҳам жадал суръатлар билан ривожланмоқда. Мамлакат иқтисодиётининг ривожланишида асосий омиллардан ҳисобланган ҳамда мамлакат иқтисодиётининг бошқа соҳалари ва тармоқларининг ривожланишига катта туртки берадиган аграр соҳанинг ривожланишига, маҳсулот сифатини оширишга, корхоналар ўртасида соф рақобат муҳитини яратишга катта эътибор қаратилмоқда. Бошқа соҳалар ва тармоқларда бўлгани каби, ушбу соҳада ҳам, унинг турли тармоқлари ва корхоналарида ҳам модернизациялашга, маҳсулот сифатини оширишга, корхонада маркетинг стратегияларини тўғри танлашга, стратегия таҳлили орқали прогноз кўрсаткичларини белгилашга, техник-технологик янгиланишга эътибор қаратилмоқда.

Бу ишларни амалга оширилиши ҳар бир корхонада маркетинг фаолиятидан кенг миқёсда фойдаланишни ва рақамли маркетинг стратегиялари орқали агросаноат корхоналарининг самарали фаолиятини амалга оширишни талаб қилади. Маркетинг стратегияси корхона имкониятларини бозорга мослаштириш, корхонанинг келгусидаги товар, нарх сотиш, коммуникация бўйича ривожланиш стратегияларини ишлаб чиқиш, истеъмолчиларнинг талаб ва ҳоҳишларини эркин рақобатли айрибошлаш орқали эҳтиёжларини қондиришга қаратилган ижтимоий жараёндир.

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг қишлоқ хўжаликларининг рақамли бизнес ечимларидан фойдаланиш имкониятини оширишга ёрдам бериш ва COVID-19 инқирозидан кейин кучли озиқ-овқат таъминоти занжири орқали

озиқ-овқат хавфсизлигини қўллаб-қувватлаш мақсадида тайёрланган янги ҳисоботи 2022-йил 3-июн куни эълон қилинди[28].

Фермерлар ўртасида интернетдан фойдаланиш частотаси ва ҳудудига қараб ўрганилди.

Фермерлар ўртасида интернетдан фойдаланиш соҳаларини ўрганган сўровларда маълум бўлишича, атиги 16 фоизи онлайн таълим ва кенгайтириш хизматларидан, 54 фоизи эса қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришидаги муаммоларга ечим топишда интернетдан фойдаланади. Бундан ташқари, рақамли маркетинг ҳақида маълумотга эга бўлган фермерлар MoAF Digital Agriculture Market (DİTAP) платформасидан фойдаланиш эҳтимоли 68 фоизни ташкил қилади. DİTAPнинг фермерлар учун аҳамиятини яққол кўрсатадиган тадқиқот платформадан маркетинг фаолияти билан бир қаторда секторда хабардорликни ошириш учун ҳам фойдаланиш мумкинлигини кўрсатмоқда. Ҳисоботда, шунингдек, онлайн расмий ўқитиш ва кенгайтириш хизматлари ҳақида маълумот тарқатиш муҳимлиги ва MoAF таркибидаги Қишлоқ хўжалиги ўрмон академияси каби ишончли маълумот манбаларидан фойдаланиш зарурлиги таъкидланган. Фермер аёлларнинг рақамли маркетинг платформаларига кириши қўллаб-қувватланиши керак.

Сўровда қатнашган фермер аёлларнинг қарийб 88 фоизи қишлоқ хўжалиги маркетингида гендер тенгсизлик борлигига рози. Бу фермер аёлларни қўллаб-қувватлаш ва уларнинг рақамли маркетинг платформаларига киришини осонлаштириш зарурлигини таъкидлайди. Хотин-қизлар кооперативлари билан суҳбатлар шуни кўрсатадики, уларнинг айрим аъзоларида уяли телефон йўқ ва улар одатда турмуш ўртоғининг телефонидан керак бўлганда фойдаланадилар. Шу нуқтаи назардан, ҳисоботда фермер аёлларни профессионал кўмак, интернетга уланиши учун зарур бўлган зарур жиҳоз ва воситалар билан таъминлаш, шунингдек, кўплаб кооперативларни ташкил этишга алоҳида эътибор қаратилган. [29]

[28] https://www.undp.org/turkiye/news/solutions-accessing-digital-marketing-agriculture
[29] https://www.undp.org/turkiye/news/solutions-accessing-digital-marketing-agriculture

Рақамли платформаларнинг талаб ва таклиф таҳлили йўлидаги биринчи қадам бўлган ҳисобот фермерлар томонидан рақамли платформалардан фойдаланишни ошириши мумкин бўлган муҳим омилларни аниқлайди ва кўпроқ ҳудудлар ва фермерларни ўз ичига олган батафсилроқ тадқиқотлар ўтказишни тавсия қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. З.А.Хакимов, У.У.Шарифходжаев. Интерактив ва рақамли маркетинг. Ўқув қўлланма. Тошкент. “Иқтисодиёт” 2019. 11 б.

2. Marketing Management, Second Edition Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2015 by McGraw-Hill Education. All rights reserved. Printed in the United States of America.

3. Strategik marketing. Ergashxodjaeva Sh.Dj. - T .: “IQTISODIYOT”, 2019. - 236 b.

4. Современный стратегический анализ : учебное пособие / Е.Ю. Кузнецова [и др.] ; под общей ред. проф., д-ра экон. наук Е.Ю. Кузнецова.— Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2016.— 131 с.

5. https://www.undp.org/turkiye/news/solutions-accessing-digital-marketing-agriculture

MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG’RIKENGLIK BIZNING NIGOHIMIZDA

Beketova Gulayim Amangeldiyevna
Xo’jayli tumani XTB ga qarashli 3-son maktabi
Ma’naviya va ma’rifiy ishlar bo’yicha direktor o’rinbosari

Annotatsiya: Bugungi ushbu maqolada vatanimizning o’ziga xos bo’lgan urf-odatlari, mehmondo’stlik, millatlararo totuvlik, turli xil millat vakillarining bir bo’lib mehnat qilishi, istiqomat qilishi, diniy bag’rikenglik, samimiylik haqida so’z yuritilgan.

Kalit so’zlar: milliy g’oya, shovinizm, dinlar, madaniyat, ezgulik, teng huquqlilik, ta’limot.

Darhaqiqat, bugun O’zbekistonni mutloq yangi ko’rinishda, yangi qarashda ko’ramiz, undagi o’zgarishlar, rivojlanishlar inson ko’zini quvnatadi. Misli ko’rilmagan darajada gullashi, yashnashi insonni yanada ko’proq yashashga, o’rganishga, rivojlanishga undaydi. Shunday bo’lsada vatanimiz o’zining bag’rikengligini, mehmondo’stligini, samimiylik-u qaynoq qalbini also yo’qotgani yo’q. Turli xil millat vakillarining bir tan bo’lib yashashi, diniy bag’rikenglik tuyg’ulari bunga yaqqol misol bo’la oladi. Ha azizlar! bugun biz shunday zamonda yashayabmizki, bizda faqat shukr qiladigan, hamma narsamizni qadriga yetadigan davr desak adashmaymiz.

Milliy g’oya bu faqat birgina millatning emas, balki jamiyat taraqqiyotiga, ravnaqiga umumiy maqsad yo’lida baholi qudrat hissa qo’shayotgan mamlakat fuqarolarining millati, irqi, diniy e’tiqodidan qat’iy nazar barchaning maqsad va manfaatlarini ifoda etadi. Millatlararo totuvlik g’oyasi-umumbashariy qadriyat bo’lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotida muhim omil bo’lib, shu joyda tinchlik va barqarorlikning kafolati bo’lib xizmat qiladi. Muayyan mamlakatga nom bergan (titul) millat bilan unda yashaydigan

boshqa xalqlar o’rtasida hamjihatlik bo’lishi ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biridir. Aksincha, milliy g’oyaning ahamiyatini tushunib etmaslik jamiyat hayotini, tinchlik va barqarorlikni izdan chiqarishi mumkin. Mamlakatimizda statistik ma’lumotlarga ko’ra, 130 millat, elat, xalq va etnik guruhlarning vakillari yashaydi. Ularning har biri o’z milliy madaniy urf-odatlari, an’analari, tiliga, konstitusiyaviy huquqiy tenglikka ega.

O’zbekistonda bugungi kunda 130 dan ortiq milliy madaniy markaz faoliyat ko’rsatmoqda. Shu yo’nalishda markazlar tuzish bo’yicha 15 ta tashabbuskor guruh ish olib bormoqda. O’zbekistonda barcha millat vakillariga teng huquqli munosabat davlat qonuni bilan mustahkamlangan. Buning ijobati maktablarimizda 9 ta milliy tilda o’qitish ishari, 20 tilda ommaviy axborot nashrlari faoliyat ko’rsatayotganligida ko’rinmoqda. Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan fuqarolar qaysi dinga mansub bo‘lishidan qat’i nazar, birgalikda, tinch va osoyishta sharoitda, yurtimiz ravnaqiga hissa qo‘shib, butun jahonga namuna bo‘layotganligi insonni zavqlantiradi. Respublikamizning Bosh Qomusida yurtimizda yashayotgan barcha millat vakillari millati, tili, e’tiqodi, ijtimoiy holatidan qat’i nazar, O‘zbekiston xalqini tashkil qilishi va ularning huquq va manfaatlari, shuningdek, e’tiqod erkinligi ta’minlanganligi qayd etilgan. Yurtimizdagi diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik tarixiy ildiz va mustahkam qonuniy asoslarga ega bo‘lib, dunyoviy davlat va dinlar orasidagi munosabatlarning mustahkam huquqiy asoslari yaratilgan. Buni jahon tan olmoqda va e’tirof etmoqda.

Men o’zim alohida ta’kidlab shuni aytishim mumkinki, bizning Qoraqalpog’iston Respublikasi Xo’jayli tumani 3-sonli maktabimizda turli xil millat vakillari bir bo’lib ishlashadi, bir tan-bir jon bo’lib yashashadi. Necha yildirkim, men o’z ko’zim bilan ko’rib, quvonib ayta oladiganim bizda millatlar aro totuvlik, diniy bag’rikenglik juda mustahkamdir. Maktabimizda turli xil millat vakillari bo’lmish o’quvchilar ta’lim olishadi, o’qituvchilar ishlashadi. Bizdagi yagona muhim narsa biz insonmiz, biz bir-birimizga suyanch, bir-birimizga tayanch bo’lishimizdir. O’zbek, rus, qoraqalpoq, turkman, qozoq millat vakillari qarindosh, yaqin insonlarmiz. Shuning uchun ham men bugun faxr bilan ayta olamanki, bizning yurtimiz yagonadir.

Har yili maktabimizda katta bayram ya’ni „ Millatlararo totuvlik, diniy bag’rikenglik’’ bayrami, tadbirlari o’tkaziladi. Bundan maqsad shuki: barchani bir qilish, adovat urug’ini o’stirmaslik, mehmondo’stlikni, urf-odatlarimizni yanada mustahkamlashdir. Ushbu tadbirda juda ko’p narsalar ya’ni insonlarning bir-biriga bo’lgan mehr-oqibati, odatlarimizning o’zgachaliklari, insonparvarlik, totuvlik kabi xislatlar namoyish qilinadi. Insonlar yuzidagi tabassumni esa so’z bilan ta’riflab bo’lmaydi. Shuning uchun ham men shu yurtning bir farzandi bo’lib faxr ila ayta olamanki, hammamiz qardoshmiz.









Davlatimiz rahbari e’tirof etganidek, “O‘zbekistonning boyliklari ko‘p, lekin bizning eng katta boyligimiz, eng yuksak qadriyatimiz–jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo do‘stlik va hamjihatlikdir”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2017

2. O‘zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘grisidagi Prezident Farmoni PF–47-49-son. 07.02.2017

O’QUVCHILARNING PAST O’ZLASHTIRISHIGA SABAB BO’LADIGAN OMILLAR VA ULARGA QO’LLANILADIGAN TRENING MASHG’ULOTLARI

Ataniyazova Guljaxan Mambetniyazovna
Xo’jayli tumani XTB ga qarashli
4-sonli maktab psixologi

Annotatsiya: Bugungi keltirilgan ushbu maqolada maktab o’quvchilarining past o’zlashtirishiga sabab bo’luvchi omillar, past o’zlashtiruvchi o’quvchilar bilan olib boriladigan psixologik mashg’ulotlar, treninglar haqida so’z yuritilgan. Shuningdek hozirgi kundagi maktab o’quvchilarining o’qishga bo’lgan qiziqishining pasayishi haqida ham aytib o’tilgan.

Kalit so’zlar: metodika, oila, giperopeka, xulq-atvor, o’quv faoliyati, o’z-o’zini baholash.

Har tomonlama yetuk, sog‘lom mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalashda boshlang‘ich sinflarda beriladigan ta‘lim va tarbiyaning roli beqiyosdir. Chunki o‘quvchi oladigan bilimlari, ko‘nikma va malakalariga asos xuddi shu boshlang‘ich sinflarda qo‘yiladi. Bugungi kunda ta’lim sifatini yaxshilash maqsadida turli xil metodik qo‘llanmalar, qiziqarli yangiliklar ta’limga kiritilmoqda. Afsuski, bunga qaramasdan darslarni past o‘zlashtiradigan o‘quvchilar haligacha topilmoqda. Biz buni boladagi erinchoqlikdan deya olmaymiz, ularda aynan nima sodir bo‘layotganini esa yaxshilab o‘rganmog‘imiz darkor. Har bir alohida olingan o‘zlashtirmaslikning vujudga kelish tarixi har xildir, bu shaxsning individual xususiyatlari va atrofdagilar bilan munosabatlarining xususiyatlariga bog‘liqdir.

Bola vujudga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni o‘qituvchi asosan o‘zlashtirish bilan belgilaydi. Bunda bolalar qariyb bir xil baholanadi: a’lochi-demak u yaxshi o‘quvchi, 2-yomon o‘quvchi. Bunday o‘quvchiga qo‘llaniladigan choralar ham bir xil. Bolaning ota-onasi chaqirilib, o‘g‘il (yoki qizi) bilan

shug‘ullanmayotgani, yomon tarbiyalanayotganligi haqida ma’lum qilinadi. Yoki o‘qituvchi oqibati haqida o‘ylamasdan o‘quvchini butun sinf oldida baqirib haqoratlaydi, izza qiladi. Ko‘pchilik tajribali o‘qituvchilar o‘quvchilar o‘zlashtirmasligini uning dangasaligi, tarbiyasizligi, ishyoqmasligi bilan bog‘laydilar. Ko‘p kasal bo‘luvchi zaif bolalar organizmi darmonsizligi tufayli ishga va o‘qishga qobiliyatlari kamayadi. Bunday bolalar bilan individual shug‘ullanmasa tez orada ular o‘zlashtirmovchi o‘quvchilar qatoriga kiradi. Biron bir narsadan qattiq qo‘rqqan bolalarda asabiylashish alomatlari-duduqlanish, enurez va boshqalar paydo bo‘ladi. Bunday bolalar bilan ham o‘qituvchi maxsus shug‘ullanmasa o‘zlashtirmovchi o‘quvchilarning soni ortishi mumkin. O‘quvchilar o‘zlashtirmasligining sabablaridan biri bolaning psixik taraqqiyotidan vaqtincha orqada qolishi bilan ko‘pincha bog‘liq. Turli mutaxassislar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, o‘zlashtirmaslik 50 foiz psixik taraqqiyotda orqada qolish bilan, 24 foiz xulq-atvorning buzilishi, 4 foiz aqliy yetishmaslik va nutqning rivojlanmaganligi bilan bog‘liq.

Psixik taraqqiyotda vaqtincha orqada qolish bolada turli sabablar vujudga kelishi mumkin. Ko‘pincha bu bolaning ona qornida va tug‘ilishi vaqtidagi o‘zgarishlar (patologiya), irsiyat, ilk bolalaik davrida bolaning jarohatlanishi va og‘ir kasalliklarga chalinishi sabab bo’lishi mumkin. Bolaga onaning erkalashlari yetishmasligi, unga yetarlicha e’tibor bermaslik, unga iliq munosabatda bo‘lmaslik, unga yaxshi qaramaslik, vaqt ajratmaslik kabi omillar muhim rol o‘ynaydi. Bola qanchalik kichik bo‘lsa bu omillar shunchalik ahamiyatlidir. Xuddi shu sabablarga ko‘ra mehribonlik uylarida kunu tun ishlaydigan bog‘cha va yaslilarda tarbiyalanayotgan bolalarda psixik taraqqiyotda orqada qolish uchraydi.

Sabablar, omillar, mezonlar:

- Homiladorlik patologiyasi;
- Jismoniy jarohatlar;
- Oiladagi intellectual befarqlik;
- Hamma narsaga ruhsat berish yoki ta’qiqlar;
- Giperopeka (haddan tashqari g‘amxo‘rlik qilish);

- O‘ziga-o‘ziga past baho berish;
- Shaxsning shakllanmaganligi;
- O‘quv faoliyatining shakllanmaganligi.

Tavsiya etiladigan diagnostik metodlar

1. Veksler metodikasi: 8 subtest ,,Rasmlarning ketma-ketligi’’ (sabab-oqibat bog‘liqlarini aniqlash); 12 subtest ,,Labirint’’ (diqqat to‘planishi, o‘zini-o‘zi nazorat qilish); ,,Kos kubiklari’’ subtesti (konstruktiv tafakkur, tahlil va sintez qilish qobiliyati)
2. So‘z-mantiq tafakkur diagnostikasi (R. Amtxauer):

- Xabardorlik uchun og‘zaki topshiriq, muhim va nomuhim belgilar differensiatsiyasi;
- Tushunchalarni shakllanganligini aniqlash;
- Mantiqiy tafakkurning shakllanganligini aniqlash;
- Umumlashtirishning shakllanganligini aniqlash (A. L. Venger)

3. T. V. Yegorova ,,o”rnini topish’’ abstraklashtirish (mavhumlashtirish) qobiliyatini o‘rganish metodikasi
4. Korrektor sinov (Burdon)
5. O‘quvchanlik xususiyatini grafik qaydlari metodikasi
6. Faoliyatning ichki rejasini o‘ziga xosligini tahlili (Y. A. Panomaryova)
7. O‘qishda ortda qolish xarakterini aniqlash uchun so‘rovnoma (T. A. Shilolova)
8. Ijtimoiy-pedagogik qarovsizlik diagnostikasi (R. V. Ovcharova)

Korreksiya usullari, topshiriqlar, mashqlar

1. Faoliyat va uning natijalariga qiziqishni shakllantirish;
2. Intilish darajasini uning qondirilishini real imkoniyatlariga muvofiq darajada pasaytirish, o‘ziga-o‘zi adekvat baho berish ko‘nikmasini shakllantirish:

- O‘z kuchi va imkoniyatlarini baholash ko‘nikmasini shakllantiruvchi usullar;
- Mustaqil ravishda maqsad va vazifalar qo‘ya olish ko‘nikmasini rivojlantirish;
- O‘ziga bo‘lgan talabchanlik, ishonch, qat’iyatni shakllantirish, o‘ziga nisbatan notanqidiy munosabatni bartaraf etish;

3. Shaxs yo‘nalganligini shakllantirish:

- Motivlarning uyg‘un ravishda mos kelishini rivojlantirish va ularning o‘zaro munosabatini o‘zgartirish uchun mashqlar;
- Jamoa, boshqa odamlarning qiziqishlarini ifodalovchi harakatni amalga oshirish uchun topshiriqlar;
- Muloqot ko‘nikmalarini qayta ishlash (o‘z fikrini bildirish, qayta aloqaga kirishish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi mashqlar, rolli o‘yinlar) ;
- O‘z xulq-atvorini anglash uchun ichki nizolarni rolli o‘yinlar orqali ifodalash;
- Voqelikni, hodisalarni bitta syujetga jamlovchi rejissyorlik o‘yinlari;

Shunday qilib o'qituvchilar ixtiyorida, ta'lim-tarbiyani muvaffaqiyatli amalga oshirishda to'la imkon bera oladigan o'qitish uslublarining boy xazinasi hozirgi kunda mavjud. Shu bilan bir qatorda maktablarda uslublardan yuzaki foydalanish ham kutilgan ta'lim -tarbiyaviy natijalarni bermaydi. Bir darsda nihoyatda ko'p metodlardan yuzaki samara uchun foydalanishga, ularni tez-tez almashtirib turish va xo'jako'rsin uchun darsga tatbiq qilishga va shuningdek, rasm bo'lib qolgan biron bir metodning rolini haddan tashqari oshirib yuborishga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarova N. A. Bolalarda chapaqaylik diagnostikasi va psixokorreksiyasi. Toshkent. 2012
2. Nishonova Z. T, Asqarova N. A. Bolalarda diqqat yetishmasligi sindromi psixokorreksiyasi. Toshkent 2011.
3. Bezrukix M. M. Efimova S. P. znaete li vi svoego uchenika M. Prosvesheniye. 1984-175 c.

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Norbo‘tayeva Zarifa Faxriddinovna
Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani 24-maktab
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili darslarini tashkil qilishda interfaol usullarning qo’llanilishi, interfaol metod turlari haqida fikr-mulohaza yuritiladi.

Kalit so’zlar: interfaol, Fikrlarning tarmoqlanishi, BBB, FSMU, VENN diagrammasi, Charxpalak, Tushunchalar tahlili, Raqmlar so’zlaganda, Baliq skleti, Yelpig’ich, Bumerang, Zakovat, Ha yoki yo’q, Zinama-zina, Sinkveyn, SWOT metodlari.

Ona tili – millatning ruhidir. Til — davlat timsoli, mulki. Tilni asrash, rivojlantirish – millatning yuksalishi demak. Maktablarda ona tilimizning o’qitilishi, o’quvchilarning har tomonlama mukammal bilim olishlari uchun jiddiy e’tibor berish talab etilmoqda. Yangi darsliklar, turli fanlarga oid ko’rgazmalar va ko’rsatmali vositalar, elektron kitoblar hamda turli internet saytlari bunga yaqqol misol. Bularning barchasi ona tilimiz rivoji va yangi davr kishilarini shakllantirishga qaratilgan.

Ayniqsa, ona tili fanini umumta’lim maktablarida o’qitilishiga e’tibor kuchaydi. Ona tilini o’qitishda darslikdagi ma’lumotlarni berish bilangina cheklanib qolish ta’lim sifatini ta’minlay olmaydi.Shuning uchun bugungi zamon pedagogi turli xil o’qitish usullari orqali o’quvchini mavzuga jalb etish va DTSdan ko’zlangan maqsadga yetishi lozim. Bu chora-tadbirlar o’qituvchilarning kasb mahorati va o’quv jarayoniga qo’shgan shaxsiy hissasi, ta’limning yuqori samaradorligi hamda sifati, o’z bilimini muntazam takomillashtirib borishi, kasb mahorati va malakasini o’stirishi, o’qituvchi tomonidan ilg’or metodlar va pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo’llashi uchun yaratilgan imkoniyatlar.

Ona tili darslarini tashkil etishda “Fikrlarning tarmoqlanishi”, ”BBB”, ”FSMU”, ”VENN diagrammasi”, “Charxpalak”, ”Tushunchalar tahlili”, ”Raqmlar so’zlaganda”, ”Baliq skleti”, ”Yelpig’ich”, ”Bumerang”, “Zakovat”, “Ha yoki yo’q”, ”Zinama-zina”, ”Sinkveyn”, ”SWOT” tahlili kabi innovatsion, noan’anaviy ta’lim metodlaridan foydalanish mumkin bo’lib, darslarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ularning ahamiyati katta. Bu kabi metodlarni har bir o’qituvchi o’zi dars beradigan o’quvchilarning xarakteri, iqtidori va qiziqishlaridan kelib chiqib o’ziga xos yo’nalishda tashkil etishi, o’zgartirishi,ijodiy rivojlantirishi yoki o’xshash variantlaridan foydalanishlari mumkin. Bir so’z bilan aytganda, bunday o’yinlar mavzularni o’quvchilatga oson va tushunarli berishning yo’llaridan biri hisoblanib,o’qituvchi yangi-yangi ta’limiy o’yinlarni darslarida qo’llashi, hatto o’zi ham shunday o’yinlarni o’ylab topishi mumkin. Zero, biz yangiliklar, axborotlar asrida yashayapmiz.

“Besh satr “ (Sinkveyn) usuli. Bu usulda axborotlardan xulosalar chiqarish, murakkab his-tuyg’ularni qisqacha bir-ikki og’iz so’z bilan ifodalashga yordam beradi. Sinkveyn besh satrli she’r bo’lib , axborot va ma’lumotlarni qisqa ifodalar bilan berishni o’rgatadi. Uni yozish qoidasi quyidagicha

1-satrda mavzu nomi bir so’z (ot) bilan beriladi

2-satrda mavzuni tasvirlash ikki so’z(sifat) bilan beriladi

3-satrda mavzu harakatini tasvirlash uchta so’z (fe’l) bilan beriladi

4-satrda to’rtta so’zdan iborat qisqa jumla

5-satrda yuqoridagilarning hammasini tasvirlaydigan bir so’z(sinonim) bilan

FSMU texnologiyasi. Bu texnologiyadan foydalanishda o`qituvchi har bir o`quvchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog`oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to`ldirishni iltimos qiladi. Bunda:

F - fikringizni bayon eting

S - fikringiz bayoniga sabab ko`rsating;

M - ko`rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;

U - fikringizni umumlashtiring.

O`qituvchi o`quvchilar bilan bahs mavzusini belgilab oladi.

Yakka tartibdagi ish tugagach, o`quvchilar kichik guruhlarga ajratiladi va o`qituvchi kichik guruhlarga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan katta formatdagi qog`ozlarni tarqatadi.

Kichik guruhlarga har birlari yozgan qog`ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda 4 bosqich bo`yicha yozishlari taklif etiladi.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki,umumta’lim maktablarida ona tili fanini o’qitishda zamonaviy texnologiyalar o’quvchilarning og’zaki va yozma nutqining o’sishida,qolaversa mavzularni oson tushunishlariga,bilim va ko’nikmalarini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Umumiy o‘rta ta’limning ona tili fanidan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Toshkent-2017 .

2. Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o`qitish metodikasi. Toshkent “Noshir” nashriyoti, 2009.

3. Yo’ldosheva D. Ashurbayeva R. Ona tili ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar.-T.: Turon Zamin Ziyo. 2018.

CHORVA MOLLAR PARVARISH QILINADIGAN BINONI ISITISHDA TUPROQ OSTI ISSIQLIK AKKUMULIYATOR QUVURI ORQALI BERILADAIGAN ISSIQLIK MIQDORINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH BILAN TADQIQ ETISH

B.N.Sattorov

Qarshi Muxandislik Iqtisodiyot Instituti t.f.n., dots.


B.Sh.Bozorov


Qarshi Muxandislik Iqtisodiyot Instituti stajyor tadqiqotchi

Gelio-bioenergiya va tuproq osti issiqlik akkumulyator quvurlarida akkumulyatsiyalangan issiqlik imqdorini nostatsionar rejimni thisoblash jarayonida chorvalar parvarish qilinadigan binosidagi havo temperaturasini dasturlash tizimi bo‘yicha boshqarishni muhimdir.Hozirgi vaqtda chorvalar parvarish qilinadigan binodagi havo temperaturasini nostatsionar rejimini o‘rganishda qurilmadagi sistemani zvenolarga bo‘lib uzatish funksiyalaridan foydalanib, kompleks model bilan hisoblash hamma vaqt samarali natijalar bermaydi . Shuning uchun chorvalar parvarish qilinadigan binoning havo temperaturasi va tuproq osti issiqlik quvurlari orqali beriladigan issiq havo oqim sarfi bilan bog‘lab o‘rganiladigan model tuzish va uning dasturlash tizimi bilan o‘rganish maqsadida ushbu masalani echishga e’tibor qaratiladi.

Chorvalar parvarish qilinadigan binoni isitish uchun hajmiy havo isitish kollektor tuproq osti issiqlik akkumulyator quvurni uzunligi, ko‘ndalang kesimi, quvur atrofidagi chuqurligi 40x40 sm o‘lchamli substrat to‘ldirilgan qatlamga beriladigan issiqlik miqdori hisobidan isitish tizimini eksperimental tadqiqotlar bilan aniqlash va natijalarni asoslash uchun sistemani real boshqarish matematik modeli ishlab chiqiladi

Matematik modelni boshlang‘ich parametrlarini $Kfl/c, c/(q_0V)$ hisoblashda ma’lumotlar tajribadan olingan natijalarga va adabiyotlarda keltirilgan chorvalarni parvarish qilinadigan binodagi temperatura qiymatlaridan foydalaniladi.





Tuproq osti issiqlik akkumulyator quvur atrofidagi substratdan olinadigan va chorvalar parvarish qilinadigan binoga beriladigan issiqlikni matematik modellashtirish va formula dasturi asosida olingan nazariy va tajriba tadqiqotlarini natijasi keltirilgan (1-nazariy hisoblashlar; 2-tajriba).

Tuproq osti issiqlik akkumulyator quvurda va uning atrofida issiqlik miqdori to‘planish balans tenglamasini shartlariga muvofiq quyidagi tenglama bilan ifodalaymiz:

$$CG(t)\frac{\partial T}{\partial x}+C_V S\frac{\partial T}{\partial t}+KfT=KfT_x$$

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

[1]. Avezov R.R., Orlov A.Yu. “Solnechnыe sistemы otopleniya i goryachego vodosnabjeniya” T.: “Fan”. 1988- 282s

[2]Artemev V.I, Yeliseev O.A. Priusadebnoe ptitsevodstvo. L.: Agropromizdat. 1988.- 96s.

[3]Anufriev L.N, Kojeinov I.A, Pozin G.M. Teplotexnicheskiy raschyot selskoxozyaystvennых proizvodstvennых zdaniy. M.: Stroizdat 1974- 221s.

[4]Amerxanov R.A, Garkaviy K.A., Shevchuk I.V. “ Reshenie zadachi vozduxoobmena v jivotnovodcheskom pomeщenii: Energoobespechenie i energoosberejenie v selskom xozyaystve. Tr. 3-y Mejdunarodnoy nauchno-texnicheskoy konferensii (14-15 maya 2003g : M.: G‘NUVIESX).S. 380-385.”

TO`G`RI CHIZIQQA NISBATAN SIMMETRIK ALMASHTIRISH

Rahmonova Shodiyona Toshpo‘latovna
Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani 24-maktab matematika
fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Tekislikdagi o`q simmetriyasining analitik ifodasi sodda usulda keltirib chiqarilgani va bular yordamida funksiya grafigini biror o`qqa nisbatan simmetrik almashtirish bo`yicha masalalar qaralgan.

**Tayanch so`zlar.** Akslantirish va almashtirishlar, o`q simmetriyasi, figuralarni analitik usulda simmetik almashtirish, umumlashgan formulallar.

O`qli simmetriyaning ta’rifi va xossalari maktab matematikasi kursidan ma’lum. Dastlab turli sodda figuralarning simmetriya o`qlari mavjudligi va ularning soni haqidagi sof matematik masalalar o`rganiladi. Shuningdek, tevarak atrofimizda ko`p marta guvoh bo`lgan tabiatdagi simmetrik xodisalar haqida so`z yuritilib o`quvchilarda simmetriya haqida tushunchalari boyitiladi.

Simmetriya va simmetrik jarayonlarga qadim-qadimdan katta e’tibor qaratilib keligan. Haqiqatan, simmetriyani go`zallik timsoli deyish mumkin. Inson a’zolarining yaratilishidan boshlab toki bino va inshootlarning qurilishigacha simmetriyaning jozibasini ko`rishimiz mumkin.

O`qli simmetriyani chuqur o`rganish va uni turli tadbiqlarini matematik asoslash masalasi juda muhim masalalardanbiri deyish mumkin. Biz quyida tekislikda o`qli simmetriyaning sodda matematik ifodalari va umumiy hol uchun analitik usulini toppish masalasini ko`rib chiqamiz [1,2].

Tekislikdagi istalgan nuqtani Ox o`qqa nisbatan simmetrik almashtirganda hosil bo`lgan nuqta (berilgan nuqtaning simmetrik obrazi) absissasi o`zgarishsiz qolib, ordinatasi qarama-qarshi songa almashadi. $y = f(x)$ funksiya grafigiga tegishli istalgan nuqtani $(x; f(x))$ ko`rinishda berilishini hisobga olsak, u holda yuqoridagi fikrga ko`ra uning Ox o`qiga nisbatan simmetrik obrazini $(x; -f(x))$ ko`rinishida

beramiz. Demak, $y = f(x)$ funksiyani Ox o`qqa simmetrik almashtirganda $y = -f(x)$ funksiya hosil bo`lar ekan.

Xuddi shu kabi Oy o`q misolida ham simmetrik almashtirishni qarab chiqaylik. Bu yerda tekislikda berilgan nuqtaning absissasi qarama-qarshi songa o`tib, ordinatasi o`zgarishsiz qolishini ta’kidlash mumkin. Bundan, $y = (x)$ funksiya grafigiga tegishli ixtiyoriy $(x; f(x))$ nuqta $(-x; f(x))$ ko`rinishidagi nuqtaga o`tadi deyish mumkin. Demak, $y = (x)$ funksiyani Oy o`qqa simmetrik almashtirganda $y = f(-x)$ funksiya hosil bo`lar ekan. $M(x; y)$ nuqtani $y = b$ to`gri chiziqqa nisbatan simmetrik almashtirgandagi obrazini topaylik. M' nuqtaning absissasi M nuqta absissasi kabi bo`lishini bilgan holda uning ordinatasini topishda bu nuqtalar tashkil qilgan kesmaning o`rtasi $y = b$ to`gri chiziqda bo`lishini hisobga olish kerak. Bundan, $y+y'2= b \rightarrow y' = 2b - y$. Demak, $M'(x; 2b - y)$ ko`rinishida bo`lar ekan. $y = f(x)$ funksiyani $y = b$ to`g`ri chiziqqa nisbatan simmetrik almashtirganda $y = 2b - f(x)$ funksiya hosil bo`lar ekan.

Formulalarga ega bo‘lamiz. formulalar o‘q simmetriyasining o‘q sifatida istalgan to‘g‘ri chiziqni olgandagi analiik ifodasi bo‘ladi. o`q simmetriyasining umumiy formulasidan yuqoridagi xususiy hollar kelib chiqishini tekshiramiz:

(1) formulalar Ox: $y = 0$ to`g`ri chiziq uchun umumiy formulada $A = 0$, $B = 1$, $C = 0$ qiymatlar uchun;

(2) formulalar Oy: $x = 0$ to`g`ri chiziq uchun umumiy formulada $A = 1$, $B = 0$, $C = 0$ qiymatlar uchun;

(3) formulalar $y = b$ to`g`ri chiziq uchun umumiy formulada $A = 0$, $B = 1$, $C = -b$ qiymatlar uchun;

(4) formulalar $x = a$ to`g`ri chiziq uchun umumiy formulada $A = 1$,$B = 0$, $C = -a$ qiymatlar uchun kelib chiqadi.

Eslatma. O`zaro teskari funksiyalar grafiklari $y = x$ to`g`ri chiziqqa nisbatan simmetrik joylashuvini yuqorida keltirilgan misolning xususiy bir tadbiqi sifatida qarash mumkin.

Ma’lumki, almashtirish formulalari bo`yicha koordinatalarni bog`lovchi tenglamalar bilan berilgan istalgan figuraning obrazini topish mumkin. Buning uchun

almashtirish formulalaridan $x\ va\ y$ larni $'va\ y'$ lar orqali ifodasini topish va figura tenglamasida mos o`rniga qo`yishni bajargan holda ixchamlash yetarli.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Н.Д.Додажонов, М.Ш.Жўраева Геометрия, 1-қисм. “Ўқитувчи”, Тошкент, 2010.

2. S.X.Abjalilov, N.Ibodullayeva, Tekislikda harakatlar va ularning analitik ifodasi, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal, 3-son, 2011 yil, 52-55b, ToshDPU

3. S.X.Abjalilov, B.X.Abjalilov, M.X.Boltayeva, Tekislikda burish va o`q simmetriyasining umumiy formulasi, FIZIKA, MATEMATIKA VA INFORMATIKA, Ilmiy-uslubiy jurnal, 6-son 2010 yil, 43-45 b, Toshkent

DORIVOR O’SIMLIKLARNING AHAMIYATI

Norbo‘tayeva Hafiza Ismatovna
Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani 24-maktab biologiya fani o‘qituvchisi

Ushbu maqolada O’zbekiston hududida uchraydigan taiiy dorivor o’simliklar ularni areallari haqida malumotlar keltirish bilan birgalikda maymunjon o’simligining shifobaxshlik xususiyatlari hamda zararli jihatlari ko’rsatilgan.

Kalit so’zlar: O’simlik, ekologik sharoit, ajralmas tarkibiy qism, tur, dorivor

Dorivor o‘simliklar tabiatda va inson hayotida katta ahamiyatga ega. O‘simliklar dunyosi shu jumladan uning tarkibiga kiruvchi dorivor o‘simliklari ham tabiat boyliklaridan biri hisoblanadi. Shifobaxsh o‘simliklarning xosiyati qadim zamonlardan odamlarga ma‘lum. Inson va hayvonlar organizmida ro‘y beradigan turli kasalliklarni davolashda ishlatiladigan dori-darmonlar Ichida shifobaxsh o‘simliklardan tayyorlanayotgan dorilar katta ahamiyatga ega. Juda ko‘pchilik dorivor o‘simliklar dorixonalarda sotilmaydi, balki dori-darmonlar ishlab chiqarishdagi asosiy xomashyo manbai hisoblanadi. O‘zbekistonda yovvoyi holda o‘sadigan va o‘stiriladigan o‘simliklar soni 4150 ga yetadi.

Shulardan 577 tasi shifobaxsh xususiyatga ega. Ilmiy tibbiyotda ishlatiladigan, dorivor preparatlarining qariyib 45 % i o‘simliklardan ajratib olinadi yoki ulardan tayyorlanadi. Dorivor o‘simliklar turli xil sistematik guruhlarga ega . Ular turli xil zonalarda tarqalgan. Dorivor o‘simliklardan olinadigan mahsulotlar ularning tuli organlaridan olinadi. Chunki kerakli bo’lgan moddalar o’simlik turiga yashash sharoitiga qarab turli organlarida joylashadi. Dorivor o‘simliklar juda ko‘pgina kasalliklarga da’vo bo‘ladi. Masalan:

1.Shamollashga 2.Yallig‘lanishga
3.Oshqazon- ichak 4.nafas yo‘llari
5.qon ketganda 6.qon bosimida

7. ichni haydash 8. Yo‘talga qarshi va boshqa kasalliklarga dori vositalari tayyorlashda qolaversa tabiiy damlama,qaynatma,nastoykalar tayyorlashda ham keng qo’llaniladi.[2]

Dorivor o’simliklarning organizmga ta‘siri ularning tarkibidagi kimyoviy birikmalarning miqdoriga bog’liq. Bu birikmalar o’simliklarning qismlarida turli miqdorda to’planadi.Dori tayyorlash uchun o’simlikning kerakli qismlari turli muddatlarda yig’iladi, masalan, po’stlog’i, kurtagi erta bahorda, bargi o’simlik gullashi oldidan yoki gullaganda, meva va urug’lari pishganda, ildiz, ildizpoyasi bahorda yoki kech kuzda olinadi. Tabiatning ajralmas tarkibiy qismi o‘simlik dunyosidir. O‘simliklar ham o‘z navbatida bir necha turlarga turlarga bo‘linadi. Shulardan eng muhimlari dorivor o‘simliklardir.

O‘zbekistonda uchraydigan dorivor o‘simliklar quyidagi ekologik sharoitlarda keng tarqalgan. 1.Cho‘l 2. Adir 3. Tog‘ 4. Yaylov O‘zbekiston cho‘llarida cherkez , cho‘g‘on , anabazis, keyreuk, yovshan, kovrak, isiriq, achchiqmiya kabi ko‘plab dorivor o‘simliklar uchraydi. Cho‘lda namlikning tanqisligi tufayli ko‘pchilik dorivor o‘simliklar erta mart-aprel oylaridan o‘sib chiqib qishning dekabrigacha hayotini davom ettiradi. Adir zonasi ham o‘ziga xos dorivor o‘simliklar qoplamiga ega. Adir mintaqasining tuprog‘i och tipik va to‘q bo‘z tuproqdan iborat. Adirlarda qoqio‘t, isfarak, cho‘lyalpiz, rovoch, g‘azako‘t , gulxayri kabi juda ko‘p dorivor o‘simliklar uchraydi. .Respublikamiz tog‘laridagi jigarrang tuproqlar avtomorf tuproq hisoblanib, ko‘pincha quruq tog‘lar mintaqasida uchraydi. Tog‘ mintaqasida donli va dukkakli ekinlar ekiladi. Pastki tog‘ mintaqasida bir yillik dorivor o‘simliklar uchraydi. Tog‘larda zirk, tog‘yalpiz, yalpiz, na‘matak, qizilcha, kabi birqancha dorivor o‘simliklar o‘sadi. Hozirgi vaqtda tibbiyotda ishlatiladigan 900 dan ortiqroq xil doridarmonlarning uchdan bir qismi dorivor o‘simliklarning maxsuli hisoblanadi.

Albatta tabiat ham yaratgan tomonidan berilgan mo’jizalardan biridir zero har narsani oxiri bo’lganidek bu nematni ham ohiri bor.Tabiatni o’zi tabib ekanligini bilgan holda uni asrab avaylamog’imiz darkordir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI (REFERENCES)

1. Q.H. Haydarov, Q. H.Hojimatov —O‘zbekiston O‘simliklari — Toshkent 1992.

2. V.Karimov, A.Shomahmudov — Xalq tabobati va zamonaviy ilmiy tibda qo‘llaniladigan shifobaxsh o‘simliklar — Toshkent 1993

3. www.ziyonet.uz

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MILLIY DASTUR ASOSIDA O’QITISHNING AFZALLIKLARI

Yo‘ldosheva Marifat Nurmamatovna
Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani 24-maktab
boshlang‘ich ta’lim fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘qituvchilarga boshlang’ich sinflar matematika ta’limi mazmuni, tuzilishi xususiyatlariga oid ko’nikma va malakalarini mustahkamlash, boshlang’ich sinflar uchun matematikadan 1 va 2 sinflarda milliy dastur asosida o’qitishning afzalliklari haqida fikrlar yuritaladi.

Kalit so’zlar: Davlat ta’lim standarti, fan, o’quv dasturi, darslik, metod, metodika, o‘rgatish, o‘qitish, bilim, ko‘nikma, malaka, predmet, maqsad, vazifa, fanlararo bog‘liqlik.

Respublikamizda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining uzluksiz rivojlanishi uchun iqtisodiy, siyosiy, huquqiy shart-sharoit yaratildi. Jumladan, hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qator me’yoriy hujjatlarda o‘qitishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish sohasida qator tadbirlar boshlab qo‘yilgan. Xususan, boshlang‘ich ta’limda o‘qitishga alohida e’tibor qaratilib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini zamon talablari asosida malakali kadr etib tayyorlash bugungi kunning kechiktirib bo‘lmas muammolaridan biri sanaladi. Shuni hisobga olgan holda O‘zbekiston Prezidenti SH.M.Mirziyoyev quyidagilarni ta’kidlaydi: “Maktab o‘quv dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o‘quv yuklamalari va fanlarni qayta ko‘rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarur.

Mamlakatimiz uchun ilm-fan sohasidagi ustuvor yo‘nalishlarni aniq belgilab olishimiz kerak. Hech bir davlat ilm-fanning barcha sohalarini bir yo‘la taraqqiy ettira olmaydi. Shuning uchun biz ham har yili ilm-fanning bir nechta ustuvor yo‘nalishini rivojlantirish tarafdorimiz.

Shuningdek, o‘zbek tilini o‘qitish metodikasini tubdan isloh qilish, ayniqsa mamlakatimiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millatlar va elatlarga o‘zbek tilini intensive o‘rgatishni ta’minlaydigan zamonaviy darsliklar yaratish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylandi.

1-2-sinflardagi matematika darslari umumiy o’rta ta’lim maktab matematika fani uchun asos, poydevor ekan, bu sinflarda matematika o’qitilishini eng zamonaviy talablar darajasiga ko’tarmoq zamon talabidir. Chunki. Bolalarga keyinchalik matematika va boshqa fanlar uchun zarur bo’lgan elementar, tushunchalar shu sinflarda singdiriladi.

Prezidentimiz o‘z ma’ruzasida darsliklar yaratishga jiddiy e’tibor qaratish zarurligini ta’kidladi. Undan kelib chiqqan holda o‘zimizga kelajakda amalga oshirishimiz lozim bo‘lgan bir qator vazifalarni belgilab oldik. Darhaqiqat, fanlarni o‘qitish metodikasi, nazariy va amaliy bilimlar muvofiqligi, dasturlar uzviyligi, darsliklar mazmuni va sifatida talay kamchilik va muammolarimiz bor. Darslik va o‘quv-metodik qo‘llanmalarni nashrga tayyorlashda ularni mazmun va sifat jihatidan xalqaro talablarga qay darajada javob bera olishiga yana-da jiddiy e’tibor qaratishimiz, amaliyotchi o‘qituvchilar, fan metodistlari hamda salohiyatli olimlar tomonidan chuqur ekspertizadan o‘tkazishimiz lozim. Darsliklar ekspertiza xulosalari asosida uning mualliflari, nashriyot xodimlari hamda fan metodistlari hamkorligida qayta ishlansa, mazmuni va illyustratsiyalariga tegishli o‘zgartirishlar kiritilsa yana-da mazmunli va sifatli bo‘ladi. Darsliklarni yana-da takomillashtirish uchun jahon tajribasini kengroq o‘rganish, loyihalarimizga Respublikamizdagi eng tajribali mutaxassislarni, xorijiy ekspertlarni keng jalb qilish maqsadga muvofiq.

Darsliklarni tayyorlashda o‘quvchilarning yoshi va psixo-fiziologik xususiyatlari alohida inobatga olinadi. Darslik mazmunida mavjud bo‘lgan takrorlanishlar bartaraf etiladi, xalqaro tajribaga tayangan holda darslikning dizayni va foto-illyustratsiyalariga o‘zgartirish kiritiladi. Yana bir e’tiborli holat shuki, fanlar kesimida fanlararo bog‘liqlik hamda sinflararo uzviylik ta’minlanishiga yana-da jiddiy e’tibor qaratiladi. Darslik va o‘quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratishda ular mazmuniga xalqaro baholash dasturi — TIMSS, PIRLS talablari

o‘quvchilar yoshiga mos tarzda yana-da chuqurroq singdiriladi. Shuningdek, mavzularni qo‘shimcha ma’lumotlar bilan boyitish maqsadida barcha darsliklarga QR kodlar o‘rnatiladi. Umumiy o‘rta ta’limning tarixida ilk bor joriy etilishi kutilayotgan Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi amaldagi davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturlarini tanqidiy tahlil qilish, keng jamoatchilikning darsliklarning mazmuniga nisbatan bildirgan fikr-mulohazalari, ta’limning keyingi bosqichi hamda zamonaviy mehnat bozorining real talablari asosida, xorijiy davlatlarning ta’lim sohasida erishgan natijalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilmoqda.Mazkur dastur 6 ta komponentdan iborat bo‘ladi: 1) umumiy o‘rta ta’limningmalaka talablari; 2) umumta’lim fanlarining konsepsiyalari; 3) umumiy o‘rta ta’limningo‘quv rejasi; 4) umumta’lim fanlarining o‘quv dasturlari; 5) umumta’lim fanlarini o‘qitish metodologiyasi; 6) baholash tizimi.

Milliy o‘quv dasturini ishlab chiqish, ekspertiza qilish va tajriba-sinovdan o‘tkazish hamda bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish samaradorligini ta’minlash maqsadida yuqori salohiyatli milliy va xalqaro ekspertlar, jumladan, UNICEF, USAID va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan xorijiy konsultantlar bilan tizimli ishlash tashkil etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 dagi “O‘zbekiston respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.12.2018 dagi Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-son qarori..

QISQA MASOFALARGA YUGURISH TEXNIKASI VA UNING TAHLILI

Polvonova Dilafruz Jumayevna
Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani 24-maktab
Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi

Ushbu maqolada qisqa masofalarga (sprinterlik) yugurish, uning texnikasi tahlili, sportchining start va startdan chiqishi, masofa bo‟ylab yugurishi, hamda, marraga yetib kelishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Yengil atletika, qisqa masofa, yugurish, sprinter, texnika.

Jismoniy tarbiya orqali talabalarni sog„ligini mustahkamlash, jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish vatan himoyasiga va mehnatga bo„lgan layoqatini kamol toptirishda yengil atletika sport turining o„rni kattadir. Yengil atletika sport turi insonlarni har tomonlama jismoniy rivojlanishida asosiy sport turlaridan biri hisoblanadi. Talabalarni yetuk, sog„lom bo„lib tarbiya topishida yengil atletikaning yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish va ko„pkurash turlari orqali jismoniy sifatlarini rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir.

Yugurish joydan joyga ko„chishning tabiiy usulidir. Bu jismoniy mashqning keng tarqalgan turi bo„lib ko„pgina sport turlari (futbol, basketbol, tennis va boshqalar) tarkibiga kiradi. Yugurishning juda ko„pgina xillari yengil atletika turlarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Yugurganda tanadagi mushak guruhlarining deyarli hammasi ishga tushadi, yurak–qon tomir, nafas olish va boshqa tizimlar faoliyati kuchayadi, modda almashinuvi ancha oshadi. Yugurish bilan shug‘ullanish jarayonida kishi irodasi mustahkamlanadi. O’z kuchini taqsimlay olish, to’siqlar osha o’ta bilish, ochiq joyda mo’ljal ola bilish qobiliyati hosil bo’ladi. Yugurish har tomonlama jismoniy rivojlanishning asosiy vositalaridan biridir. Hozirgi vaqtda ko„pgina murabbiylar sprinterlik yugurish texnikasi o’ta individual bo’lishini va ma’lum bir biomexanikaviy tavsiflarga qaramasdan, sportchining muayyan individual xususiyatlariga, shuningdek, u erishadigan shiddat va tezkorlik darajasiga bog’liq

ekanligini e’tirof etadilar. Bu albatta, hamma uchunumumiy bo’lgan oqilona texnika elementlarini rad etmaydi, ularni takomillashtirish ustida hozirda ham shug’ullanib kelinadi.

Tajribali va iqtidorli yosh tadqiqotchilar tomonidan sport mashg’ulotlarini tashkil qilishning xalqaro andozalari, yetakchi murabbiylarning ish tajribalari ham davr talablari asosidagi faoliyatlari izchillik bilan o’rganilmoqda.

Biz bilamizki, yengil atletikaning qisqa masofalarga yugurish turi butun dunyoda ommalashgan sport turlaridan hisoblanadi. Sport natijalari kundan kunga o’sib borishi qisqa masofalarga yuguruvchi sportchilarni tayyogarlik mashg’ulotlarini samarali taqsimlash uslubiyatini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Qisqa masofaga yuguruvchilarni tayyorlash bo„yicha dunyodagi yetakchi olimlar bilan bir qatorda yurtimizdagi mutaxassislar ham mashg„ulot uslubiyatini takomillashtirish bo’yichaizlanishlar olib borganlar. Ulardan E.R.Andris, R .Q.Qudratov, N.T.To’xtaboyev, K.T.Shakirjonovalar mashg’ulotlarda texnikani to’g’ri o’rgatish,vosita va usullarni qo’llanishi uslubiyatiga ko’proq e’tibor qaratib kelgan Startdan yugurib chiqish yuguruvchining individual imkoniyatlariga qarab 15 dan 30 m gacha davom etadi.Uning asosiy vazifasi – mumkin qadar tezroq maksimal yugurish tezligini olish. Startdan birinchi qadamlarning to’g’ri bajarilishi yuguruvchining itarilishiga (yo’lkaga nisbatan o’tkir burchak ostida maksimal kuch bilan) va harakat tezligiga bog’liq.

Start olish va masofa bo„ylab yugurish texnikasi – sprinterning tezlik-kuch imkoniyatlarini amalga oshirishda hal qiluvchi omildir. Sportchi startdan tezlik olishda mushaklar kuchidan hamda masofada o„zining energiya zahirasidan qanchalik oqilona, tejamkorona va samarali foydalana ololsa, natija shunga bog’liq bo’ladi. Qisqa masofalarga yugurish kinogrammalari tahlili harakatlarning umumiy manzarasini batafsil tahlil qilish imkonini beradi, qayd qilingan holatlarning izchil tahlili esa harakatlarning (burchaklar, tezlik, tana a’zolarining siljishlari) aniq miqdoriy ko’rsatkichlarni aniqlab beradi. Biroq bunday tavsiflar yetarli emas, bu ma’lumotlarning aniq hisoblab chiqilishi ham ularni amalda qo’llashga hali imkon bermaydi. Yugurishda sportchi harakatlarining tashqi ko’rinishini baholash yoki

mexanika tilida aytadigan bo’lsak, harakatlar kinematikasini o’rganish har doim ham batafsil axborot bera olmaydi. Harakat insonning asosiy harakat dvigateli – skelet mushaklarining qisqarish faoliyati natijasidir. Sprinterning yugurish texnikasini ko,,rib chiqayotib, birinchi navbatda, harakatning ichki tuzilmasini tushunish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Andris E.R., Qudratov R.Q. Yengil atletika. – T.: 1998. – 124 b.

2. Shakirjanova K.T. Yengil atletikada sport mashg’ulotlari asoslari. – T.: 2008.

5. Zelichenok V.B., Nikitushkin V.G., Guba V.P. Legkaya atletika: kriterii otbora. - M.: Terra-Sport, 2000. - 240 s.

QO‘QON XONLIGIDA MILLIY XALQ TOMOSHA SAN’ATI VA TEATRNING SHAKLLANISHI

Ochilova Muhayyo Ortiqovna

Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani 24-maktab tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qo’qon xonligida tashkil topib to hozirgi kunda Qo’qon drama teatrining shakillanib borishi tarixi tog’risidagi ma’lumotlar taxlil etilgan.

Kalit so’zlar: madaniy hayot, sozandalik, qo’g’irchoq teatri, masharabozlik, xalq tomosha san’ati,so’z sana’ti ustalari, raqqosalar.

Qadimdan Farg’ona vodiysining “Buyuk ipak yo’li”da joylashgan yirik savdo, madaniyat va ma’rifat markazlaridan hisoblangan Qo’qon o’zining 2000 yildan ortiqroq tarixida, xalqimiz uchun yuzlab madaniyat, san’at arboblari, yozuvchi shoir va xalq hunarmandlarini ytishtirib bergan ko’hna shahar hisoblanadi.

XVII asrning boshi, XVIII asrning oxiri, ya’ni 170 yil davom etgan xonliklar, so’ngi Rossiya mustamlakachiligi, ayniqsa, sho’rolar tuzumi davrida turli siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o’zgarishlar, to’s-to’polon, jangu-jadallar, hukmdorlarning o’zbek halqiga o’tkazgan zulmi, tazyiq va kamsitishlariga qaramay, Qo’qonda adabiyot, san’at va madaniyat gurkirab o’sdi va rivoj topdi. Qo’qon ahli yaratgan noyob badiiy asarlar va be’takror san’atlari bilan dunyo madaniyati va sana’ti xazinasiga salmoqli hissalar qo’shdi.

Buning asosiy sababi, Qo’qon xalqining azaldan o’z yurti va vataniga bo’lgan fidoiyligi, millati va diniga bo’lgan sodiqligi, shuningdek, o’z milliy urf-odatlari, qadriyatlari va ma’naviyatiga bo’lgan e’tiqodlari, adabiyot, san’at va madaniyatga bo’lgan cheksiz hurmat va ehtiromlaridur. Shu bois ham XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida, yurtimiz, jumladan, Qo’qon adabiy muhiti va san’atiga qiziqish juda katta bo’lgan.

XIX asr oxirlaridan boshlab shahrimizga ko’plab ilmiy tadqiqot ekspedisiyalari oqimining uzluksiz ravishda kelib turishi fikrimizning yaqqol dalilidur. Ular o’zlari olib borgan ilmiy tadqiqotlar asosida o’sha davr Turkiston xalqlari hayoti, jumladan, Qo’qon xonliklari davridagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayot haqida ko’plab ilmiy asarlar yaratganlar. Masalan, I.D.Gorchakovning 1849 yilda yozib, Sankt-Peterburgda chop ettirgan “Обозрение Кокандского ханства в нынешном его состоянии”, V.P.Nalivkinning 1886 yilda yozgan “Краткая история Кокандского ханства”, 1876 yili Rossiya bosqinidan so’ng Qo’qon xonligi tugatilib, ruslar butun Turkistonda bo’lganidek, Farg’ona vodiysida, jumladan, Qo’qonda ham o’z siyosatlari va mafkuralarini singdirish, rus madaniyatini yrli xalqlarga keng targ’ib qilishni yo’lga qo’yish maqsadida 1880 yilning o’rtalarida shaharning Yangi Chorsu qismida “Общественное собрание” binosini qura boshladilar. Bino bitgach, Qo’qonga ham, boshqa shaharlarda bo’lganidek, Rossiya, Ozarbayjon, Tatariston va Armanistonda professional sayyor teatr jamolari, sirk va turli konsert guruhlari kelib, shahar aholisiga har xil tomoshalar ko’rsata boshlashdi. Bu esa o’z navbatida Qo’qon ziyolilari va yoshlari orasida shu davrgacha o’zlariga mutlaqo notanish bo’lgan Ovrupa san’ati va madaniyatiga qiziqish uyg’ota boshlagan.

Moziyga nazar tashlasak, Qo’qon o’tmishda O’rta Osiyoda yirik madaniyat va ma’rifat markazi bo’lish bilan birga, milliy xalq tomosha san’ati rivoj topgan maskanlardan biridur. Agar o’zbek milliy san’ati dastlab qachon va qayrda barpo etilgani haqida so’z yuritadigan bo’lsak, shuni katta faxr, g’urur, iftixor va mamnuniyat bilan ayta olamizki, o’zbek milliy teatrchilik san’ati dastlab Qo’qonda tug’ilgan va rivojlangan. Uning chuqur ildizlari Qo’qon xonliklari, ayniqsa, Amir Umarxon, Madalixon va Xudoyorxonlar hukmronlik qilgan davrga borib taqaladi. Qo’qon tarixchilaridan – Mulla Qosim hojining yozib qoldirgan ma’lumotlariga ko’ra, 1840 yilda Madalixon davrida xon saroyida Bidyorshum degan san’atkor rahbarligida 10-15 chog’lik mahalliy havaskor san’atkorlardan teatr truppasi tashkil etilgan bo’lib, unda dastlab “Mudarris” nomli hajviy asar, ya’ni komediya ijro etilgan. O’zbek milliy teatrchilik san’atining paydo bo’lishi, shakillanishi va yaratilishi, o’sha davrda Qo’qonda yashab, ijod qilgan, shuningdek, Farg’ona

vodiysining yirik shahar va qishloqlaridan kelib to’plangan mashhur san’atkorlar, so’z ustalari, askiyachilar, sozanda ustalari, hofizlar, sozanda va xonandalar hamda raqqosalar bilan bog’liqdur.

XVIII asrning oxiri va XIX asr davomida Qo’qonda yashab ijod qilgan Bidyorshum, Zokir eshon, Sa’di Maxsum, Ro’zi gov, Normat qiziq, Shomat qiziq, Usmon qiziq, Rustam qiziq, Matholiq qiziq kabi mahoratli aktyorlar, Rustam hofiz, Boymat hofiz, Saydali hofiz kabi ashulachi va eng mashhur qo’shiqchilar, ayollardan Abdurahmon pari, O’g’il hofiz, Saydali hofiz kabi ashulachi va eng mashhur qo’shiqchilar, ayollardan Abdurahmon pari, O’g’il hofiz, Zuhro qiziq, Iqlim dodho, Huvaydo otin, Oynisa hofiz, Isirg’a otin kabi musiqachi va qo’shiqchilar, Hamdambachcha, Farzinxon bachcha, Oq bachcha, Cho’ntak bachcha, Kumush bachcha, Chirvon bachcha kabi raqqos va raqqosalar, birgina Qo’qon shahri emas, balki butun respublikamizda o’zbek professional teatrchiligi san’atiga ta’mal toshini qo’ygan buyuk san’atkorlar edilar.

XIX asrning ikkinchi yarmida, ya’ni Xudoyorxon xonlik qilgan davrda, ayniqsa, Qo’qon teatr san’ati yanada gurkirab o’sdi va rivoj topdi. San’atni ayniqsa, teatr san’atini insonlarga ko’rsatadigan ta’sir kuchi va tarbiyaviy ahamiyati katta ekanligini chuqur anglab ytgan Xudoyorxon, o’z hursandchiligi, ayshu ishrati, ayni zamonda g’oyaviy maqsadlarini ko’zlab, saroy-teatr san’atini har tomonlama o’stirish va rivojlantirish ishiga katta ahamiyat bergan edi. Shu maqsadda Xudoyorxon xalq ichida tanilgan va shuhrat qozongan san’atkorlarni saroyga to’plab, ulardan o’z siyosiy maqsadlari yo’lida keng va unumli foydalanib kelgan.

Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda, Qo’qonda Xudoyorxon hukmdorlik qilgan davrda, saroyda 30 kishidan iborat aktyorlar truppasi, 60 kishilik raqs truppasi va kishidan iborat xalq cholg’u asboblari ansambli faoliyat ko’rsatib kelgan.

Aktyorlar bu vositalarni sahnada ko’p hollarda o’zlari jonli ravishda ifoda qilib berishga harakat qilar edilar.

Biz uchun ahamiyatli yri shundaki, o’tgan XVIII asr oxirida Qo’qonda Ro’zi gov Nazarmat o’g’li rahbarlik qilib kelgan drama to’garagi, 1915 yilda shaharda Hamza Hakimzoda Niyoziy va Mirshohid Miroqilovlar tomonidan shakillantirilib,

asos solingan, 2010 yilda o’zining 95 yillik yubileyini nishonlagan, hozirgi Hamza nomli o’zbek davlat musiqiy drama teatri poydevori hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. I.D.Gorchakovning “Обозрение Кокандского ханства в нынешном его состоянии”, Sankt-Peterburg. 1849.

2. A.L.Kunning “Очерки Кокандского ханство”, Москва. 1877.

3. P.Nalivkin “Краткая история Кокандского ханства”, Moskva. 1886.

4. Ҳ.Бобобеков. “Қўқон тарихи”, Тошкент. 1996.

ZARAFSHON OAZISIDAGI ETNOMADANIY JARAYONLAR
(Qaraqalpoq xalqi misolida)

Hurliman Sarsenbaeva
QMU Etnografiya, etnologiya va antropologıya fakulteti magistranti

Annotatsiya: Bugun keltirilgan ushbu maqolada qaraqalpoq xalqining tarixi, etnomadaniyati, o’ziga xos urf-odatlari haqida so’z yuritilgan. Bundan tashqari qaraqalpoq shoirlarining yozgan mehnatlari, ilmiy ishlari, ularning hozirgi kungacha yetib kelgan asarlari haqida ham yoritib o’tilgan.

Kalit so’zlar: Madaniyat, urf-odat, fikr, jarayon, millat, tarbiya, bag’rikenglik.

Annotation: Today's article talks about the history, ethnoculture, and unique customs of the Karakalpak people. In addition, the writings of Karakalpak poets, their scientific works, and their works that have reached the present day have also been covered.

Key words: Culture, tradition, thought, process, nation, upbringing, tolerance.

Qaraqalpoq xalqi juda qadimiy tarixga ega hisoblanadi. Undagi urf-odatlar insonni o’ziga jalb qilmasdan qolmaydi. Qaraqalpoq madaniyati, ularning kelib chiqishi haqida so’z yuritsak: Qoraqalpog’iston noyob va boy madaniy merosga ega. Bu uning qadimiy arxeologik va me’moriy yodgorliklari, o’ziga xos xalq og’zaki ijodi, ijro san’ati, urf-odatlari va milliy hunarmandchilik faoliyatida aks etadi.

Qoraqalpog’iston hududida ko’plab arxeologik va me’moriy yodgorliklar bo’lib, ular asosan mudofaa binolari va aholi turar joylari bo’ylab qad rostlagan bir necha ajoyib qal’alar misolida o’z aksini topadi. Ularning eng qadimiysi miloddan avvalgi IV asrga (Qadimgi Xorazmning Ahamoniylar imperiyasi tarkibidan chiqishi davri) borib taqaladi. Miloddan avvalgi I asrning boshlarida Qadimiy Xorazm, Kushon imperiyasiga qadar yetib borgan madaniyatning ta’siri ostida qoldi. Buning eng yorqin misolida, ajoyib Tuproq-qal’a shahri va qal’asining qurilishini ko’rish mumkin. Bu davrga kelib, qurilishning yangicha shakllari, shu jumladan, aholi

punktlari ichidagi shakli biroz kichikroq qal’alar paydo bo’ldi. Qoraqalpoqlarning o’ziga xosligi, ularning xalq og’zaki ijodi, raqs va musiqa madaniyati va marosimlarida aks etgan bo’lib, bugungi kunda ular, xalqning ajralmas qismi hisoblanadi. Ularning eng keng ommalashgan turlariga, jiraular (xalq oqinlari) va baxshilar (qo’shiqchi-mashshoqlar) va eposlar (Alpomish va Qirq qiz va boshqalar) kiradi.

Qoraqalpog’iston ana’nalari hunarmandchilikda ham yaxshi namoyon bo’lgan. Qoraqalpoq qadimiy hunarmandchilik namunalaridagi sodda naqsh va shakllar, ularning Qadimiy va O’rta asr Markaziy Osiyo ko’chmanchilari san’ati bilan bog’liqligini ko’rsatadi. Qoraqalpoqlarning qadimiy hunarmandchiligi, ularning qadimiy turar joylari (yurtalar), zarur uy- ro’zg’or buyumlari va mavjud materiallari (yung, teri, suyak, yog’och, paxtalar) asnosida rivojlangan. XX asrning boshlarida yurtalarni bezatish uchun ayollar, bezakli matlar, rangbarang kigizlar tayyorlashgan, naqshli polos va sholchalar to’qishgan shuningdek, qiyqimlar to’qimachiligi bilan shug’ullanishgan. Barcha voyaga yetgan ayollar kashtachilik hunarini egallashgan. Erkaklar esa murakkabroq hunar turlari bo’lmish, yurtalar va musiqiy asboblarni tayyorlash, yog’och o’ymakorligi, zargarlik buyumlari, terini qayta ishlash va boshqalar bilan mashg’ul bo’lishgan. Qoraqalpog’iston noyob va boy madaniy merosga ega. Bu uning qadimiy arxeologik va me’moriy yodgorliklari, o’ziga xos xalq og’zaki ijodi, ijro san’ati, urf-odatlari va milliy hunarmandchilik faoliyatida aks etadi. Qoraqalpog’iston hududida ko’plab arxeologik va me’moriy yodgorliklar bo’lib, ular asosan mudofaa binolari va aholi turar joylari bo’ylab qad rostlagan bir necha ajoyib qal’alar misolida o’z aksini topadi. Qoraqalpoqlarning o’ziga xosligi, ularning xalq og’zaki ijodi, raqs va musiqa madaniyati va marosimlarida aks etgan bo’lib, bugungi kunda ular, xalqning ajralmas qismi hisoblanadi. Ularning eng keng ommalashgan turlariga, jiraular (xalq oqinlari) va baxshilar (qo’shiqchimashshoqlar) va eposlar (Alpomish va Qirq qiz va boshqalar) kiradi. Qoraqalpog’iston ana’nalari hunarmandchilikda ham yaxshi namoyon bo’lgan. Qoraqalpoq qadimiy hunarmandchilik namunalaridagi sodda naqsh va shakllar, ularning Qadimiy va O’rta asr Markaziy Osiyo ko’chmanchilari san’ati bilan bog’liqligini ko’rsatadi.

Qoraqalpoqlarning qadimiy hunarmandchiligi, ularning qadimiy turar joylari (yurtalar), zarur uy- ro’zg’or buyumlari va mavjud materiallari (yung, teri, suyak, yog’och, paxtalar) asnosida rivojlangan. Qoraqalpoqlar, asosan, sunniy Hanafiy mazhabiga e’tiqod qiluvchilardir. Ular 10-13-asrlarda islomni qabul qilganlar, bu davrda ular alohida etnik guruh sifatida paydo bo‘lgan. 1914-yilda qayd etilgan 553 ta masjiddan bir nechtasi Nukus, To‘rtko‘l, Xo‘jayli va Chimboyda saqlanib qolgan. Ko‘pchilik qoraqalpoq mullalari juma namozi uchun uylaridan foydalanadilar.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, qaraqalpoq xalqi mehmondo’st, totuv xalq hisoblanadi. Bir-birinbi juda qadrlashadi. Ularning marosimlari ham juda qiziqarli va insonning yuragiga kiruvchi marosimlar bo’lib nishonlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. 9-sinf O’zbekiston tarixi darsligi

2. Rajabov, T. X. I., & Ibodov, O. R. (2021). O’zbek Xalq Musiqa Merosda O’quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi. Ижтимоий Фанларда Инновация онлайн илмий журнали, 1(6), 139-145. 3. Rajabov, T. I., & Oripov, N. O. (2022). Teaching Folklore Songs Bukhara Children in Continuous Education as a Dolzarb Methodological Problem. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(2), 409-412.

4. Rajabov T. I., Rutamova M. F. The Formation of the Spiritual and Moral Qualities of Students through Folk Songs in Continuing Education is an Urgent Pedagogical Problem //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 404-408.

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI AVTOTRANSPORT VOSITALARI EXPORT HAJMINI OSHIRISH Ravshanbek Adhamov Ulug’bek o’g’li Baxodir Komilovich Saliev	4
2.	PROSPECT OF AUTUMN WHEAT WORKING WITH VARIETIES-PERIOD REQUIREMENT Kodirov Rakhmatzhan Namanovich Mukhammedov Kholiknazar Abdumutalipovich Ergasheva Odinahan Shavkatjan's daughter	9
3.	OMMAVIY TARTIBSIZLIKLARDA MILLIY GVARDIYA HARBIY XIZMATCHILARINING MUZOKARA OLIB BORISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH ASOSIY JIHATLARI Aburahmonov Azizbek Baxtiyor o'g'li	12
4.	LOGISTIKA ORQALI MAHSULOTLARNI YETKAZIB BERISH TIZIMINI BOSHQARISH Axunov Javlon Abdujalilovich Tojiboyev Sherali Imomali o'g'li	15
5.	THE ROLE OF MARKETING ACTIVITIES IN INCREASING THE POTENTIAL OF TEXTILE ENTERPRISES G’aybullayev Sarvar O’ktam o’g’li	19
6.	AHOLI O'RTASIDA ISTEMOLCHILIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA BARQAROR RIVOJLANISH Abdukarimova Roxila Abdurayimovna	26
7.	SÚWRETLEW ÓNERI SABAQLARÍNDA INTERAKTIV METODLARDAN PAYDALANÍW Qallıqlıshov SH. Paluanova Anargul	31
8.	ВЫДЕЛЕНИЕ ШТАММОВ РИЗОБАКТЕРИЙ Паттаев Акмалжон Абдусатторович	34
9.	АБУ ҲОМИД АЛ-ҒАЗЗОЛИЙ ИЛОҲИЙ-ДИНИЙ ҚАРАШЛАРИДА ТАСАВВУФ ФАЛСАФАСИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ Пўлатов Сайёдбек Ҳасанович	38
10.	КОМБИНАЦИЯЛАШГАН АРРА-ЧЎТКАЛИ ЦИЛИНДРНИ УЧДМ МАШИНАСИНИНГ ИШ УНУМДОРЛИГИГА ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ НАТИЖАЛАРИ О.Ш.Абдураҳмонов А.А.Акрамов	42
11.	СПЕЦИФИКА ПЕРЕВОДА ТУРИСТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ С АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА РУССКИЙ ЯЗЫК Тошов З.Б. Хакимова Диана Маратовна	46
12.	O’ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDA TO’SIQSIZLIKNI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK ASPEKTI M.A.Abduvaliev	50
13.	FIZIK MASALALAR TURLARI, ULARNI YECHISH METODLARI Ibodullayeva Barno Xayitovna	54
14.	SHUM BOLA - O’ZBEK ADABIYOTI DURDONASI Sulhiddinova Dilorom Husenovna	58
15.	ТАРИХ ДАРСЛАРИДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН	62

	ФОЙДАЛАНИШ МЕТОДИКАСИ Агзамова Нилуфар Файзуллаевна	
16.	SONLAR NAZARIYASINING BA’ZI ADDITIV MASALALARI TARIXI HAQIDA Boysoatova Yulduz Ismoil qizi	67
17.	ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ МАҲСУЛОТЛАРИНИ ЕТИШТИРИШДА ФЕРМЕР ХЎЖАЛИКЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ Д.Б.Яхъяева	70
18.	ИҚТИСОДИЁТНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ШАРОИТИДА ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШНИНГ САМАРАЛИ УСУЛЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ Йўлдошева Мафтуна Бахтиёр қизи	74
19.	QUALITIES OF PROFESSIONAL SKILL AND CREATIVITY IN THE ACTIVITIES OF THE EDUCATOR Yushova Feruza O’ljayevna Nazirova Gulasal Tokhirjan qizi	78
20.	FARG’ONA VODIYSINING SHIMOLIY OCH TUSLI BO’Z TUPROQLARINING SHAKLLANISHI Mahramxo’jayev Sultonxo’ja Akramxo’ja o’g’li	81
21.	MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA SAVODGA O’RGATISHNING METODIK USULLARI Tilovova Zuxra	86
22.	MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARIGA FASLLAR ALMASHINUVI HAQIDA MA’LUMOT BERISHDA OTA-ONALARNING ROLI Aliqulova Zarina Ulug‘bekovna	91
23.	ЁШЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ЎЗИГА ХОС ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ Г. Эшназарова	94
24.	AYOLLAR MURAKKAB BICHIMLI KIYIMLARIDA YENGLAR TAXLILI Tursunova Xilola Shuxratjon qizi Ruzimatova Odinabonu Abdurasul qizi	98
25.	PALTO MODELLARI SHAKLLARIGA GAZLAMA XUSUSIYATINING AHAMIYATI VA QOMATGA JOYLASHUVINING TAXLILIY YECHIMLARI Tursunova Xilola Shuxratjon qizi Ruzimatova Odinabonu Abdurasul qizi	101
26.	TUPROQSHUNOSLIK YO‘NALISHINING I VA II KURS TALABALARI UCHUN FAN BO‘YICHA IZOHLI LUG‘ATI Yuldasheva Feruzabonu Yuldashevna Mahramxo’jayev Sultonxo’ja Akramxo’ja o’g’li Mamadaliyev Alijon Axmadjon o’g’li	106
27.	DAVLAT BYUDJETI G‘AZNA IJROSINI TASHKIL ETISHDA G‘AZNACHILIKNING MAVQEI VA AHAMIYATLI JIHATLARI Shahlo Shodmonkulova Olimjon qizi	111
28.	QUR’ON VA HADIS-MUSULMON MUOMALA MADANIYATINING DINIY AXLOQIY ASOSI SIFATIDA Ermatova Munojat Mahammadjonovna	114
29.	GRAFOLOGIYA TA’LIMOTINING VUJUDGA KELISH TARIXI Xolqo’ziyeva Mohira Abdurasulovna	118
30.	CHET TILINI MADANIYATIGA BOG'LANGAN HOLDA MUSTAQIL O'RGANISHNING AYRIM SAMARALI USULLARI VA AFZALLIKLARI Bozorboyeva Ominaxon Alijon qizi	121
31.	TA’LIM JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK	125

	TEXNOLOGIYALARNING O’RNI Fayziyeva Sayyora Otamurodovna	
32.	TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA O’QUVCHILARINING KASBGA MOSLASHISH KO’NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH Usmanova Shoira Baxriyevna	129
33.	TARBIYALANUVCHI HAYOTIDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI HAMDA OILA HAMKORLIGINING AHAMIYATI Ergasheva Fazilat Xonim qizi	133
34.	MAXMUR VA QO‘QON ADABIY MUHITI Jamoliddin Temirov Elmirza o‘g‘li	136
35.	MUSTAQIL O`RGANUVCHI O`QUVCHILARNING TILNI O`ZLASHTIRISHINI YANADA YAXSHILASH UCHUN TURLI XIL O`QITISH USULLARINI QO`LLASH Yahyoyeva Sarvinoz Xayotjon qizi	141
36.	KORREKSION (MAXSUS) PEDAGOGIKANING ASOSIY VAZIFALARI, TAMOYILLARI VA METODLARI Nomozova Muborak To‘lqin qizi	144
37.	TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA BOSHLANG’ICH SINF O’QUCHILARNI TANQIDIY FIKRLASHGA O’RGATISH Imomova Nasiba Xurramovna	147
38.	TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING ASOSIY PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI Niyozova Dilrabo O’tkurovna	150
39.	FERROTSEN ASOSIDA SINTEZ QILINGAN BIOSTIMULYATORLAR VA ULARNING AHAMIYATI Otaxonov Qobiljon Qahramonovich Azimova Muslimaxon Ulug'bekqizi	154
40.	XORIJIY TILLARNI O’QITISHDA YANGICHA YONDASHUVLAR Muzrapova Dilafruz Sunatovna	157
41.	OROL BO‘YI REGIONIDA TUPROQNING BIOLOGIK UNUMDORLIGINI OSHIRISH VA CHORVA MOLLARIGA OZUQABOP O‘SIMLIKLAR ETISHTIRISH Allanazarov Babaxan Xojamuratova Gúlmira Elubaeva Raya Aytimbetov Asamatdiyn	161
42.	THE ROLE OF MOTIVATION IN THE PROCESS OF TEACHING AND LEARNING FOREIGN LANGUAGE Yo`ldosheva Shoira	165
43.	YOSHLAR AXLOQIY-ESTETIK MADANIYAT KAMOLOTI Sadikova Roza Ismailovna	170
44.	DAST TO’QIMACHILIK MAXSULOTLARINI VUJUDGA KELISHI VA ULARNING TURLARI Tojimamatov Nuritdin	174
45.	ТАКОМИЛЛАШТИРИЛГАН БАРАБАНГА БИРИКТИРИЛГАН ҚОПҚОҚА ДОН УЮМИ БОСИМИНИНГ ТАЪСИРИ Собиров Холхўжа Аббозович Хакимов Миролим Муродилжонович	178
46.	UCHINCHI RENESSANS YOSHLARIDA ILMIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH MEZONLARI Tursunova Shakhnoza Ashrafovna	183

47.	YOSHLARDA INNOVATSION YONDASHUVNI SHAKLLANTIRISH Kuryazov Muzaffar	190
48.	MTT TARBIYALANUVCHILARIDA DIALOGIC NUTQNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI Axmedova Dilyora Baxtiyor qizi	196
49.	ЗНАЧЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ Акимбекова Хакима Тургуновна	200
50.	ЕНГИЛ САНОАТ ТАРКИБИДАГИ ТЎҚИМАЧИЛИК МАҲСУЛОТЛАРИНИНГ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ТАХЛИЛИ Сулайманхонова Нафруза	204
51.	MAHALLIY BUDJETLARNI QO’SHIMCHA MANBALARDAN FOYDALANISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH Bobobekov Soxib Bobobek o‘g‘li	208
52.	ХЎРАКИ НЎХОТНИНГ ЛИНИЯЛАРНИ ЎРГАНИШДАГИ ТАБИИЙ-ИҚЛИМ ШАРОИТЛАРИ ТАВСИФИ Зоҳиджон Зафаржон ўғли Мўминов Элер Мусажонвич	211
53.	JAHONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING USTUVOR YO’NALISHLARI Berdiyev Ilhom Zokirovich	216
54.	KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING DIQQATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH BO’YICHA TAVSIYALAR Esbergenova Biybiayim Kaypnazarovna	219
55.	BUDJET XARAJATLARINI SMETA ASOSIDA REJALASHTIRISH Kumakov Rasul Zayniddin o’g’li	224
56.	JAHONDA NORASMIY IQTISODIYOT XUSUSIYATLARI Asqarov Ismatillo Oltiboyevich	226
57.	МАЛИК НАБИЕВ – ТАСВИРИЙ САНЪАТ ЖАНРЛАРИНИНГ МОҲИР ТАРҒИБОТЧИСИ Феруза Ҳасанова Раҳмоналиевна	229
58.	INGLIZ TILI DARSLARIDA O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH Nizamatdinova Gularom Tilewbayevna	236
59.	РЕСПУБЛИКАМИЗ ТИКУВ ТРИКОТАЖ КОРХОНАЛАРИДА ЭКСПОРТБОП МАҲСУЛОТЛАР ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИ Юлдашев Самад Нормўминович	239
60.	IMPROVING THE METHODOLOGY OF FORMATION OF INFORMATION AND COMMUNICATION COMPETENCE IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL PREPARATION OF FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS Urinboyeva Feruza Zokir qizi	243
61.	UNABI MEVASINI SIFATLI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI Omonboyev. D. O. G‘aniyeva. N. A. Tog‘ulova. S. X.	247
62.	ЛЕЙКОЗ БИЛАН ОҒРИГАН БЕМОРЛАРДА ОЛИКИМЁТЕРАПИЯ ЖАРАЁНИДА ТЕМИР МЕТАБОЛИЗМИНИНГ ДИНАМИКАСИ Бўриев Ўткир Сулейманова Д.Н.	250
63.	МЕҲНАТ РЕСУРСЛАРИНИ БОШКАРИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ВА УЛАРДАН УНУМЛИ ФОЙДАНИШ Султонов Иброхим Султон ўғли, Машрапов Шохбозбек Маҳамматжон ўғли	252
64.	BYUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY AKTIVLAR HISOBIGA OID MASALALAR	258

	Sh.Sh.Odilbekov	
65.	КОРХОНАЛАРДА КОРПОРАТИВ БОШҚАРУВ ТИЗИМИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ Султонов Иброхим Султон ўғли, Машрапов Шохбозбек Маҳамматжон ўғли	262
66.	BYUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY AKTIVLAR VA KASSA MUOMALALARI NAZORATI Sh.Sh.Odilbekov	268
67.	ИНГИЧКА ТОЛАЛИ ҒЎЗАНИНГ ЯНГИ НАВЛАРИГА ЭКСТРЕМАЛ ИҚЛИМ ТАЪСИРИНИ КАМАЙТИРИШГА ДОИР ТАДҚИҚОТЛАР Худойшукров Шодмон Жайловович	272
68.	АМИР ШОҲМУРОД ДАВРИДА БУХОРО АМИРЛИГИДА ИЛМ-ФАННИНГ РИВОЖИ Муҳайё Умарова	276
69.	MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA FAOLIYAT MARKAZLARINI SAMARALI TASHKIL QILISH Xolmurodova Farog‘at Jumanazarovna	281
70.	SPECIFIC PATHOMORPHOLOGY OF LIVER TISSUE IN NEONATAL SEPSIS Allaberganov Dilshod Shavkatovich Zubtiyev Sardor Uktamovoch	284
71.	O‘QITUVCHI OBRAZI PEDAGOGIK MADANIYATNING MUHIM TARMOG‘I SIFATIDA Doniyorova Gulbahor Bobir qizi	287
72.	O‘ZBEK XALQ ERTAKLARI TADQIQI YUZASIDAN Raximov Sarvarjon Akramjon o‘g‘li	291
73.	KONTENTGA ASOSLANGAN YONDASHUV ASOSIDA LEKSIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH JARAYONIDAGI QIYINCHILIKLAR TIPOLOGIYASI VA BARTARAF ETISH IMKONIYATLARI Bakirova Xilolahon Botiralilyevna	300
74.	ПАХТА ТОЛАСИНИ ТОЗАЛАШ ЖАРАЁНИ НАЗАРИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ ШАРҲИ Абдурахимов Комилжон Каримович Саримсаков Олимжон Шарифжанович	314
75.	BERDAQ ShÍǴARMALARÍNÍŃ IZERTLENIW JAǴDAYLARÍ Tleumuratova N.M.	321
76.	ЧИГИТ САРАЛАШ ҚУРИЛМАСИДА ФРАКЦИЯЛАРГА АЖРАТИШ ТАДҚИҚОТЛАР ТАХЛИЛИ Исаев Шахбоз Шавкатжонович Инамова Мафтуна Дедамирза қизи Азимов Нуриддин Усмонжонович	324
77.	ONA TILI SAVODXONLIGI VA MATEMATIKA FANI UYG`UNLASHUVIGA OID TOPSHIRIQLAR MAZMUNI G`oyibnazarova Nargiza Raximjonovna	330
78.	KO’CHIRMA GAPLAR MAVZUSINI O’TISHDA ILG’OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH Kuvatova Nafisa Zayerjonovna	334
79.	РАҚАМЛИ МАРКЕТИНГ ШАРОИТИДА КОРХОНАЛАР ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ Файзуллаев Шуҳрат Шерали ўғли	340
80.	MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG’RIKENGLIK BIZNING NIGOHIMIZDA Beketova Gulayim Amangeldiyevna	344
81.	O’QUVCHILARNING PAST O’ZLASHTIRISHIGA SABAB BO’LADIGAN	347

	OMILLAR VA ULARGA QO’LLANILADIGAN TRENING MASHG’ULOTLARI Ataniyazova Guljaxan Mambetniyazovna	
82.	BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH Norbo‘tayeva Zarifa Faxriddinovna	351
83.	CHORVA MOLLAR PARVARISH QILINADIGAN BINONI ISITISHDA TUPROQ OSTI ISSIQLIK AKKUMULIYATOR QUVURI ORQALI BERILADAIGAN ISSIQLIK MIQDORINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH BILAN TADQIQ ETISH B.N.Sattorov, B.Sh.Bozorov	354
84.	TO`G`RI CHIZIQQA NISBATAN SIMMETRIK ALMASHTIRISH Rahmonova Shodiyona Toshpo‘latovna	357
85.	DORIVOR O’SIMLIKLARNING AHAMIYATI Norbo‘tayeva Hafiza Ismatovna	360
86.	BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MILLIY DASTUR ASOSIDA O’QITISHNING AFZALLIKLARI Yo‘ldosheva Marifat Nurmamatovna	362
86.	QISQA MASOFALARGA YUGURISH TEXNIKASI VA UNING TAHLILI Polvonova Dilafruz Jumayevna	366
87.	QO‘QON XONLIGIDA MILLIY XALQ TOMOSHA SAN’ATI VA TEATRNING SHAKLLANISHI Ochilova Muhayyo Ortiqovna	369
88.	ZARAFSHON OAZISIDAGI ETNOMADANIY JARAYONLAR (Qaraqalpoq xalqi misolida) Hurliman Sarsenbaeva	373

Eslatma! Konferensiya materiallari to‘plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

Mas’ul muharrir

I.I.Abdumannonov

Nashrga tayyorlovchi

R.I.Abdullayev

““Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi 7-sonli respublika ilmiy konferensiyasi materiallari to‘plami, 30-mart, 2023-yil. – Farg‘ona viloyati: talqinvatadqiqotla.uz – 382 bet.